


11  
11  
M. HAMDAMOVA

# MA'NAVİYAT ASOSLARI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**M. HAMDAMOVA**

# **MA'NAVIYAT ASOSLARI**

**(Barkamol avlodni tarbiyalashda uzluksiz ta'limga  
insonparvarlashtirish texnologiyasi)**

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi  
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan**

**TOSHKENT – 2008**

**M. Hamdamova. Ma'naviyat asoslari (Barkamol avlodni tarbiyalashda uzlucksiz ta'limni insonparvarlashtirish texnologiyasi).** T., «Fan va texnologiya», 2008, 224 bet.

Biz tanlagan ushbu mavzu mazkur masala bo'yicha ilgari surilgan fikr-mulohazalarini va tavsiyalarni ta'lim-tarbiya tizimiga joriy etish, ijtimoiy-gumanitar fanlar mazmuniga kiritish yo'l-yo'rqlarini o'zida ifoda etadi. Tarbiyaviy muammolarni yechimini hal qilishda milliy tarbiyani yuksaltirish, ma'naviyat va mafkuramizni yuksak bosqichlariga ko'taradigan milliy g'oya, mafkura g'oyalarini rivojlantirishda ta'lim muassasalarini faoliyatlarini ham yuksaltirishga katta e'tibor berish lozim. Shunga ko'ra, biz ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda ta'limni tarbiya bilan uzviy bog'lash va talaba-yoshlarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash usullaridan keng foydalanish maqsadida ushbu o'quv qo'llanmani yaratishni maqsad qildik.

\* \* \*

Технология гуманизации непрерывного образования в воспитании гармонично развитого поколения. Данная тема направлена на совершенствование национального воспитания, формирования духовно развитой личности. Задача, которой требует полноценной реализации принципа единства обучения и воспитания. В пособии мы представляем методические рекомендации по обеспечению единства обучения и воспитания в преподавании социально-гуманитарных дисциплин. Все рекомендации имеют одну цель – повышение качества воспитания подрастающего поколения в духе гуманизма.

\* \* \*

Technology of humanizing of the continuous education in upbringing of harmoniously developed generation. Perfection of national upbringing, formation of spiritually developed person is the major task of system of the continuous education pefgormance of this task demands high-grade realization of the principle of unity of the upbringing and education. In this manual we present some methodical recommendation for realization of the principle. All recommendations have one purpose-to increase the quality of upbringing of the youth generation in a spirit of humanism.

**Taqrizchilar:** *M.Haydarov – ped.f.d.,prof;*  
*M.Tojiyev – ped.f.d;*  
*M.F.Lafasov – f.f.n.,dots.*



**ISBN 978-9943-10-126-5**

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2008.

Barkamol avlodlar orzusi bor bo'lsin,  
Ma'naviy kamolotga boy bo'lsin!  
Insoniy fazilatlar elga yor bo'lsin,  
Ezgulik va mustaqillik abadiy bo'lsin!

*M.Z.Hamdamova*

## I. KIRISH

### 1.1. Uzluksiz ta'lif tizimini insonparvarlik yo'nalishida shakllantirishning asosiy maqsadi va vazifalari

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lif to'g'risida»gi Qonunining 3-moddasida, ta'lif sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplaridan biri ta'lif va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligini, ta'lifning uzluksizligi va izchilligini ta'minlash dolzarb masalalardan biri ekanligi ta'kidlangan.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida: «Uzluksiz ta'lifni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplaridan biri ta'lifning insonparvarlashuvidir. *Ta'lifning insonparvarlashuvi* – inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta'limga nisbatan bo'lgan turli-tuman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muhit o'zaro munosabatlarining uyg'unla-shuvidir»<sup>1</sup>, – deb ta'kidlangan.

Uzluksiz ta'lif-tarbiya tizimini takomillashtirish tadbirlari – bu tizimni demokratik va insonparvarlik yo'nalishlarida qayta qurish bilan ham bog'liq. Chunki insonparvarlik g'oyalari va tamoyillari milliy g'oya bilan chambarchas

<sup>1</sup> Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. «Sharq» nashriyoti, Toshkent, 1997, 44-bet.

bog‘liq bo‘lib, insonning moddiy va ma’naviy farovonligini, erkin, mustaqil, ijodiy faoliyatini, kishilarning o‘zaro hamkorligi, do‘sligi, hamjihatligi, birdamligi va bir-biriga g‘amxo‘rligi kabi eng yuksak, ilg‘or insoniy fazilatlarni o‘zida mujassam etadi. Odillik, halollik, poklik, to‘g‘rilik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, odoblilik, vijdonlilik, imone‘tiqodlilik, mehmondo‘slik, kantarlik, or-nomusni, sharmhayo va iffatni e’zozlash, tinchliksevarlik, oljanoblik, el-yurt manfaatini o‘z manfaatidan ustun qo‘yish kabi yuksak insoniy fazilatlar ham insonparvarlikning namoyon bo‘lishidir. Bu esa o‘z-o‘zidan, uzlusiz ta’lim-tarbiya tizimini insonparvarlashtirish ehtiyojini kun tartibiga qo‘yadi. Ushbu ehtiyoj mazkur masala bo‘yicha ilgari surilgan fikr-mulohazalarni va tavsiyalarni ta’lim-tarbiya tizimiga joriy etish, ijtimoiygumanitar fanlar mazmuniga kiritish yo‘l-yo‘riqlarini o‘zida ifoda etadi. O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya tizimini insonparvarlashtirish, umuman, jamiyatni insonparvarlashtirishning ajralmas tarkibiy qismi ekanligi ta’kidlanadi va bu borada amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlardan biri – mazkur tizimni insonparvarlashtirish yo‘l-yo‘riqlari va maqsadlari ochib ko‘rsatiladi.

Bu muammoni hal qilishda uzlusiz ta’lim tizimining o‘zi nima? Uning insonparvarlik yo‘nalishi, insonparvarlashtirish nima? – degan, savol tug‘ilishi tabiiy hol.

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuniga muvofiq *ta’lim* – bu, inson, jamiyat, davlat manfaatlari yo‘lidagi aniq maqsadga yo‘naltirilgan jarayondir. Ta’lim deganda, o‘quvni yuzaga keltiradigan tashkiliy va barqaror aloqa jarayoni tushuniladi. Xullas, ta’lim avvalo, o‘quvchilarda bilimlar, uquvlar va malakalar tizimlari shakllanishida ifodalananadigan ta’lim jarayonining nisbiy natijasidir, shuningdek, tarbiya, o‘z-o‘zini tarbiya, ta’sir

jarayoni, ya’ni inson qiyofasini shakllantirish jarayoni: bunda bilimning hajmi emas, balki uni shaxsiy sifatlar, o‘z bilimlarini mustaqil tasarruf etish uquvi bilan birlashtirish asos hisoblanadi.

**Ta’lim berish** – o‘qitishning turi, o‘quvchilarga bilimlar, o‘quv va malakalar majmuini berishga va ularni o‘qitish jarayonida tarbiyalashga yo’naltirilgan o‘qituvchining maxsus faoliyati.

**Ta’lim tizimi** – ta’limning mazmuni, shakli va usullarini belgilovchi qoidalar (tamoyillar) asosiy ketma-ketlik, oddiydan murakkabga qarab borish tizimi.

**Uzlucksiz ta’lim** – inson butun hayoti mobaynida olishi mumkin bo‘lgan ta’lim. Uzlucksiz ta’lim deganda, uning rivojlanishi tugamasligi, tadrijiy bog‘liq bo‘lgan bir necha bosqichlarga bo‘linishi, har bir bosqich yangi, ancha yuqori darajadagi bosqichga o‘tish uchun imkon yaratishi tushuniladi.

«**Uzlucksiz ta’lim** – malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta’limning barcha turlarini, davlat ta’lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko‘rsatish muhitini o‘z ichiga oladi: **fan** – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi; **ishlab chiqarish** – kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo‘yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatidan ta’minlash jarayonining qatnashchisi»<sup>2</sup>.

**Uzlucksiz ta’lim tizimi** – yagona ta’lim tizimi, ta’limni shaxs ijodiy imkoniyatlarining muntazam rivojlanishini ta’minlovchi bir umrlik jarayon sifatida talqin etiladi va uning ma’naviy dunyosini har tomonlama boyitadi. Tizim shaxsning

---

<sup>2</sup> Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. «Sharq» nashriyoti, Toshkent, 1997, 42-bet.

rivojlanish jarayonini, «pillapoya» tarzida uning qaror topishining imkonini beradi, «pillapoya»ning har bir pog‘onasi insonning o‘z ta’lim jarayonida yanada yuqori darajada erishishga tomon tadrijiy harakatini anglatadi.

**Inson** – turmush rivojlanishi oliy bosqichi bilan singib ketgan mavjudot, ijtimoiy-tarixiy faoliyat subyekti. **Inson** tizim hisoblanadi, bunda jismoniy va ruhiy, jinsiy asoslanganlik va tan olingan shakllanganlik, tabiiylik, ijtimoiy va ma’naviylik yaxlit bir butunlikni hosil qiladi. **Inson** bir qator fanlarning o‘rganish obyektidir: masalan, antropologiya, tafakkur falsafasi, odam anatomiyasi, psixologiya, sotsiologiya, pedagogika va boshqalar.

**Insoniylik** (gumannost lotincha humanus-insoniy) – insonni sevish, insonning qadr-qimmati, iztiroblarini hurmat qilish; hamkorlik, birga ishtirok etish, yordamlashish jarayonidagi muloqot va bu faoliyat jarayonida amalga oshiriladi. Insoniylik bilan kelisha olmaydigan har qanday faoliyat g‘ayriaxloqiy hisoblanadi, hattoki, «insoniyatga qarshi jinoyat» tushunchasi ham paydo bo‘lgan.

**Insoniylashtirish** – jamiyatda insonparvarlik amallarini kuchaytirish, umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirish, muloyimlik va insoniylik bilan uyg‘unlashgan holdagi tugallangan estetik shaklga ega bo‘lgan insoniy qobiliyatlarni yuqori madaniy va axloqiy darajada rivojlantirish demakdir.

**Insonparvarlik** («inson» arabcha; «parvar» fors-tojikcha; «lik»-o‘zbekcha ko‘plik qo‘srimchasi bo‘lib – kishiga g‘amxo‘rlik, gumanizm) odamzodning qadri, uning erkinligi qobiliyatları har tomonlama nomoyon bo‘lishi uchun kurashish, insonning baxt-saodati, teng huquqliligi, adolatli hayotini ta’min etishga intilish, insoniylikning barcha tamoyillari yuzaga chiqishiga shart-sharoitlar yaratish ma’nosini anglatadi.

Buyuk adiblarimizning fikricha, *insonparvarlik* – insonning shari, vijdoni va imonning mahsuli hisoblanadi.

*Insonparvarlik* g‘oyalari, baxt-saodat vaadolatga erishish orzu-havaslari, xalq og‘zaki ijodiyotida, adabiyotda, diniy falsafiy, pedagogik ta’limotlarda uzoq o‘tmishdan beri o‘z aksini topib kelmoqda.

*Insonparvar ta’lim* – umuminsoniy qadriyatlar, insonning hayoti va sog‘lig‘i, shaxsning erkin rivojlanishi ustuvorligi tamoyillariga asoslangan ta’limdir.

O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya tizimini insonparvarlashtirish, umuman, jamiyatni insonparvarlashtirishning ajralmas tarkibiy qismidir. Bu borada amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirdan biri uzlusiz ta’limni insonparvarlashtirishning asosiy tamoyillarini ishlab chiqishdir. Bu esa ta’lim-tarbiya tizimini insonparvarlashtirish uni qayta qurishning eng asosiy va markaziy muammolaridan biridir.

Uzlusiz ta’lim-tarbiya tizimini insonparvarlashtirish keng dunyoqarashli va ma’rifatli, aql-idroki mukammal, ma’naviy-axloqiy jihatdan barkamol, ruhan tetik, o‘z mamlakati va uning jahon hamjamiyatida tutgan o‘rni va rolida o‘zining fuqarolik mas’uliyatini to‘g‘ri va to‘la anglab yetgan imonli, komil inson shaxsini tarbiyalash maqsadlaridan kelib chiqadi.

Ta’limni insonparvarlashtirishning markaziy masalasi yoshlarda yuksak axloq va fuqarolik sifatlarini shakllantirish, insonning ornomusi, sha’ni va mas’uliyati kabi tuyg‘ularni, vatanparvarlikni, ma’naviy-ruhiy fazilatlarni tarbiyalashdan iboratdir.

Ta’limni insonparvarlashtirish ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik vazifasini amalga oshirishning muhim omillaridan biridir. U tashkiliy, uslubiy, huquqiy-me’yoriy, pedagogik-psixologik tadbirdarni o‘z ichiga qamrab oladi. Bunday tadbirdar majmuasi insonparvarlik g‘oyalaring va ta’lim-tarbiyadagi gumanitar vosita va uslublarning tabiiy-

ilmiy va texnik bilimlar doirasiga kirib borishni ta'minlashga va shular orqali tafakkurning texnokratik usulini yengib o'tish va bartaraf qilishga qaratiladi.

Ta'limni insonparvarlashtirishning bosh maqsadi – ilmiy-texnik bilimlarning gumanitar ta'lim bilan chambarchas birligini va o'zaro bog'liqligini ta'minlashdan iboratdir.

Uzluksiz ta'limni insonparvarlashtirish ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni insonning ijtimoiy intizomi va uning ixtisoslik bo'yicha mehnat faoliyatining ajralmas va tabiiy belgilariga, xususiyatlariga aylantirishdan iborat bo'lib, bo'lajak mutaxassisning insonparvarlik sifat va fazilatlarining ustuvor bo'lishini ta'minlashga qaratiladi. Ta'limni insonparvarlashtirish rejalar gumanitar turkumdagi fanlarning, shu jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy fanlarning insonparvarlik xususiyatlaridan ham ta'lim-tarbiya jarayonlarida unumli va samarali foydalanishni keng yo'lga qo'yish bilan birga, bu turkumga kirmagan fanlar, ya'ni fizika, kimyo, biologiya, matematika, shuningdek, texnika fanlari va umuman, talim tizimida o'tiladigan barcha fanlarning ham tarbiyaviy tamoyillariga, insonning ma'naviy-axloqiy, ruhiy jihatdan takomillashtirish imkoniyatlariga alohida ahamiyat va e'tibor qarashni, ularning insonparvarlik xususiyatlarini kengroq ochib, tahlil etib ko'rsatib berishni, talaba-yoshlarni o'qitish orqali ma'naviy-ruhiy jihatdan ham tarbiyalashni maqsad qilib qo'yadi. O'quv dasturlarining, darslik va qo'llanmalarining yangi avlodini yaratishda, ta'limning texnik vositalaridan foydalanishda, ular uchun maxsus o'quv dasturlari tayyorlashda ta'limni gumanitarlashtirishning mana shu tomonlariga, ya'ni yosh mutaxassislarning ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol shaxs sifatida takomillashuvida har bir fanning ishtirokini eng yuqori darajada ta'minlashga katta e'tibor berilishi zarur.

Sho‘rolar davridagi eski ta’lim tizimining asosiy qusurlaridan biri, uning jamiyat real hayotidagi o‘tmish ajdodlar tomonidan bunyod etilgan madaniy merosdan, asl qadriyatlardan, ijtimoiy ong taraqqiyoti darajasidan ajralib qolganligidir. Bu borada ijtimoiy safsatabozlik ham ta’limtarbiya ishlariga katta ma’naviy zarar yetkazadi: rasmiy doiralarda tantanali ravishda e’lon qilingan va iftixor deb ta’kidlangan narsalar bilan haqiqatan mavjud bo‘lgan narsalar orasidagi katta ziddiyat borligi aniq-ravshan ko‘zga tashlanar edi.

Ta’limni insonparvarlashtirish tadbirlari talaba-o‘quvchilarning o‘z ixtisosliklari bo‘yicha bilimlari orqali ham, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy hamda gumanitar fanlar orqali, umuman, madaniy, ma’naviy-axloqiy me’yorlar hamda qadriyatlarni o‘zlashtirish orqali shakllangan ko‘nikma va malakalarida samimiylilik, haqgo‘ylik, odamgarchilik, imone’tiqod kabi sof insoniy sifat va fazilatlarning ustun bo‘lishini ta’minlashga, bo‘lajak mutaxassisning o‘z kasb-hunari bo‘yicha faoliyatida el-yurtning sihat-salomatligi, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy rivoji to‘g‘risida, mamlakatning tinchligi va osoyishtaligi, ekologik jihatdan tozaligi, obodonchiligi, vatanning taqdiri va kelajagi haqida g‘amxo‘rlik qilishga o‘rganishi va o‘zining bular uchun ham mas’ul ekanligini chuqur his etishini tarbiyalashga qaratilgandir.

Ta’limni insonparvarlashtirish yoki gumanitar ta’limning bosh tamoyili shaxsning intellektual, jismoniy va ma’naviy-axloqiy qobiliyatlarining shakllanishi, taraqqiy etishi va o‘zini namoyon qilishi uchun muayyan sharoitini yuzaga keltirishni taqozo etadi, tabiiy-ilmiy fanlarga bo‘lgan texnologik munosabat va to‘sqliarni yengib o‘tishga yordam beradi; fantexnika va ishlab chiqarishning qaysi tarmog‘ida faoliyat ko‘rsatishidan qat’i nazar har bir mutaxassisning

madaniyatidan, badiiy-estetik, san'at va gumanitar sohalardan, jamiyatning ma'naviy-axloqiy negizlaridan, boshqa kishilarning va umuman, jamiyatning manfaatlaridan ajralib qolmaslik va aksincha, ulardan muntazam ma'naviy oziq olish, xabardor bo'lish mas'uliyatini ham oshiradi.

Ixtisoslik fanlari va ilmiy-texnik bilimlar bilan gumanitar ta'limning aloqalarini mustahkamlash, ta'lim-tarbiya tizimlarida ulardan birgalikda samarali foydalanish vazifalarini, mustaqil O'zbekistonning hozirgi sharoitda hayotning o'zi kun tartibiga ko'ndalang qilib qo'ydi: respublikaga ko'plab yangi tipdag'i kadrlar kerak. Ular faqat xalq xo'jaligi talablarini qondirish uchungina emas, balki O'zbekistonning jahon jamiyatiga qo'shilishi bilan bog'liq masalalarni bajarish, uning xalqaro madaniy va xo'jalik aloqalarini o'stirish va mutahkamlash uchun ham zarur. Ta'lim va tarbiyada millatning madaniy an'analariga umumbashariy qadriyatlarga murojaat etish ham, shakllangan me'yorlar va qarashlarni qayta anglashga bo'lgan xatti-harakati ham ana shundandir. Eskirgan mafkuraviy qoliplar va ko'rsatmalardan voz kechish, erkin, ijodkor va tashabbuskor shaxsni tarbiyalab yetishtirish, talaba-o'quvchilar ongini ijtimoiy safsatabozlik, milliy xurofotlardan xalos etish yosh avlod ta'limi va tarbiyasi oldida turgan asosiy vazifalardandir.

Hozirgi kun fan, madaniyat va ta'lim sohalarida ham katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda, islohotlarning sur'atlari tobora jadallahmoqda. Biroq axborotlar asri talablariga muvofiq o'zgarayotgan hayotimiz ehtiyojlari jamiyat oldiga yangidan-yangi vazifalarni ko'ndalang qilib qo'ymoqda.

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun ta'lim va tarbiya tizimining barcha bosqichlarini Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi asosida isloh qilish tadbirlari ko'rilmoxda. Hozirgi kun bu borada qilinadigan ishlarning birinchi, ikkinchi bosqichi

yakunlanib, uchinchi bosqich bo'yicha ishlar amalga oshirila boshlandi.

Shaxsning, insonning ma'naviy, ruhiy kamoloti ta'minlanmasa, jamiyatning moddiy-texnik taraqqiyoti bir tomonlama bo'ladi va kutilgan natijani bermaydi. Ruhiy ibtido yoshlari qalbini yuksak madaniyat va axloqiy fazilatlar bilan boyitishga, ularning, umuman, millatning ruhiy-ma'naviy rostlanishiga yordam berishi kerak.

Madaniyat gumanitar ta'lif va tarbiyaning muhim qismlaridan biri sifatida talaba-yoshlari ruhiy olamining shakllanishida, hayotiy pozitsiyalarning mustahkamlanishida, ularning ijtimoiy faolligining o'sishi va ixtisoslik bilimlari hamda umumnazariy tayyorgarligining oshishida asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Insoniyat tomonidan to'plangan behisob madaniy boyliklardan bahramand bo'lish, ularni o'zlashtirish yoshlarda gumanistik dunyoqarashning vatanparvarlik, vijdon, e'tiqod, or-nomus, sha'n, mardlik, jasorat, oliyhimmatlilik, fidoiylik, insonparvarlik kabi qadriyatlarning shakllanishiga yordam beradi. Yoshlarda bunday sifat va fazilatlarni tarbiyalash maorif va oliy ta'lif tizimida ustuvor ahamiyatga ega bo'lishi kerak. Zero, Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, siyosatda, iqtisodda va ma'naviyat sohasidagi islohotlarning taqdiri o'sib kelayotgan yosh avlodga bog'liq.

Uzluksiz ta'lif tizimining barcha talaba-o'quvchilarini Respublikamizning tarixiy shaharlariga, diqqatga sazovor joylariga muntazam ravishda sayohatlar uyushtirib turish, muzeylarga, ko'rgazmalarga, teatrlarga, konsertlarga maxsus jadval tuzib ommaviy ravishda olib borish, ta'lif muassasalarida ularning mehnat va urush faxriylari bilan, zamonamiz qahramonlari bilan, san'atkorlar, shoir-yozuvchilar, shifokorlar, huquq-tartibot idoralarining mas'ul

xodimlari, mahalla oqsoqollari, ota-onalar bilan davra suhabatlarini, uchrashuvlar tashkil etish – bular hammasi yoshlarda milliy iftixor, vatanparvarlik tuyg‘ularini tarbiyalash bilan birga ularning dunyoqarashini yanada kengaytirishga, boyitishga umuminsoniy saviyasini oshirishga yordam beradi. O‘quv yurtlarida talabalarning qiziqishlari bo‘yicha tashkil etilgan turli xil to‘garaklar, klublar, sport seksiyalari, kasbhunar sexlari ham talaba-yoshlarning uyg‘un rivoji uchun yaratilayotgan sharoitlardandir.

O‘zbekiston mustaqillikka erishishi munosabati bilan uning jamiyat tizimida sifat jihatdan tub o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Respublikada amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar jamiyatning tubdan yangilanishi, qayta qurilishi uchun muhim zamin yaratadi, shu jumladan, madaniy sohalarda ham, ta’lim-tarbiya tizimida ham keng islohotlar o‘tkazish imkoniyatlari vujudga keldi.

Mustaqil O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida ta’limning insonparvarlik va tarbiyaviy vositalariga, jahon ta’lim tizimining ijobiy tajribalari va yutuqlariga diqqat-e’tibor kuchaydi.

Shunga ko‘ra, ayrim olib borilgan tadqiqotlar: N.E.Jumayevaning<sup>3</sup> hamda O.N.Ibodullayevaning<sup>4</sup> nomzodlik dissertatsiyalarida insonparvarlik g‘oyasini shakllantirishning pedagogik asoslarini va ta’limni insonparvarlashtirishda o‘qitish tamoyillari va metodlarining o‘zaro aloqadorligini ifodalab berishgan.

Ta’limni (gumanitarlashtirish) insonparvarlashtirish

<sup>3</sup> N.E.Jumayeva Umumiyl o‘rta ta’limni insonparvarlashtirishda o‘qitish tamoyillari va metodlarining o‘zaro aloqadorligi. 13.00.01. ped.f.n.il.dar. olish uchun yoz.diss. Qarshi, 2005. 162 b.

<sup>4</sup> O.N.Ibodullayeva Kichik yoshdag‘i o‘quvchilarda insonparvarlik g‘oyasini shakllantirishning pedagogik asoslari. 13.00.01.ped.f.n.il.dar.olish uchun yoz.diss.NavoiyDPI, 2005.

bo'yicha muhim tadbirlar belgilanmoqda. Biroq bu harakatlar muayyan obyektiv sabablarga ko'ra, to'siqlarga uchrashi ham tabiiydir. Chunki jamiyatda pul-tovar, mulkchilik munosabatlarining tubdan o'zgarishi ommaning ruhiy-psixologik holatida, uning ongi va dunyoqarashida jiddiy o'zgarish yasaydi, ayrim hollarda shaxsning ma'naviy-axloqiy me'yorlarining buzilishiga va buning oqibatida insonparvarlik tamoyillariga to'g'ri kelmaydigan omillarning sodir bo'lishiga olib kelishi ham mumkin.

Shuning uchun ham hozirgi vaqtida, ijtimoiy-iqtisodiy o'tish sharoitida, gumanitar turkumdag'i fanlar kafedralari ishini ta'limning keng miqyosli, uyg'un, insonparvarlik vazifa va maqsadlarini bajarishga yo'naltirish zarurati tug'ilmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalaridagi va tibiiy-ilmiy fakultetlardagi ijtimoiy-gumanitar kafedralarning ilmiy pedagogik imkoniyatlarini yanada oshirish, ularni yetakchi va yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash borasidagi ishlarni jadallashtirish, o'quv yurtlarining zamon talablariga javob beradigan yangi tipdagi o'quv qo'llanmalari, darsliklar va axborot vositalariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish navbatdagi muhim vazifalardandir. Gumanitar sohalar bo'yicha mutaxassislar tayyorlash sifati va samaradorligini oshirish, bu soha professor-o'qituvchilarini qayta tayyorlash ishlarini izchil olib borish zarur. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun ayrim oliy o'quv yurtlari qoshida gumanitar sohalar bo'yicha ilmiy-o'quv markazlarini tashkil etish. Shuningdek, o'quv-uslubiy, ilmiy, tarjima adabiyotlarini nashr qilishni yo'lga qo'yish, ta'lim-tarbiya muammolari bo'yicha seminarlar, anjumanlar, uchrashuv va davra suhbatlari, muloqotlar o'tkazib turish mumkin. Bu yo'naliishlarda hozirgi kunda ancha ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq bu hali hozirgi davrning tobora oshib borayotgan talab va ehtiyojlariga to'la javob bera olmaydi.

Yuqorida bayon qilinganlardan kelib chiqib aytish mumkinki, gumanitar ta'larning ravnaqi, ayniqsa, uning ta'limga muassasalaridagi texnika va tabiiy-ilmiy istiqboli quyidagilarni nazarda tutadi:

1. Gumanitar ixtisosliklar bo'yicha mutaxassislar yetishtirishning sifati va miqdorini oshirish. Bunday vazifani rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribalaridan kelib chiqib, muhandis-menejer, muhandis-sotsiolog, muhandis-pedagog, muhandis-psixolog yoki shifokor-pedagog, huquqshunos-pedagog va shu kabi yo'nalishlarda amalga oshirish mumkin.

2. Ta'limga tor sohachilikdan fundamental bilimlar olish yo'liga o'tish va bunda asosiy bilimlarning tabiiy-ilmiy sohalargina emas, balki gumanitar sohalarga ham oid bo'lishiga erishish. Bu esa, o'z navbatida, bitiruvchilarning faoliyatini turli xil ko'rinishlariga, turli xil mashg'ulotlarga tezda ko'nikib ketishlariga yordam beradi.

3. Har qanday tabiiy-ilmiy va texnika fanlarini o'qitishga ham gumanitar mazmun kasb etish, bunday fanlarning tarbiyaviy, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-gumanitar, ekologik salohiyatini, insonparvarlik xususiyatlari va mazmunini ochib ko'rsatish, bunda jahonshumul ilmiy-texnika kashfiyotlari, mashhur olimlarning hayoti va faoliyatidan foydalanish mumkin (masalan, A.Saxarov, H.Abdullayev, I.Mo'minov va boshqalar).

4. O'qituvchi shuni anglab yetish kerakki, ta'limga o'z mohiyatiga ko'ra, gumanitar jarayon, bu borada talabani taqirlash, kamsitish yoki huquqlarini cheklashning biron bir ko'rinishiga, har qanday sababga ko'ra, yo'l qo'yib bo'lmaydi. Talabaga baho, uning masalasiga qarab emas, balki bilimi, malakasi, qobiliyatiga qarab qo'yilishi zarur. Har qanday talaba dunyoqarash turini o'z erkicha tanlash huquqiga egadir. O'qituvchi sha'niga isnod keltiruvchi ta'magirlik va

poraxo'rlik kabi illatlar tamomila bartaraf etilishi kerak.

5. Hayot va jamiyat taraqqiyoti mantiqi kun tartibiga qo'yayotgan ehtiyoj va zaruratlardan kelib chiqib va ularga javoban, ta'lim jarayonlariga yangi-yangi ixtisosliklar, mutaxassisliklar, yangi yo'nalishlarni muntazam kiritib borish va xalq xo'jaligi tarmoqlari uchun zarur kadrlarni tayyorlab berish davr talabidir. Masalan, hozirgi kunda mamlakatimizda yuqori malakali sotsiologlar va psixologlar, huquqshunoslar va siyosatshunoslar, tibbiyotning, sanoat va muhandislikning, qishloq xo'jaligi, moliya va iqtisodning zamonaviy yo'nalishlari bo'yicha yirik mutaxassislar kerak. Ularni o'zimizda yetarli darajada tayyorlash uchun o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim tizimini bunga moslashtirish jarayonlarini jadallashtirish lozim.

## **1.2. Uzluksiz ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning borishi**

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning joriy holati qoniqarli deb bo'lmaydi. Ya'ni -bizning targ'ibot-tashviqot ishlarimiz ko'pincha tor doirada qolib ketayotganligi, hayotning keng qatlamlariga kirib borolmayotganligi, tajribasiz ayrim yoshlarning ongiga yetib bormayotganligining naqadar xavfli ekanligiga maxsus to'xtalish mumkin. Buning uchun milliy tarbiyani yuksaltirishda ham davlat bosh islohotchi bo'lishini e'tirof etib, maktablar, litsey va kollejlarda bevosita ma'naviyat masalalari bilan shug'ullanadigan mutasaddi mutaxassislar lavozimlari faoliyatini qo'llab-quvvatlashni yo'lga qo'yish, barcha ta'lim muassasalarida bolalarimizni ongini yuksaltiruvchi, ularni ijobjiy ishlar va tarbiyaviy tadbirlar bilan band qiladigan turli tashkilot va to'garaklar tuzimdir.

Ko'zlangan maqsadni amalga oshirish uchun ijtimoiy-

gumanitar fanlar hamkorligida pedagogika va psixologiya fanlariga: oila mafkurasi va uni shakllantirish mexanizimini ishlab chiqish, o'quvchi yoshlar ma'naviyatini shakllantirishning kompleks dasturini ishlab chiqish, milliy dasturga ma'naviy-mafkuraviy tarbiya yuzasidan qo'shimchalar kiritish, o'quvchi yoshlarni milliy g'oya, mafkura, o'z-o'zini anglash, qadriyatlar ruhida shakllantiruvchi milliy tarbiya konsepsiyasini ishlab chiqish, milliy mafkuraviy kurashning ilmiy-amaliy tizimlarini yaratish, xalqimizning barcha qatlamlari xususiyatlarini aks ettiruvchi va qamrab oluvchi targ'ibot-tashviqot mexanizmlarini ishlab chiqish, milliy ma'naviy g'oyaning yangi ilmiy falsafiy ta'lmini yaratish, kengashlar faoliyatini uslubiy ta'minlashlari kerak bo'ladi.


Milliy tarbiyaning nazariyasi, uslubiyati va o'quvchi yoshlar birlashmalari tizimini, ma'naviyat bilan shug'ullanuvchi mutasaddi lavozim professiogrammalarni, o'quvchi yoshlar uyushmalari hamda ularning tizimi va faoliyati mazmunining shakllarini ishlab chiqish kabi dolzarb amaliy vazifalarning yechimini topishni yuklaydi.

Barkamol avlodni voyaga yetkazishda diniy aqidaparstlikning tarixiy ildizlari, zamonaviy holati va unga qarshi kurashning nazariy asoslariga ham ko'p bog'liqdir. Odamlarimiz tafakkurida og'ir kurash kechayotganidan ogoh bo'lish lozimligi, vaziyat - tarixiy xotira va milliy o'zlikni anglash va bu orqali barcha ma'rifiy mamlakatlarda bo'lganidek, g'oyaga qarshi g'oya bilan kurashishning falsafiy, tarixiy asoslarini yaratishni, inson huquqlari milliy harakat dasturini ishlab chiqishni talab qilmoqda. Bu esa falsafa, tarix, madaniyatshunoslik, siyosatshunoslik, sotsiolo-giya va boshqa fanlarda yangi dunyo qarash va yangi tafakkur shakllanish xususiyatlarini o'rganib, natijalarini hayotga tezroq tatbiq

qilishni, milliy o‘zlikni anglash jaryonini tahlil qilish, g‘oyaviy kurash strategiyasi va texnikasi, usul va shakllarini ishlab chiqishni taqozo qiladi.

O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning «Tafakkur» jurnali bosh muharriri, «Uzteleradiokompaniya» raisi savollariga javoblari va respublikamizning bir guruh tarixchi olimlari, shuningdek, jurnalistlar, matbuotchilar va adabiyotshunos olimlar bilan bo‘lgan suhbatlarida, Vazirlar Mahkamasining «Ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish choratadbirlari to‘g‘risida» hamda «O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida»gi Qarorlarida yoshlارимиз ongida milliy g‘oya va mafkurani shakllantirish, ularning ma’naviyatini milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida yuksaltirish, o‘tgan ming yilliklar mobaynida ajdodlarimiz yaratgan shonli tariximiz haqidagi haqiqatlarni qayta tiklash va uning misolida yosh avlodni milliy iftixor, vatanparvarlik tuyg‘ulari ruhida tarbiyalash kabi g‘oyalar, vazifalar ta’lim tizimining ham oldida turgan dolzarb vazifalarga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil avgust oyida bo‘lib o‘tgan IX sessiyasida qabul qilingan «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» mamlakatimiz xalq xo‘jaligining barcha tarmoq va sohalarini yuqori malakali va erkin fikrlovchi, ma’naviy jihatdan barkamol mutaxassis kadrlar bilan ta’minlashga qaratilgan tarixiy muhim hujjatlardir. Uzluksiz ta’lim tizimi qayta qurildi: umumta’lim maktablari, o‘rtा kasb-hunar bilim yurtlari, oliy ta’lim muassasalari hozirgi zamon talablari va mamlakatimiz xalq xo‘jaligi ehtiyojlari, manfaatlari nuqtai nazaridan qayta tashkil etildi. Ko‘plab universitetlar, yangi tipdagi kollej va litseylar barpo qilindi. Xalq xo‘jaligining turli tarmoqlari



bo'yicha yangi-yangi sohalar, mutaxassisliklar, yo'nalishlar tashkil etildi. Uzluksiz ta'lim tizimiga oid barcha fanlar bo'yicha davlat ta'lim standartlari yangidan yaratildi. Barcha o'quv dasturlari, darsliklar va qo'llanmalar davlat ta'lim standartlari talablaridan kelib chiqib, qayta tayyorlanmoqda. Uzluksiz ta'lim tizimining hamma bosqichlari bo'yicha pedagog-o'qituvchilarning ixtisoslik malakalarini oshirish va ularni qayta tayyorlash bo'yicha ishlar keng miqyosda va izchil amalga oshirilmoqda.

Mamlakatni demokratik asoslarda qayta qurish va jamiyatda ma'naviy-axloqiy muhitni sog'lomlashtirish – ko'p qirrali jarayondir. Bunda ta'lim-tarbiya tizimlarining o'rni, ahamiyati, shubhasiz, juda katta. O'zining kundalik tirikchilik tashvishlaridan ortmay qolgan, milliy-tarixiy qadriyatlaridan, urf-odatlari va qadimiy an'analaridan deyarli begonalashgan, tor ixtisoslik doirasida fikr yuritish va faoliyat ko'rsatishdan chiqa olmagan, erkin va ijodiy fikr yuritishdan mahrum etilgan «soviet kishisi»ning ongi va dunyoqarashini o'zgartirish, qalbiga, ruhiga milliy va umuminsoniy qadriyatlar nurini singdirish, uning bugungi taraqqiy etayotgan madaniy olam, erkin va ilg'or fikrlovchi insonlar darajasida faoliyat ko'rsatishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishda ta'lim-tarbiya tizimlari oldida katta va keng miqyosli vazifalar turibdi. Bu, avvalo, yangi davr talablariga to'la javob beradigan yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlashdir. Shu jihatdan qaraganda, ta'lim-tarbiya sohasida nazarda tutilayotgan tadbirlarning g'oyaviy-nazariy asoslari milliy mustaqillik g'oyasi bilan chambarchas bog'liq.

Ma'naviy-axloqiy ustuvor vazifalarni amalga oshirish:

– ta'limni insonparvarlashtirishni ta'minlash mexanizmlarini ishlab chiqish, bevosita fanlar bo'yicha ishlab chiqilgan ishchi dasturlarda ta'lim-tarbiya birligini ta'minlash;


- uzviylik va uzlusizlik mezonlariga amal qilgan holda ishlab chiqilgan yangi namunaviy o‘quv dasturlarining yangi turkumini ta’lim amaliyotiga joriy qilish.

Ma’naviyat – bu kishini, egallagan foydali bilimlari (bilim turidan qat’i nazar), uning hayotida takrorlanaverishi natijasida, ko‘nikma va malaka bosqichlaridan o‘tib ruhiga singib, uning hayot tarziga aylanib ketgan bosqichdagi ijobiy ijtimoiy sifatlardir. Demak, ma’naviyat asosini bilim tashkil qilar ekan, bilim turlariga mos ravishda ma’naviyat turlarini sanab chiqsak bo‘ladi. Bularga diniy ma’naviyat, axloq va odob ma’naviyati, dunyoni ilmiy bilish ma’naviyati, texnik ma’naviyat, kasbiy ma’naviyat va boshqalar kiradi. Axloq va odob ma’naviyati inson ijtimoiy mohiyatini eng ustki qavatini, ya’ni qobig‘ini tashkil qilgani uchun, ba’zilar ma’naviyat deganda, kishining axloq va odobga oid bilimlarini uning hayot tarzida aks etishi deb tushunishadi. Bu ma’naviyatni tor ma’noda tushunishdir.

**«Ma’naviyat asoslari» fani dasturi va darsliklarini qayta ishlab uni nashrga tayyorlashda uzlusiz ta’limni uzviyligini ta’minalash va insonparvarlik g‘oyalarini ilgari surishni ko‘zda tutish ertangi kun talablaridan biridir.** Shuningdek, yangi dastur va darslikni yaratishda quyidagi-larga erishishni nazarda tutish maqsadga muvofiqdir:


- ma’naviy barkamol shaxs milliy modelini yaratish;
- ma’naviyat sohasida ta’lim beruvchi professor-o‘qituvchilarning yuqori malakaga ega bo‘lishini ta’minalash;
- ajratilgan o‘quv yuklamasidan samarali foydalanish;

# MA'NAVIY INSONPARVARLIKNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI



1-shakl.

# MA'NAVIY-MA'RIFIY TARG'IBOT OLIB BORISHNING NAMUNAVIY STRUKTURASI



2-shakl.

- ta’lim muassasalaridagi talabalar maxsus guruhlari bilan olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlar Nizom va tadbirlar rejasini qayta tuzish;
- ma’naviy barkamol shaxs milliy modelini yaratish;
- ma’naviyat sohasida ta’lim beruvchi professor-o‘qituvchilarning yuqori malakaga ega bo‘lishini ta’minlash;
- ajratilgan o‘quv yuklamasidan samarali foydalanish;
- ta’lim muassasalaridagi talabalar maxsus guruhlari bilan olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlar Nizom va tadbirlar rejasini qayta tuzish;
- sport sog‘lomlashtirish ishlarining ma’naviy sohadagi talabalar uchun ishlab chiqilgan me’yoriy hujjatlarni qayta ko‘rib chiqish;
- talabalarning maxsus guruhlari bilan tashkillash-tiriladigan sport-sog‘lomlashtirish tadbirlarining takomillash-tirilishida ma’naviy oziqa olish;
- ta’lim muassasalarida sport va sport-sog‘lomlashtirish tadbirlarini amalga oshirishga tizimli yondashuvning milliy va ma’naviy tarzda ishlab chiqilishini ta’minlash;
- ma’naviy-axloqiy xulq-atvorni milliy g‘urur va qadriyatlar misolida ta’riflash;



3-shakl.

- ma’naviy-ma’rifiy ishlarni olib borishning strukturaviy usullarini yaratish;
- ma’naviy-axloqiy tashviqot va targ‘ibot ishlarini olib borishni amalga oshirish usullarini ta’riflash;
- ta’lim jarayonida ma’naviy-axloqiy tarbiyaning yuksaklikligini ta’minlash;
- ma’naviy meros haqida yetarlicha ma’lumotga ega bo‘lish;
- ma’naviy inson qiyofasini shakllantirish, el orasida ibratli xulq-atvorga ega bo‘lish.

## **II.UZLUKSIZ TA'LIM-TARBIYA TIZIMINI INSONPARVARLASHTIRISH TAMOYILLARI**

### **2.1.Ta'lim va tarbiya nazariyasining ta'limni insonparvarlashtirish bilan bog'liqligi**

Ta'lim-tarbiya tizimini insonparvarlik yo'nalishida tubdan o'zgartirish va yangi zamon talablari darajasiga ko'tarishning birinchi sharti – unga bir butun tizim sifatida yondashish va shunga muvofiq, ish olib borishdan iboratdir. Ma'lumki, har qanday barqaror tizim qismlar, elementlarning muayyan tuzilmalaridan tarkib topadi. Binobarin, undagi har bir qism o'z o'rниda turganda va har qaysisi o'z vazifasini mukammal tarzda bajargandagina tizim tashqi ta'sirlarsiz, o'z-o'zini boshqarish tomon yo'nalishi mumkin. Bu holatda ta'lim-tarbiya tizimining uzluksiz harakati, uzluksiz takomillashuvi uning bir maromda ishlashining zarur sharti bo'lib qoladi.


Ta'lim-tarbiyaga uzluksiz tizim sifatida qaralishining o'zi insonparvarlikning amalda namoyon bo'lishidir. Ayni vaqtida insonparvarlik ta'lim-tarbiyaning uzluksiz va izchil bo'lishini taqozo etadi. Zero, bundan kuzatilgan asosiy maqsad muayyan kasb-korni mukammal egallab olish va ayni vaqtida sog'lom, barkamol inson shaxsini vujudga keltirish, uni hozirgi zamon fan-texnika va texnologiyasi yutuqlaridan bahramand etish, axborot asri sifatida namoyon bo'layotgan XXI asrning yuksak talablariga muvofiq kadrlar bo'lib yetishishlariga erishishdir. Kadrlar chuqur va keng bilimli, yuqori malakali mutaxassis

bo‘lishlari zarur, ammo bu bilimdonlik tarixiy-milliy zaminlarda qaror topadigan boy ma’naviyat, pok axloq, imon-e’tiqod butunligi bilan omuxta bo‘lib ketgandagina ijtimoiy ahamiyat kasb etadi, tor ixtisoslik tafakkur tarzidan keng miqyosli falsafiy tafakkur tarzi tomon rivojlanish uehun yo‘l ochiladi. Bu juda katta o‘zgarish sifat jihatidan yangilanishga olib kelishi kerak. Chunki muayyan tarixiy va ijtimoiy sabablarga ko‘ra, tor ixtisoslik natijasida tafakkurning torligi ham barqaror bo‘lib qolishi mumkin. Bunda mutaxassis o‘z kasb-kori doirasidagina fikr yuritish bilan chegaralanib qoladi. Bu esa milliy, ham umumbashariy munosabatlarning bundan buyongi rivojiga monelik qiladi. «Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida ko‘zda tutilgan muammolarni hal etayotganda masalaning ana shu jihatiga asosiy e’tiborni qaratish lozim.

Bugun tug‘ilib voyaga yetayotgan bola muayyan vaqtidan keyin biron bir kasbda ishlaydi, agronom, muhandis, o‘qituvchi, shifokor va boshqa ommaviy kasb egasi bo‘ladi yoki davlat va nodavlat tuzilmalarida faoliyat ko‘rsatadi. Uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimini insonparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan bo‘lsa, bo‘lajak avlod ongi, his-tuyg‘usi shu ruhdan oziq oladi va bunday odamlarda ma’naviyat eng yuksak cho‘qqiga chiqadi. Odamlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar chinakam insoniy tus olsa, shubhasiz, bu holat jamiyatning butun faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, hozircha bolani oilada tarbiyalash, oilaviy tarbiyaning ilmiy jihatdan asoslangan dasturi va shunga muvofiq uslubiy qo‘llanmalar yo‘q hisobi. Holbuki, bolaning kelajakda qanday inson bo‘lib kamol topishi ko‘p jihatdan oilaga bog‘liq. Yetti yoshgacha bo‘lgan bolaning ongiga, ruhiga qanday fikr, his-tuyg‘u kirsa, uni butun umri davomida saqlaydi, qadrlaydi. Demak, uzluksiz ta’lim-tarbiya

tizimining tarkibiy qismi sifatida oila tarbiyasiga munosabat belgilash dolzarb masaladir.



4-shakl.

Buning uchun ana shu qismlarda ishlovchi kishilar, ijtimoiy guruhlar, jamoalar o‘z vazifalarini qanday bajarishlariga qarab uzlusiz ta’lim-tarbiya tizimi harakatga keladi. Mabodo u qismlarning birortasi yomon ishlasa, o‘z funksiyasini yetarli bajara olmasa, butun sistemaga salbiy ta’sir ko‘rsatishini o‘sha qismlarga uyushgan kishilar jamoalari anglashlari, shu yuksak mas’uliyatni his etishlari muhimdir. Insonparvarlik shunda oddiy dunyoqarashlikdan chiqib, amaliy harakat tusini oladi. Shu munosabat bilan, ta’lim-tarbiya dasturida, bolalar, o‘smlirlar va yoshlarning (masalan, tug‘ilganidan tortib, to 18 yoshgacha) qanday ko‘nikma va malakalarni, qancha bilimlarni, qadriyatlarni o‘zlashtirishi zarurligi, o‘rtacha me’yor va mezonlari ham ilmiy asoslab chiqilishi lozim.

Uzlusiz ta’lim-tarbiya tizimi jamiyatni tashkil etgan tizimning tarkibiy qismidir. Bu qismning samarali ishlashi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning barcha jihatlariga o‘z

**Ijobly ta'sirini ko'rsatadi.** Shuning uchun ta'lim to'g'risidagi **Qonunda** «Ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy tarsoqqiyoti sohasida ustuvor» deb e'lon qilinadi.

Ta'lim-tarbiya tizimini insonparvarlashtirish uni qayta **quriahning eng asosiy va markaziy muammolaridan** biridir.

Sovet ta'lim tizimi Yaponiya, AQSH, Fransiya, **Velikobritaniya** va Germaniya davlatlari ta'lim tizimlari singari **dunyodagi eng kuchli ta'lim tizimlaridan** biri bo'lib hisoblanadi. Lekin shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu ta'lim tizimining ayrim kamchiliklari ham bor edi. Bu ta'limning insonparvarlik xususiyatidir.

Ta'limni insnparvarlashtirish g'oyasi sho'rolar tuzumida, **inson davlat va jamiyat** deb atalgan katta mashinaning oddiy bir «murvvat»i bo'lishdek haqoratli ahvoldan qutqarish, uning asl ijtimoiy qiyofasini, erkin, tashabbuskor va ijodkorlik tabiatini, yuksak ma'naviy-ruhiy fazilatlarini oshkora namoyish etish kabi ezgu maqsadlarga qaratilgan bo'lib, bu yangi tipdag'i **jamiyat va davlat manfaatlaridan**, ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Sho'rolar davrida ta'lim va tarbiyaning uzviyligi birmuncha uzilib qoldi, u o'zining asosiy, insonparvarlik xususiyatlaridan uzoqlashdi, u faqat bilim olish, ixtisoslikni egallash vositasigagina aylandi, fan va ishlab chiqarish o'rtasida mustahkam hamkorlik o'rnatilmadi. Bu esa kadrlar tayyorlash sifati va samaradorligiga jiddiy putur yetkazdi. Qaramlik yillari mobaynida ta'lim dasturlari va darsliklari, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar sohalar siyosatlashtirildi va mafkuralash-tirildi, ilmiylik darajasi kambag'allashdi, madaniy-ma'naviy tarbiya vositasi sifatida susaytirildi; mehnat tarbiyasi g'oyasiga e'tibor kamaydi, kishilar nazarida mehnat o'zining yaratuvchilik mohiyatidan begonalashdi, aksincha, navbatdagi zulm vositasiga aylandi, unga juda rasmiyatchilik bilan yondashildi **va natijada**, ta'limning ma'naviy-axloqiy asoslari – inson va

jamiyat hayotida mehnatning muhim ehtiyoj ekanligiga, ijtimoiy ahamiyatiga, mehnatga an'anaviy muno-sabatga jiddiy putur yetkazildi. Madaniy-tarixiy qadriyatlarga, milliy an'ana va urf-odatlarga mensimay qaraldi, ular kamsitildi. Ma'naviy kamolotning muhim vositalaridan bo'lgan badiiy-estetik tarbiyaga kam ahamiyat berildi. Badan tarbiyasi va sog'liqni saqlashning ahamiyatini yoshlar ongiga singdirish masalalari oqsab qoldi. Mutaxassislar tayyorlashda o'rtamyonachilikka ruju etildi: tarixda shaxsning roli masalasidagi xato nazariyaga muvofiq tabaqalashtirmaslik, aksincha, barchani bir qarich bilan o'lhash rasm bo'ldi, ijodkor va tashabbuskor, ishbilarmon va tadbirkor, qobiliyatli va iqtidorli mutaxassislar o'rtamiyona yoki umuman, past saviyali mutaxassisdan farq qilinmadi. Talaba-o'quvchilarga bo'lgan munosabat ham shunday edi. Oliy ixtisoslik ma'lumotiga ega bo'lgan, diplomli mutaxassislar juda ko'plab yetishtirildi, ammo ular xalq xo'jaligini rivojlantirishning talablariga to'la javob bera oladigan, mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllanmaganligi va tadbirkorlik sifatlari kam bo'lgani uchun, ba'zilari ijtimoiy taraqqiyot yo'lida va ayni vaqtda xo'jalikni boshqarish va rivojlantirish yo'lida muayyan to'siqqa aylanib qoldilar.

«Insonparvarlik», «adolatparvarlik», «tinchlik va demokratiya tayanchi» niqoblari ostida amalga oshirilayotgan barcha tadbirlar ostida g'arazli niyatlar, buyuk millatchilik, buyuk davlatchilik siyosati yashiringanligi tobora ochiq-oydin bo'lib qola boshladi...

Jamiyatni tanazzul va inqirozga mahkum etadigan bunday illatlar sho'rolar davri ta'lim tizimida ham o'z ta'sirini kuchaytirdi: ta'lim va tarbiya jarayonlari bir-biridan ajralib qoldi, ta'lim-tarbiya ataylab milliy-tarixiy zamindan ajratib qo'yildi, ta'lim-tarbiyadan an'anaviy ustoz-shogirdlik tamoyillariga pisandsizlik bilan qaraldi, yoshlarning ongi va

dunyoqarashlarini keng miqyoslarda rivojlantirish o‘rniga bir kasb-korga, muayyan bir sohagagina oid bilim va ko‘nikmalarni egallashga majbur qilindi, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlar qadrlanmadı, yoshlarni shaxs sifatida barkamol inson qilib tarbiyalash o‘rniga, ularga faqat dasturda belgilangan bilimlarni o‘rgatishgina asosiy maqsad qilindi, buning oqibatida talaba-o‘quvchi turli kasb-hunarlarni puxta egallash o‘rniga guvohnoma, diplom egasi bo‘lib olish payiga tushib qoldi, chunki ishbilarmonlik, tadbirkorlik, kasb-mahorati kabi sifatlar o‘z qadr-qiyamatini yo‘qotib, uning o‘mini boshqa xususiyatlar, ayniqsa, salbiy xislatlar egallay boshladi. «Baynalmilalchilik», «vatanparvarlik» shiori ostida ta’lim-tarbiya tizimida yo‘lga qo‘yilgan tadbirdilar, ko‘pincha yoshlarni ongida katta og‘aynigarchilik shovinizmi va buyuk davlatchilik g‘oyalarini qaror toptirishga qaratilganligi shundoqqina ko‘rinib turadi. G‘arbiy Yevropaning jamiyat hayotida va xo‘jaligining turli tarmoqlarida sodir bo‘layotgan ijobjiy hodisalar, taraqqiyparvar g‘oyalar, ilm-fandagi, texnikadagi yutuqlar «burjuacha hayot», «reaksion burjua tamg‘alari bilan kansitilar edi, ularning tub mohiyati ochib ko‘rsatilmay, quruq tanqid qilinardi, «sho‘ro tuzumi va kishisiga yot hodisa» sifatida qoralanar edi. Hamma narsa inson uchun, hamma yaxshi narsalar bolalar uchun degan shiorlar soxtaligi uchun kishilarning g‘ashiga tegar edi.

O‘zbekistonda mustaqillik sho‘rolar davridan meros bo‘lib qolgan bunday illatlardan jamiyatni va jumladan, ta’lim-tarbiya tizimini ham butunlay tozalashni yangicha va haqiqatan ham demokratik tamoyillarga asoslangan, adolatli huquqiy fuqarolik jamiyatini barpo etish, ta’lim-tarbiya tizimlarini eng ilg‘or davlatlar tajribalari va milliy an‘analarimiz asosida qayta tashkil qilish kabi ulug‘vor va dolzarb vazifalarni kun tartibiga qo‘ymoqda.

Ta'lim-tarbiya tizimini insonparvarlik yo'nalishida tubdan o'zgartirish va yangi zamon talablari darajasiga ko'tarishining birinchi sharti unga bir butun tizim sifatida yondashish va shunga muvofiq ish olib borishdan iboratdir. Ma'lumki, har qanday barqaror tizim qismlar, elementlarning tuzulmalaridan tashkil topadi. Binobarin, undagi har bir qism, element o'z o'mida turganda va har qaysisi o'z vazifasini mukammal tarzda bajargandagina tizim tashqi ta'sirlarsiz o'z-o'zini boshqarish tomon harakatga keladi.

## **2.2.Uzluksiz ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash usullari**

Uzluksiz ta'limni insonparvarlashtirish tamoyillari va asosiy qoidalarini hayotga tatbiq etish uchun barcha ta'lim muassasalarida bugungi kunda har jihatdan qulay va mustahkam poydevor sifatida gumanitar muhit yaratish vazifalari birinchi o'ringa qo'yilmoqda. Istiqbol sari yo'nalishni bu tarzda aniq belgilab olgan oliy ta'lim tizimi talabalar va o'qituvchilarning fan va madaniyat olamiga hamda bozor munosabatlari tizimiga ortiqcha iztiroblarsiz va larzalarsiz kirib borishini ta'minlashi mumkin.

Gumanitar muhit – ijtimoiy-tarixiy hodisa. O'quv yurtida muayyan bilimlar olish, kasb-hunar o'rganish va ma'naviy madaniyatni, o'z shaxsini erkin takomillashtirish uchun qulay va zarur shart-sharoitlarning mavjudligini bildiradi.

Gumanitar muhit sermazmun va keng miqiyosli tushuncha bo'lib, u barcha maktab oldida turgan muhim vazifa – ta'limni insonparvarlashtirish jarayonlarini amalga oshirishda o'quv yurtining ta'lim-tarbiyaviy, madaniy, ma'naviy-axloqiy imkoniyatlarini, malakali kadrlar bilan, shuningdek, moddiy va

moliyaviy ta'minlanganlik darajasini, umumiy ahvolini ko'rsatib turadi.

Gumanitar muhit – bu yoshlar psixologiyasining, ma'naviyatning va qadriyatlarga munosabati shakllanishi sharoitidir. Qulay va badastir gumanitar muhit quyidagi belgilarga ko'ra aniqlanadi:

1. O'quv jarayonining tuzilishiga ko'ra, talabaning ma'naviy manfaatlari, uning bo'lajak ixtisoslik faoliyatining insonparvarlashuvi, umummadaniy tayyorgarligining taraqqiy etishi, shaxsning intellektual imkoniyatlari bilan uning istak va manfaatlarini birlashtirish masalalari, shuningdek, yangicha fikrlashni, mustaqillikni, mas'uliyatini, insonparvarlikni rag'batlantirish kabilarning ta'lim muassasalari ixtisoslik sohalarining talablari bilan qay darajada yaqinlashtirilganligi va moslashтирilganligiga ko'ra aniqlanadi.

2. Ta'lim maskanlarida talabalarni ijtimoiy muhofaza qilish siyosatining ma'muriyat bilan talabalar jamoat tashkilotlarining hamkorligidagi muayyan tizimi orqali amalga oshirilishiga va talabalarga moddiy yordam ko'rsatilishi darajasi va ahvoliga qarab aniqlanadi.

3. Ta'lim muassasalarida demokratlashtirish jarayonlarining borishi va ahvoliga qarab, ya'ni talabalar orasida o'z-o'zini boshqarishning qay darajada yo'lga qo'yilganligi, o'qituvchilarni, ayrim predmetlarni o'zлari tanlash imkoniyatlari, muqobil ma'ruzalar o'quv kurslari, ta'lim shakllari va talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatiga jalg etish darajasi kabilar.

4. Talabalar va o'qituvchilar jamoalarida o'qish ishlash uchun qulay va mo'tadil sharoit yaratilishi, oliy ta'lim muassasalarini boshqarishning ma'muriy-buyruqbozlik uslublaridan voz kechilganligi va boshqalar.

5. Tegishli moddiy-texnikaviy asoslarning va ijtimoiy-madaniy muhitning mavjudligi, yangi va eng yangi o'quv dasturlari, adabiyotlari, ta'limning texnik vositalari bilan o'quv yurtining yetarli darajada ta'minlanganligi va shu kabilar.

Gumanitar muhit tarkibi quyidagilardan tashkil topadi:

a) o'qish-o'rganish jarayonlarining barcha yo'nalishlaridan; talabalar bilan o'quv ishlarini olib borish shakllari va usullari, o'qituvchilarning ilmiy pedagogik faoliyati, o'quv jarayonlarini tashkil etishni ta'minlaydigan yordamchi xizmatlarning ishi va boshqalar;

b) gumanitar fanlar o'qituvchilari ishining samaradorligini oshirish bu ikkita omilga bog'liqdir: birinchidan, talabalarda insonparvarlik dunyoqarashi va gumanitar madaniyat asoslarini shakllantirish mahorati va qobiliyatining mavjudligi; talabalar ongini ma'naviy-ruhiy qadriyatlar bilan boyitish, ularning ongini jamiyat hayotida faol ishtirok etishini ta'minlash; ikkinchidan, o'qitilayotgan fanlarning mazmuniga va ularda gumanitar sohaning kuchaytirilganligiga bog'liqdir.

Uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish jarayonida insonparvarlik ruhini bosqichma-bosqich singdirib borish natijasida yangicha dunyoqarash, dunyoni yangicha his etish, shu asosda tafakkurning keng miqyosli tarzi shakllanishi uchun bu tizimning har bir qismi va unsuri vazifalari aniq-ravshan bo'lishi lozim. Bular quyidagilardir:

1. Oila ta'limi va tarbiyasi.

2. Bog'cha ta'lim va tarbiyasi.

3. Boshlang'ich ta'limi va tarbiyasi.

4. Umumiy ta'lim maktablaridagi ta'lim va tarbiya.

5. O'rta ta'lim va kasb-kor maktablari (litsey, kollejlar) dagi ta'lim va tarbiya.

6. Oliy mutaxassislik (bakalavriyat va magistratura) ta'lim va tarbiyasi.

7. Aspirantura va doktorantura ilmiy tadqiqotlarini insonparvarlik yo‘nalishida uyushtirish muommasi.

8. Malakani uzluksiz va izchil amalga oshirib borishga xizmat qiladigan ilmiy-uslubiy muassasalarining keng tarmoqlarni vujudga keltirish va undagi mashg‘ulotlar insonparvarlik ruhi bilan sug‘orilishiga e’tiborni qaratish.

9. Bo‘sh vaqtdan samarali foydalanishga yordam beradigan va ta’minlaydigan davlat va nodavlat tuzilmalarni tashkil etish.

10. O‘zbekistonda ma’naviy-axloqiy muhitni sog‘lomlash-tirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni bir tizimga solish va bu masala yuzasidan Davlat dasturini ishlab chiqish.

Uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimining ana shu qismlari va har birining dasturlari milliy zaminda va insonparvarlik asosida qayta ko‘rib chiqilishi va takomillashtirilishi lozim.

Shu munosabat bilan, ta’lim muassasalarida gumanitar muhitning shakllanishida ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedralarning o‘rni katta ekanligini alohida ta’kidlash zarur. Ular bu borada ta’limning ilg‘or va samarali shakllarini, uslublarini dadil va jadal ravishda joriy etmoqlari va keng yoymoqlari lozim. Jumladan, talabalar guruhlari yoki ayrim bir talaba uchun mo‘ljallangan differensial - farqli ijodiy topshiriqlar tizimini yaratish va ulardan ta’lim jarayonlarida foydalanish, ta’limning «dumaloq stol», « matbuot anjumani», simpozium, «ish o‘yinlari», referat himoyasi, bahsmunozaralar, yetakchi olimlar va mashhur kishilar bilan uchrashuv, muloqot uyuştirish kabi shakllarini keng qo‘llash.

Gumanitar fanlar o‘qituvchilari o‘quv ishlarining samaradorligi, ularning tabiiy-ilmiy va ixtisoslik fanlar kafedralari bilan, shuningdek, oliy o‘quv yurtining rahbariyati va boshqa barcha bo‘lim hamda qismlari faoliyati bilan qaydarajada aloqadorligiga ham bog‘liqdir.

Talabani barkamol shaxs sifatida tarbiyalash ishlarining ta’lim muhitini insonparvarlashtirish bilan chambarchas bog‘liqligi va aloqadorligi masalasi o‘quv jarayonining butun mazmuni va mohiyatini belgilaydigan muhim vazifadir. Ta’limda tarbiyaviy ta’sirning muhim xususiyati uning umuminsoniy madaniyatning asosiy tamoyillari va qadriyatlari bilan aloqadorligidadir. Predmet orqali tarbiyalash talaba shaxsining shakllanishi va taraqqiy etishiga maqsadli yo‘nalish va aniqlik baxsh etadi:

a) jamiyatni va oliv muktabni isloh qilish natijalari bamaslahat, kengashib ish qilish, tadbirkorlik va tashabbuskorlik, mas’uliyat, talabchanlik kabi demokratik tamoyillarining amalga oshishi uchun muhim zamin tayyorlaydi. Bu jarayonda ijtimoiy-psixologik shakllanish va ta’lim muassasalarida buning uchun qulay sharoitni vujudga keltirish ishlari muhim ahamiyat kasb etadi;

b) ijtimoiy-madaniy sohaning tarkibiy qismlari bo‘lgan kutubxona, o‘quv va o‘quv-uslub xonalari, sport-sog‘lomlashtirish majmualari, talabalar yotoqxonalari, oshxona va bolalar muassasalari, bozor iqtisodi munosabatlariiga o‘tish sharoitida, o‘quv yurtida qulay ijtimoiy-psixologik sharoitni yuzaga keltirishning muhim va belgi-lovchi omiliga aylanadi.

Har bir o‘quv yurti o‘ziga xos mikroijtimoiy tizimdir. Jamiyat hayotida kechayotgan butun jarayonlarda ham o‘ziga xos shaklda va kichik miqyoslarda sodir bo‘lib turadi. Gumanitar muhitni vujudga keltirish va ta’limni insonparvarlashtirish ishlarida hozirgi vaqtda ba’zi bir ta’lim muassasalarida ayrim salbiy holatlar ham ko‘zga tashlanadi: o‘qituvchilar muhitidagi moddiy sharoitning va faoliyatning nisbatan qiyinlashuvi oqibatida kelib chiqayotgan muayyan taranglik, xodimlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash imkoniyatlarining hozirgi zamон talablari darajasida emasligi,

talabalar orasida mustaqil bilim olishga intilishning sustligi, yoshlar orasida madaniy va ilmiy bilimlarni egallashdan ko‘ra faqat bugungi, tor manfaatlarni ko‘zlab, moddiy foyda orttirishga intilishning tobora ustunlik qilayotganligi, ba’zi bir yosh mafkuraviy ta’sirlarga, milliy-axloqiy me’yorlarimizga zid qarashlarga, oz bo‘lsa-da, berilib qolishi kabilar.

Oliy ta’lim muassasalarida ta’limni insonparvarlashtirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- oliy o‘quv yurtlarida o‘qitiladigan ijtimoiy-gumanitar fanlarning mazmunini yanada takomillashtirish;
- mutaxassislarni tayyorlash ixtisosliklarini va kafedraning ilmiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda oliy gumanitar ta’lim dasturini ishlab chiqish;
- talabalarning bilimlarini, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish tizimini yangilash, ularning mustaqil ijodkorlik intilishlarini kuchaytirish nuqtai nazaridan bu tizimni takomillashtirish;
- konsepsiyanı amalga oshirish yo‘llarini aniqlash, ilg‘or tajribalarni keng yoyish va o‘rganish maqsadlarida oliy o‘quv yurtlarida, mintaqaviy, respublika va xalqaro anjumanlar, seminarlar o‘tkazib turish;
- gumanitar fanlar o‘qituvchilarining ijtimoiy maqomini yanada yuksaltirish choralarini aniqlash;
- o‘quv-uslubiy markazlarining, xonalari, kutubxona, klub, muzeylar va hokazolarning gumanitar ta’lim va tarbiya masalalari bo‘yicha faoliyatining samaradorligini oshirish.

O‘rganilayotgan muammoni ilmiy-uslubiy ta’minalash:

- mutaxassislar tayyorlash sifatini yuqori darajada ta’minalash uchun barcha mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanish;

- oliy ta'lim tizimining barcha ilmiy imkoniyatlarini ta'limni insonparvarlashtirishni ta'minlashga yo'naltirish;
- gumanitar muammolar sohasidagi tadqiqotlarning maxsus dasturini ishlab chiqish;
- ta'limni insonparvarlashtirish va takomillashtirishni hisobga olgan holda darsliklar, ma'ruzalar, o'quv dasturlari va qo'llanmalarning, ilmiy-uslubiy adabiyotlarning yangi avlodini tayyorlash va chop ettirish;
- gumanitar muammolar va ta'lim uslublarini ishlab chiqish va o'rganishda akademiya, oliy ta'lim va soha fanlarining hamda ishlab chiqarishning kuch va imkoniyatlari integratsiyasiga erishish;
- oliy ta'limni insonparvarlashtirish muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqot tajriba (laboratoriya) larini yaratish;
- ta'lim tizimini insonparvarlashtirish sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni, ilmiy-uslubiy ishlanmalarni iqtisodiy rag'batlan-tirish va moliyaviy ta'minlashning budget va budjetdan tashqari mablag'larini qo'llash mexanizmlarini yaratish.

Jamiyatning yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga o'tib borishi munosabati bilan kishilarning hayot tarzi va foliyatida ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlar, shuningdek, O'zbekiston oliy maktabining jahon ta'lim tizimiga kirib borishi ehtiyoji oliy ta'lim muassasalarida insonparvarlik muhitini takomillashtirishga yuqori talablar qo'ymoqda.

Bu talab quyidagilardan iborat:

- ta'limning yangilangan mazmuniga asoslangan yangi o'quv ta'lim texnologiyalarini yaratish;
- pedagogning ixtisoslik obro'-e'tiborini, nufuzini qayta tiklash va mavqeini yanada orttira borish;
- ko'pdan beri shakllanib kelayotgan salohiyatlari universitetlar markazlariga tayangan holda va shuningdek, yangilarini tashkil etish hisobiga ta'lim infratizimini

kengaytirish va ularning joylarda haqiqiy madaniy-ma'rifiy, ilmiy-pedagogik markaz darajasida bo'lishiga erishish;

- ta'lismuassasalari tizimida muloqotning ma'muriy-buyruqbozlik usulidan voz kechish, oliy ta'limda jamoalararo munosabatlarni demokratizm, insonparvarlik, o'zaro talabchanlik, shaxsiy mas'uliyat va sog'lom raqobatdoshlik tamoyillari asosida rivojlantirish;

- ta'lismuassasalari kadrlar tarkibini tubdan yaxshilash, yuqori malakali, ilmiy faol, ruhan va ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol yoshlar hisobiga boyitish, o'qituvchilar ongini eskicha qoliplarda fikrlashdan qutqarish va insonparvarlik ruhini singdirish;

- oliy ta'lismuassasalarida talaba shaxsini ijtimoiylashtirishning asosiy tarkibiy qismlari birlashib, qo'shilib ketadigan bir butun, mukammal ijtimoiy organizmni – ta'limg-tarbiyaning yangicha tizimini, sog'lom ma'naviy-ruhiy va ishchan muhitni shakllantirish va insoniy qadriyatlarni takomillashtirish bo'yicha aniq maqsadlarga qaratilgan ruhiy-pedagog, tashkiliy va moddiy-texnik tadbirlarni amalga oshirish;

- ta'lismuassasalari hayoti va faoliyati uzlusiz ta'limg-tarbiya tizimini milliy va umuminsoniy, umummadaniy qadriyatlar, ma'naviy-axloqiy boyliklar bilan hamda zamonaviy fan-texnika, sanoat, texnologiya yutuqlari kommunikatsiya va axborotlar oqimi bilan mustahkam bog'lab rivojlantirish.

O'zbekistonda ta'limg-tizimi islohotlarning bunday istiqbolli va katta yo'lida dadil qadam tashlab bormoqda.

Ta'limg-tarbiyaga uzlusiz tizim sifatida qaralishining o'zi insonparvarlikning amalda namoyon bo'lishidir. Ayni chog'da insonparvarlik ta'limg-tarbiyaning uzlusiz va izchil bo'lishini taqozo etadi. Zero, bundan kuzatilgan asosiy maqsad muayyan

kasb-korni mukammal egallab olish va ayni chog'da sog'lom, barkamol inson shaxsini vujudga keltirish, uni hozirgi zamon fan-texnika va texnologiyasi yutuqlaridan bahramand etish, axborot asri sifatida namoyon bo'lishi kutilayotgan XXI asrning yuksak talablariga muvofiq kadrlar bo'lib yetishishlariga erishishdir. Kadrlar chuqur va keng bilimli, malakali mutaxassis bo'lishlari zarur, ammo bu bilimdonlik tarixiy-milliy zaminlarda qaror topadigan boy ma'naviyat, pok axloq, imon-e'tiqod butunligi bilan mujassam bo'lib ketgandagina ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimida mehnat qilayotgan har bir mutaxassisning qat'iyatli, ma'lum bir fikri bo'lishi kerak. Ta'lim-tarbiya tizimini insonparvarlik yo'nalishida shakllantirishda qaysiki, qat'iyatli fikr aytish uchun jur'at kerak. Jur'at uchun esa javobgarlikni his etish zarur. Javobgarlik, mas'uliyat uchun ilmiy asos kerak. Ilmiy asos insonparvarlikka, e'tiqodli amaliy axloqqa kelib taqaladi. Buni esa shaxsning malakali mutaxassis bo'lib shakllanishi yechib beradi. Bugungi kundagi ta'lim tizimimizga islohotlarni amalga oshirish yuqorida aytib o'tilgan jur'at, javobgarlik va ilmiy asosni o'zida umumlashtiruvchi Davlat hujjati yaratilishini taqozo qiladi.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» shunday hujjatlardir. Endi jamiyatimizning har bir a'zosi mas'uliyat bilan ularni bajarishi shart.

Agar ta'lim muammosini yechishga mas'uliyat bilan yondashadigan bo'lsak, unda o'z-o'zidan «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning tub mohiyat mazmunini jiddiy anglab yetishga to'g'ri keladi. Umuman, ta'lim jarayonini mantiqan o'ylab ko'rsak, bizning ta'lim tizimimiz endi pedagogik «til», yer, manfaat birligiga kelishimizni amaliy ta'minlab berishi lozim. Shuning uchun ham bu holning ijobiy, ijodiy yechilishi

ta’lim tizimi uchun o‘ta muhim ahamiyatga ega. Zotan, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning maqsadi va vazifalarini uzluksiz amalga oshirilishini keng ma’noda tushunish kerak.

### **2.3. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda ta’limni insonparvarlashtirish usullari**

O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimini insonparvarlik yo‘nalishida qayta qurish eng asosiy va markaziy muammolardan biridir.

O‘tmishda inson kamolotining muhim vositalaridan biri bo‘lgan ma’naviy-ruhiy va badiiy-estetik tarbiyaga kam ahamiyat berildi. Badan tarbiyasi va sog‘liqni saqlashning ahamiyatini yoshlar ongiga singdirish masalalari oqsab qoldi. Mutaxassislar tayyorlashda o‘rta miyonachilikka ruju etilishi, ijtimoiy hayotda shaxsning roli pasayishiga sabab bo‘ldi. Bu hol, ta’lim-tarbiya tizimida raqobatning yo‘qligi, yuqori malakali pedagog kadrlarning tansiqligiga olib keldi. Talaba-o‘quvchilarga bo‘lgan munosabat ham shundan iborat edi. Oliy ixtisoslik ma’lumotiga ega bo‘lgan, diplomli mutaxassislar juda ko‘p yetishtirildi, ammo ular xalq xo‘jaligini rivojlantirishning zamon talablariga to‘la javob beradigan mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllanmadi. Ularda tadbirkorlik sifatlari kam bo‘lgani uchun ba’zilarining ijtimoiy taraqqiyot, inson kamoloti yo‘lidagi o‘rirlari bilinmay qolayotir.

Ta’limni insonparvarlashtirish g‘oyasi va konsepsiysi ta’lim-tarbiya tizimidagi mana shunday kamchiliklarni bartaraf etishga, O‘zbekistonning o‘z oldiga qo‘ygan buyuk maqsadlarini amalga oshirishga qodir va layoqatli, ma’naviy barkamol va malakali mutaxassislarni yetishtirishga qaratilgan bo‘lmog‘i lozim.

Uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimini insonparvarlashtirish keng dunyoqarashli va ma’rifatli, aql-idroki mukammal, ma’naviy-

axloqiy jihatdan barkamol, ruhan tetik, o‘z mamlakati va uning jahon hamjamiyatida tutgan o‘rni va rolda o‘zining fuqarolik mas’uliyatini to‘g‘ri va to‘la anglab yetgan komil inson shaxsini tarbiyalash maqsadlariga bo‘ysundirishdan iboratdir.

Ta’lim va tarbiyaning uzluksiz jarayoni insonparvarlik tamoyillari asosida rivojlanishining nazariy va metodik jihatlari shu sohada mehnat qilayotgan kadrlarning ongi va qalbidan zarur darajada o‘rin olishi kerak.Ular ta’lim-tarbiyani Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini amalga oshirish bo‘yicha belgilanadigan yaqin vaqt va uzoq davrga mo‘ljallangan tadbirlarda, o‘quv rejalarini va dasturlari, test savollari tuzayotganlarida va boshqa shu kabi ta’limiy ishlarda ularning mazmuni insonparvarlik g‘oyasi bilan sug‘orilgan bo‘lishiga asosiy e’tibor qaratishlari zarur...

Ta’lim va tarbiyani tashkil etishning o‘quv-metodik, nazariy-metodologik jihatlari bo‘yicha ish ko‘radigan davlat muassasalari, ularning jamoalari, shuningdek, nodavlat strukturalar jamoalari o‘z faoliyatlarini belgilayotganlarida insonparvarlik g‘oyalariga qat’iy amal qilishlari uchun ham Davlat hujjatlarini yaratish zarurati tug‘ilmoqda.

Gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy konsepsiyasini qayta yaratishda ta’limni insonparvarlashtirishning tashkiliy jihatlarini belgilab olish zarur.

Uzluksiz ta’lim tarbiya tizimining insonparvarlik yo‘nalishida shakllanishida ijtimoiy-gumanitar fanlarning alohida o‘rni va roli bor. Shuning uchun oliy ta’lim muassasalarida ularni o‘qitadigan kadrlar har jihatdan o‘z sohasining bilimdoni va mohir pedagog, o‘qitish pedagogikasini mukammal egallagan bo‘lishiga erishish kerak. Oliy o‘quv yurtlarida o‘qitilayotgan fanlarning umumiy soatlari miqdoridan universitet va pedagogika institatlarda kamida 30 foizi, boshqa oliygochlarda 25 foizini ijtimoiy-gumanitar

fanlarni o‘qitishga ajratilishi zarur. Ularni jahon standartlari darajasiga yetkazish muhim ahamiyatga ega.

1. Uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimini insonparvarlik yo‘nalishida shakllantirish konsepsiyasini o‘quv-tarbiya jarayonlariga joriy etish uch bosqichda amalga oshirilishi ko‘zda tutilmoxda;

**Birinchi (boshlang‘ich) bosqich** – kasb, ta’lim dasturlarini va o‘quv rejalarini ushbu konsepsiyaga muvofiq qayta tayyorlash, gumanitar fanlar *mutaxassislarini* ixtisoslik bo‘yicha tayyorlashning o‘ziga xos tomonlarini hisobga olgan holda o‘rganishni yo‘lga qo‘yish. Bu bosqichda o‘quv-uslubiy adabiyotlarni tayyorlash, ta’limni insonparvarlashtirish maqsadlarini hisobga olgan holda tarbiyachilar professor-o‘qituvchilar tarkibini qayta tayyorlash va malakasini oshirish.

**Ikkinci (o‘tish) bosqich** – gumanitar fanlar o‘qitishni chuqurlashtirish, ta’limning yangicha shakl va uslublarini ishlab chiqish, uning yangi texnologiyalari bo‘yicha izlanish «hamkorlik pedagogikasi», o‘qituvchi kompyuterlar, ta’limning texnik vositalari-(TTV) va boshqa ta’lim tizimlarini insonparvarlashtirish muammolari bo‘yicha tadqiqotlar natijalarini tahlil etish va hayotga tatbiq qilish, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlashni davom ettirish.

**Uchinchi (asosiy) bosqich** – ta’limning milliy andozasi (modeli)ni insonparvarlashtirish jarayonini takomillashtirish, bu sohani jahon miqyosiga ko‘tarilishini ta’minlash.

Oliy ta’limning davlat ta’lim standartini belgilab olish maqsadida «Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy» fanlar bo‘yicha ishchi guruhlari tuziladi. Ishchi guruhidagi mutaxassislar bilan hamkorlikda «Bakalavr akademik darajasiga va ta’limning eng zaruriy mazmuniga qo‘yiladigan talablar» mezoni ishlab chiqiladi.

Ushbu me’yoriy hujjatda bakalavr uchun tayyorlanadigan fan sohalarida umum-gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar

bo'yicha bilim va saviyalariga qo'yiladigan talablar har bir fan sohalari bo'yicha alohida-alohida beriladi. Xuddi shuningdek, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar turkumi bo'yicha ham eng zaruriy (minimal) talablar mazmuni har bir fan bo'yicha alohida-alohida bayon etiladi.

Umumgumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar o'z ichiga quyidagi o'n sakkizta fanni qamrab oladi:

1) falsafa (etika, estetika, mantiq);

2) O'zbekiston tarixi;

3) huquqshunoslik;

4) dinshunoslik;

5) ma'naviyat asoslari;

6) milliy g'oya va mafkura;

7) iqtisod nazariyasi;

8) O'zbekistonda yangi demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti;

9) siyosatshunoslik;

10) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish;

11) sotsiologiya;

12) pedagogika;

13) psixologiya;

14) madaniyatshunoslik;

15) o'zbek tili;

16) rus tili;

17) chet tili;

18) jismoniy tarbiya.

Mana shu fanlar bo'yicha namunaviy dasturlarni va darsliklarni qayta tayyorlashda nimalarga e'tibor berish kerak? Birinchi navbatda ta'limning uzviyligiga va tarbiyaviy ahamiyatiga e'tibor berish kerak.

Masalan, «Ma'naviyat asoslari» kursi bo'yicha mavzular va soatlar taqsimoti berilgan. Unda – auditoriya soatlari-24

soat, amaliy mashg'ulotlar-16 soat, jami 40 soatga mo'ljallangan. Har bir mavzu yuzasidan kichik axborot berilgan. Unda har bir mavzuni batafsil ochib berish, talabalarga yetkazish uchun asosan nimalarga e'tibor berish kerakligini ta'kidlash zarur.

Dastur barcha akademik litsey va professional kollejlar uchun asos va umumiyo yo'llanma hisoblanadi. Unda har bir o'quv muassasasi yo'naltirilgan mutaxassisligiga xos xususiyatlarni hisobga olib, bu dasturga ba'zi o'zgartirishlarni kiritishi mumkinligi ham aytib o'tilgan. Keyingi yillarda yaratilgan dasturlarda qaytariqlar va birmuncha murakkabliklar mavjud.

Xulosa qilib aytganda, 1-blokka tegishli ijtimoiy-gumanitar fanlar blokidagi barcha o'quv dasturlarini milliy g'oya asosida insonparvarlashtirish g'oyasini ham singdirish, fanga qo'yilgan talablarni ham shunga moslab qayta ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.



5-shakl.

Uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini insonparvarlashtirish keng dunyoqarashli va ma'rifatli, aql-idroki mukammal, ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol, ruhan tetik, o'z mamlakati va uning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni va rolida o'zining fuqarolik mas'uliyatini to'g'ri va to'la anglab yetgan imonli, komil inson shaxsini tarbiyalash maqsadlaridan kelib chiqadi. Ta'limni insonparvarlashtirishning markaziy masalasi yoshlarda yuksak axloq va fuqarolik sifatlarini shakllantirish, insonning ornomusi, sha'ni va mas'uliyati kabi tuyg'ularni, vatanparvarlikni, ma'naviy-ruhiy fazilatlarni tarbiyalashdan iboratdir.

Ta'limning o'quv va madaniy-tarbiyaviy vazifalari, shu jumladan, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishning sifati samaradorligini oshirish yuzasidan qilinayotgan ishlar davlat ahamiyatiga ega bo'lган ushbu muhim masalani hal qilishga qaratilmoqda. Ta'lim tizimimizni kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida qayta qurish, ijtimoiy-gumanitar fanlar mazmunini milliy istiqlol g'oyasi bilan boyitish bu vazifalarni nazariy va amaliy jihatdan tayyorlash va mustahkamlashga qaratilgan keng miqyosli tadbirlardir.

Mutaxassislarning kasbiy, ixtisoslik tayyorgarligi millatning ma'naviy merosidan oziq olgan bo'ladi, ularning yuksak ma'naviy-axloqiy imkoniyatlari, keng dunyoqarashi va chuqur aql-idroki, yuksak ijtimoiy axloq me'yorlari bilan o'zaro muvofiq kelishi ta'minlanadi.

Ta'limni insonparvarlashtirishning o'ziga xos tamoyilla-  
riga ko'ra, inson va uning kamoloti, erkinligi butun ta'lim-  
tarbiya tizimining markazida turmog'i lozim.

**Birinchidan**, inson, inson uchun oliy qadriyat, oliy maqsad bo'lib qolishi, buning uchun esa, avvalo yoshlarning, ularga ta'lim-tarbiya berayotgan barcha kishilarning, ma'naviy yuksak, o'z sohasini puxta egallagan, pedagogik mahorati yuqori bo'lmog'i lozim.

**Ikkinchidan**, O‘zbekiston jahonga yuz tutdi, jahon ham O‘zbekistonga o‘z bag‘rini ochmoqda. Binobarin, endigi kadrlar jahon xalqlari bilan doimiy muloqotda bo‘ladilar. O‘zbekistonga, uning xalqiga har bir kadrning shaxsiy sifatlariga qarab baho beradilar, munosabat belgilaydilar. Bunday sharoitda bo‘lajak mutaxassisning o‘z kasbining qay darajada ustasi ekanligi, ayni chog‘da O‘zbekiston fuqarosi sifatidagi fazilatlariga qarab xorijliklar bizning mamlakatimiz haqida tasavvurga ega bo‘ladilar. Buni har bir yosh avlod nazarda tutishi, shundan kelib chiqib, ta’limga munosabat belgilashi, o‘z-o‘zini va milliy o‘zligini anglashi muhimdir. Ya’ni yoshlarda o‘z xalqi, vatani oldidagi fuqarolik, farzandlik burchini chuqur his etishni, yuksak mas’uliyat tuyg‘ularini tarbiyalashni bu sohadagi muhim vazifalar sifatida belgilash zarur.

**Uchinchidan**, O‘zbekiston bozor munosabatlarni shakllantirish, ijtimoiy yo‘naltirilgan mazmunga ega bo‘lmoqda. Demak, ana shu munosabatlarni shakllantiradigan va unda faoliyat ko‘rsatadigan kadrlarning ma’naviy olami – «Men»i yuksak ideallar, insonparvarlik g‘oyalari, Milliy qadriyatlar asosida shakllanishi uchun ta’lim-tarbiya tizimining butun yo‘nalishi insonparvarlik g‘oyasi bilan sug‘orilgan bo‘lishi lozim, ya’ni bozor iqtisodi muhiti insonda chinakam insoniy fazilatlarning to‘la nomoyon bo‘lishini ta’minalashga xizmat qilsin. Qisqasi, bozor munosabatlari muhiti pirovard natijada to‘kin-sochin, farovon turmush tarzi bilan birga, barkamol, imon-e’tiqodli, yuksak madaniyatli insonlarni voyaga yetkazish hamda ular o‘z qobiliyatlari, iste’dodlarini erkin ro‘yobga chiqarishi uchun qulay sharoit sifatida qaralishi kerak.

«Bozor iqtisodiyoti tufayli insoniy xislatlarni unutish gunohdir, – deb uqtiradi Prezidentimiz I.Karimov. Agar biz pul

va foyda ketidan quvib, kishilarning ma'naviy qashshoqligiga yo'l qo'ysak, unda bunday jamiyat hech kimga kerak bo'lmay qoladi».

**To'rtinchidan**, ta'lim va tarbiyaning uzluksiz jarayoni insonparvarlik tamoyillari asosida rivojlanishining nazarini va metodik jihatlari shu sohada mehnat qilayotgan kadrlarning ongi va qalbidan o'rinni olish kerak. Ular ta'lim-tarbiyani «Ta'lim to'g'risidagi» Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini amalga oshirish bo'yicha belgilanadigan yaqin va uzoqqa mo'ljallangan tadbirlarda, o'quv rejasi va dasturlari, test savollari tuzayotganida, darslik, qo'llanmalarni yaratganda va boshqa shu kabi ta'limiy ishlarda ularning mazmuni insonparvarlik g'oyasi bilan, milliy g'oya va mafkura bilan sug'orilgan bo'lishiga asosiy e'tiborni qaratishlari darkor bo'ladi. Bunday maqsad va vazifalarni ro'yobga chiqarish hamda ta'lim-tarbiya tizimini insonparvarlashtirish uchun quyidagi asosiy tamoyillarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

- 1) respublikada ma'naviy-axloqiy muhitni milliy zaminda sog'lomlashtirishda ta'limning ustuvorligi tamoyili;
- 2) ta'lim va tarbiyaning uzluksizligi va bir-biridan ajralmaslik tamoyili;
- 3) ta'lim va tarbiyada oila va mahalla jamoasi mas'uliyatini oshirish tamoyili;
- 4) ta'lim jarayonida tarbiya samaradorligini va tarbiyalash jarayonida ta'lim qadriyatini oshirish tamoyili;
- 5) ta'lim-tarbiyani dunyoviy tasnifda shakllantirish tamoyili;
- 6) o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarida ustoz-shogirdlikni hamkorlik pedagogikasi talablari asosida qaror toptirish tamoyili;
- 7) o'quv dasturlari va qo'llanmalarni, darsliklarni, boshqa yordamchi o'quv adabiyotlarni, ta'limning texnik vositalarini

zamon talablariga muvofiq muntazam yangilab borish tamoyili;

8) ta'lim-tarbiya jarayonlari va vositalarini davr talabiga muvofiq muntazam yangilab borish, tegishli axborot bilan ta'minlash va ularga milliy g'oyani singdirish tamoyili;

9) talabalar bilimlarini, professor-o'qituvchilar mahoratini baholash va rag'batlantirishda uzviylashtirish tizimidan foydalanish tamoyili;

10) ta'limni jahon andoza-standartlari va ko'rsatkichlari darajasiga chiqarish tamoyili va boshqalar.

Bu tamoyillarning har birini alohida izohlab, sharhlab o'tirishning zarurati bo'lmasa kerak. «Ta'lim to'g'risidagi» va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» Qonunlarida ham bular ta'lim sohasidagi islohotlarning muhim jihatlari sifatida qaralgan.

Muhimi, bu tamoyillarni ta'lim-tarbiya tizimiga joriy etishda va asosiy maqsadlar va vazifalarni amalga oshirishda asrlar mobaynida shakllangan ilg'or an'analarga, qadriyatlargacha suyanish, ilg'or mamlakatlarning tajribalarini ham qo'llash, ulardan samarali foydalana bilishdadir. Talaba-o'quvchilarni zarur bilimlar va boy axborot bilan ta'minlash, tegishli kasbhunar malakalarini berish masalaning bir tomoni bo'lsa, bo'lajak mutaxassisning ma'naviy-axloqiy jihatdan ham barkamol shaxs sifatida shakllanishini, umummadaniy saviyasi, ongi va dunyoqarashining keng, chuqur, sermazmun bo'lishini ham ta'minlash masalaning yana ham muhim tomonidir. Ma'naviyati, imon-e'tiqodi sust, madaniy saviyasi past, ongi va dunyoqarashi to'la shakllanmagan kimsaga zamonaviy bilimlarni, nozik kasb-hunarni ishonish xavflidir.

Keyingi yillarda uzlusiz ta'lim jarayonlariga yangi-yangi fanlar, maxsus kurslar kiritildi. Masalan, «Ma'naviyat asoslari», «Madaniyatshunoslik», «Huquqshunoslik», «Dinshunoslik», «Odobnomalar», «O'zbekiston Konstitutsiyasini o'rga-

nish», «Siyosatshunoslik», «Demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti», «Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar», «O‘zbekiston tarixi», «Lotin imlosiga asoslangan yangi o‘zbek imlosi va qoidalari» va hokazolar.

Ijtimoiy-gumanitar blokda avvaldan o‘qitilib kelinayotgan an’anaviy fanlar bilan bir qatorda bu fanlar ham bevosita talabalar ongi va dunyoqarashini shakllantirishga, boyitishga, ularda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning takomillashuvini, vatanparvarlik, milliy iftixon tuyg‘ularining mustahkam qaror topishini ta’minalashga qaratilgandir. Bu fanlar ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar fanlar tizimini yana ham mustahkamladi, boyitdi, ta’lim muassasalarida gumanitar va insonparvarlik ta’limining, ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonlarining ustuvorligi uchun muayyan zamin bo‘ldi. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, mazkur fanlarning mavjud mazmun-mundarijasi hanuzgacha ta’limni insonparvarlashtirishga to‘liq xizmat qilmayotir. Shu sababli, bu fan va kurslarning mazmun mundarijasiga insonparvarlik g‘oyalari va mohiyatini yanada chuqurroq singdirish lozim.

Ta’lim-tarbiya jarayonlarini insonparvarlashtirishga qaratilgan tadbirlarda hisobga olinishi zarur bo‘lgan yana bir jihat mustaqillik yillarida mamlakatimizda yuzaga kelgan milliy shart-sharoitlarni, dunyoda sodir bo‘layotgan mafkuraviy-siyosiy jarayonlarni, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniytarixiy voqeа-hodisalarni e’tibordan soqit qilmaslik. Zamona viy kadrlarni tayyorlashda mamlakatimiz ichkarisiga va tashqarisida qaror topgan va o‘sib-o‘zgarayotgan real muhit beradigan oziqlardan unumli va samarali foydalanish zarur. Chunki har bir shaxs o‘zi tarbiya topgan, shakllangan muhitning farzandi hisoblanadi. Bizning milliy-ma’naviy qadriyatlarmiz, moddiy imkoniyatlarimiz, hududiy-jog‘rofij

muhitimiz kishilarimizda muayyan ong va dunyoqarashni shakllantirish va qaror toptirish tamoyillarimiz, ularning boy ma'naviy-ruhiy imkoniyatlarini ishga solish bobida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, masala o'ziga xos yondashuvlarni ham talab qiladi. Ma'lumki, mamlakatimizning sharqiy chegaralari ijtimoiy-siyosiy ixtiloflar ro'y berayotgan va fuqarolar urushi uzoq yillardan beri davom etib, oqibatda diniy ekstremizm, terrorchilik, milliy nizolar avjiga chiqqan Afg'oniston va Tojikiston kabi notinch davlatlar hududlari bilan tutashgan. U mamlakatlar aholisi ko'p vaqtlardan buyon bir-biriga qarama-qarshi guruhlari, siyosiy kuchlar ta'sirida bo'lib, dahshatli urushlar girdobiga tortilib, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotdan uzilib qolmoqda.

Bu esa, o'z navbatida, giyohvand moddalarning mamlakatimizda ma'lum darajada tarqalishiga va bundan kelib chiqadigan salbiy hodisalarни giyohvand moddalarning g'ayriqonuniy aylanishi va bu bilan bog'liq jinoyatlarning tobora ortib borishiga sabab bo'lmoqda. Respublikamizda narkotik moddalarning g'ayriqonuniy aylanishiga qarshi kurashish bo'yicha tegishli tadbirlarni amalga oshirmoqda, fuqarolarimizni giyohvandlik, OITS (SPID) kabi kasalliklardan muhofaza etish choralarini ko'rmoqda. Uzluksiz ta'lim tizimida «Giyohvandlikka qarshi kurash» 10 soatlik maxsus kursi va «Talaba-o'quvchilar orasida OITS (SPID) tarqalishining oldini olish» 10 soatlik maxsus kursining joriy etilishi ham respublikamiz aholisining, jumladan, talaba-yoshlarning salomatligini muhofaza qilishga, ularda siyosiy hushyorlikni, jahonda kechayotgan siyosiy-mafkuraviy jarayonlarga nisbatan ongli munosabatni tarbiyalash va shakllantirishga qaratilgan tadbirlardandir.

Yoshlarning insonni borliqning eng oliy qadriyati sifatida idrok etishi, o'zlashtirishi va chuqur anglab yetishini

ta'minlash, bo'lajak mutaxassis sifatida ularning har bir ixtisoslik va ijtimoiy faoliyatda bunga amal qilishga erishish lozim.

Bugungi kunda bu vazifalar butun dunyo miqyosida sodir bo'layotgan – jamiyatni insonparvarlashtirish jarayonining tarkibiy qismi va muhim vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Boshqacha qilib aytganda, ta'limni insonparvarlashtirish oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida pedagogik faoliyatni talaba shaxsini takomillashtirishning ustuvorligiga yo'naltirish, uning ijodiy qobiliyatini o'stirishga, erkinlik va huquqlarini kengaytirishga, ma'naviy-axloqiy qiyofasi va fuqarolik ongini kamol toptirishga qaratishdan iboratdir.

Ta'limning maqsadi talabalarning turli-tuman qiziqishlari doirasini, bilishga bo'lgan intilishlari va imkoniyatlarini, ilmiy, ijodiy, umummadaniy saviyasi, qobiliyatları va iqtidorini aniqlashdangina iborat bo'lmay, balki ularni tarbiyalash va o'stirishga ham qaratilishi zarur.

Buning uchun bir qator aniq vazifalarni belgilab olish maqsadga muvofiqdir:

- talaba-yoshlarning inson sifatida sha'ni va or-nomusini, haq-huquqlarini hurmat qilish, ularga munosabatda bo'lishda o'zaro hamkorlik tamoyillarining ustuvorligiga rioya qilish;

- ularning har tomonlama keng va chuqurroq, ko'proq bilim olishlari uchun o'z shaxsini ham jisman, ham aqlan va ruhan taraqqiy ettirishlari, o'z ichki va tashqi imkoniyatlarini erkin namoyon etishlari uchun sharoitlar yaratish va qayg'urish;

- talabalar o'quv yurtida o'zlarini erkin va ozod his etishlari, hech kimning shaxsiy ta'siri va tayziqi ostida siqilmay, mustaqil fikrashi, mustaqil taraqqiy qilishi uchun qulay muhit vujudga keltirish;

- o‘qituvchi-xodimlarning o‘zaro aloqalarida, talabalar bilan muloqotlarida yuksak ma’naviylik, insonparvarlik, o‘zaro hurmat va samiyiyat, talabchanlikni qaror toptirish;
- sharqona ustoz-shogirdlikning eng yaxshi an'analarini tiklash;
- talaba-yoshlarga, ularning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, differensial farqli yondashuvni, har biri uchun alohida g‘amxo‘rlik qilishini yo‘lga qo‘yish.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda, ayniqsa, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda mezon bo‘lib xizmat qiladigan: ona tili, tarix, chet tillari, milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari, pedagogika va psixologiya, etika va estetika, madaniyatshunoslik, demokratik jamiyat qurish nazariyasi, falsafa, sotsiologiya fanlarini o‘qitish jarayonida insonparvarlik tuyg‘ularini omixtalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Buyuk mutafakkirlarimizning fikricha, *insonparvarlik* – insonning sharafi, vijdoni va imonning mahsuli hisoblanadi. Insonparvarlik mazmunan boy va xulq-odob qoidalarini o‘zida mujassamlantiradi. Ya’ni insonparvarlik qadriyati negizida mehr-shavqat muruvvat va oqibat, saxiylik, saxovatpeshalik, diyonat, qanoat, himmat,adolat, sabr-toqat, mehribonlik, fahm-farosatlilik kabi ma’naviy-axloqiy xususiyatlar o‘z aksini topadi. Abu Rayhon Beruniyning fikricha, insonparvarlikning xalq ichida keng yoyilgan ko‘rinishi – bu odamgarchilikdir. Odamgarchilik kishining o‘zi, urug‘-aymog‘i va o‘z aholisiga ta’sir etish bilan chegaralanadi. Mardlik esa undan ham ustun bo‘lib, o‘zidan tashqariga ham o‘tadi. Muruvvatli mard kishi o‘zining muloyimligi, irodasi mustahkamligi, kamtarinligi tufayli tanilib, garchi shu martabaga, oliy darajaga ko‘tariladi. Unasli-nasabi jihatidan emas, balki odamgarchilik jihatidan haqli ravishda hurmat qilinadi. Demak, buyuk mutafakkirlarimizning ta’lim-tarbiya nazariyasi haqidagi fikrlari umumjahon ilmiy

pedagogika taraqqiyotiga muhim hissa bo‘lib qo‘sildi. O‘zbek xalq mutafakkirlarining aynan ana shu yo‘nalishdagi muhim olamshumul axloqiy qarashlari, fikrlari, g‘oyalari ilgari suriladi.

Hozirgi sharoitda tarbiyaga oid insoniyatning boy ma’naviy xazinasidan munosib o‘rin olgan tarixiy, milliy, ma’naviy madaniy merosimiz, urf-odatlarimiz va qadriyatlarimizdan ta’lim jarayonida samarali foydalanish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvar, fidokor, yuksak madaniyatli va ma’naviyatli qilib tarbiyalashning asosiy omillaridan biridir.

Talabalarning qobilyatlarini va mahoratlarini rivojlantirish, mustaqil fikr yuritishni kengaytirish, insonparvarlik, mehrmuruvvat hislarini tarbiyalash, diyonatni asrash, mehr oqibatni mustahkamlash, nutq madaniyatini, taraqqiyotini o‘stirish, axloqiy-estetik kamolotga yetkazish, mehnat va tabiatga muhabbat ruhini singdirishda tarbiyaviy ishlarning hamda ijtimoiy-gumanitar fanlarning roli benihoya kattadir. Demak, oliy ta’lim tizimi oldiga asosiy vazifalardan biri umuminsoniy va milliy, ma’naviy qadriyatlarga tayangan holda ta’lim va tarbiya mazmunini insonparvarlik g‘oyasi bilan boyitish, demokratlashtirish, uzviyligi, izchilligi va dunyoviyligini ta’minlashdan iboratdir.

Mustaqil yurtimizning ma’naviyati, ertangi kelajakni qurayotgan buyuk davlatimizning mustahkam poydevoridir. Talaba-yoshlarning ma’naviy madaniyatini tarkib toptirish uchun barcha ta’lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni to‘g‘ri tashkil etish, tarbiyaviy soatlarni o‘tkazishni ommalashtirish, darsdan tashqari o‘tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarni ko‘proq tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Albatta, tarbiyada ustoz-o‘qituvchilarning roli beqiyosdir. Agar ustoz shaxsiy ibrat ko‘rsatsagina, tarbiyada yaxshi

natijaga erishish mumkin bo‘ladi. «Qush uyasida ko‘rganini qiladi», – degan xalq naqli bekorga aytilmagan. Talaba-yoshlar 4–8 soat vaqtini ta’lim muassasasida o‘tkazsa, qolgan 20–16 soat vaqtini o‘z oilasida yoki talabalar uyida o‘tkazadi. Agar ta’lim muassasalarida rahbariyat va ota-onasiga, guruh murabbiylari o‘rtasidagi munosabatlari, ichki intizom nazorati, davomat, tarbiyaviy ishlari, darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsa, ishyoqmaslik, bekorga vaqt o‘tkazishlar bo‘lmasa, bo‘sning vaqtdan unumli foydalanish boshqarilsagina tarbiya yaxsh natijalar beradi.

## **2.4. Uzluksiz ta’limni insonparvarlashtirishning tarbiya turlari bilan uzviy bog‘lash va uning funksiyalarini ifodalash**

Tarbiya usullari turli elat, millat va davlatlarda turlitumanligi bilan farq qiladi. Osiyo mamlakatlarda, xususan O‘zbekistonda esa ko‘proq umuminsoniy tarbiya elementlari qo‘llaniladi. Bunday tarbiya tizimining o‘ziga xosligi o‘zidan kattaga alohida hurmat, kattalar gapiga qulqoq solishlik, ularning topshiriqlarini beminnat bajarishdir.

O‘quvchilar axloqini, dunyoqarashini shakllantirishda ishontirish asosiy metodlardan hisoblanadi. Ishontirish usuli asrimizning 20-nchi yillariga kelib, asosiy metodlardan biri sifatida ilgari surilgan.

Ishontirishning psixologik asosi o‘quvchilar ongida kelgusi xatti-harakat bilan xarakterlanadi. Xatti-harakatni oldindan rejorashtirishning bu usuli orttirilgan tajribaga va faoliyatning normalari, qoidalari prinsiplariga asoslanadi. Shaxs biron bir ish yoki tadbirni bajarishdan oldin, albatta, o‘z xatti-harakatlarini ijtimoiy talablar, atrof-muhit sharoitlari bilan munosibligini o‘ylab ko‘radi.

Ishontirish usulida tarbiyachi o'quvchilar ongiga, ruhiga, oriyatiga, irodasiga ta'sir etish yo'li bilan ularning xarakteridagi axloqiy, intellektual va boshqa ijobiylarini shakllantiradi, illatlarni kamaytiradi, yo'qtadi. Ishontirish shakllanayotgan shaxsnинг qadriyatlariga, dunyoqarashiga asoslanib, ruhiy va ijtimoiy munosabatlarning tub mag'zini chuqur tushuntirishga tayanadigan metod hisoblanadi.

O'qituvchi o'zi aytayotgan, uzatayotgan axborotga o'quvchilarni ishontira olsagina, o'z orqasidan ergashtira oladi. O'quvchilarni o'quv mehnatiga, aqliy faoliyatiga rag'batlantira oladi. O'qituvchi o'quvchilarni ishontirish uchun turli vositalardan foydalanishi mumkin. Jonli suhbat, iboralarni, asosli faktlarni keltirish, hissiyotlariga ta'sir etish shular sirasiga kiradi.

Ishontirish orqali o'qituvchi o'quvchilarda har tomonlama kompleks tarbiyani amalga oshiradi. Hukumatimiz, Prezidentimizning olib borayotgan tashqi va ichki siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning respublikamizga xos tamoyillari, bozor iqtisodiyotiga o'tishning yo'llari tushuntirilganida talabalar kelajakda respublika hayotiga o'zlarining shaxsiy daxldorliklarini chuqurroq his etadilar va shunga yarasha bilim, ko'nikmalarni egallahsga harakat qiladilar.

Tarbiya tizimining yetakchi bo'g'ini yoshlarni tarbiyalash o'quv jamoalaridagi tarbiyachilar, bolalarning turar joylaridagi mavzelar, mahallalar, oiladagi ota-onalar, ommaviy axborot vositalari, adabiyot, san'at va boshqa vositalar orqali amalga oshiriladi. Mazkur tizimda yosh avlodga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning yetakchi bo'g'ini umumta'lim maktablari hisoblanadi. Maktabga kuni uzaytirilgan tizim kiritiladi, o'quv klublari, oromgoh ishlari tashkil qilinadi, darsdan tashqari vaqtarda o'quvchilarga o'quv xonalari, sport zallari va

kutubxonalardan keng foydalanish imkoniyati ochiladi. Ularning maktab madaniyat muassasalarini bilan aloqasi kuchayadi. Malakali pedagogik xodimlarga ega bo‘lgan maktab, oila va korxona hamda turar joy jamoatchiligi bilan birgalikda muntazam ishni pedagogik jihatdan yo‘naltiradi.

Bolalar tarbiyasi bo‘yicha o‘quv maskani, oila va jamoatchilikning faoliyatini muvofiqlashtirish, asosan quyidagi tashkiliy shakllarda amalga oshadi:

1. Ta’lim muassasasining pedagogika jamoasi, ota-onalar qo‘mitasi, korxonalar va turar joylari, klublar, kutubxonalar, sport maydonlari bo‘yicha jamoatchilik kengashlari vazifasi aniq taqsimlangan holda tarbiyaviy ish rejalariga muvofiqlashtiriladi.

2. O‘qituvchilarining kuchi bilan ota-onalar va jamoatchilik vakillarini bolalar bilan ishslashning eng samarali pedagogik usullarini muntazam joriy qiladilar.

3. Tarbiyaviy ishlarning borishi va natijalarini sinchkovlik bilan o‘rganish, topilgan kamchiliklarning sabablarini aniqlash va uni bartaraf etish tadbirlari birgalikda amalga oshiriladi.

Hozirgi vaqtida bolalarning oiladagi tarbiyasini yaxshilashga alohida e’tibor berilmoqda.

**Ma’naviy-axloqiy tarbiya.** O‘zbekiston mustaqil davlatga aylangan bir sharoitda ma’naviy va axloqiy tarbiya qator omillar ta’sirida amalga oshiriladi. Axloqiy sifat shaxsning barcha muhim xususiyatlarini yaxlit holga keltiradi.

O‘zbek xalqining moddiy va madaniy darajasining ko‘tarilishi yangi axloqning kelajakdagi rivojlanishi va mustahkamlanishining sotsial bazasini kengaytiradi, shaxs ehtiyojlarini yangi darajasi va undan oqilona fodalanishni shakllantiradi.

Axloqiy tarbiyaning maqsadi shaxsni axloqiy shakllantirshdir. Shaxsning muhim ma’naviy sifatlari bo‘lgan

axloqiy ong, hissiyot va xulqni shakllantirish: vatanparvarlik, vatanga muhabbat, O'zbekiston gerbi, bayrog'i, madhiyasiga hurmat, insonparvarlik, ongli intizom va boshqa tuyg'ularni kamol toptirish axloqiy tarbiyaning asosiy vazifasidir.

Axloqiy tarbiyaning ba'zi asosiy sifatlari mazmunini tavsiflaymiz.

**Vatanparvarlik.** Vatanparvarlik Vatanga muhabbat, uning himoyasiga tayyor bo'lish, Vatanning gullab-yashnashi uchun mehnat qilish demakdir.

Insonning ma'naviy qiyofasida bu tuyg'ular o'zini namoyon qiladi. Unda ijtimoiy burch bilan belgilanadigan xatti-harakatning eng yuqori asoslari o'z aksini topadi. Fuqarolik burchi inson hayotiy faoliyatining barcha sohalaridagi ijtimoiy faolligini kuchaytiradi. Vatan manfaatlarini himoya qilishda, mehnatda, ijtimoiy faoliyatda o'zining fuqarolik majburiyatlarini sidqidildan bajarishga rag'batlantiradi.

O'quvchilarda baynalmilal tuyg'u va baynalmilalchi sifatlarini tarbiyalash jarayonida ularning O'zbekiston xalqlarining milliy birligi, umum davlat manfaatlarining ayrim viloyat yoki millat manfaatlaridan ustunligini tushuntirish alohida ahamiyatga ega.

Jamoatchilik faoliyati shaxsning xususiyatlari sifatida namoyon bo'ladi va insonning jamiyat maqsadlari bilan birdamligini aks ettiradi. Uning tuzilmasiga mehnat va jamoatchilik faolligi, burch va javobgarlik tuyg'usi, o'rtoqlik, o'zaro yordam, jamaa va butun jamiyat manfaatlari yo'lida boshqalarga va o'ziga talabchanlik tuyg'ulari kiradi.

**Mehnatsevarlik.** Bu axloqning eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Mehnatga mas'uliyatli munosabatning asosiy begilari: beg'arazlik, mehnat majburiyatlariga ongli, mas'uliyatli yondashish, intizomlilik, ijodiy izlanish,

tashabbus, faoliyat natijalarini oldindan ko'ra bilish va mustaqil qaror qabul qilish, jamoatchilik hamkorligi; o'rtoqlariga yordam ko'rsatishga tayyorgarlik, mehnat kishisining qadr-qimmati tuyg'usini rivojlantirish.

**Ongli intizom.** Ongli intizom axloqning tarkibiy qismi hisoblanadi. Intizom deganda burchni bajarish - shaxsiy va ijtimoiy, davlat, shaxsiy va jamoatchilik majburiyatlarini kamko'stsiz bajarish hamda ijtimoiy hayotda kishilarga jamiyat qabul qilgan xatti-harakat me'yorlariga amal qilish tushuniladi.

Intizom ma'naviy va siyosiy hodisadir. U qandaydir alohida intizomiy tadbirlarning natijasi emas, balki tarbiya natijasidir. Ongli intizom nuqtai nazar va e'tiqoddan o'sib chiqadi. O'quvchilarni intizomlilikni tarbiyalash ularning e'tiqodini shakllantirish, umumiyl madaniyatini o'stirish, muntazam mehnatga va vazifasini qat'iy bajarishga o'rganish bilan bir vaqtida amalgalash oshiriladi.

Axloqiy tarbiyaning mazmuni, avvalo o'quvchilarning amaliy faoliyatlarida, o'qish, mehnat, jamoatchilik ishlarida, ularning munosabatlari xarakterida, o'zaro ta'sir ko'rsatish usullari, xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirishlarida namoyon bo'ladi.

Axloqiy tarbiyaning mazmuni o'quv dasturlari va darsliklarga joylangan bo'lib, u o'quv jarayonida amalgalash oshiriladi.

Axloqiy ideal hayotiy rejalar va xulq-atvor namunalarida, hayotiy nuqtai nazarlarda namoyon bo'ladi. O'quvchilar tasavvurida barkamol shaxs va uning jamiyat bilan munosabatlarida amalgalash oshiriladi. Bu tasavvur umumlashgan, saylangan, axloqiy faoliyatning dasturi ko'rinishlarida namoyon bo'lishi mumkin.

Axloqiy ideal o'quvchilarning hayotiy rejalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ideal va hayotiy

rejalarning o'zaro bir-biriga ta'siri o'quvchilarning axloqiy tuyg'u va irodasi, o'z-o'zini anglashining rivojlanish darajasi bilan bog'liqdir. Axloqiy ideallar o'quvchilarning jamiyatning ijtimoiy qadriyatlari tuyg'usidagi tasavvurlarini aks ettirish barobarida bevosita ularning kasbiy intilishlari bilan bog'liqdir.

O'spirinlik va ayniqsa, ilk o'smirlik yoshlarida o'quvchilar boshqa kishilarning asosiy xatti-harakati va ishlarini tahlil qiladilar, oqibatda shakllangan qarashlarini o'zgartirish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Bu esa axloqiy namunalarni o'zlashtirishlariga ijobiy ta'sir qiladi.

Har qanday ijtimoiy me'yor-siyosiy, huquqiy, axloqiy xulq-atvorni tartibga solish vazifasini bajaradi. Huquqiy va axloqiy me'yorlarning o'ziga xoslik va o'zaro aloqadorlik tomonlari nimada?

Axloqiy dunyoqarash tegishli yurish-turish me'yori va chambarchas bog'langan. Huquqiy sohada har qanday qarashlar huquqiy normalarda mujassamlashavermaydi. Shu bilan birgalikda axloqiy me'yor inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab olib, huquqiy qonunlarga nisbatan ancha keng tarqalgan.

Axloqiy me'yorlarning ta'sirchanligiga tartibga solish mexanizmlari vositasida erishiladi. Ular yordamida me'yoriy talablar shaxsning ichki zararuriy munosabatlariga, uning axloqiy sifatlariga aylanadi.

Shunday qilib, axloqiy sifatlarni shakllantirish tarbiyachining axloqiy ong, axloqiy tuyg'u va axloqiy fe'l-atvorni ko'zda tutgan holda shaxsga butunligicha yondashish tizimi orqali amalga oshiriladi.

## Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning yo‘llari va vositalari

Ma’naviy-axloqiy tarbiya yoshi va o‘quvchining to‘g‘ri yo‘nalish olish uchun hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadigan muhtini ham hisobga olganda shaxsning butun hayotiy faoliyati jarayonida amalga oshiriladi. Axloqiy tarbiyaning yo‘l va usullari o‘quvchilarga axloqiy saboq berish kabi maxsus ishni tashkil qilishda alohida xususityaga ega. Ushbu yo‘llarni ko‘rib chiqaylik. Axloqiy bilim berish bir qancha tarbiyaviy vazifalarni bajaradi: inson hayoti va madaniyatining axloqiy qadriyatlari to‘g‘risida keng tasavvur beradi.

Axloqiy tasavvurlar, qarash, mulohaza, baho berishni shakllantirishga va shu asosda axloqiy e’tiqod shakllantirishga ta’sir ko‘rsatadi:

- o‘quvchilarni o‘zlarining axloqiy tajribalarini mushohada qilishlari va boyitishlariga yordam beradi;
- turli manbalardan axloq to‘g‘risida olingan bilimlarni to‘g‘rilaydi;
- shaxsning o‘zini axloqiy tarbiyalashga yordam beradi.

Ma’naviy-axloqiy bilim, asosan axloq to‘g‘risidagi suhbatlar, ma’ruzalar, tanlangan mavzuga oid kechalar, turli kasb namoyondalari bilan uchrashuvlar, anjumanlar va boshqa uchrashuvlar bilan amalga oshiriladi.

Axloqiy bilim berishni tashkil qilishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini, ularning shaxsiy axloqiy tajribalarini, axloqiy me’yorlar to‘g‘risidagi xabardorlik darajasini axloq sohasidagi o‘zlashtirgan bilimlarining axloqiy talablari bilan munosabatini hisobga olish zarur.

Shaxsning axloqiy rivojlanishi axloqiy ehtiyojlarni shakllantirishni o‘z ichiga oladi: mehnatga, muloqotga, madaniy qadriyatlarni o‘zlashtirishga, bilish qobiliyatini rivojlanish va boshqalarga ehtiyoj seziladi. Bu ehtiyojlar

o'quvchilar faoliyati va munosabatlarining real tajribasida rivojlanadi. Ko'p qirrali faoliyat jarayonida xatti-harakatning ijtimoiy foydali ko'nikmalari, axloqiy odatlar, barqaror munosabatlar shakllanadi.

Har qaysi rol muayyan axloqiy-psixologik xususiyatni taqozo etadi. Har qanday ijtimoiy rol eng muhim axloqiy ilm olishni talab qiladi; onglilik, mas'uliyat, mehnatsevarlik, yordam ko'rsatishga tayyorlik, o'zining shaxsiy qiziqishlari bilan harakat qilish. Demak, ijtimoiy majburiyatlarni ongli qabul qilish u yoki bu vazifalarni va uni amalga oshirish yo'llarini o'zlashtirishda kuchli ta'sir qiluvchi asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Axloqiy ehtiyojni shakllantirish va amaliy faoliyat o'rtaida mustahkam aloqa mavjud. Biroq axloqiy va obyektiv ahamiyatga ega bo'lgan faoliyat har doim ham o'quvchida istalgan ehtiyojni tug'diravermaydi.

Mehnat faoliyati axloqiy tarbiyada boshqa omillardan foydalanilmaydigan taqdirda muhim yutuqlarni bermaydi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida axloqiy odatlar alohida o'rinni egallaydi. Chuqr o'zlashtirilgan axloqiy me'yorlar bilan belgilanuvchi xatti-harakat odatning ma'naviy sababining barqaror ko'rsatkichidir.

Odatlar o'zlashtirilgan xatti-harakatni ishlab chiqarish yo'llaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Ko'pincha axloqiy odatlar insonparvarlik, mehnatga mas'uliyat bilan yondashish tuyg'ularini shakllantirish uchun zarurdir. Odatlar shartli ravishda oddiy va murakkabga bo'linadi. Oddiy odatlar deyilganda ijtimoiy turmushning elementar qoidalari, belgilangan intizom me'yorlari va muloqot madaniyati asosida yotgan ishlar va harakatlar ko'zda tutiladi.

Murakkab axloqiy odatlarga fuqarolik, mehnat oilaviy burchlarini, axloqiy xatti-harakatlarini vijdonan bajarishga

bo‘lgan ehtiyoj kiradi. Axloqiy tarbiyaning muhim vazifasi xatti-harakatlarni odatga aylantirishdir. Axloqiy odatlarni tarbiyalashga qo‘yiladigan pedagogik talab o‘quvchining fe’l-atvori va ongining birligi va o‘zaro aloqasiga asoslanadi.

U yoki bu odatni tarbiyalashdan oldin, o‘quvchini ijobiy odatlarni egallash va salbiy odatlarga barham berishga moyil qilish lozim. Ma’naviy-axloqiy odatlarni tarbiyalash o‘quvchi fe’l-atvorining ijobiy dalillari asosida amalga oshiriladi.

Odatlar izchillik bilan oddiydan nisbatan murakkabga qarab tarbiyalanadi, u o‘z-o‘zini nazorat va tashkil qilishni talab qiladi.

Axloqiy odatlarni tarbiyalashda o‘quv yurtining umumiy muhiti katta ahamiyatga ega. An’analar, jamoa qonunlari bilan qo‘llab-quvvatlanayotgan fe’l-atvorning shakllanish usullari o‘quvchilar tomonidan yengil o‘zlashtiriladi. Fe’l-atvor tajribasini tashkil qilish, asosan barqaror ijobiy ta’sir vositalarini yaratishdadir.

Axloqiy me’yorlarni o‘zlashtirish insonning bu me’yorlariga emotsiyal munosabati bilan boyiydi. Axloqiy me’yorni ma’lum ma’noda u yoki bu xatti-harakatni keltirib chiqarishga undovchi sabablar ham belgilaydi.

Axloqiy tuyg‘u, axloqiy iztirob va munosabatlar qat’iy shaxsiy ma’naviy qiyofaga ega. Ular insonni oliyjanob harakat va niyatlardan qoniqtiradi, axloqiy me’yorlarni buzganlarida vijdon azobiga soladi. Bolalik yoshi tuyg‘ularning rang-barangligiga muhtoj va tarbiyachining boladagi tuyg‘ular obyektiga ijtimoiy zarur yo‘nalish bera bilihdir.

Psixologlarning aniqlashlaricha, kichik mакtab yoshi axloqiy talab va me’yorlarni o‘zlashtirishga moyilligining yuqoriligi bilan xarakterlanadi. Bu shaxs rivojlanishga o‘z vaqtida axloqiy poydevor qo‘yish imkonini beradi. Kichik yoshda shaxsning axloqiy rivojlanishini belgilovchi tarbiyaning

mohiyati bolaning hissiy hozir javobligiga tayanuvchi insonpavarlik munosabat va o'zaro munosabatlarini shakllantirishdan iborat.

O'smirlilik yoshida yaqin atrof-muhitini o'zlashtirishda muayyan tajriba paydo bo'ladi, tengdoshlar bilan barqaror aloqalar o'rnatiladi, o'z-o'zini anglash, xususiy shaxsini tasdiqlashga ehtiyoj kuchayadi. O'smir atrofdagi kishilar namunasiga ergashadi, ideal axtarish, o'z mavqeini belgilash vositasini tanlashga intiladi.

O'z-o'zini anglashni rivojlantirish, o'z o'mini topish ehtiyoji o'spirin uchun xarakterli xususiyatdir. Bu ehtiyoj inson shaxsiga qiziqish, insonlarning ishlariga, ularning asoslangan doirasiga tahliliy yondashish tuyg'ularini shakllantiradi.


O'z-o'zini anglash hissiyoti rivojlanishning ma'lum bosqichida o'spirinda hayotda o'z o'rnini topish ehtiyoji paydo bo'ladi. Bu ehtiyoj shaxsning ijtimoiylanuvchi jarayoni, ilgarigi hayotiy tajribasi, ruhiy va jismoni rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari qanday o'tishiga bog'liq ravishda nihoyatda qarama-qarshilikda namoyon bo'ladi.

O'z mavqeini belgilashga intilish o'spirinlik vaqtida tez-tez namoyon bo'lib turadigan faol mustaqillikning o'sishi bilan qo'shilib ketadi. Hozirgi o'quvchilarning intellektual rivojlanishi ayrim hollarda, eng avvalo, atrofdagi odamlar bilan o'zaro munosabat va o'zaro ta'sirda oliy ma'naviy tuyg'u va axloqiy xatti-harakat tajribasida o'zib ketadi.

O'smirlilik va o'spirinlik yoshi tarbiya uchun qiyin davr hisoblanadi, holbuki, agar tarbiyachi o'quvini, oilasini, uning rivojlanishida yuzaga keladigan qiyinchiliklarning xarakterini bilsa, bu qiyinchiliklarning oldi olinishi mumkin.

Ta'lim muasssalari o'smirni oilaviy hayotga tayyorlashi lozim. Mana shunday tayyorlashning muhim vositalaridan biri yaxshi tashkil etilgan tarbiyadir. Jinsiy tarbiya axloqiy

tarbiyaning elementidir. Uni to‘g‘ri amalga oshirish shaxsnинг garmonik rivojlanishi. uning axloqiy sog‘lomligi uchun katta ahamiyatga ega.



Uzlusiz ta’limni insonparvarlashtirishda yuqoridagi tarbiya funksiyalari muhim shamiyatga ega

6-shakl.

Buyuk bobokalonimiz Amir Temir har vaqt: «Insonparvarlik va mardlikni Alloh ham, xalq ham ulug‘laydi», degan hikmatli so‘zni takrorlashni xush ko‘rgan va hayotda o‘zлari ham amal qilgan. Shuni aytish kerakki, Amir Temir odob-axloq, imon, e’tiqod, ta’lim-tarbiya sohasida o‘zi yuksaklikka, mukammallikka erishgan siymolardan biridir. Bunga ishonch hosil qilish uchun uning o‘zi tomonidan yaratilgan odob va axloqqa oid dasturlar, o‘gitlar, pand-nasihatlarni o‘qib chiqish kifoya.

**Aqliy tarbiya** – tabiatdan berilgan aqliy kuchlar, sezgilar ruhiy holatlar, biluvchanlik va faoliyat erkinligini rivojlantirish natijasida insonda mustaqil fikr yuritib, oldiga maqsad qo‘ya olishi hamda ko‘zlagan maqsadiga erishish qobiliyatini shakllantirishdir.

**Axloqiy tarbiya** – odamlarni oilada, mehnat jamoasi hamda keng jamoatchilik ichida va umuman, har joyda bo‘ysinishi va o‘zi bajarishi lozim bo‘lgan, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan axloq va odob qoidalarni o‘zlashtirishdir.

**Jismoniy tarbiya** – insonning hamma jismoniy xususiyatlarini; anatomik, fiziologik sistemalarini har tomonlama rivojlantirish, sog‘lom hayat kechirishning afzalliklari, shart-sharoitlari, asoslari hamda jismoniy ma’naviyatining zaruriy elementlarini shakllantirishdir.

**Ruhiy tarbiya** – insonning aqliy, jismoniy va ijtimoiy mohiyatini oshirib borib, uning barcha qobiliyatlarini tinmay tarbiyalab, ishonch kuchini oshirib borishdir.

**Mehnat tarbiyasi** – mehnatning mohiyati, uning inson ruhi va ongini chiniqtirishdagi ahamiyatini amalda ko‘rsatib berish. Mehnatsevarlik qobiliyatini rivojlantirish, ishlab chiqarish vositalari bilan ishlashga o‘rgatish, ularda tadbirkorlik va ishga ijodiy yondashish xususiyatlarini shakllantirishdir.

**Huquqiy ta'lim-tarbiya** – insonda huquqiy bilimlarni oshirish qonunlarini yaxshi o'zlashtirib, ularga to'liq rioya qilish ko'nikmasini hosil qilish demakdir.

**Estetik ta'lim-tarbiya** – insonda zavq uyg'otuvchi harakati, shijoat va qahramonliklarga undovchi barcha turdag'i ko'rinishlar, holatlar va hodisalar badiiy-estetik tafakkurni shakllantirishdir.

**Iqtisodiy ta'lim-tarbiya** – ishlab chiqarishning jamiyatda tutgan o'rni, ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchlarining mohiyati, ular orasidagi uzviy aloqadorlikni o'rgatish va odamlarda shu bilimlarga ko'nikma hosil qilishdir.

**Ekologik ta'lim-tarbiya** – ekologiya ilmidan bilim berish, ularda tashqi muhit va vujud orasida uzviy bog'liqlik mavjudligini his ettirish, tabiiy va ijtimoiy muhitlarga nisbatan oqilona munosabatda bo'lish ko'nikmalarini hosil qildirish demakdir.

Milliy g'oya va mafkurani, umuminsoniy qadriyatlar bilan milliy o'ziga xoslik o'rtasidagi muvozanatni belgilaydigan mezonlarni aniqlash maqsadida umuminsoniy fazilatlar va o'zbeklarga xos xislatlarni teranroq o'rganishga harakat qilinishi lozim.

Ma'lumki, jahon madaniyati milliy ma'naviyatlar yig'indisidan iboratdir, shubhasiz umumjahon madaniyati rivojlanishi uchun alohida olingan milliy ma'naviyatlar taraqqiy etgan bo'lishi kerak. Ma'naviyat ko'rsatkichlari, toifalari davlat chegaralariga bo'yсинmaydi, mintaqaga tanlamaydi.

Hadislari butun musulmon mamlakatlaridagi kabi bizda ham yaqin o'tmishimizgacha tarbiyaning asosi qilib olingan.

O'zbek xalqining milliy an'analarini, udumlarini, turmush tarzini sinchiklab o'rganib biz hadislarda keltirilgan ijobiy xislatlarni hozirgi zamon ilg'or madaniyat durdonalari bilan

boyitish maqsadida to‘g‘ri tarbiyaga molik umuminsoniy fazilatlarni bir necha jihatga bo‘lish mumkin, deb hisoblaymiz.

## O‘z-o‘zini tarbiyalash va boshqaruvning nazariy asoslari

Yoshlarga mustaqil ravishda bilim olish va olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini hosil qilish hamda axloq va odobini yaxshilash sirlarini, ularga yoshligidan o‘rgatilib borilishi joiz bo‘lgani bilan ularda bilimlarni haqiqiy egallash va ularni muayyan hayotiy sharoitlarda qo‘llash zaruriyati talabalik davrida paydo bo‘ladi.

Talabalik davrigacha yosh odamni ota-onasi, maktab o‘qituvchilari, qarindosh-urug‘i, mahalla-ko‘y nazorat qilib borsa, talaba bo‘lganidan keyin kompleks sabablariga binoan bu nazorat keskin pasayib ketadi. Shuning uchun bu holatni, avvalam bor, talabaning o‘zi anglab yetishi shart, shundan keyin boshqaruv nazariyasini asosiy tamoyili, tushuncha va qoidalarni egallagan holda o‘zini-o‘zi boshqarib o‘zini - tarbiyalay boshlash kerak. Quyida boshqaruv nazariyasining eng umumiyl holdagi tushunchasi berilgan.

### Ta’lim-tarbiyani boshqaruv nazariyasi

Jamiyat taraqqiyotining ma’lum bir bosqichida jamiyatni alohida qobiliyat va bilimlarga ega bo‘lgan kishilar tomonidan boshqarilishiga ehtiyoj paydo bo‘la boshladi. Keyinchalik boshqaruvchi kishilar soni ko‘paya borib, alohida ijtimoiy guruhga, so‘ng tabaqaga aylandilar. Bu ijtimoiy tabqa kengayib, davlatda nomlanadigan boshqaruv organi paydo bo‘la boshladi.

Davlatni turli chayqalishlarsiz ilmiy asosda boshqarilishiga ehtiyoj orta borishi natijasida boshqaruv nazariyasi vujudga keldi.

Boshqaruv nazariyasi nisbatan yangi va istiqbolli fan tarmog'i bo'lib, obyektiv borliqni ilmiy bilishga asoslanadi. U o'z faoliyatini bir qator tabiiy va ijtimoiy fanlar zaminida ko'radi. Chunki har qanday ilmning tadqiqot olib borishdan maqsadi – tabiat, jamiyatdagi obyektiv qonuniyatlarni aniqlab, ularni inson ehtiyojlariga xizmat qildirishdir. Bu esa boshqaruv jarayonining mohiyati va qonuniyatlarini aniqlash, bu jarayonda sodir bo'ladigan munosabatlar tabiatini ochib berish, uning tizimini ishlab chiqish va boshqaruv subyektining asosiy tamoyillarini ishlab chiqish boshqaruv nazariyasining vazifalaridir.

Masalan, ijtimoiy hayotni boshqaruv nazariyasi shu sohani boshqarish jarayonida qo'llaniladigan tadbirlar tartibi va bosqichlarini aniqlab beradi.

Ijtimoiy jarayonlar boshqaruvining umumiyligi nazariyasining obyektiv asoslari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- jamiyatning taraqqiy etishi natijasida ijtimoiy hayotning alohida jabhalari orasidagi aloqalar yaqinlasha borib, uzviy muno-sabatlar darajasiga ko'tarilishi va bir butun ijtimoiy majmuani tashkil qilish; •

- ilmiy bilishning zamонавија bosqichida jamiyatdagi hodisalarni ijtimoiy jarayonlar bilan uzviy bog'liqligi va ijtimoiy axborotlar oqimining ko'payib va tezlashib borishi;

- boshqaruvchi va boshqariluvchilar orasidagi munosabatlarning tobora rivojlana borib, biri ikkinchisini taqozo etishi va boshqaruv texnologiyasining takomillashib borishi.

Shu munosabat bilan jamiyatning obyektiv ijtimoiy qonuniyatları hamda boshqaruv qonuniyatları orasidagi uzviylik boshqaruvini to'g'ri amalga oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham boshqaruv jarayonini shakllantirishda ijtimoiy fanlardagi qonuniyatlarga suyanish kerak.

Boshqarilish jarayoni hamma vaqt «boshqaruв organлari», deb nomlangan maxsus ijtimoiy guruхlar tomonidan amalga oshirilib kelingan. Ular ijtimoiy jarayonlarning kechish qonuniyatlarini o‘ргanib chiqib, ularni maqsadga yo‘naltiradilar va nazorat qilib turadilar.

Boshqarish maqsadida olib borilgan munosabatlarni boshqa ijtimoiy munosabatlardan, jumladan, ishlab chiqarish, axloq-odob, o‘zaro muloqot va boshqalardan farqlash uchun ular faqat jamiyatni tartibga solish uchun qilinadigan munosabatlar ekanini anglash kerak. Ular boshqarilish jarayonining umumiy faoliyatidan kelib chiqib, ilmiy asoslangan va jamiyatdagi mavjud qonuniyatlarga asoslanadilar.

## **O‘zbek xalqining milliy-tarbiyaviy tajribasi**

O‘zbekistonda davom etayotgan mustaqillikni mustahkamlash jarayoni ta’lim va tarbiya tartibotini ham isloh qilishni, ma’naviy va ma’rifiy ildizlarga payvand qilishni; yosh avlodlarda O‘zbekiston vatanparvarlariga xos fazilatlarning tarixiy o‘zaklarini aniqlashni; o‘zbek xalqi tarixi, tili, adabiyoti, san’ati, an’analari va urf-odatlarini milliy tarbiyaviy tadqiq qilishni talab etmoqda. Ana shu nuqtai nazaridan tadqiqotimiz mavzusi milliy pedagogika tarixi qirralarini ham o‘ргanishni talab qiladi. Chunki tarix o‘zbek xalqi oldiga qachon, qanday tarbiyaviy talablar qo‘yanligini; davr o‘zgarishi bilan milliy tarbiya – fe’l-atvorimizda qay sifatlar, qaysi tomonlarga o‘zgarganligi, qaysi sifatlar o‘zgarmay, avloddan-avlodga meros bo‘lib yetib kelganligini aniqlash respublikamizda milliy ma’naviyatni o‘ргanish, tiklash va istiqbolini belgilash nuqtai nazaridan g‘oyat qimmatlidir.

O‘tmishda ajdodlarimiz qanday fazilatlarga ega bo‘lgan farzandni orzu qilishganliklarini anglash uchun xalqimiz uzoq tarix davomida yaratgan afsona, ertaklar, dostonlarga murojaat qilish kerak. O‘zbek xalq og‘zaki ijodiyoti namunalarida tarannum qilingan vatanga muhabbat, erkparvarlik, sadoqatli do‘sit bo‘la olish, o‘z burchini, o‘z so‘zini oqlash, mardlik, jasoratga qodirlik eng zarur fazilatlar bo‘lgan. O‘zbek olimlarining o‘tmishni (Y.Jumaboyev) qayd qilishlaricha, «...o‘z burchini ado etish, dushman ustidan g‘alaba qilish yo‘lida qahramonlarcha o‘z jonlaridan kechishga, har qanday mashaqqatlarga bardosh berishga, sevgi, muhabbatdan kechishga, o‘z qabiladoshlarining or-nomusi uchun to oxirigacha kurashishga shay» turganlar. Ajdodlarimizda milliy vatanparvarlik fazilatining qanday namoyon bo‘lganligini Sak qabilasiga mansub cho‘pon Shiroqning eramizdan avvalgi 519-yilda ko‘rsatgan mashhur jasoratidan bilish mumkin.

Ajdodlarimiz farzand tarbiyasining negizi sifatiga axloqiy uchlik: **o‘y**, **niyat**, **so‘z** – ish birligini yaratishgan. Mazkur uchlik negizini keyinchalik lug‘atimizga kirib kelgan «vijdon» so‘zi bilan ham ifodalash mumkin, «Men yaxshi niyat, yaxshi so‘z va yaxshi ishga shon-shavkat baxsh etaman. Men yaxshilikdan iborat Mazda qonuniga shon-shavkat baxsh etaman», - deb yozilgan «Yasna»da. «Yaxshi fikr» deganda, yaqin kishisiga mehribon bo‘lish, muhtojlik va xavf-xatar ostida qolganda ko‘maklashishga shaylik, yovuzlikka qarshi, kishilar baxt-saodati uchun faol kurashishga shaylik, hamma bilan ahil va totuvlikda, o‘z maslakdosh birodarlari bilan do‘slik va hamjihatlikda yashashga intilish ruhidagi niyatlar va fikrlar musaffoligi tushuniladi. Inson o‘z fikri-xayolida boshqalarga hasad qilmasligi lozim, yaxshi niyatli kishi darg‘azab bo‘lmaydi va boshqa jaholatlarga berilmaydi, chunki bunday holatida u yaxshi niyatini yo‘qotadi, burch va adolat

haqida unutadi va nojo‘ya harakatlar qiladi», — deb hisoblangan.

Bu axloqiy fazilatlar kishini elga qo‘shilishga, el bilan birga bo‘lishga, elning tashvishi bilan yashashga tayyor - xalqparvar kishini tarbiyalashga qaratilganligi o‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdi. Zamonlar o‘tib; odamlar orasidagi munosabatlarning boyishi, savdo-sotiqning yuzaga kelishi bilan qabilaviy tarbiyaga qo‘yiladigan talablar ham o‘zgarib, zamonaviylasha bordi. Ajodlarimiz o‘zlaridagi xislatlarning nafaqat xudo tomonidan ato qilingan, balki shakllantirilishini tobora chuqurroq ulg‘aytirib bordilar. Jumladan, yaxshi so‘zlar — ahdga vafodorlik, berilgan va’dani oqlash, hamma oldi-berdilarda halol bo‘lish, o‘zgalarning haqini yemaslik, buzuqlikdan o‘zini to‘xtata bilish kabi yangi sifatlar bilan boyib bordi.

Ajdodlarimizning ko‘hna qabilaviy tarbiyaviy tizimi hozirgi kunlarda biz to‘qnashgan axloqiy, madaniy, jismoniy, ekologik muammolarni bartaraf qilish nuqtai nazaridan bebahodir. Zero, ajdodlarimiz axloqi kishining sog‘-salomat, kuchli bo‘lishi kerakligini uqtirish bilan birga uning ma’naviyatiga asosiy e’tiborni qaratgan. Jumladan, ayloga hurmat, uni e’zozlash, ona sifatida qadrlash g‘oyalari markaziy o‘rnlardan birini egallagan. Demak, bu g‘oya yosh avlodga kundalik turmushda, oilada, yaxshi bolaning «namunaviy siymosi» orqali ijtimoiy tarbiyada izchil singdirib borilgan.

O‘zbekona tarbiyaning turli qirralari ulkan adiblarimiz Abdulla Qodiri, Oybek, Pirimqul Qodirov va boshqalarning tarixiy asarlarida muvafaqqiyatli aks ettirilgan. Abdulla Qodiri tomonidan «O‘tkan kunlar»ning o‘zbeklar turmushi- dan tarixiy roman» deya aniqlashtirilishi ham adibning milliy zaminda qat’iy turgan yozuvchi ekanligining misolidir.

Ma'raka-marosimlarning milliy tarbiyaviy imkoniyatlari ularda qatnashuvchilarning turli yoshdagi ijtimoiy, kasbiy guruhlardan tashkil topishi; muloqtlardagi ixtiyorilik (bir-biriga bevosita bog'liq emaslik); erkinlik; yoshi ulug', muhtaram kishilarga nisbatan hurmatning yaqqol namoyon bo'lib turishi; muloqot mavzularining rang-barangligi; marosimlarning shaxs xulq-atvorining ommaviy nazoratchisi sifatidagi xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Bu xususiyatlar yoshlarning yoshi ulug' kishilar bilan birligini - milliy g'ururini mustahkamlaydi, o'z turar joyi, mahallasi, qishlog'idagi kishilar to'g'risida tasavvurlarini kengaytiradi, tevarak-atrofdagi muhitga diqqat bilan qarash malakalarini tarbiyalaydi, avlodlar orasida an'analarning uzviyligini tashkil etuvchi bo'g'in bo'lib xizmat qiladi.

Motam marosimlarida qatnashayotgan barcha kishilarga ota-onada qadriga vaqtini o'tkazmasdan, o'z vaqtida yetish kerakligiga, ularni ranjitmaslikka, qariganda tayanch bo'lishga, o'zining va birovlar umrining qadriga yetishga undovchi vositaligini, o'makligini qayta tan olmoq kerak. Qolaversa, o'smirlar marosimlarda qatnashib, ta'ziyaga borishning milliy odobi: kam gapirish; ortiqcha faryod qilmaslik; bema'ni gaplar gapirmaslik; motam egasiga sabru qanoat tilash; qo'lidan kelguncha yordam berish; ibrat olishni kuzatadilar, o'rganadilar.

Milliy tarbiya jarayonini «sog'lom turmush tarzi darsi» tushunchasiga qiyoslash mumkin. Ana shu darsdan «a'lo» baho olish uchun har bir inson bobolar hikmatlarini, xalq maqollarining mazmunini chuqur anglashi kerak bo'ladi. Bobolar hikmatini shoir E.Vohidov o'zining «Hikmatnoma» asarining so'z boshisida<sup>5</sup>, «...insofli odam bexosdan toyib ketsa, biror tayoq suqib, ey yo'lovchi, ehtiyyot bo'l, bu yerda

<sup>5</sup> E.Vohidov. «Hikmatnoma». 3-bet, Toshkent, 1990 y.

chuqur bor, ko'zingga qara» deb qilgan ishora – tayoqchaga; boshqalarni yillab ochilgan buloq, ekilgan daraxtga; o'zlaridan keyin keluvchilar ham imonli, ilm-ma'rifatli bo'lsinlar, deb ellar, yurtlar o'rtasida yaxshi bordi-keldilar bo'lsin, – deb solingan masjid, madrassa, yo'l, ko'prik, karvonsaroylarga o'xshatadi. O'zbekman degan har bir insonning o'z yurti kechmishini va hozirini mukammal bilmog'i, o'z ona tilisining zargari – fikriga maqollar bilan ko'rk berib gapirishini istaydi», – deydi o'zining asarida.

Darhaqiqat, o'zbek xalqining asrlar davomida «yashash darsi»dan to'plagan boy tajribasi ko'plab maqollarda o'z aksini topgan. «Har gulning o'z isi bor, har elning o'z tusi bor» deganlaridek, maqollarimiz xalqimizning turmushi, urfatatlari, an'analari va eng muhimi – o'zbek bolasining qanday kishi bo'lishi va qanday kishi bo'lmasligi kerakligi haqida ibrat va o'rnaklar jamlangan ma'naviy- madaniy merosdir.

Milliy-madaniy, siyosiy, iqtisodiy, pedagogik turg'unlik o'zbek millati hayotida nimalarda aks etdi? Eng avvalo, milliy o'zlikni anglashning, milliy tashabbuskorlikning, millatdagi yaratuvchilik quvvatining ancha so'ndirilganligida, ilm-fan jabhalarida orqada qolishda namoyon bo'ldi.

Biroq Turkistonda jadidchilikka barham berildi. Bunga sabab bir tomondan, ularning maqsadini to'g'ri tushuna olmagan Buxoro amiri, ikkinchi tomondan, jadidchilardan inqilobiy harakat deya cho'chigan chor Rusiya amaldorlari bo'lsalar, uchinchidan, jadidchilikni Islomga dushman bir harakat deb tushungan, uning asl mohiyatini anglashni istamagan mutanosib dindorlar edi. Mutanosib ruhoniylar yoshlarni milliy-zamonaviy tarbiya yo'li bilan mustamlakachilikdan ozod qilish maqsadida intilgan jadidchilar - Mulla Nafas, Zinhoriy, Avliyoqo'li, Miskin, Ibrat, Komil Xorazmiy, Muqimiy, Furqat, Mahmudxo'ja Behbudiy, Fitrat,

Zohiriy, Tavallo, Zavqiy, Cho'lpón, Avaz O'tar, Avloniy, Hamza, Ayniy, Qodiriy va boshqa ma'rifatparvarlarni kofir deb e'lon qildilar.

Shuningdek, go'zallikni tushunish, san'at, adabiyot, tasviriy san'at turlari, san'at turlari, tili, bayramlari, pazandaligi, maqollari, qomat tutishi, kiyinishi, ibosi, imo-ishoralari, tabassumi, uyqusi, xayoli, ta'zimi, marosimlari, xalq ijodiyoti, ta'bi, didi va boshqalarda an'anaviy «O'zbekchilik» aks etib turadi. Buning bosh sababi – tarbiyaning ana shu xususiyatlarga tayanishida – milliy, madaniy mohiyatga egaligidadir.

O'zbek xalq milliy tarbiyasining yuqorida keltirilgan ilmiy talqini bizga quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

- o'zbek xalqining milliy tarbiyasi, tarixi turkiy qabilaviy, urug' va elatlар tarbiyaviy tizimlarining tadrijiy umumlashuvi, rivojlanishining tarixi demakdir;

- qabilaviy, milliy tarbiya nuqtai nazaridan insonning qandayligi undagi so'z, niyat (fikr) va ish birligiga tayanuvchi uchlik asosida baholangan;

- Islom dini Markaziy Osiyo xalqlarining millatlararo muloqot madaniyatining umumiyl manbasi, umuminsoniylikka va birlashishga yo'naltiruvchi tarbiyaviy omil vazifasini bajardi va bajarmoqda.

Milliylik tarbiyaning obyektiv xususiyati bo'lganligi tufayli avloddan-avlodga yetkazilib kelindi, yo'qolmadi.

Yosh avlodning ma'naviy madaniyatini yuksaltirish qadriyat atamasi keng tushuncha bo'lib, ma'lum voqeiylikdagi hodisalarni insoniy, ijtimoiy va madaniy ahamiyatini ifodalash uchun ishlataladi. Inson faoliyatidagi, jamiyatdagi rang-barang narsalar, tabiat hodisalari, mavjud qadriyatlar uchun obyekt sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Demak, u insonning kundalik hayotida, uning qiziqishi, ongining shakllanishida

muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, qadriyat «obyekt va subyekt o'rtasidagi o'zaro muloqotning natijasidir».

Bu tushunchaning mohiyatida voqeiylikdagi muayyan hodisalarining ijtimoiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ifodasi yotadi. Demak, qadriyatlar inson tomonidan qadrlanadigan narsalar (shuningdek, tabiat, ijtimoiy hodisalar, inson xatti-harakatlari va madaniy hodisalardan iborat bo'lib, kishilarning talabi, xohishi, qiziqishi va maqsadi asosida munosabat, o'zaro ta'sir atrof-muhit bilan, insonlar bilan natijasida vujudga keladigan holatdir.

Qadriyatlarning falsafiy tasnifga ko'ra murakkab ichki qurilishiga ega bo'lib, *tashqi olamning ifodasi* (ashyolar, narsalar, voqealar, xatti-harakatlar), *fikrlash mahsuli* (g'oyalar, timsollar, nuqtai nazarlar)dan iboratdir. Bu ichki qurilish qadriyatlar xarakteri (moddiy va ma'naviy), amal qilish qamroviga ko'ra, o'quvchi ma'naviy madaniyatiga, uning ma'naviy ehtiyoji, talabi, qiziqishi asosida ta'sir etadi. Qadriyatlar mazmunan xilma-xil turlarga bo'linib, turmushning barcha tomonlarini qamrab olgan. Faylasuf olimlar qadriyatlarni xarakteriga ko'ra turlicha tasnif etadilar. Bir guruh olimlarning fikrlariga ko'ra, ular «hayot qadriyatları» va «madaniyat qadriyatları»dan iborat. Ikkinchi guruhdagilar esa madaniyatning an'anaviy bo'linishiga asoslanib, qadriyatlarni ham «moddiy» va «ma'naviy» tarzda tasnif etadilar. Uchinchi guruh tasnifda qadriyatlar «moddiy», «ma'naviy» va «ijtimoiy-siyosiy» tarzda ifodalanadi.

O'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirishda ikkinchi guruh tasnifga asoslash maqsadga muvofiq. Chunki hozirgi jamiyat talabiga javob beruvchi o'quvchida har ikkala guruhga xos qadriy sifatlar mujassam bo'lmonog'i lozim. Ma'naviy qadriyatlar o'quvchi ma'naviy madaniyatiga xarakteri, qamrovi, shakl va mazmuniga ko'ra ta'sir etadi.

Umuminsoniy qadriyatlar barcha millatlar manfaatiga mos keladigan ma'naviy xazinadan iborat bo'lib, milliy qadriyatlar bilan yagona tarbiyaviy asosga egadir. Umuminsoniy ilg'or ma'naviy g'oya va bilimdan har bir millat o'zining milliy xususiyatidan kelib chiqqan holda foydalanadi va amaliyotga tatbiq etadi. Umuminsoniy qadriyatlar negizida ma'lum millat tomonidan olg'a surilgan insonparvarlik,adolat,demokratiya,hamkorlik kabi muhim qadriyatlar mujassam bo'lib, ular barcha millatlar uchun hayotiy ehtiyoj hisoblanadi.

Milliy qadriyatlar milliy madaniyatning tarkibiy qismi bo'lib, uning paydo bo'lishi va shakllanishi murakkab ijtimoiy jarayondir.

Milliy qadriyatlar mazmunan o'sha millatning g'oyalari, qarashlari, e'tiqodlari, ma'naviy turmush tarzi, orzu-istiklari, kelajak maqsadlarini ifoda etadi. U «mazmunan kommunistik, shaklan baynalmilal» bo'lishi mumkin emas. U ham mazmunan, ham shaklan milliy insonparvarlik xarakteriga ega bo'lib, o'quvchining o'zligini anglashida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

An'analarning kelib chiqishi tarixiga nazar solinsa, ular din hukmronlik qilgan bir davrda paydo bo'lganligidan dalolat beradi. Demak, diniy an'analar shu davr talab va ehtiyojlariga mos holda maydonga kelgan hamda asrlar davomida o'zining ba'zi bir axloqiy talablari bilan xalq uchun ma'qul bo'lib kelmoqda. Shuning uchun diniy qadriyatlarning ham aksariyatining mazmuni mehr-oqibat, imon-e'tiqod,adolat,insonparvarlik kabi g'oyalari bilan sug'orilgan bo'lib, xalqni nopoliklilik, oqibatsizlik, jaholat botqog'iga botish, ichkililikbozlik, zino, jabr-zulm kabilardan saqlashga xizmat qilib kelganligini e'tiborsiz qoldirmaslik zarur. Uchinchidan, milliy qadriyatlar shaklan va mazmunan qanday bo'lishdan qat'i nazar, u shu millatning madaniy mulki hisoblanadi.

Ulardagi xalqning talabini, ehtiyojini qondira olmaydigan ba'zi bir belgilar o'z-o'zidan barham topa boradi. Shu boisdan, milliy qadriyatlarni ilg'or yoki jaholatga boshlovchi kabi guruhlarga bo'lish mantiqqa to'g'ri kelmaydi.

Umuminsoniy va milliy qadriyatlар o'quvchining kundalik faoliyatida odат, an'ana tusiga kirib qolgandagina u shaxsning ma'naviy shakllanishiga bevosita ta'sir etadi. Qadriyatlarning «bolalarga bo'lgan ta'siri kattalarga bo'lgan ta'siridan ancha ustun turadi, chunki kattalarning dunyoqarashi va e'tiqodlari, odatlari qaror topgan bo'lsa, bolalarda endilikda ularning poydevori quyilayotgan bo'ladi. Bolalar, o'z tabiatiga ko'ra, ta'sirchan bo'lganliklari uchun ularga borliq va undagi voqealarning ta'siri kuchli bo'ladi.

Borliqdagi voqeа-hodisalar turli-tuman bo'lganidek, qadriyatlarning shakl va mazmuni ham rang-barangdir.

Mazkur qadriyatlар o'quvchi ongi va faoliyatiga o'zining umumiylig, ya'ni ularning talab va qiziqishlarini qondirish, xususiy belgilari: zaruriyligi, foydaligi, ma'qulligi bilan ta'sir etadi.

Mazmunan aqliy bilish faoliyati bilan bog'liq qadriyatlар o'quvchining tabiat va jamiyat haqidagi ilmiy tushunchalarini kengaytirishga dunyoqarashini shakllantirishga, bilim saviyasini oshirishga xizmat qiladi (ilmiy, tarixiy, insoniy, diniy, badiiy manbalar). Bunday qadriyatlар o'quvchiga o'zbek xalqining jahon ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasini, aqliy kamoloti dialektikasini ilmiy, badiiy asarlar orqali yetkazadi. Axloqiy qadriyatlар o'quvchining ongi va faoliyatini faollashtiradi, ish va so'z birligini ta'minlashga olib keladi.

Bunday qadriyatlар jumlasiga: insonparvarlik, ma'rifat-parvarlik, mehr-muhabbat, poklik, kattalarga, ota-onaga hurmat, muhabbat, xushmuomalalik, do'stlik, saxiylik, saxovat, bolajonlik, shirin so'zlik va boshqalar kiradi. Mazkur

qadriyatlar negizida jamiyatda, oilada, ta'lif muassasalarida o'quvchini yuksak insoniy fazilatlarga ongli ravishda amal qilishga undash g'oyasi yotadi.

Estetik qadriyat san'at, adabiyot va xalqning badiiy-estetik faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ularning mazmunini o'quvchida nafosatni, estetik hissiyotni shakllantirishni tashkil etadi. Estetik qadriyat tabiatni va mohiyatiga ko'ra, ijtimoiy-g'oyaviy aqliy nafosat va badiiy tarzda o'quvchi ongi va faoliyatining shakllanishiga ta'sir etadi.

Har qanday insoniy fazilat subyektning obyekt bilan hamda shaxs va jamiyatning munosabati mahsuli sifatida maydonga keladi. Munosabat jarayonida obyekt subyektga, subyekt obyektga bevosita ta'sir etadi, bir-birini boyitadi, rivojlantiradi. Xuddi shuningdek, o'quvchi ham badiiy qadriyat bilan aloqa qilish jarayonida undan ma'naviy ozuqa oladi, hayotiy tajribasida badiiy qadriyatlarda olg'a surilgan g'oyalarga amal qiladi. Estetik qadriyatlarning mezoni oliyjanoblik, tashqi va ichki go'zallik, muloyimlikdan iborat. O'quvchida estetik-badiiy madaniyatni shakllantirishda badiiy, musiqa, san'at asarlari, xalq amaliy san'ati, me'morchilik, turli xarakterdagi bayramlar, an'analar, urf-odatlar, xalq o'yinlari, teatr, kino, radio, oynai jahon, matbuot asosiy vosita hisoblanadi.

Ta'lif-tarbiya jarayonida bunday vositalardan foydalanish, ularning mazmunini idrok etish, tasavvur va tafakkur qilish natijasida o'quvchining ma'naviy madaniyati shakllanadi.

Ekologik mazmundagi qadriyatlar o'quvchini tabiat, jamiyat hodisalariga ongli munosabatning shakllanishiga ta'sir etadi. O'simlik va hayvonot olamiga, tabiat va jamiyat boyliklariga muhabbat, mehnatsevarlik, tozalik, ekologik madaniyatining asosiy belgilari hisoblanadi.

Ijtimoiy-siyosiy guruhdagi qadriyatlar mazmuni o'quvchining siyosiy saviyasi o'sishga, dunyoqarashini

shakllantirishga, o'tmishda bo'lgan va hozirgi kunda bo'layotgan xalqaro siyosiy voqealar mohiyatini obyektiv baholashga, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy taraqqiyoti muammolariga ongli munosabatda bo'lishga o'rgatadi.

Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar mazmunida adolat, tenglik, tinchlik, do'stlik, erkinlik, haqiqat, mustaqillik, milliy o'zligini anglash, o'z taqdirini belgilash, hayotda tejamkorlik, iqtisodiy bilimdonlik, burch va mas'uliyat, imon va e'tiqod kabilar mujassam bo'lib, yaxlit shakllangan shaxs uchun zaruriy xususiyatlar hisoblanadi.

Huquqiy davlat qurish bosqichida o'quvchilarda o'z vatani taqdiriga javobgarlik hissini shakllanishi, ota-onasi, oila, jamoa, jamiyat va xalq oldidagi burch va vazifalariga mas'uliyat bilan yondashish huquqiy qadriyatlarning mohiyatini tashkil etadi.

Shakl jihatdan boy va rang-barang milliy qadriyatlar mazmunida kishilarning bir-birlariga, jamiyatdagi moddiy va ma'naviy hayotga, oilaga, xalqning shaxsiy hamda ijtimoiy hayotida qanday voqealar bo'lsa, barchasiga munosabati o'z ifodasini topadi. Talab va qiziqish maqsadni amalga oshirishni taqozo etadi. Maqsad qamrovi o'quvchining talab qiziqish darajasiga bog'liq bo'lib, amaliy faoliyat jarayonida o'z yechimini topadi. Bu jarayonda bilish (o'quvchi har bir xattiharakat haqida, qadriy belgilar haqida dastlabki tushunchalarga ega bo'lmosg'i lozim), baholash va amaliy faoliyat muhim ahamiyatga ega. Qadriyatlar talab va ehtiyojlarni bilish va baholashni keltirib chiqarmaydi, aksincha, talab va ehtiyoj asosida insoniy qadriyatlar paydo bo'ladi, uni bilish va ahamiyatini baholash jarayoni vujudga keladi.

Lekin amaliyotda ta'lim muassasalari talaba-o'quvchilarining umuminsoniy va milliy qadriyatlarni o'rganishga va ular asosida o'z ma'naviy madaniyatini

shakllantirishga bo‘lgan talabi, qiziqishi qoniqarli emas. O‘quvchida bu holatni keltirib chiqargan obyektiv va subyektiv sabablar mavjud. Ularni quyidagicha izohlash mumkin:

1. Ma’naviy qadriyatlarning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini mukammal bilish, qiyosiy o‘rganishga e’tiborning kamligi.

2. O‘qituvchilar, ota-onalar, katta yoshdagi kishilarnng ma’naviy qadriyatlarning mohiyati haqidagi bilimlari chegaralanganligi, ya’ni o‘quvchi uchun salbiy namuna.

3. Ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlari mazmunida qadriyatlar muammosiga e’tiborning yetarli emasligi.

4. Hayotiy tajriba bilan ilmiy haqiqat o‘rtasidagi nomutanosiblik.

Ma’naviy qadriyatlar muammosini pedagogik muammo sifatida talqin etgan holda, ularning o‘quvchi shaxsining ma’naviy madaniyatini shakllantirishdagi tarbiyaviy ahamiyatini inobatga olib, bu borada yo‘l qo‘yilgan ba’zi bir kamchiliklarni bartaraf etishning asosiy yo‘li milliy mакtablar tashkil etishdan iboratdir. Buning uchun qator qoidalarga amal qilish talab etiladi.

Ya’ni umuminsoniy, milliy ma’naviy qadriyatlarning maqsadi, vazifalari, mazmunidan amaliyotda foydalanishda bugungi kun talablaridan kelib chiqish:

– har bir qadriyat mazmunida o‘zini namoyon qilgan milliy ma’naviy xususiyatlarga alohida ahamiyat berish;

– ta’lim-tarbiya jarayonini, shakl va usullarini takomillashtirish, ta’lim-tarbiyaning noan’anaviy shakllaridan foydalanish zarur;

– ma’naviy qadriyatlarning o‘quvchi ongi va faoliyatiga, jamiyat ma’naviy turmushiga ta’sir etish darajasini hisobga olish.

Mazkur qoidalarga umumiy ta'lim mактабида va sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar jarayonida hamda oila va madaniy ma'rifiy muassasalarda amal qilish talab etiladi. Shuningdek, ma'naviy qadriyatlardan foydalanib, yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy madaniyatini shakllantirish muhim pedagogik vazifalarni bajaradi.

1. Sharq xalqlarining uzoq tarixga ega ta'lim-tarbiya g'oyalari, qonun-qoida va tamoyillarining mohiyatini anglab yetishda, ularning bugungi davrdagi ahamiyatini ilmiy, tarixiy asoslashda tayanch manba bo'lib xizmat qiladi.

2. Milliy ta'lim maskanlarining mazmunini yaratish uchun asos bo'ladi.

3. Bugungi an'anaviy dars va darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni shaklan bir qolipga kirib qolishining oldi olinadi, o'quvchilarda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqod, qiziqish, ishonch tarbiyalanadi. Ularni milliy g'urur asosida o'rganish, kelgusi avlodlarga yetkazish, sevish va asrashga ehtiyoj paydo bo'ladi.

4. Qadimiy milliy qadriyatlarimiz tiklanadi. Chunki milliy xususiyatlarni aks ettiruvchi qadriyatlarning mohiyatini har bir mavzu, har bir tarbiyaviy tadbir mazmuniga bevosita yoki bilvosita singdirilishi asosida azaldan tarbiya vositasi bo'lib kelgan qadriyatlarni mazmunan boyib, mustahkamlanib borishiga erishiladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida ma'naviy qadriyatlardan foydalanib, yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy madaniyatini shakllantirish muhim manbalarga tayangan holda amalga oshiriladi. Ular:

- qadimdan tarbiya vositasi bo'lib kelgan xalq pedagogikasi, uning tarkibiy qismlari – xalq og'zaki ijodi, hunarmandchiligi, tasviriy va amaliy san'ati, musiqasi, teatri mazmunida xalqning tarbiyaga oid g'oyalari, tasavvurlari,

orzu-istiklari, an'analari milliy qadriyatlarning boshlang'ich negizi tarzida o'z ifodasini topadi;

– xalqning qadimiy turmush tarzi, axloq normalari, kelajak orzulari haqida ma'lumot beruvchi dastlabki manbalar (bitiklar);

– diniy manbalar («Avesto», «Qur'on»», «Hadis»);

– Sharq xalqlari milliy qadriyatlari haqida asosli bilim beruvchi Sharq mutafakkirlari madaniy merosi;

– yozma badiiy ijodiyot shakllari (pandnoma, klassik va hozirgi zamon badiiy ijod namunalari);

– turli xarakterdagi san'at asarlari, xalq hunarmandchiligi, badiiy-estetik an'analar, urf-odatlar, bayramlar va boshqalar.

Ushbu manbalarning tarbiyaviy imkoniyatlari va yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyati ilmiy tadqiqot ishining navbatdagi bandlarida ochib beriladi.

### **Ichkilikbozlik va giyohvandlikka qarshi tarbiya**

Ichkilikbozlik – inson aqliy va jismoniy kamolotining dushmani. Kishilik jamiyatida inson «kayf beruvchi» bu ichimlikni yaratibdiki, uni ichib keladi. Ammo hozirgi davrda hatto, o'smir yoshlar, ayollar o'rtasida ham ichkilikbozlikka, giyohvandlikka ruju qo'yish hollari paydo bo'lmoqda.

Inson onadan ichuvchi yoki kashanda bo'lib tug'ilmaydi. Buni keltirib chiqaradigan bir qator sabablar mavjud. Ba'zida to'qlikka sho'xlik qilib ichishadi, ba'zan tashqi salbiy ta'sir tufayli ichishadi.

Keyingi yillarda yoshlar o'rtasida ichkilikbozlik, giyohvandlik kabi XX asrning vabosini tarqalishiga otonalarning o'z yumushlari bilan o'ta bandligi tufayli bolalarning nazoratsiz qoldirilishi va ularning turli guruhlarga

qo'shilish qolishi, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga e'tibor berilmayotganligi, ayrim nizolar, er-xotinning ajralish hollari, ortiqcha boylik orttirishga ruju qo'yish, keragidan ortiq ta'minlanganlik va boshqalar sabab bo'lmoqda.

Ma'lumki, spirtli ichimliklar va turli narkotik moddalarni iste'mol qilish, insonning moddiy va ma'naviy rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi. Shuning uchun ichkilik va nashavandlik paydo bo'lgandan buyon undan iste'mol qilmaslikka da'vat etib kelinadi. Axloq-odobga oid hadislarda ham bu mashhum ichimlikdan saqlanishga da'vat etiladi. Allomalarimizdan Qozi ibn Koshifiddin Muhammad (XVII asr) sharob ichishni uch bosqichga bo'ladi.

Birinchisi: ovqat bilan ozgina miqdorda ichish. Bu bosqichda kishi uchun xursandchilik hosil bo'lmaydi. Ammo chanqashlik bartaraf bo'lib, ovqat yaxshi hazm bo'ladi. Mijozi issiq kishilarga shu miqdordan oshirish zarardir.

Ikkinchisi: bunda xushxollik kayfiyati paydo bo'ladi. Biroq bosh og'irlashib, sezgilar buzilish darajasiga bormaydi. Ko'zni uyqu tortish, til sustlashuvi ham bo'lmaydi. Aql esa joyida bo'ladi.

Uchinchisi: bunda til sustlashadi, aql xiralashadi, bo'g'inlar qaltiraydi, ya'ni oyoqda to'g'ri turolmaydi, bu holat mastlik deb ataladi. Hakimlarning ta'kidlashicha, shu darajada ichish salomatlikka zarardir.

Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Beruniy, Ibn Sino, Umar Hayyom, Sa'diy, Alisher Navoiy kabi donishmandlarimiz ham ichkilikbozlikning zararli oqibatlarini qayd qilishib, odamlarni unga ruju qo'ymaslikka da'vat etdilar.

Ichkilik odamni subutsiz, beburst, yolg'onchi, razil kishiga aylantirib qo'yadi. U miyaga qattiq ta'sir etadi, jigarni, asabni ishdan chiqaradi, yurak faoliyatini zaiflashtiradi, me'da faoliyatini uzaytiradi.

Ichimlik ichgan odam or-nomus, urf-odat va mulozamatlarga yomon murirosabatda, shuningdek, rahm-shafqat degan tushunchalardan uzoqda bo'ladi. Bunday kishilar o'ta surbet, parishonxotir, nafosatsiz, didsiz jonli bir maxluqqqa aylanib qoladilar.

Hakimlarning yozishicha, ichkilikka ruju qo'ygan kishida quyidagi illatlar mujassam bo'ladi:

«Vasvasa, tentaklik, xotiraning buzilishi, aqlsizlik, uyqu bosishi, sarosimalik, tomoq og'rig'i, beparvolik, befaqlik, uyquning buzilishi, balg'am va safroviy qaltirash «terlatuvchi» isitma, tif, panja bo'g'inlarining og'rig'i, plevrit, meningit, jigar zaifligi, bosh og'rig'i, tish og'rig'i, issiq shishlar, issiq isitmalar, ishtahaning buzilishi, zehnning o'tmaslashuvi, tutqanoq, qaltiroq, falaj, ko'zdan yosh oqishi, ko'zning xiralashuvi ko'z zaifligi, asablarning sustlashuvi, kam quvvatlik, uyquda cho'chish, bosh aylanishi va quloq og'irligi».

Ichkilik kishilarda maqsadsiz mag'rurlikni kuchaytiradi. Piyonista odamning hamma harakatlari be'mani bo'lib, atrofdagilarga masxara bo'ladi. Vujudiga titroq kiradi, aql chirog'i xiralashadi, o'zi qaltiraydi, og'zi ham, so'zi ham be'maza bo'ladi. Kaykovus ta'biri bilan aytganda: «Sharobxo'rlikning hosili ikki narsadir: yo bemorlik, yo devonalikdir, chunki sharobxo'r yo mast bo'ladi yo axmoq. Agar mast bo'lsa, devonalar jumlasidan bo'ladi, agar axmoq bo'lsa, bemorlar hisobiga kiradi, chunki xumor bemorlikning bir navidir, demak, bunday ishga moyil bo'lishning nima keragi borki, yo kishi devona bo'ladi yoki bemor bo'ladi...

Jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyotiga zarba beruvchi illatlardan yana biri giyohvandlikdir. Giyohvandlik ham ichkilikbozlik kabi inson salomatligining kushandasidir. Giyohvandlik atamasining

lug‘aviy ma’nosи giyo (X) – ba’zi o‘simliklarning shirasidan tayyorlanadigan narkotik mahsulotlardir (nasha, qora dori, ko‘knori va shu kabilar).

Giyohvandlik – nasha, qora dori, ko‘knori va shu kabi narkotiklarni iste’mol qilishga odatlangan odamni bangi, nashavand, narkaman deyishadi.

Giyohvandlik esa bir yoki bir necha xil narkotik moddalar (morphin, afyun, nasha va boshqalar)ga o‘rganib qolib, ularni iste’mol qilmaslikdan turolmaslik, xumor tutish holatidir.

Taniqli sayyoh Xristofor Kolumb XV asrda Markaziy Amerikadan Yevropaga giyohvand o‘simgining bargini keltirganida, shifobaxsh modda va uning tutuni turli kasalliklarga dori deb uning quritilgan bargidan naycha qilib odamlarga chekishni o‘rgatganida, uning insoniyat uchun naqadar xavfli ekanligini bilmagan bo‘lsa kerak. Shu sababli, uni ekish va ko‘paytirishga alohida e’tibor beriladi. Birinchi bo‘lib bu o‘simgilik Yevropada shved tabiatshunosi Karl Linney tomonidan o‘stirildi va Jan Niko degan kishi sharafiga «nikotin» deb nom beriladi.

Nikotin tutuni tarkibida nikotin, oltingugurt, ammiak, azot, turli efir moylari, chumoli kislotasi, sırka va valeriana kislotalari, shuningdek, inson oraganizmi uchun zararli bo‘lgan turli zaharli moddalar mavjud.

Giyohvandlik asosan uch turga bo‘linadi: ko‘knori giyohi, nasha giyohi, tamaki giyohi. Ko‘knori giyohi tarkibida xuddi o‘tkir ta’sir etuvchi narkotik modda bo‘lib, uning tanasidan maxsus asboblar vositasida shilimshiq, yelimsimon modda sizdirib olinadi. Bu modda «qora dori» deb atalib, undan iste’mol qilgan kishi jismoniy va aqliy tomonidan zaif, turli jinoyatlar sodir etishdan qaytmaydigan, bir umr farzand ko‘rmaydigan ham bo‘lib qoladi. Surunkali «qora dori» iste’mol qiluvchilarni xalqimiz «ko‘knorilar» deb ataydi. Ko‘knorilar jamiyat uchun ham, oila uchun ham xavfli hisoblanadi.

Nasha giyohini iste'mol qiluvchilar «bangilar» deb ataladi. Nasha giyohini dumaloq holda, sigaretalarga 'qo'shib chekadilar va ovqatlarga aralashtirib, heroin qon tomiriga qo'yish orqali iste'mol qilinadi. Bangilik insonni odamiylik xususiyatlaridan mahrum etadi. Ular odam o'ldirish, o'g'irlik, qaroqchilik kabi turli vahshiyiliklar qilishdan ham toymaydilar. Nasha giyohi O'rta Osiyo hududidagi ba'zi joylarda yashirin holda ekib, o'stiriladi. Bugungi kunda mamlakatimizda nasha giyohining zararli oqibatlarini tugatish maqsadida uni ekuvchi va ko'paytiruvchilarga qarshi keskin kurash olib borilmoqda, ular qonun tomonidan jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Tamaki tutuni oshqozon, gastrit, o'n ikki barmoqli ichak yarasi kabi kasalliklarni, qonning buzilishini ham keltirib chiqaradi, ovoz pardalarini dag'allashtiradi.

Narkotik moddalarning qaysi turini iste'mol qilishdan qat'i nazar, hammasi ham naslga yomon ta'sir etadi. Narkoman ayol yoki erkakning farzandlari tug'ma nogiron, mayib-majruh, aqli zaif, jismoniy rivojlanmaydigan bo'lib tug'iladilar.

Oilada bolaning tug'ilishi ba'zan quvonch emas tashvish, g'am keltiradi. Ichuvchi ota-onadan ishyoqmas, ma'nan qashshoq, aqlan zaif, beqaror, xunuk, badfe'l, jinnisifat, dovdir farzandlar tug'iladi. Bunday bolalar ota-ona uchun ham, jamiyat uchun ham falokatdir.

Kuzatishlarimizdan shunday xulosaga keldikki, 1100ga yaqin aqli zaif bolalarning 400 tasining onasi, 700 tasining otasi ham, onasi ham spirtli·ichimlik iste'mol qilar ekan. Fransuz shifokori Demma 20 yil davomida eri ham, xotini ham ichkilikbozlikka berilgan o'nta oilani kuzatgan. Bu oilalarda tug'ilgan 60 bolaning 26 tasi yoshiga yetmay o'lgan, 6 tasi tutqanoq, 7 tasining bosh miyasi suyilgan, 14 tasi aqli zaif bo'lgan, faqat 10 tasigina sog'lom tug'ilgan.

Tutqanoq kasali bilan og‘rigan har 100 boladan 60 tasining ota-onasi ashaddiy ichuvchi ekan. Ichimlik turli jinoyatlar qilishning asosidir. Faktlarga murojaat qilinsa, 70 foizga yaqin qotillik, 80–90 foiz bezorilik, asosan mastlikda ro‘y berar ekan. Agar spirtli ichimliklar iste’mol qilish 35 foizga kamaytirilsa, qotillik 40 foiz, bezorilik 25 foizga kamayadi. 100 gramm aroq ichish inson jismidagi faol ishlayotgan 7.500 to‘qimani yo‘q qiladi. 75 gramm aroq iste’mol qilgandan so‘ng muskullarning kuchi 20–40 foizga kamayadi. Bu esa mehnat unumdorligini pasayishiga olib keladi.

Erkak kishi alkogolizmga o‘rganish uchun 7–10 yil doimiy ichishi kerak bo‘lsa, ayol 1–3 yil mobaynida o‘rganib qoladi. 13–14 yoshli o‘g‘il yoki qiz bolaga beriladigan 1 qadah vino katta yoshli odamning bir shisha aroq ichgani kabi yomon ta’sir etadi.

Oilada ichkilikbozlikmi, giyohvandlikmi, kashandalikmi, nosvoy chekishmi, qaysi biri mavjud ekan, bunday oilada sog‘lom fikrli farzand kamoloti, oilaviy baxtiyorlik, hamjihatlik, o‘zaro ma’naviy-madaniy hurmat-izzatning bo‘lishi mumkin emas.

Oilaning pok turmush tarzi, dunyoqarashi, ota-onaning halolligi, pokligi, mehnatsevarligi, e’tiqodi, farzandlarni ichkilikbozlikdan, giyohvandlikdan, kashandalikdan asrovchi mezon hisoblanadi.

Ichkilikbozlik, giyohvandlik, kashandalikning oldini olishda barcha ta’lim muassasalari, oila va jamoatchilik hamkorligi alohida o‘rin tutadi.

### Sog‘lom avlod tarbiyasi

Jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanish organizmning funksional imkoniyatlarini, aqliy va jismoniy ishslash

qobiliyatini, o'quv mehnatining unumini oshiradi. Jismoniy tarbiya vositalaridan mohirlik bilan foydalanish, amaliy va boshqa maxsus intellektual sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi.

O'quvchilarning jamoa o'zaro ta'sirida bajaradigan jismoniy mashqlari, ularni tegishli ma'naviy iroda sifatlarini shakllantirishning asosi bo'lgan axloqiy munosabatlar tajribasi bilan qurollantiradi. Jismoniy tarbiya jarayonida turli xil, jumladan, o'quvchining jamiyatga, odamlarga, o'z-o'ziga nisbatan munosabatlarini namoyon qiladigan va o'zgartiradigan konfliktli vaziyatlar yuzaga keladi, qat'iy belgilangan va ixtiyoriy qabul qilinadigan norma va qoidalarga ko'ra harakat faoliyati kuchli emotsional qo'zg'alish vaziyatida shaxsiy manfaatlarni jamoa manfaatlariga bo'ysundirish, o'zini boshqara olish, intizomlilik, halollik, jasurlik, qat'iyat, jamoat mulkiga tejamkorlik bilan munosabatda bo'lishga bo'ysundirishga o'rgatadi.

Jismoniy madaniyat va sport, o'quvchilarning o'qish, mehnat va dam olish tartibotida katta o'rinni egallaydi.

Ijodiy imkoniyatlar miqyosini kengaytirar ekan jismoniy madaniyat o'quvchilarni yuqori unumli mehnatga tayyorlash uchun zamin yaratadi. Mehnat va harakatlantiruvchi faoliyat asosida turli xildagi harakatlar yotadi. Xuddi ana shu o'zining asosiy vazifasi va mexanizmi bilan jismoniy va mehnat tarbiyasini o'zaro yaqinlashtiradi.

O'quvchilar jismoniy tarbiyasining asosiy vositalariga jismoniy mashqlar, tabiiy va gigiena omillari kiradi.

Jismoniy mashqlar deyilganda jismoniy tarbiyaning qonuniyatları va vazifalariga muvofiq maxsus tashkil qilinadigan va ongli ravishda bajariladigan harakatlarni bajarish tushuniladi.

Jismoniy mashqlarni tasniflashga turlicha yondashishlar mavjud. Eng keng tarqalgani jismoniy tarbiya vositalarining asosiga tarixiy shakllangan tizimiga qo‘yilgan tasniflash hisoblanadi. Ular gimnastika, o‘yinlar, turizm, sportni o‘z ichiga oladi.

**Gimnastika.** Pedagogik nuqtai nazaridan gimnastikaning qimmatli tomoni shundaki, u organizmga bir butun holda yoki uning ayrim tizim va funksiyalariga tanlab ta’sir qilish imkoniyatiga ega. Gimnastikaning asosiy, gigienik, sport, badiiy, ishlab chiqarish, davolash turlari farqlanadi. Jismoniy tarbiyada quyidagi vositalardan foydalaniladi: saflanish, qayta saflanish; predmetlarsiz va predmetlar bilan umumiy rivojlanish – to‘p bilan, tayoq, sakrash arg‘amchisi, bayroqchalar; arqonga tirmashib chiqish, oshib o‘tish, muvozanat saqlash, yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish, elementar akrobatik mashqlar.

**O‘yinlar** – o‘yinda bolaning jismoniy kuchi rivojlanadi, qo‘li qattiq, gavdasi egiluvchan, ko‘zi o‘tkir bo‘ladi, fahm-farosati, topqirligi, tashabbuskorligi oshadi. Bolalar va o‘smirlarning harakat faoliyatiga bo‘lgan tabiiy intilishlarini qoniqtiradigan o‘yinlar jamoa bilan birgalikda iztirob chekish, yordam qo‘lini cho‘zish, birgalikdagi harakatlaridan shodlanish tuyg‘ularini uyg‘otadi, do‘stlik va o‘rtoqlikning mustahkamlanishiga yordam beradi.

**Turizm.** Bu o‘quvchilarni jonajon o‘lkasi, mamlakatimizning tabiiy, tarixiy va madaniy yodgorliklari bilan tanishtirish maqsadida tashkil qilinadigan sayrlar, ekskursiya, safar va sayohatlardir. Turistik tadbirlarda o‘quvchilar jismoniy toblanadilar, chidamlilikni, murakkab vaziyatlardan yo‘l topish va harakat qilishni amaliy ko‘nikmalarini, jamoa bilan birgalikdagi hayot va faoliyat, rahbarlik va bo‘ysunish tajribasini egallaydilar, amalda tabiiy muhitda javobgarlik

munosabati normalarini o‘zlashtiradilar.

Turistik safarlarni uyuştirish va o‘tkazishga (piyoda, chang‘ida, qayiqda, velosipedda) jismoniy tarbiya o‘qituvchisi bilan birgalikda guruh rahbari, ota-onalar, otaliqdagilar jalb qilinadi. Ular jismoniy og‘irlikni ma’lum normaga solish, xavfsizlik qoidalariga amal qilish va bolalarning hayoti va sog‘lig‘ining himoyasi uchun alohida javobgardirlar. Safar vaqtida tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha tarbiyaviy ishlar olib boriladi.

**Sport.** Jismoniy tarbiyadan sport jismoniy mashqlarning alohida turlari bo‘yicha eng yuqori natijalarga erishishga bog‘liqligi bilan ajralib turadi. Sport texnik natijalarini aniqlash va g‘oliblarni belgilash uchun musobaqalar o‘tkaziladi. Musobaqalarda keskin sport kurashi sharoitida, jamoa oldida o‘zining natijalari uchun yuksak mas’uliyat o‘quvchilarni uncha-muncha jismoniy va asab zo‘riqishlarini bartaraf etishga olib keladi, harakatlanish va ma’naviy-irodaviy sifatlarini namoyon qiladi, rivojlantiradi. Quyi sinf o‘quvchilari jismoniy mashqlar (sport)ning o‘quv dasturidan joy olgan turlari bo‘yicha musabaqalar o‘tkazadilar.

Gigiena omillari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini gigienik ta’minalash, o‘quv mehnati, dam olish, ovqatlanish, uyqu va boshqalarni oqilona tartibga solishni o‘z ichiga oladi.

Inson organizmi hayotida hech narsa ritmdan ortiq hukmronlik qila olmaydi. Agar inson muayyan ritmda ishlasa va dam olsa, ovqatlansa va uxlasa, organizm faoliyatning har bir turiga oldindan tayyorlanadi, nisbatan yengil o‘tadi, tezlik bilan kirishadi, chunki mustahkamlangan asab aloqalarining «ishga solish» mexanizmi ishlay boshlaydi. Ritm qo‘zg‘alish va tormozlanishni tenglashtiradi, organizmdan uning me’yorda va barqaror ishlab turishi uchun ajraladigan energiyaning sarflanishini kamaytiradi.

Hayot va faoliyatning mehriy asosi sifatida kun tartibi o'quv o'qishdan tashqari va bo'sh vaqt ni sarflashni gigienik normalarga muvofiqlashtirishga olib keladi, mehnat qilish va dam olishni almashlab turishning qat'iy tartibi va maqsadga muvofiqligini belgilab beradi. Qunt bilan tuzilgan va muntazam bajariladigan tartib kuchni sarf etish va tiklanish muvozanatini saqlaydi, sog'liqni mustahkamlaydi, tetik va xushchaqchaq kayfiyat uyg'otadi, batartiblik, aniqlik, uyushqoqlik, intizomlilik, vaqt ni his qilish va o'z-o'zini nazorat qilishni tarbiyalaydi.

### **Mahalla ham tarbiya maskani**

Oila va mahalla har tomonlama bir-birlari bilan bog'liq. Zotan, mahalla oilalardan tashkil topadi. Farzandlar oila bag'rida kamol topganlari kabi oila ham mahalla ichida ravnaq topadi, nurli kelajak sari intiladi. Kerak bo'lsa, mahalla oilaning eng yaqin maslahatchisi, tayanchidir.

Sharq xalqlari, chunonchi, o'zbek xalqi xuddi shu narsani biladi, teran ma'no-mazmunini yaxshi tushunadi. Darhaqiqat, sharq xalqlari uchun muhim xususiyat xursandchilik kunlari ham, boshiga ish tushgan onlarda ham bir-biriga hamdard va hamnafas bo'lishdir. Insonlar o'rtasidagi bunday birlik va hamjihatlikning muhim vositasi – mahalladir.

Mahalla haqida gap ketganda, yurtboshimiz I.A.Karimovning bergen bahosi diqqatga sazovordir. «Ma'lumki, asrlar moboynida mahallalarda ko'pdan-ko'p hayotiy muammolar o'z yechimini topib keladi. To'y-ma'rakalar ham, hayitu hasharlar ham mahalla ahlisiz o'tmaydi. Mahallalarda siyosiy, iqtisodiy va boshqa masalalarga doir jamoatchilik fikri shakllanadi. Bu esa xalqimizning turmush tarzi, ota-bobolarimizdan bizga meros

bo‘lib kelayotgan tafakkur tarzidir. Binobarin, hayotning o‘zi mahallalarni rivojlantirish va ularni qo‘llab-quvvatlashni taqozo etmoqda. Mamlakatimizda ko‘p qirrali islohotlar amalga oshayotgan bir paytda mahalla jamiyat uchun ishonchli tayanch va ta‘sirchan kuch bo‘lib xizmat qilishi lozim»<sup>6</sup>.


Darhaqiqat, mahalla o‘zbeklarning tarixan shakllangan yagona maqsad bilan yashab, faoliyat ko‘rsatadigan makoni hisoblanadi. U o‘zbek xalqining turmush tarzi, ruhiyati, ijtimoiy hayotining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi, milliy an‘analarini, urf-odatlarini, axloqiy-ma’naviy qadriyatlarini avloddan-avlodga yetkazuvchi muqaddas maskan bo‘lib kelgan. Mahalla insonlarning millati, yoshi, jinsi, dini, irqi, tili e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat‘i nazar, ularni ezgulik yo‘lida jipslashtiruvchi va birlashtiruvchi katta oila hisoblanadi. Bu oila insonlarning bir-biriga bo‘lgan o‘zaro hurmati, muhabbati, mustahkam do’stligi asosida yashaydi, faoliyat ko‘rsatadi.

Mahalla katta mamlakatning ichidagi kichik bir mamlakatdir, katta davlat ichra kichik davlatdir. Shuning uchun uni boshqaruв tizimi bo‘lgani kabi, uning o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma’rifiy faoliyat mexanizmi ham asrlar davomida shakllangan.

Mahallada ommaviy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, madaniy, sport, tashkiliy tadbirlar o‘tkaziladi.

---

<sup>6</sup> I.A.Karimov O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. Toshkent, «O‘zbekiston», 1999, 12–13-bet.



## 7-shakl.

Mahalla – ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, an'analar maskani, chunki qadimdan bayramlar, hayit kunlari, to‘ytantanalarda qo‘ni-qo‘shnilar, bemorlar, yolg‘iz keksalarni sovg‘a-salomlar bilan yo‘qlash an’ana tusiga aylanib qolgan. Hashar yo‘li bilan qarindosh-urug‘larga, qo‘ni-qo‘shnilarga ujoy binolari qurish, yetishtirgan dehqonchilik mahsulotlarini yig‘ib-terib olish va ularidan qo‘ni-qo‘shnilarga ulashish, ko‘chalar, hovlilar, mahalla hududini, qabristonlar va atrof-muhitni obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish va toza-ozoda saqlash, sport maydonchalari tashkil etish, yo‘llari, ko‘priklar qurish va ta’mirlash, madaniy yodgorliklarni avaylab-asrash, mahallada yashayotgan har bir fuqaroning burchi hisoblanadi.

Mahallada o‘tayotgan har bir tantana yoki marosim uchun mahalla ahlining katta-yu, kichigi birday mas’ul. Bunday tadbirlarda katta-yu kichikka, hurmat va ehtirom ko‘rsatiladi. Chunki mahallaning barcha a’zosi yagona, mustahkam bitta oila hisoblanadi.

Mahalla yoshlarni kasb-hunarga yo‘llovchi, ishsizlarni ish bilan ta’minlovchi muhim makondir. Har bir oilaning o‘z

kasbiy sulolasi bo‘lganidek, mahallaning ham uzoq tarixiga ega bo‘lgan kasb-hunar sulolasi mavjud. Mahallaning nomlanishi aynan shu hunar nomi bilan ham ataladi.

Mahalla – tarbiya o‘chog‘i. Mahallada o‘sayotgan har bir yigit-qizning axloq-odobi uchun butun mahalla ahli mas’uldir. Shuning uchun ham «Bir bolaga yetti qo‘shni ota-on», «Bir bola tarbiyasiga yetti mahalla ota-on» kabi naqlar bejiz paydo bo‘lmagan. Yoshlarning har bir xatti-harakati barchaning diqqat markazida bo‘ladi. Mahalladoshlarning har bir yosh taqdiriga javobgarligi, ularni nazorat qilishi barkamol insonni tarbiyalab yetishtirishning negizidir. Xulq-odobi yaxshi, har tomonlama namunali farzand mahallaning obro‘sidir, noqobil, axloqan nomaqbul farzand esa mahalla uchun qora dog‘dir.

Mahallaning tartib-qoidasi, qadriyatlariga barchaning amal qilishi shartdir. Kimda-kim bularga rioya etmasa, hurmat qilmasa u mahalladagi o‘tadigan tadbirdardan, to‘yma’rakalardan chetlatiladi, taklif etilmaydi. Agarda kibru havo bilan qo‘ni-qo‘shni, mahalla ahli an'analarini oyoq osti qilsa yoki bepisandlik bilan munosabatda bo‘lsa, amaldagi qonunlarga xi洛 ish tutsa, u mahalladan chiqarib yuboriladi. Bu esa mahalla qonunida eng oliv jazodir. Bu jazo ota-onaning noqobil farzandni «oq qilish» bilan tengdir.

Mahalla erkin fikrlilik asosida rivojlanadi. Mahallada o‘tkaziladigan har bir tadbir, tashkiliy-tarbiyaviy ish yuzasidan har bir fuqaro o‘z nuqtai nazari, qarashlari, taklif va tavsiyalarini ochiq bildirish huquqiga egadir. Erkin fikr mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning ma’naviy poydevorini tashkil etadi.

Ma’lumki, har bir mahallada ikki yoki undan ortiq choyxona bo‘ladi. Bu o‘zbeklarga xos milliy xususiyatdir. U yerda odamlar oshxo‘rlik va choyxo‘rlik qilish davomida turli mavzularda suhbatlar, fikr olishuvlari bo‘lishi tabiiy hol.

Shuningdek, askiya va hazil-mutoyiba gurunglar ham bo‘ladi. Bu jarayonda mahallaning oqil-dono kishilari ba’zi oilalardagi tarbiya borasidagi kamchilik va nuqsonlarni malol kelmaydigan tarzda tilga olishlari asnosida to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirishlari mumkin. Yoxud ma’naviy axloqiy tarbiya yo‘sinida bir-birlariga maslahatlar berishlari foydadan xoli emas.

Shuningdek, to‘y-marosimlarda yoshlarni el xizmatiga jalb etish: mehmonlarga choy tashish, ovqat eltish, ovqat tanavvul qilib bo‘lgandan so‘ng, idish-tovoqlarni olishga o‘rgatish nihoyatda muhimdir. Shu ishlarni bajarish davomida yoshlar nimaga e’tibor berish, qanday muomala-munosabatda bo‘lish kerakligini o‘rgatish muhimdir. Bu har bir ota-onaning, qolaversa, mahalla oqsoqollarining murabbiylik burchidir. Bunday mahallada tarbiyalanayotgan yoshlar, birinchidan, mehnatsevarlik odobini, ikkichidan, xushmuomala odobini, uchinchidan, jamoaga hurmat odobini egallaydilar.

Shunday qilib, mahalla Sharq xalqlari uchun muhim qadriyat bo‘lib, uning sha’ni, gullab-yashnashi, taraqqiyoti uchun butun kuch va imkoniyatni safarbar etish barchaning kelajak avlod, millat oldidagi burchi va vazifasidir.

### **Milliy fazilatlar tizimi**

Tarbiya nazariyasida yangi tushunchalarining paydo bo‘lishi ijtimoiy, madaniy, siyosiy, mafkuraviy hayotda ro‘y bergen o‘zgarishlar bilan belgilanadi. O‘zbekiston qo‘lga kiritgan milliy mustaqillik pedagogika-tarbiya haqidagi fanda ham keskin islohotlar zaruratini paydo qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, sobiq sho‘ro tarbiya nazariyasida o‘rganish mumkin bo‘lмаган «O‘quvchining milliy g‘ururi», «O‘quvchining O‘zbekiston vatanparvarligi», «O‘quvchining milliy odobi»,

«O'quvchining milliy oriyati vijdoni», «O'quvchining millatlararo muloqot madaniyati», «O'quvchining milliy mafkuraviy ongliligi» kabi tushunchalarning mezonlarini ilmiy asoslanishini talab qiladi.

Aks holda tarbiyada maqsad ham, natija ham mavhum bo'lib qolish xavfi paydo bo'ladi. O'quvchilarning milliy tarbiyaviy fazilatlari mezonlarini ilmiy asoslash:

- zamonaviy pedagogika fanining ilg'or usuli;
- modellashtirish usulini samarali qo'llash imkonini beradi;
- tarbiya uslubiyati, texnologiyasi bo'yicha qo'lga kiritgan ilg'or ilmiy yutuqlardan foydalanish mumkin;
- jahon tarbiyaviy tajribalari namunalariga asoslanish imkonini beradi;
- milliy tarbiyaviy fazilatlar O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li talablaridan kelib chiqib belgilanishini kafolatlaydi;
- mezonlar mazmunida milliylik, ajdodlarga zamondoshlarga hurmat, madaniy vorislik tamoyillari saqlanadi, rag'batlantiriladi;
- sistemalilik, komplekslilik, yaxlitlik, funksionallik, shaxsiy xususiyatlarga asoslanuvchi yondashuvlar uyg'unligiga erishish uchun imkon yaratiladi.

O'quvchining o'z faoliyatida, tuyg'u-hissiyoti va nutqida, o'z-o'ziga va boshqalarga qiladigan munosabatlarida namoyon bo'ladigan sifatlari uning o'z hayotida qanday maqsadlarga amal qilishiga, niyatiga qarab ijobiy yoki salbiy mazmun kasb etadi. Milliy tarbiyalanganlik mezonlarini belgilashda o'quvchilar xulq-atvori, niyatining ijtimoiy yo'naltirilganligiga katta e'tibor beriladi.

### **III. «MA'NAVIYAT ASOSLARI» O'QUV KURSINING TA'LIMNI INSONPARVARLASHTIRISHGA QARATILGANLIGI**

#### **3.1. «Ma'naviyat asoslari» o'quv kursining ta'limdi insonparvarlashtirishga qaratilgan namunaviy dasturi(bakalavriat bosqichi uchun)**

№	MAVZULAR	Ajratalgan soatlar	
1.	«Ma'naviyat asoslari» predmeti haqida tushuncha va uni ta'limi insonparvarlashtirishdagi ahamiyati	2	1
2.	Ma'naviyatning tarkibiy qismlari va hokimiyatdagi o'rmini bilihda insonparvarlashtirishning ahamiyati	2	1
3.	Amir Temur va temuriylar sulolasi davrida ma'naviyat	2	1
4.	Ma'naviyatda milliylik va umuminsoniylikning uyg'unligi	2	1
5.	Qadimgi Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviyatining shakllanishidagi insonparvarlik g'oyalari	2	1
6.	Islom dinida ma'naviyat va ma'naviyatli inson qiyofasi	2	1
7.	Ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash g'oyalari	2	1

8.	Shaxs ma'naviyatini rivojlantirishda insonparvarlik omillari va vositalari	2	
	Jami: 22 soat	16	6

### 3.2. Amaliy mashg'ulotni tashkil etish namunalari

#### 1-amaliy mashg'ulot: «Ma'naviyat asoslari» predmeti haqida tushuncha va uni ta'limgi insonparvarlashtirishdagi ahamiyati

##### Mashg'ulot rejasi:

1. Ma'naviyat tushunchasi. «Ma'naviyat asoslari» o'quv kursining maqsad va vazifalari.
2. Ma'naviyat asoslari o'quv kursining ta'limgi insonparvarlashtirishdagi ahamiyati.
3. Yuksak ma'naviyatli insonni shakllantirish jamiyatni rivojlantirishning muhim omili.

##### Tayanch so'z va iboralar

Ma'naviyat, ma'naviyat asoslari, ta'limgi insonparvarlashtirish, shaxsni voyaga yetkazish, yuksak ma'naviyatli inson, jamiyatni rivojlantirish.

##### Adabiyotlar

1. I.A.Karimov. «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li». T.: «O'zbekiston» nashriyoti, 1992. 20–72-betlar.

2. I.A.Karimov. «Yuksak malakali mutaxassislar-taraqqiyot omili». T.: «O'zbekiston» nashriyoti, 1995. 18–19-betlar.
3. I.A.Karimov. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q». T.: «Sharq» nashriyoti, 1998. 6–8-bet.
4. I.A.Karimov. «Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin». T.: «O'zbekiston» nashriyoti, 1998.
5. I.A.Karimov. «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz». T.: «O'zbekiston», 2000.
6. S.Otamurodov va boshqalar. «Ma'naviyat asoslari». Ma'ruzalar matni. Toshkent, 2000.
7. S.Otamurodov va boshqalar. «Ma'naviyat asoslari» o'quv qo'llanma. A.Qodiriy nomli xalq merosi nashriyoti. T.: 2002. 210-bet.
- 1. Ma'naviyat tushunchasi. «Ma'naviyat asoslari» o'quv kursining maqsad va vazifalari.** Prezidentimiz I.A.Karimov ma'naviyat tushunchasiga ta'rif berib, shunday degan edi: «Ma'naviyat haqida gap ketar ekan, men avvalo insonni ruhiy poklanishi va yuksalishiga da'vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning imon irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli botiniy kuchni tasavvur qilaman»<sup>7</sup>. Bu fikrni talqin qiladigan bo'lsak, undan shunday ma'no chiqadiki, eng avvalo, har bir mushohada qila oladigan shaxs o'zining haqiqiy inson ekanligini tushunib yetishi, ya'ni ongi rivojlanib borayotganligini fahmlashi, barcha tirik mavjudodlarga va insonlarga mehr muruvvatli, bo'la olishi, milliy qadriyatlarimizni tiklash va uni rivojlantirishga xizmat qila olishi tushuniladi. Ikkinchi masalani yoritishda I.A.Karimov-

<sup>7</sup> I.A.Karimov. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q». T.: «O'zbekiston» nashriyoti, 1998. 6–8-bet.

ning ma'naviyatga ta'rifi hamda ma'naviyat har bir insonning ikkinchi ruhiyatining aynan ijobiy qirralari, aql-zakovati, o'z-o'zini anglash, aniq maqsadlar sari faol harakatining qudratli salohiyati ekanligiga e'tibor qaratilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xalqimizda «Bama'ni odam, juda bama'ni inson» degan iboralar bor. Bu ijobiy ma'nodagi yuksak iboradir. Shu bilan birga, «Bama'ni odam», degan tushuncha ham bor, bunday odamlar inson nomiga munosib hisoblanmaydi va ular hech qachon insonparvar bo'la olmaydi.

Ma'naviyat – jamiyatning, millatning yoki ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalar, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlantiruvchi tushuncha. Ma'naviyat keng ma'noga ega bo'lib, ma'rifat, madaniyat kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi.

**2. Ma'naviyat asoslari o'quv kursining ta'limni insonparvarlashtirishdagi ahamiyati.** Ma'naviyat asoslari predmeti inson va jamiyat ma'naviy hayotidir. Maqsad komil insonlarni shakllantirish, imon-e'tiqodi butun, irodasi baquvvat, erkin fuqaro ma'naviyatini yuksaltirish va jamiyat ma'naviy salohiyatini rivojlantirish ekanligi chuqr tahlil etiladi.

**Ta'limning insonparvarlashuvi** – inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta'limga nisbatan bo'lgan turli-tuman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muhit o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuvidir. Shu nuqtai nazardan ma'naviyat asoslari kursining kategoriyalari (ilmiy tushunchalari) sifatida shaxsning o'z-o'zini anglashi, bilimdonligi, saxiylik, samimiylilik xayrixohlik, e'tiqodlilik, diyonatlilik poklik, mehr-shavqat, vijdonlilik, rostgo'ylik, adolatparvarlik, ota-onaga hurmat, oilaga sadoqatlilik, milliy

g‘urur, milliy o‘z-o‘zini anglash, vatanparvarlik kabilarning mazmunini tushunish va ular ustida o‘z fikr-mulohazalarini bildirish tavsiya etiladi.

**Inson** – turmush rivojlanishi oliy bosqichi bilan singib ketgan mavjudot, ijtimoiy-tarixiy faoliyat subyekti. *Inson* tizim hisoblanadi, bunda jismoniy va ruhiy, jinsiy asoslanganlik va tan olingan shakllanganlik, tabiiylik, ijtimoiy va ma’naviyilik yaxlit bir butunlikni hosil qiladi. *Inson* bir qator fanlarning o‘rganish obyektidir. Masalan, antropologiya, tafakkur falsafasi, odam anatomiyasи, psixologiya, sotsiologiya, pedagogika va boshqalar.

**Insoniylik** (gumannost lotincha *humanus-insoni*) – insonni sevish, insonning qadr-qimmati, iztiroblarini hurmat qilish; hamkorlik, birga ishtirok etish, yordamlashish jarayonidagi muloqot va bu faoliyat jarayonida amalga oshiriladi. Insoniylik bilan kelisha olmaydigan har qanday faoliyat g‘ayriaxloqiy hisoblanadi; hattoki «insoniyatga qarshi jinoyat» tushunchasi ham paydo bo‘lgan.

**Insoniylashtirish** – jamiyatda insonparvarlik amallarini kuchaytirish, umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirish, muloyimlik va insoniylik bilan uyg‘unlashgan holdagi tugallangan estetik shaklga ega bo‘lgan insoniy qobiliyatlarni yuqori madaniy va axloqiy darajada rivojlantirish demakdir.

Buyuk adiblarimizning fikricha, **insonparvarlik** – insonning sharifi, vijdoni va imonning mahsuli hisoblanadi.

**Insonparvarlik** g‘oyalari, baxt-saodat va adolatga erishish orzu-havaslari, xalq og‘zaki ijodiyotida, adabiyotda, diniy-falsafiy, pedagogik ta’limotlarda o‘zaro o‘tmishdan beri o‘z aksini topib kelmoqda.

**Insonparvar ta’lim** – umuminsoniy qadriyatlar, insonning hayoti va sog‘lig‘i, shaxsning erkin rivojlanishi ustuvorligi tamoyillariga asoslangan ta’limdir.

**3. Yuksak ma’naviyatli insonni shakkantirish jamiyatni rivojlantirishning muhim omili:** Bu masalani yoritishda ma’naviyatning shaxs faolligini, mehnat unumdorligini oshirish, jamiyatda totuvlik, yakdillikni ta’minalash va umummiliy manfaatlarni uyg‘unlashtirishdagi qudratli kuch o’rganiladi.

Markaziy Osiyo tarixida diniy va qomusiy bilimni siyosiy aql-idrok bilan ma’naviy jasoratni o’zida mujassam eta bilgan Imom al Buxoriy, at Termiziy, Xoja Bahovuddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Bobur va boshqa buyuk ajdodlarimiz milliy madaniyatimizni rivojlantirishga ulkan hissa qo’shganlar, ularning nomlari, jahon sivilizatsiyasiga qo’shgan ulkan hissalari butun dunyoga ma’lum<sup>8</sup>.

Jamiyatning ma’naviy kamoloti o’z-o’zidan amalgalashmaydi. Har bir tuzum va davr ma’lum maqsad, g’oya va mafkuralar, talab va ehtiyojlar asosida kishilarning ma’naviy kamolotiga ta’sir ko’rsatadi. Ana shunga asosan, inson tarbiyasining biron tizim, shakl va mazmuni, insoniyligi kelib chiqadi. Jamiyat a’zolarining ma’naviy fazilatlari, ta’lim tarbiyaning yo’llari va usullariga kishilarning milliy jihatlari, yashash va mehnat qilish sharoitlari, turmush tarzi kabilar ham ta’sir etadi .Ayniqsa, ma’naviy qadriyatlarimizni chuqur bilish, uning uzviyligini ta’minalash, har bir yosh avlodning muqaddas burchi ekanligini unutmasligimiz kerak.

Boshqa xalqlarning qadriyatları qanchalik ta’sir ko’rsatmasin kattalarga, ota-onaga hurmat, kamtarlik, halollik, imon, mehnatsevarlik, mehmondo’slik, bolalar tarbiyasidagi ma’naviy fazilatlarimiz barqarordir. Chunki bu insoniy fazilatlarimiz avloddan-avlodga o’tib keladi. Ayollarimiz,

---

<sup>8</sup> I.A.Karimov. «O’zbekiston XXI asr bo’sag‘asida. T.: «O’zbekiston» nashriyoti, 1997. 139–140-betlar.

qizlarimizning qanchalik zamonaviylashgani bilan hayo, ibo, or-nomus bobida, oila, qarindosh urug‘larga munosabatlarda sharqona qadriyatlarimizga doimo sodiqdirlar. Yuqoridagi fikrlarni kengaytirib ma’lum xulosalarga kelingach, mashg‘ulotga yakun yasash mumkin.

## **2-amaliy mashg‘ulot. Ma’naviyatning tarkibiy qismlari va hokimiyatdagi o’rnini bilishda insonparvarlashtirishning ahamiyati**

### **Mashg‘ulot rejasi:**

1. Ma’naviyatning tarkibiy qismlari haqida tushuncha. Madaniyat, ma’naviy meros, mafkura.
2. Ma’naviyat va iqtisodiyotni umumiyligida insonparvarlikning ahamiyati.
3. Ma’naviyat va siyosat, huquq hamda hokimiyat.

### **Tayanch so‘z va iboralar**

Ma’naviyat, madaniyat, mafkura, qadriyat, iqtisodiyot, ijtimoiy guruh, siyosat, hokimiyat, insonparvarlik, xalqparvarlik.

### **Adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: «O‘zbekiston» nashriyoti, 1992. 47–52-moddalar.
2. I.A.Karimov. «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li». T.: «O‘zbekiston» nashriyoti, 1992. 25–26-betlar.

3. I.A.Karimov. «Istiqlol va ma’naviyat». T.: «O’zbekiston» nashriyoti, 1994.

4. I.A.Karimov. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q». T.: «Sharq» nashriyoti, 1998. 7–11-betlar.

5. I.A.Karimov. «Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etish». T.: «O’zbekiston» nashriyoti, 1998.

6. I.Sofnazarov. «Bozor iqtisodiyoti va shaxs kamoloti». T.: 1996.

7. S.Otamurodov va boshqalar. «Ma’naviyat asoslari». Ma’ruzalar matni. Toshkent, 2000.

8. S.Otamurodov va boshqalar. «Ma’naviyat asoslari». O’quv qo’llanma. A.Qodiriy nomli xalq merosi nashriyoti. T.: 2002. 210-b.

## **1. Ma’naviyatning tarkibiy qismlari haqida tushuncha. Madaniyat, ma’naviy meros, mafkura.**

*Madaniyat tushunchasi arabcha* – madina (shahar, kent) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, insoniyat tomonidan yaratilgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklar majmuasi ekanligi tahlil qilinadi. Madaniyat tushunchasini izohlashga bag‘ishlangan ko‘p ilmiy adabiyotlar mavjud. «Madaniyat tushunchasiga berilgan adabiyotlar soni 260 tadan oshib ketgan. Mualliflar bu tushunchaga har biri o‘z nuqtai nazaridan yondashadilar. Bunga sabab, madaniyatning ko‘p qirrali, murakkab, ma’naviy-ijtimoiy hodisa ekanligi, uning inson va jamiyat hayotining barcha qirralarni qamrab olganligidir»<sup>9</sup>. *Madaniyat tushunchasi* – keng ma’noda insoniyatning butun tarixiy taraqqiyot jarayonida yaratgan va yaratayotgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklarining yig‘indisini ifodalaydi.

<sup>9</sup> S.Otamurodov va boshqalar. «Ma’naviyat asoslari» o’quv qo’llanma. T.: A.Qodiriy nomli xalq merosi nashriyoti, 2002. 39-bet.

Madaniyatning yana bir turi – bu ma’naviy madaniyatdir. Ma’naviy madaniyatga insonning aqli va ma’nan yaratuvchanlik faoliyatlari va ularning natijalari kiradi. **Ma’naviy madaniyat** – fan, falsafa, san’at, adabiyot, axloq, din, huquq, siyosat, maorif, ma’rifat va hokazolar yig‘indisidan tashkil topadigan insonning tashqi va ichki ma’naviyati, ruhiyati olamidir. Umuman, kishilik jamiyatini madaniyatsiz, xususan, ma’naviy madaniyatsiz tasavvur qilish qiyin. Jamiyat va inson mavjud ekan u ma’lum madaniyatga egadir, madaniyatsiz ma’naviy hayot mavjud bo‘lishi mumkin emas.

Ma’naviy meros - ma’naviy taraqqiyotning uzoq davrlar davomida tarkib topgan, avloddan-avlodga boylik sifatida o‘tib keluvchi inson aql-zakovatining mevasi ekanligini uqtirish, qadriyat tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan va hamma davrlarda ham iqtisodiy, ma’naviy taraqqiyotga ijobiy ta’sir etadigan moddiy va ma’naviy boylik ekanligini tushuntirish zarur.

Madaniy merosning qadri abadul-abad tushmaydigan qismiga **milliy qadriyat** deyiladi. Ma’naviy merosni izohlashdan oldin, umuman sivilizatsiya, meros, xususan, madaniy meros, ma’naviy meros tushunchalarining nisbati, xususiyatlari, farqlarini bilib olishimiz lozim bo‘ladi. Chunki ma’naviy meros, umuman, meros va madaniy merosning tarkibiy qismi sanaladi.

**Meros** – insoniyatning har bir tarixiy bosqichda yashayotgan avlodlari tomonidan yaratilgan va kelgusida yetib kelgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklari majmuidir.

Madaniy merosda insonning kelgusi taraqqiyotiga, ma’naviy yuksalishiga xizmat qiladigan, unga ijobiy ta’sir qiladigan qadriyat ahamiyatiga ega bo‘lgan tomonlar hisobga olinadi.

*Madaniy meros* deb, o'tmish avloddan keyingi avlodga vorislik qoldirilgan, zamonda beqarorlik sinovidan o'tgan, saralangan, insoniyatning hozirgi va kelgusi taraqqiyotiga xizmat qiladigan moddiy va ma'naviy madaniyat majmuiga aytishimiz mumkin. Meros – insoniyatning har bir tarixiy bosqichda yashagan avlodlari tomonidan yaratilgan va keyingi avlodiga yetib kelgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklari majmuidir. Madaniy meros ham meros doirasiga kiradi, ammo undan biroz farq qiladi. O'tmishdagi barcha madaniyat yodgorliklari sifatida saqlanib qolishi mumkin, lekin ularning hammasi ham madaniy qadriyatga ega bo'lavermaydi. Madaniy merosda kishilikning kelgusi taraqqiyotiga, madaniy yuksalishiga xizmat qiladigan, unga ijobiy ta'sir qiladigan qadriyat ahamiyatiga ega bo'lgan tomonlar hisobga olinadi.

Mafkura ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida alohida ahamiyatga ega. *Mafkura* – dunyoqarash sistemasi va uning asosiy prinsiplari. *Milliy mafkura* – millatning etno ijtimoiy birlik sifatida mavjud bo'lishi va rivojlanishini, erkin va ozod taraqqiyotini g'oyaviy asoslash, ta'minlashga qaratilgan qarashlar tizimidir.

Mafkura insonni halol va pokiza bo'lishga, ilm-fan asoslarini egallashga, beva-bechoralarni qo'llab-quvvatlashga, tabiatni e'zozlashga da'vat etadigan diniy, axloqiy qadriyatlarga alohida e'tibor berishga da'vat etadi. Bu borada, ayniqsa, buyuk bobokalonlarimiz Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, Imom at Termiziyning insonni ma'naviy yetuklikka chorlovchi buyuk g'oyalari, hikmatlari katta o'rinn tutadi.

Shunga ko'ra, Prezidentimiz ham «Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona

kuch ma'rifatdir»-degan edi<sup>10</sup>. Mafkura muayyan ijtimoiy guruh, ijtimoiy qatlam, millat, davlat, xalq va jamiyatning ehtiyojlari, maqsad va muddaolari, manfaatlari, orzu-intilishlari hamda ularni amalga oshirish tamoyillarini o'zida mujassam etilgan g'oyalari tizimidir.

Ma'naviyat mafkurasiz rivojlanma olmaydi. Chunki inson ruhiyatini shakllantirish, milliy qadriyatlarni tiklash va jamiyat maqsadlarini amalga oshirishda mafkura harakatga keltiruvchi kuch sifatida katta ahamiyat kasb etaveradi.

Xullas, mafkura umummillatga, umumxalqqa, butun jamiyatga taalluqli ulkan g'oyalari birligidir. Ammo uning ildizlari har bir insonning qalbida, vijdonida, imonida, aqlidroki va tafakkuridadir. Shuning uchun haqiqiy, hayotiy chuqur insoniy mafkurasi bor xalq, mamlakat va jamiyat qudratlidir, deyiladi.

**2. Ma'naviyat va iqtisodiyotning umumiyligida insonparvarlikning ahamiyati.** Bu muammo haqida fikr yuritganda iqtisodiyot nazariyasi fanidan olingan bilimlarga tayanish yaxshi samara beradi. Bu o'rinda Prezidentimiz I.A.Karimovning «Iqtisodiyot bilan ma'naviyatni bir-biridan ajratib, bir-biridan ustun qo'yib bo'lmaydi, ...ma'naviy barkamollik bilangina biz yorug' kelajakka yetishishimiz, O'zbekistonimizni ozod va obod davlat bo'lishiga erishishimiz mumkin»<sup>11</sup>, – degan fikrlariga alohida to'xtalish zarur. Shuning bilan birga jamiyat ma'naviyati taraqqiyotida iqtisodiy omillarning roli, yuksak ma'naviyat esa o'z navbatida, iqtisodiy samaradorlik va sifat garovi ekanligini chuqur tahlil etish kerak.

<sup>10</sup> I.A.Karimov. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q». T.: «Sharq», 1998. 7-bet.

<sup>11</sup> I.A.Karimov. «Xavfsizlik va barqarorlik taraqqiyot yo'lida». T.: «O'zbekiston», 1998. 317-bet.

**Iqtisodiyot**, bozor iqtisodiyoti, rivojlangan iqtisodiyot-yuksak ma'naviyat mezoni ekanligi, o'tish davrida sodir bo'ladigan iqtisodiy qiyinchiliklar sharoitida ma'naviy omillarning roli, uyushgan jinoyatchilik, ta'magirlik, yulg'uchlik, aldamchilik, poraxo'rlik kabi salbiy illatlarni tugatishda, shuningdek, tadbirkorlik, faollik, saxiylik qilish fazilatlarining namoyon bo'lishi ma'naviy yuksaklik belgisi ekanligiga ham alohida to'xtalish zarur.

**Iqtisod** tushunchasiga turlicha ta'riflar berilib kelinmoqda. Ular qanchalik turli-tuman bo'lmasin, bu ta'riflarni birlashtiruvchi, umumlashtiruvchi tomonlar mavjud. Aslida iqtisodiyotni inson hayoti va faoliyati bilan uyg'un holda qarash to'g'ri bo'ladi. «Iqtisodiyot deganda kishilar hayotini ta'minlaydigan moddiy ne'matlar ishlab chiqish va uning iste'moli bilan bog'liq barcha sohalarning yig'indisi va ayni jarayonda ishtirok etayotgan odamlarning faoliyati, ular o'rtasidagi aloqa va bog'lanishlar, munosabatlarning yaxlit birligini tushunmoq kerak»<sup>12</sup>.

Inson oziq-ovqat, kiyim-kechak, yashash joyga muhtoj, hayvonot dunyosi ham oziq-ovqatga muhtojlik sezadi. Inson ishlab chiqarish orqali o'z ehtiyojlarini qondiradi, hayvonlar esa hech narsa ishlab chiqarmaydilar, ularda ong rivojlanmagan. Insonlarning moddiy ishlab chiqarish jarayonlari va bu borada yuzaga keladigan munosabatlarni iqtisodiyot fani o'rganadi.

**3. Ma'naviyat va siyosat, huquq hamda hokimiyat.** Ma'naviyat taraqqiyotida davlat tomonidan olib boriladigan siyosatning roli nihoyatda kattadir. Ma'naviyat va siyosatning o'zaro bog'liqligi masalasi ustida to'xtalishdan oldin siyosatning mohiyatini ochib berish lozim.

---

<sup>12</sup> A.Abdullayev. Ma'naviyat va iqtiodiy tafakkur. T.: «Ma'naviyat», 1999, 7-bet.

✓ *Siyosat* – aslida yunoncha so‘z bo‘lib, mazmuni davlat yoki jamoát ishlarini anglatadi, arabchadan tarjima qilinganda esa boshqarish ma’nosini anglatadi. Siyosat – katta ijtimoiy guruhlar, millatlar, davlat, ichki va tashqi munosabatlari sohasidagi faoliyatni anglatadi. Siyosatning markazida davlat bilan bog‘liq masalalar mavjud bo‘ladi.

*Siyosat* – bu muayyan davlatlar hokimiyati, siyosiy partiylar, jamoat tashkilotlarining mamlakat ichki hayotida va xalqaro maydonda xalqlar, millatlar, ijtimoiy guruhlarning maqsad va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan faoliyatidir.

Qaysi mamlakatda ma’naviyat va ma’rifatni yuksak darajaga ko‘tarish, g‘amxo‘rlik qilish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bo‘lsa, o‘sha mamlakatda tinchlik va osoyishtalik barqarorlik vujudga keladi, ilm-fan ma’rifat va madaniyat rivojlanadi.

O‘zbekiston ma’naviyat va ma’rifatni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligining yaqqol misoli qilib, quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

– 1994-yil 23-aprelda «Ma’naviyat va ma’rifat jamoat-chilik markazini tashkil etish to‘g‘risida»gi;

– 1996-yil 9-sentabrdagi «Ma’naviyat va ma’rifat jamoat-chilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to‘g‘risida»gi Prezidentimiz Farmonlarini;

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 25-iyuldagagi «Ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini» oshirish to‘g‘risidagi Qarori va hokazolar.

Ma’naviyat va huquq xususida so‘z borganda huquqning ijtimoiy munosabatlarda insonlarning amalda rasman tengligi tamoyillarini ifodalovchi me’yoriy shakli ekanligiga e’tibor

berish zarur. Fuqarolarning huquqiy madaniyatini rivojlanishi jamiyatda barqarorlikni ta'minlovchi muhim ma'naviy omil ekanligi tahlil etiladi.

Ma'naviyat va huquq bir-biri bilan bog'liqdir. Jamiyat davlat doirasida huquq normalarining belgilanishi odamlarning qaysi darajada ma'naviyatga ega bo'lishlariga bog'liqdir. Mamlakat miqyosida qabul qilinadigan konstitutsion qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarning darajalari shu mamlakat fuqarolarining ma'naviyati rivojlanishi darajalariga mos ravishda rasman belgilab beradi. O'zbekiston Konstitutsiyasida ham mamlakatimizda qurilmoqchi bo'lgan adolatli, demokratik, huquqiy ustuvorligiga asoslangan jamiyat qurishning yo'naliishlari belgilab berilgan. Shuningdek, Konstitutsiyamizda milliy xususiyatlarimiz va qadriyatlardan kelib chiqib, bir qator huquqiy me'yorlar belgilanganki, u xalqimiz ma'naviyati, qalbi va ruhiyati qirralarini o'zida ifoda etgan. Jumladan, «Voyaga yetmagan, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir» (45-modda), «Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar» (46-modda), «Davlat va jamiyat yetim bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatini rag'batlantiradi» (64-moddaning 2-qismi), «Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi» (65-moddaning 2-qismi).

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, davlat hokimiysi va boshqaruvi idoralarini yangidan tashkil etdi. Natijada, yangi davlat organi – viloyat shahar va tuman hokimligi boshqaruvi vujudga keltirildi. Ma'naviyat hokimiyat tizimida turli tabaqa, turli toifadagi aholining umumiyy manfaatlarini o'zida mujassam etib, ularning bir mamlakat fuqarosi sifatida umumiyy ehtiyojlarini qondirishning muhim omili sanaladi.

Hokimiyat o‘z mohiyati va maqomiga ko‘ra rahbarlik va hukmronlik qilish munosabatlarini ifoda etuvchi tushunchadir. Hokimiyat alohida shaxs, guruh, odamlar, tashkilot, siyosiy partiya davlatning ijtimoiy hukmronlikning boshqa ishtirokchilarga kuch ishlatish yoki kuch ishlatmaslik vositalari va uslublari yordamida o‘z ifodasini o‘tkazish va ularning harakatlarini boshqarishni anglatadi.

Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy «Fozil kishilar shahri» nomli asarida davlatni boshqaruvchi rahbar shaxsning o‘n ikki fazilatini sanab o‘tadi. Uning fikriga ko‘ra, rahbar avvalo sog‘lom, aqli, hushyor, zakovatli va ma’naviyatli inson bo‘lishi, qalbidaadolat tuyg‘ui jo‘sh urib turishi, do‘stu dushmanni, rost va yolg‘onni ajratadigan bo‘lishi kerak. Davlatni fozil kishilar boshqarishi lozim. Fozil kishilar ko‘paygan shaharlarda osoyishtalik, farovonlik ham bo‘ladi, deb ko‘rsatadi.

### **3-amaliy mashg‘ulot. Amir Temur va temuriylar sulolasi davrida ma’naviyat.**

#### **Mashg‘ulot rejasи:**

1. Amir Temur buyuk davlat arbobi, yuksak ma’naviyat sohibi.
2. «Amir Temur tuzuklari»da ma’naviyat asoslari.
3. Amir Temur va temuriylar sulolasi davridagi moddiy va ma’naviy meroslar va ularning mustaqillik davridagi ahamiyati.

## Tayanch so‘z va iboralar

Ma’naviyat, Amir Temur, temuriylar sulolasi, Temur tuzuklar, tamoyil, mohiyat, insoniy fazilatlar, insonning kundalik hayoti, ilm-fan arboblari, yuksak ma’naviyat.

### Adabiyotlar

1. I.A.Karimov. «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida». T.: «O‘zbekiston» nashriyoti, 1997. 137–140-betlar.
2. I.A.Karimov. «Amir Temur – faxrimiz, g‘ururimiz». T.: 1996. 3–7-betlar.
3. «Temur tuzuklar» (forschadan ko‘chirma) akad. B.Ahmedov tahriri otida. T.: 1991.
4. A.Navoiyning mukammal asarlar to‘plami. 1–13-jiddlar. T.: «Fan» nashriyoti, 1989–1998.
5. Z.M.Bobur. «Boburnoma». T.: 1989.
6. A.Ibrohimov va boshqalar. «Vatan tuyg‘usi». T.: «O‘zbekiston» nashriyoti, 1996. 237–240, 365–370-betlar.
7. S.Otamurodov va boshqalar. «Ma’naviyat asoslari» Ma’ruzalar matni. T.: 2000.
8. S.Otamurodov va boshqalar. «Ma’naviyat asoslari» o‘quv qo‘llanma. A.Qodiriy nomli xalq merosi nashriyoti. T.: 2002. 210-b.

**1. Amir Temur buyuk davlat arbobi, yuksak ma’naviyat sohibi.** Amir Temurning tarixi ko‘p jildlik kitoblar yozishga arziydi. Mustaqillikka erishgunimizga qadar buni amalga oshirish imkoniyatiga ega emas edik. Chunki kommunistik g‘oya bunga yo‘l bermas edi, hatto, Amir Temurning o‘zi tahqirlanib tuhmatu malomatlarga qolgan edi. Allohga shukurlar bo‘lsinki, mustaqillik tufayli ko‘p ming

yillik boy tariximizni, shu jumladan, ulug‘ bobomiz Amir Temurni o‘rganish imkoniga ega bo‘ldik. Amir Temur 1336-yilning 9-aprelida Shahrisabzning Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida tavallud topgan.

Amir Temur – buyuk shaxs, kuragi yerga tegmagan buyuk sarkarda, yirik davlat arbobi, qonunshunos, talantli me’mor, notiq, ruhshunos, shu bilan birga el-yurtini, xalqini sevgan va uni jahonga mashhur qilgan inson bo‘lgan.

Tarix bu ko‘hna dunyoda juda ko‘p jahongirlarni ko‘rgan. Amir Temurning ulardan farqi shundaki, u umr bo‘yi bunyodkorlik bilan mashg‘ul bo‘lgan. Uning «qay bir joydan bir g‘isht olsam, o‘rniga o‘n g‘isht qo‘ydirdim, bir daraxt kestirsam, o‘rniga o‘nta ko‘chat ektirdim», degan so‘zları bunyodkorlik, yaratuvchanlik faoliyatining tasdig‘idir. «Agar bizning qudratimizni bilmoqchi bo‘lsangiz, qurgan binolarimizga boqing», degan. Amir Temur, avvalo, o‘z xalqiga, kelajak avlodlariga murojaat qilgan, desak yanglishmaymiz.

Har qanday jamiyat taraqqiyotini ilm-ma’rifatsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Buni teran anglagan sohibqiron hokimiyatga kelishi bilan chiqargan dastlabki farmonlarini madrasalar barpo etishga, ilm toliblariga nafaqalar tayinlash bilan boshlagan. Qaysi bir shaharga tashrif buyurmasin Amir Temur, avvalo, o‘sha yerlik olimu fozillar bilan uchrashar, ular suhbat qurar, turli mavzularda bahslashar edi. U har bir insonga mehr bilan boqib, eng avvalo, har bir insonning insoniy fazilatlarini o‘rgangan.

Tarix, tibbiyot, metematika, astranomiya, me’morchilik sohalarida yuksak salohiyatga ega Amir Temur uchun bu tabiiy hol edi. Mazkur fazilat sohibqironning nabirasi Mirzo Ulug‘bekka o‘tgani ham shubhasiz. Mirzo Ulug‘bekning davlat arbobi bo‘lishi bilan birga buyuk olim darajasiga yetishishida

bobosi Amir Temurning xizmatlari benihoya katta bo‘lgan. Unabirasi Ulug‘bekdagi noyob qobiliyatni boshdanoq payqab safarlarda ham yonida olib yurib dunyoning mashhur olimlari tarbiyasidan bahramand etgan. Amir Temur ma’naviyatini belgilovchi bosh mezon uning butun umr bo‘yi amal qilgan «Kuch-adolatda!» degan shioridir. Bu shiorda Amir Temurning ma’naviy va ma’rifiy qarashlari uning o‘z farzandlari nabiralari, taxt vorislariga qoldirgan o‘gitlari «Temur tuzuklari»da mujassamslashgan. Bu beba ho tarixiy asarda, hokimlar va vazirlarning vazifalari, o‘z ishiga munosabati, aholi turli qatlami sipohlarga munosabat kabi hayotiy ma’naviy-axloqiy qonun-qoidalar o‘z ifodasini topgan.

**2. «Amir Temur tuzuklari»da ma’naviyat asoslari.** Sohibqironning «Temur tuzuklari»dan quyidagi satrlarni mammuniyat bilan o‘qish mumkin: «1. Kimki birovning molini zo‘rlik bilan tortib olgan bo‘lsa, mazlumning molini zolimdan qaytarib olib, egasiga topshirsinlar. Agar kimda-kim tish sindirsa, ko‘zini ko‘r qilsa, quloq va burun kessa, sharob ichsa, zino qilsa, devondagi shariat qozisi yoki ahdo qozisiga olib borib topshirsinlar. 2. Yuz ming otliq askar qila olmagan ishni bir to‘g‘ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin. 3. Zolimlardan mazlumlar haqqini oldim. Zolimlar yetkazgan ashyoviy va jismoniy zararlarni isbotlaganimdan keyin, ularni shariatga muvofiq odamlar o‘rtasida muhokama qildim va bir gunohkorning o‘rniga boshqasiga jabrzulm o‘tkazmadim»<sup>13</sup>. Uning barcha o‘gitlarida ma’naviy-axloqiy tarbiya va insonparvarlik mujassamdir.

Quyidagi tuzuklarda Amir Temurning kechirimli xislatlari namoyon bo‘lgan. Buni u boshqalardan ham talab qilgan. Kechirimli bo‘lish inson uchun eng yaxshi fazilat sanaladi:

<sup>13</sup> Amir Temur o‘gitlari to‘plami. T.: «Navro‘z» nashriyoti, 1992.

1. Menga yomonlik qilib boshim uzra shamshir ko'tarib, ishimga ko'p ziyon yetkazganlarni ham, iltijo bilan tavbatazarru qilib kelgach, hurmatlab yomon qilmishlarini xotiramdan o'chirdim. Martabalarini oshirdim. Ular bilan muomalada shunday yo'l tutdimki, agar xotiralarida menga nisbatan shubhayu qo'rquv bo'lsa, unut bo'lardi. 2. Menga hasad qilib o'ldirishga qasd qilgan kishilarga shunchalik sovg'a-in'omlar berib, muruvvatu ehson ko'rsatdimki, bu yaxshiliklarni ko'rib, xijolat teriga g'arq bo'ldilar. Hamisha mening roziligidimni olib ish tutgan do'stlarim oldimga panoh tilab kelganlarida, ularni o'zimning taxtu davlatimga sherik qilib, hech qachon ulardan molu-mulk va tirikchilik ashyolarini ayamadim. 3. Hech kimdan o'ch olish payida bo'lmadim. Tuzimni totib, menga yomonlik qilganlarni parvardigori olamga topshirdim. 4. Agar dushmaning bosh urib panohingga kelsa, rahm qilib yaxshilik va muruvvat ko'rsat. 5. Sodiq va vafodor do'st ulkim, o'z dushmani deb biladi. Agar kerak bo'lsa, do'sti uchun jonini ham ayamaydi<sup>14</sup>. Amir Temurning do'stlik haqidagi pandu-nasihatlari ham hali-hanuz biz uchun ibratdir. Uning umr bo'yi obodonchilik, qurilish ishlariga katta ahamiyat bergenligi, kambag'alparvarligini uning quyidagi o'gitlaridan ham bilish mumkin: «Kimki biron sahroni obod qilsa yoki biror bog' ko'kartirsa, yoxud biror xarob bo'lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, uchinchi yili qonun-qoidaga muvofiq xiroj yig'sinlar»<sup>15</sup>.

Amir Temurning quyidagi so'zlari asrlar osha xalqimizning asl farzandlarini el-yurt, Vatan haqida qayg'urishga chorlab keldi: «Millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir. Zaiflarni ko'ring, yo'qsirlarni boylar

<sup>14</sup> Amir Temur o'gitlari to'plami. T.: «Navro'z» nashriyoti, 1992.

<sup>15</sup> O'sha kitob, 1992-yil.

zulmiga tashlamang. Adolat va ozodlik dasturingiz, rahbaringiz bo‘lsin». Bu jumlalarda Amir Temurning ma’naviyati va insonparvarligi jamuljam bo‘lganligi ko‘rinib turibdi.

**3. Amir Temur va temuriylar sulolası davridagi moddiy va ma’naviy meroslar va ularning mustaqillik davridagi ahamiyati.** Biz bugun yashayotgan mustaqil O‘zbekiston davlatidagi tarixiy shaharlar, go‘zal makonlarning ko‘pchiligi Amir Temur va temuriylar davrida vujudga kelgan. Milliy mustaqillik tufayli jahon ma’naviyati va ma’rifati sohasida o‘z o‘rinlariga ega bo‘lgan piru-komil ajdodlarimizni va ular qoldirgan boy ma’naviy-ma’rifiy merosni teran anglash, o‘rganish va ulug‘lash imkoniyati yuzaga keldi. Chunki otabobolarimiz, xususan, buyuk davlat arbobi, ma’rifat homiysi, yuksak ma’naviyat egasi Amir Temur va uning avlodlari qoldirgan abadiylikka daxldor merosi bugungi kunda xalqimiz, ruhiy-ma’naviy poklanishi va milliy o‘zligini anglashining bitmas-tuganmas chashmasidir.

Temuriylar davri har sohada chinakam uyg‘onish davri bo‘lgan. 150 yillik mustamlakachilik, 70 yillik qaramlik va tobelik yillarida shunday buyuk zot, dunyoga mashhur davlat arbobi, ulug‘ bunyodkor Amir Temur shaxsiyatining asl mohiyatiga xolis va haqqoniy baho berish imkonidan mahrum bo‘lib yashadik. Sho‘ro tuzumi sohibqiron haqidagi haqiqatni xalqdan yashirib kelgan. Bobokalonlarimiz haqida chetdan aytilgan barcha maqtov so‘zlar va barcha manbalar ko‘zdan yashirilgan. Manbalar bilan tanishish taqiqlangan va soxtalashtirilgan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishishi bilanoq Prezidentimiz Islom Karimov boy ma’naviy merosimiz, dinu-imonimiz, qadriyatlarimiz, shu jumladan, ulug‘ bobomiz sohibqiron Amir Temur nomini, u haqidagi tarixiy haqiqatni tiklashga shaxsan rahnamolik qilib kelmoqda.

«O‘zbekiston mustaqilligi bizga buyuk sohibqironni ham qaytarib bergani bilan alohida qadrlidir. Xorijda siyomosi yillar davomida teatr sahnalaridan tushmay kelgan, Yevropa tillarida 500dan ziyod, Sharq tillarida esa 900ga yaqin kitoblar yozilgan, ko‘pdan-ko‘p suvratlari ishlangan, qisqasi, dunyoga mashhur bo‘lgan ulug‘ zot Amir Temur yana xalqimiz qalbidan munosib o‘rin oldi»<sup>16</sup>.

1994-yilda Mirzo Ulug‘bek tavalludining 600 yilligi, 1996-yilda esa sohibqiron tavalludining 660 yilligi munosabati bilan dunyo miqyosida ulkan tadbirlar o‘tkazildi. Parijdagi YUNESKO qarorgohida o‘tkazilgan yubiley tantanalari jahon miqyosida, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qaroriga ko‘ra, Amir Temur xayriya jamg‘armasi tashkil etilgan. Hanuzgacha dunyoning taniqli siyosat arboblari, olimlari, yozuvchilar, tarixchilar ishtirokida ilmiy-amaliy anjumanlar o‘tkazilmoqda. Prezidentimiz farmoni bilan yuksak mukofot – «Amir Temur» ordeni ta’sis etildi. Respublikamizda Temuriylar tarixi muzeyining barpo etilishi ham xalqimiz hayotida muhim voqeа bo‘ldi. Yubiley munosabati bilan ko‘plab tarixiy-ilmiy asarlar, risolalar, albomlar va boshqa san’at asarlarining yaratilishi Amir Temurning qanchalar oliyjanob inson bo‘lgan ekanligidan dalolat beradi. Biz bularning barchasi mustaqilligimiz tufayli erishdik. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, insonparvarlik tuyg‘ularining uyg‘unligi Amir Temurning har bir asarida aks etayotganini barcha ulomalarimiz ham ta’kidlab kelmoqdalar.

<sup>16</sup> S.Otamuradov va boshqalar. Ma’naviyat asoslari. A.Qodiriy nomli xalq merosi nashriyoti. T.: 2002, 127-bet.

## **4-amaliy mashg‘ulot. Ma’naviyatda milliylik va umuminsoniylikning uyg‘unligi**

### **Mashg‘ulot rejasи:**

1. Milliy ma’naviyat tushunchasi.
2. Milliylik va umuminsoniylik.
3. Milliy ma’naviy tiklanishning mohiyati.

### **Tayanch so‘z va iboralar**

Milliy ma’naviyat, milliylik, umuminsoniy qadriyat, millat ruhiyati, milliy ong, umuminsoniy ma’naviyat, etnoslar, millatchilik, millatlararo ma’naviy-marifiy munosabatlar.

### **Adabiyotlar**

1. I.A.Karimov. «Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz». T.: «O‘zbekiston» nashriyoti, 1999. 209–217-betlar.
2. I.A.Karimov. «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li». T.: «O‘zbekiston» nashriyoti, 1992. 25–26-betlar.
3. M.Imomnazarov. Milliy ma’naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. T.: «Sharq» nashriyoti, 1996.
4. N.Ortiqov. Ma’naviyat: milliy va umuminsoniy qadriyatlar. T.: «O‘zbekiston» nashriyoti, 1997.
5. E.Yusupov. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. T.: «Universitet», 1998.
6. S.Otamurodov va boshqalar. «Ma’naviyat asoslari». Ma’ruzalar matni. T.: 2000.

7. S.Otamurodov va boshqalar. «Ma’naviyat asoslari». O‘quv qo’llanma. A.Qodiriy nomli xalq merosi nashriyoti. T.: 2002. 210-b.

**1. Milliy ma’naviyat tushunchasi.** «Millat» so‘zi tub mohiyat, o‘zak, negiz degan ma’nolarni bildiradi. Milliy ma’naviyat esa «Millat» tushunchasi bilan bog‘liq. «Millat» so‘zi arab tilida uch ma’noni bildiradi: 1) din, mazhab; 2) ummat; 3) xalq, qavm. Millat so‘zi Qur’oni Karimda ham qo’llanilgan. Qur’onda har bir millat vakili o‘z milliy qadriyatlarini rivojlantirishi savobli ish, lekin o‘z millatidan, qavmidan chiqib, boshqa millatga o‘tib olishi esa katta bir gunoh deb ta’rif berilgan.

Jamiyat rivojlanib borgan sari insonlar, xalqlar millatlar o‘rtasidagi ma’naviy munosabat va aloqalar rivojlanib boraveradi. Bu borada ma’naviyatni **besh guruhga** bo‘lib o‘rganish mumkin:

1) ma’naviy qadriyatlar; 2) milliy ma’naviyat; 3) shaxs ma’naviyati; 4) mintaqaviy ma’naviyat; 5) umuminsoniy ma’naviyat.

Ma’naviy qadriyatlar – bu millatimiz barpo etilgandan to hozirgi kungacha bo‘lgan barcha urf-odatlarimiz, andisha-yu g‘ururimiz, marosim va an’analarimiz, davom etib kelayotgan hunarmandchiligidimiz, san’at asarlarimiz, yozma manbalaru yodgorliklarimiz, milliy inshootlarimiz boy merosimizdir. Milliy ma’naviyat esa – muayyan elat, millatga, uning ajdodlariga xos bo‘lgan bag‘oyat qimmatli ma’naviy boyliklardir. Milliy ma’naviyat boshqa millat ma’naviyatidan tubdan farq qiladigan ma’naviyat degani emas. Chunki bizdagi milliy ma’naviyat boshqa xalqlarda muayyan tarzda bor, mavjuddir. Ammo milliy ma’naviyatda boshqa xalqlarning ma’naviyati aynan takrorlanmaydi. Milliy ma’naviyat, avvalo

tarixiy hodisa ekanligi bilan ajralib turadi. U bir kunda, bir yilda yoki o'n yilda mukammal shakllanmaydi. Milliy ma'naviyat takomillashuvi uning tarixi bilan chambarchas bog'liqdir.

Shaxs ma'naviyati – bu har bir shaxsga tegishli bo'lib, uning ichki ruhiy holati, xatti-harakatlari munosabatlari boshqa qirralarini o'z ichiga oladi. Mintaqaviy ma'naviyat esa – muayyan geografik mintaqa millatlariga xos, ular uchun umumiyl bo'lgan ma'naviy boyliklardir. Masalan, O'rta Osiyo xalqlarining ma'naviyatidagi yoki yanada kengroq qaraydigan bo'lsak, Sharq va G'arb ma'naviyatidagi mushtaraklik, o'xshashlikni olishimiz mumkin. Mintaqaviy ma'naviyatda turli elatlarning umumiyl birligi, bir-biriga yaqinligi, turmush tarzi va moddiy hayat sharoitlariga xos mushtarak jihatlar namoyon bo'ladi. Umuminsoniy ma'naviyat – bu butun insoniyatga jahon xalqlariga tegishli bo'lgan ma'naviy-axloqiy boyliklardir.

O'zbek xalqi uchun umuminsoniy ma'naviyat bilan birga milliy ma'naviyat va uning boyliklari ham g'oyat qimmatlidir. O'zbek xalqining hozirgi milliy ma'naviyati va qadriyatları o'tmish milliy ma'naviyatining davomi bo'lib ularga do'stlik, o'rtoqlik mehmondo'stlik, odamgarchilik, insonparvarlik, axloqiy teranlik, tadbirkorlik, saxiylik, xushmuomalalik, jamoa ichida o'zini tuta bilishlik, xayolilik, hurmat bilan muomila qilish, ozodalik, xushchaqchaqlik, xushfe'lilik, mardlik, samimiylilik, lutfi karamlilik, ro'zg'orparvarlik, shirinso'zlik, tashabbuskorlik, onayurt va xalqiga muhabbatlilik, insofililik, diyonatlilik, rostgo'ylik, halollik, or-nomuslilik, to'g'rilik, poklik, sabr-andishalik, vazminlik, hojatbarorlik, mehnatsevarlilik, o'tmishga hurmat, insofililik, imonlilik, milliy g'urur, mustaqillikni qadrlash, vatanparvarlik, millatparvarlik va boshqa milliy ma'naviy-axloqiy fazilatlar kiradi.

O‘zga millatlarning ma’naviy qadriyatlari qanchalik ta’sir ko‘rsatmasin, kattalarga, ota-onaga hurmat, kamtarlik, halollik, imon, mehnatsevarlik, mehrmondo‘stlik singari milliy ma’naviy xislatlarimiz barqarordir. Chunki bu ma’naviy xislatlar qon-qonimizga singib ketgan. Xalqimizning axloq, andisha, sharmu-hayo, halollik va pokizalik, inson qadr-qimmati to‘g‘risidagi ma’naviy qadriyatlariga zid bo‘lgan yevropacha an’analalar yoshlar ma’naviyatiga salbiy ta’sir o’tkazmoqda. Shu tufayli ma’naviy tubanlik yuzaga kelmoqda. Yoshlar orasida asriy milliy ma’naviyatimizga zid bo‘lgan bag‘ritoshlik, qotillik, giyohvandlik, xudbinlik, maishiy buzuqlik kabi ma’naviy qiyofalar yuzaga kelib, ildiz ota boshladi.

Abdulla Avloniy va boshqa ma’rifatparvar allomalarimiz XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Turkistonda hukmron bo‘lgan ma’naviy inqiroz haqida gapirib, bu og‘ir vaziyatdan ta’lim-tarbiya ishlarini yaxshilash, axloqni yuksaltirish orqaligina chiqish mumkinligini qayd qilgan edilar. A.Avloniyning ta’kidlashicha: «Tarbiya – bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir». Bu fikrlarning ahamiyati hozirgacha e’tibordan chetda qolgani yo‘q. O‘zbek millati faqat milliy-ma’naviy kamolot orqaligina yuzaga kela boshlagan milliy-ma’naviy buzulishning oldini olish mumkin. Milliy mustaqillik tufayli jamiyatimizda milliy-ma’naviy poklanish, o‘nglanish, tiklanish jarayoni yuz berdi. Milliy tarbiya – millatni, elatni tashkil qiluvchi kishilarning milliy madaniyatni, merosni, qadriyatlarni, urf-odatlarni, an’analarni o‘zlashtirish-dagi faoliyatini rivojlantirish bo‘lib, u milliy ong va milliy o‘zlikni anglashning subyektidir. Milliy tarbiyaning asosiy yo‘nalishlarini millatparvarlikni, xalqparvarlikni, mehnatsevarlikni, yusak insoniylikni rivojlantirish, meros, urf-odat va

qadriyatlarni fan-texnika, texnologiyalarni o'zlashtirishga intilishni rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mohiyatini tushunib yetish va unga amal qilish ruhiyatini shakllantirish kabilar tashkil etadi.

**2. Milliylik va umuminsoniylik.** Umuminsoniy ma'naviyat o'z ijobiy ahamiyatini hech qachon yo'qotmagan. Oltin zanglamas, quyosh qoraymas deganlaridek, umuminsoniy ma'naviyat har doim qadimiy va navqiron bo'lib qolaveradi. Ular umumbashariy ma'naviyat deb ham yuritiladi.

Umuminsoniy ma'naviyat butun insoniyatga, jahon xalqlariga tegishli bo'lgan ma'naviy boyliklardir. Umuminsoniy ma'naviyat uzoq va yaqin o'tmishda yaratilgan, hozirda esa ma'naviy jihatdan juda qimmatli, inson qalbida o'chmas iz qoldiradigan, mangu yashaydigan, insoniyat ijtimoiy manfaati, ehtiyoji uchun xizmat qiladigan, ularni ezgulikka yo'llaydigan ma'naviy boyliklardir. Agarda milliy ma'naviyat bo'lmasa, umuminsoniy ma'naviyat ham bo'lmaydi. Umuminsoniy ma'naviyatsizlik esa hozirgi zamон millatlarining jipsligi yo'q degani. Millatlar umumjahon, umumbashariy ma'naviyatning yaratuvchilaridir. Umumjahon, umuminsoniy ma'naviyat esa hozirgi zamон ilg'or millatlari taraqqiyotining zamini, tayanchi va negizidir. Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotida milliy va umuminsoniy ma'naviyatning ana shu dialektik bog'liqligini hisobga olishimiz – davr talabidir.

**3. Milliy ma'naviy tiklanishning mohiyati.** Prezidentimiz I.A.Karimovning milliy-ma'naviy tiklanishga bag'ishlangan konsepsiyasida vatanparvarlik – shaxs ma'naviyatining ajralmas qismi ekanligini asoslab berish alohida o'rinni egallaydi. Darhaqiqat, o'z Vatanini sevmagan, Vatanini tuprog'i uchun mas'ulligini his etmagan inson ma'naviy jihatdan qashshoq hisoblanadi. Shu yerda, bir muhim masalaga aniqlik

kiritish lozim bo‘ladi. U ham bo‘lsa «Milliy taraqqiyot» va «Milliy tiklanish» tushunchalarining mohiyati, mazmun va mezoni masalalaridir.

Milliy taraqqiyot bu – evolutsion xarakterga ega bo‘lib, u pastdan yuqoriga tomon ko‘tarilishdan iborat bo‘lgan jarayondir. U millatning shakllanishi takomillashuvi va yuksalishi kabi uzluksiz jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Milliy tiklanish esa millat taraqqiyoti tarixining ma’lum bir bosqichida boy berilgan salohiyatni qaytadan millat taraqqiyotiga yo‘naltirish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayondir. Milliy tiklanish millat hayotida sodir etiladigan, zo‘ravonlik yo‘li bilan, uning avlod-ajdodlari tomonidan yaratilgan meros, urf-odatlar, an'analar qadriyatlardan mahrum etilgan, tarixiy xotirasi toptalgan, milliy o‘zligini anglashi cheklangan, manfaatlari, maqsadlari, huquqlari poymol etilgan, tarixiy taraqqiyotning ma’lum bosqichiga kelib esa o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritish natijasida milliy rivojlanish borasida ana shu boy berilgan imkoniyatlardan foydalanish, yaratilgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklarni milliy rivojlanishga qaratilgan umummiliy faoliyat hisoblanadi.

Prezidentimiz asarlaridagi milliy-ma’naviy tiklanish g‘oyasining mazmunini ham zo‘ravonlik yillarda merosimizni o‘zlashtirish, urf-odatlarimizni, an'analarimizni rivojlantirish, qadriyatlarmizni mustahkamlash borasida boy berilgan imkoniyatlarni bugungi taraqqiyotimizga yo‘naltirish, o‘zimizning milliy zaminlarimiz, imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, ularni umummiliy dunyoqarashning ajralmas qismiga aylantirish borasida har birimizning tinmay fidoiylik ko‘rsatishimiz zarurligi ko‘rsatib berilgan.

Haqiqatan ham millat qachonki, milliy zaminlarga tayansagina, ko‘zlagan taraqqiyotiga erishish mumkin. Har qanday millat hech qachon o‘zgalarning ma’naviy yordami

**bilan millat darajasiga ko'tarila olmaydi va ma'naviy rivojlanishga erisha olmaydi.**

Milliy ma'naviy tiklanishning asl mohiyati ham insonparvarlikka kelib taqaladi. Chunki mustaqillik sharoitida milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirish hamda uni xalqimiz dunyoqarashiga aylanishiga erishish uchun ham ta'lim-tarbiya jarayonida insoniy qadr-qimmatning yuqori darajada ekanligini tushunib olishimiz darkor.

### **5-amaliy mashg'ulot. Qadimgi Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviyatining shakllanishidagi insonparvarlik g'oyalari**

#### **Mashg'ulot rejasi:**

1. Qadimgi xalq og'zaki ijodiyoti va yozma yodgorliklardagi milliy ma'naviyat.
2. «Avesto»da inson va uning ma'naviyati.
3. Moniylik va mazdakizm ta'limotidagi ma'naviyat va insoniy fazilatlar.

#### **Tayanch so'z va iboralar**

Ma'naviyatning shakllanishi, qadimiy yodgorliklar, qadimgi xalqlar ma'naviyati, insonparvarlik g'oyalari, insonning e'zozlanishi, zardushtiylik, moniylik, mazdakchilik, islom, turmush tarzi, tafakkur.

#### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiston» nashriyoti, 1992. 47–52-moddalar.

2. S.Otamurodov va boshqalar. «Ma'naviyat asoslari». Ma'ruzalar matni. T.: 2000.
3. S.Otamurodov va boshqalar. «Ma'naviyat asoslari». O'quv qo'llanma. A.Qodiriy nomli xalq merosi nashriyoti. T.: 2002. 210-b.
4. Qur'oni Karim. T.: Cho'lpon, 1992.
5. Abu-Abdulloh Muhammad - Ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis. T.: 1992.
6. H.Boboyev, S.Hasanov. «Avesto» siyosiy-huquqiy qarashlar. Davlat va huquq jurnali, 2-son.2002. 45–48-betlar.
7. M.Imonnazarov. «Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari» (risola). T.: «Sharq» nashriyoti, 1996.

**1. Qadimgi xalq og'zaki ijodiyoti va yozma yodgorliklardagi milliy ma'naviyat.** Xalqimiz madaniy taraqqiyoti o'ta murakkab tarixiy hodisalar majmuini tashkil etadi va u bir necha ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Ana shu murakkab va ko'p ming yillik ma'naviy takomilimiz jarayonidan asosiy bo'g'lnarni ajratib olishimiz mumkin. Bularsiz milliy ma'naviyatimiz tarixi va rivojlanish bosqichlari haqida fikr yuritib bo'lmaydi.

Bizning eng qadimi ajdodlarimiz ma'naviyati va ma'rifati haqidagi asrlardan-asrlarga o'tib, hozirgacha saqlanib qolgan xalq og'zaki ijodi namunalari: mif, afsonalar va qadimgi yozuvlar saqlanib kelinmoqda. O'rta Osiyo xalqlarining qadimi mif, afsonalari turli mavzularda bo'lган. Jumladan, kosmogenik miflar, hayvonlar va qushlar haqidagi miflar, xudolar va afsonaviy qahramonlar haqidagi miflar bo'lib, ularda yaxshi va ezzulik, baxtu-saodat, quyosh nuri va issiqlik yoki yomonlik, baxtsizlik, zulmat va dahshatli qarama-qarshi obrazlar vujudga kelgan. Ushbu manbalar bizga tarix va yozma yodgorliklardan ma'lum bo'lib kelgan, tarix darslarida bularni

yanada chuqurroq o'rganiladi. Bu ko'hna tarixiy yodgorliklarning ma'naviy ahamiyati shundaki, odamlar o'sha davrlardan boshlab ikki qarama-qarshi guruhga ajrala boshlashgan. Shuning uchun ham yaxshilik bor joyda yomonlik bor, ezhulik bor joyda yovuzlik bor. Bizning yagona maqsadimiz egulikka qarab intilish, mehnat va mashaqqatdan qochmaslik, yorug'likka intilib yashash, zulmatli kunlardan qo'rmaslik, inqirozga yuz tutilgan mahalda ham undan osonlik bilan chiqib ketish yo'lini izlashda yomonlik va yovuzlikni xayolga keltirmaslik, zulmatli kunlarni hech kim ravo ko'rmaslik haqida o'ylash kerak bo'ladi. Dahshatli sovuq niyatlarni amalga oshirushi insonlarni ushbu yo'lidan qaytarishga urinish ham ma'naviy ezhulikning bir ko'rinishidir.

**2. «Avesto»da inson va uning ma'naviyati.** «Avesto» kitobida inson va uning ma'naviyati to'g'irisida juda ibratli fikrlar bayon etilgan. «Avesto» zardushtiylik dinining muqaddas kitobi. Zardusht eramizdan avvalgi 660-yilda Xorazmda dunyoga kelgan. Otasi savodli bo'lib, karomatgo'y bo'lgan ekan. Zardushtiylikning paydo bo'lishi eramizdan oldingi X asrga to'g'ri keladi. Uning muqaddas kitobi «Avesto» ham birdan yuzaga kelgan emas. U bir necha asrlar mobaynida yaratilgan. Zardusht «Avesto»ning qadimiyy nusxalarini o'rganib, to'plab bir kitob holiga keltirgan. Zardushtiylikda va uning muqaddas kitobi «Avesto»da ma'naviyat va ma'rifat masalalari va ularning bugungi kun uchun ahamiyati kattadir.

Axura Mazda odamlarni bir-birlari bilan murosa qilib yashashni odat qilishlari, g'arazgo'ylik, hasadgo'ylik, kalondumog'lik, shuhrat-parastlik, qonunsiz ishlardan o'zlarini tiyib yurish uchun chaqiradi. Bergan so'zining ustidan chiqish, unga sodiq qolish, savdo-sotiqda shartnomalarga amal

qilish, qarzni vaqtida to‘lash, aldamchilik va xiyonatdan xoli bo‘lish – imonlilik alomatlari ekanligi aytildi. Imonli odam degani bu – o‘g‘rilik, talonchilikdan, begonalarning moliga ko‘z olaytirishdan o‘z-o‘ziga xiyonat qilish, ya’ni o‘z imoniga qarshi, xilof ish qilishdan o‘zini tiya oladigan komil insondir. Shu o‘rinda «Avesto»da shunday deyiladi: «Tanalaringizga nisbatan qalbingiz haqida ko‘proq qayg‘uring, ya’ni avval ma’naviy dunyoingiz musaffo bo‘lsa, moddiy turmushingiz ham mukammal bo‘lib boraveradi». «Avesto»da mehnat nihoyatda ulug‘lanadi. Mehnatni yaxshilik, moddiy noz-ne’matlar manbai, deb biladi. Inson saxovatli bo‘lishi uchun, avvalo, mehnat qilishi, o‘z qo‘li bilan noz-ne’matlarni yaratishi zarurligi uqtiriladi.

«Avesto»da inson axloq-odobi, ma’naviyati quyidagi uchlikda ifodalanadi: 1. Gugta – yaxshi so‘z; 2. Gumata – yaxshi fikr; Gvarshta – yaxshi ish, deb ifodalanadi. Bu uch manbaning birgalik ma’nosи «Men yaxshi so‘z, yaxshi fikr, yaxshi ishga shon-shavkat baxsh etaman»-deganidir. Ya’ni: yaxshi so‘z deganda inson o‘z va’dasiga rioya qilishi, so‘zining ustidan chiqishi, o‘g‘rilik va talonchilik qilmaslik, buzuqlikdan o‘zini tiyish va hokazolar tushuniladi. Yaxshi fikr deganda esa – yaqin kishilarga mehribonlik, muhtojlik va xavf-xatar ostida qolganda yordam berishga shaylik, kishilar baxt va saodati uchun faol kurashishga doim tayyor turish, barcha bilan ahil va totuv yashash va boshqalar kiradi. Yaxshi ishlar deganda, insonning o‘z xatti-harakatlarida yaxshi fikr va yaxshi so‘zlarda ilgari surilgan barcha ijobjiy yo‘l-yo‘riqlarga og‘ishmay amal qilish nazarda tutiladi.

**3. Moniylik va mazdakizm ta’limotidagi ma’naviyat va insoniy fazilatlar.** Moniylik ta’limoti zardushtiylikning yaxshilik va yomonlik ta’limotiga asoslangan bo‘lib, keng xalq ommasining manfaatiga mos kelar edi. Moniylik ta’limotida

dunyo-yorug‘lik va qorong‘ilikning abadiy kurash maydonidan iborat, mana shu kurash maydonida insonning asosiy vazifasi yovuzlikni yo‘q qilish uchun yaxshilik ezgulikka ko‘maklashishdan iborat degan ma’naviy axloqiy ta’limot ilgari suriladi. Moniy ta’limotiga ko‘ra, inson sof musaf-folikka, o‘z gunohlaridan forig‘ bo‘lishga, faqat tarki dunyo qilib hayot kechirish bilan erishishi mumkin deb qaraladi. Moniylik axloqi insonlardan kam ovqat yeyishni, imkonи boricha ro‘za tutishni, o‘z turmushi, hayoti uchun kerakligidan ortiqcha mol-mulkka, boylikka yo‘l qo‘ymaslikka, dabdabasiz hayot kechirishni targ‘ib etadi. Chunki inson hayoti davomida orttirgan boyliklarini o‘zi bilan olib keta olmaydi, ularning barchasi undan keyin vo egam deb qolib ketadi. Moniy aytadi: «Men o‘z umrimda ko‘p hokimliklarni ko‘rdim, ular dunyoda axloqsizlik qilib, manmanlikka berilib yurdilar, ammo oxirida g‘am-alamlarga, tubanlikka duchor bo‘ldilar». Demak, Moniyning bu so‘zlaridan biz ham ibrat olishimiz foydadan xoli emas.

Eramizning YI asr boshlarilarida Eronda «mazdakizm» deb atalgan boshqa diniy-falsafiy ta’limot yuzaga kelib, u O‘rtta Osiyoga ham keng tarqalgan. Mazdakizmning Moniylik ta’limoti bilan ko‘p o‘xhashh tomonlari bor. U Moniylik ta’limotini to‘ldirib, uning zohidlik, noumidlik g‘oyalarini dunyoga umid bilan qarash g‘oyalariga almashtiradi. Mazdak Eronning Nishapur shahrida tug‘ilgan. U dehqonlar qo‘zg‘aloniga yo‘lboshchilik qilgani uchun 529-yilda Anushurvon tomonidan qatl etilgan. Mazdak feodal mol-mulkini umumiylashtirishni, feodal hukmronligini yo‘qotishni talab etadi. Mazdakizimda ham moniylik kabi dunyonи tushunish negizida bir-biriga qarama-qarshi ikki kuch: yaxshilik va yomonlik ustidan, yorug‘lik zulmat ustidan g‘alaba qiladi, deb ishonch bildirladi. Mazdakning aytishicha:

yomonlik va zulmat kuchlari hukmronlik qilar ekan, kishilar ularga nisbatan befarq bo‘lishlari kerak emas, balki yaxshilik kuchlariga yordam berishlari kerak. Mazdakning fikricha, insonlar o‘rtasidagi **ijtimoiy tengsizlik** – ziqlalik, o‘g‘rilik, yomonlik, makkorlik, shavqatsizlik, urushlar, turli-tuman falokat va baxtsizliklar kabi illatlarni keltirib chiqaradi.

Zardushtiylik ta’limoti kabi, mazdakizm ma’naviy-axloqiy ta’limotida ham hayvonlarga nisbatan shavqatsizlik qilish, ularni kaltaklab urish man etiladi. Xulosa qilib aytganda, Moniylik va mazdakizm Markaziy Osiyo xalqlari ma’naviy yuksalishida, ayniqsa, ularningadolatsizlik, zulm, zo‘rlik, shafqatsizlikka qarshi kurashiga o‘z ta’sirini o’tkazgan.

## **6-amaliy mashg‘ulot. Islom dinida ma’naviyat va ma’naviyatli inson qiyofasi**

### **Mashg‘ulot rejasi:**

1. Qur’oni Karim va hadislarda inson ma’naviyati va ma’rifati masalalari.
2. So‘fizm va uning ma’naviy jihatlari.
3. Islom dini va islomiy qadriyatlarning tiklanishi.

### **Tayanch so‘z va iboralar**

Inson ma’naviyati, qur’on, hadislar, so‘fizm, islomiy qadriyatlar, tasavvuf, axloqiy-huquqiy qonun-qoidalar, shariat qonunlari, ota-onaga va vatanga mehr-muhabbat, insoniy munosabatlar.

## Adabiyotlar

1. I.A.Karimov. «Iroda va imon e’tiqodimiz sinovi». T.: «O’zbekiston» nashriyoti, 1999. 69–75; 137–141-betlar.
2. I.A.Karimov. «Alloh qalbimizda yuragimizda» T.: «O’zbekiston», 2000.
3. I.A.Karimov. «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz». T.: «O’zbekiston», 2000.
4. Axloq-odobga oid hadis namunalari. T.: 1990..
5. A.Bobomurodov. Islom odobi va ma’naviyati. T.: «Cho’lpon» nashriyoti, 1995.
6. M.Usmonov. Yaxshi fazilat – insonga ziynat. T.: «O’zbekiston» nashriyoti, 1991.
7. S.Otamurodov va boshqalar. «Ma’naviyat asoslari». Ma’ruzalar matni. T.: 2000.
8. S.Otamurodov va boshqalar. «Ma’naviyat asoslari» o’quv qo’llanma. A.Qodiriy nomli xalq merosi nashriyoti. T.: 2002. 210-b.

**1.Qur’oni Karim va hadislarda inson ma’naviyati va ma’rifati masalalari.** Islom dini barcha xalqlar orasida keng tarqalgan dinlardan biridir. Bu dinga e’tiqod qiluvchi musulmonlar 1 milliarddan ortiqdir. «Islom» so‘zi arabcha, «xudoga o‘zini topshirish, itoat, bo‘ysunish» – degan ma’nolarni anglatadi. Bu dinga ishonuvchilar «Muslim» deb ataladi. Bu o’zbeklarda «musulmon» deb ataladi.

Qur’oni Karim ilohiy kitob bo‘lib, u farishta Jabroil Alayhissalom tomonidan Muhammad Alayhissalomga nozil etilgan. Bu muqaddas kitob yer yuzi musulmonlarining dasturilamali, diniy ahkomlar manbайдир. Qur’oni Karimda 114 sura, 6236 ta oyat bor. Mustaqillik sharofati bilan turli marosimlarimiz Qur’oni Karim qiroatlardan boshlanmoqda. Bu o’tmishda bir

orzu edi, xolos. Ilohiy manbalarda Islom uch elementdanimon, islom, ehsondan iborat deyiladi. Imon talablari 7 ta aqida bo‘lib, ular quyidagilardir: allohga, farishtalarga, muqaddas kitoblarga, payg‘ambarlarga, oxirat kuniga, taqdirning allohdan ekanligiga va o‘lgandan keyin qayta tirlishga ishonish talablarini o‘z ichiga oladi.

Hadislар Islom dinida Qur’ondan keyingi muqaddas manba. Hadislар to‘plami sunnat deb ataladi. Hadisi shariflarda Muhammad alayhissalomning so‘zlari, qilgan ish faoliyatları va sahobalar tomonidan amalga oshirilgan ishlarga munosabatlari bayon etilgan. Hadisi shariflarni yig‘ib kitob shakliga keltirish, asosan payg‘ambarimiz alayhissalomning vafotidan keyin amalga oshirilgan.

Xulosa qilib aytganda, Qur’oni Karim, hadislар va shariat ko‘rsatmalari inson ma’naviy-ma’rifiy kamolotining asosi bo‘lgan axloq-odob tarbiyasining barcha qirralarini o‘z ichiga olgan. Hadislар ma’naviy-axloqiy tarbiyaga oid bo‘lgan fikrlarning mukammal to‘plamidir.

Islomda ota-onaga mehr-muhabbat, g‘amxo‘rlik, farzand tarbiyasi va oilaga sadoqat masalalariga alohida e’tibor berilgan. Kishilarni yaxshilik qilish, savob ishlarga qo‘l urush, insofli, diyonatli, vijdonli bo‘lish, mehr-shavqatlilik, to‘g‘rilik, rostgo‘ylik, sofdir bo‘lish, nochorlarga yordam berish, kamtarlikka chaqirish g‘oyalari ilgari surilgan.

Islomda ilm-fanni egallash, ma’rifatli bo‘lish juda katta savobli ish ekani qayta-qayta ta’kidlanadi. Islom ma’naviyatida insonning yer yuzida xalifa qilib belgilanishi uning yana bir muhim jihatи hisoblanadi. Qur’oni Karimning juda ko‘p oyatlarida insonning aziz va mukarram qilib yaratilgani unga yer va osmondagи barcha narsalar bo‘ysundirib qo‘yilganligi alohida ta’kidlab o‘tiladi.

**2. So‘fizm va uning ma’naviy jihatlari.** So‘fizm so‘zi arabcha «So‘fiy» so‘zidan olingan. So‘f deb arablar jundan bo‘lgan matoni aytganlar. Dastlabki davrlarda so‘fiylik yo‘lini tutgan insonlar, boshqa oddiy kishilardan ajralib turishi uchun jundan tikilgan chakmon yoki po‘stin kiyib olishgan. So‘fiy uchun na dunyodan, na oxiratdan ta’mal bo‘lmasligi kerak. Yagona istak – bu Allohnning diydoriga yetishishdan iborat. Faqirlik tuyg‘usiga ega inson na birovga xoja, u yolg‘iz allohga ehtiyoj sezadi. So‘fiylik ta’limotining ma’nosini hamma narsadan voz kechish, oxir oqibatda o‘zlikdan kechishdir.

Tasavvuf – so‘fiylik insonni o‘rganar ekan, avvalo, kishining ko‘ngliga, diliga tayanadi. Ko‘ngilni, qalbni tarbiyalashga ko‘ngil kishisini voyaga yetkazishga intiladi. Tasavvufda insondagi jamiki xudbinliklar, illatlar, razolat dunyosiga hirs ehtiyoji, nafs ta’masidan kelib chiqadi, deb o‘rgatiladi. Dunyoga, boylikka mehr qo‘yish kishini nafsiqa qul qilib qo‘yadi. Darvesh so‘fiy nafshi rad etadi. Nafs barcha insonni tubanlashtiruvchi narsa bo‘lib, insonni falokat botqog‘iga olib keluvchi narsadir. Buning uchun molu dunyo muhabbatidan voz kechish, alloh muhabbatiga ko‘ngil qo‘yish kerak. So‘fiylikda buni dunyo mohiyatini va o‘zligini, insoniylikni anglash yo‘li deb qaralgan. Nafsga taslim bo‘lman kishining g‘ururi va insoniy qadr-qimmatini hech kim poymol qila olmaydi.

**3. Islom dini va islomiy qadriyatlarning tiklanishi.** Turg‘unlik davrida odamlarning uylaridagi Qur’oni Karim, Hadislar, turli diniy adabiyotlar, arab yozuvidagi yozma yodgorlik manbalari terib olinib, yoqib yuborilgan edi. Bu davrni nodonlik yillari desa ham bo‘ladi. Mustaqillik davriga kelib, mana islomiy qadriyatlarimiz tiklandi. Bu savobli ezgu ishlarga Prezidentimiz boshu qosh bo‘lgani ham barchaga ma’lum. Prezidentimiz 1991-yildan hozirgi kunga qadar har bir

chiqishida, o‘z nutqida ma’naviyat va ma’rifatga oid nutq, ma’ruza va asarlarida Islomning ma’naviy axloqiy, ma’rifiy tarbiyadagi yuksak roli, o‘rni, ahamiyatini, muntazam ukdirib kelmoqda.

Har bir fuqaro shuni anglab yetishi kerakki, O‘zbekistonning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotida o‘ziga xos va mos yo‘li bo‘lgani kabi madaniy-ma’naviy rivojlanishida o‘z yo‘li bor. Bu o‘ziga xoslikni dinga, diniy qadriyatlarga munosabatimizda, ulardan ma’naviy tarbiyada foydalanishimizda ham ko‘rishimiz mumkin. Bu taraqqiyot yo‘li Prezidentimizning barcha asarlarida ham bayon qilib berilgan. Uning mohiyati mo‘tadil dindorlik, islom ma’rifatini rivojlantirish, ichki olamni poklab, allohni dilda saqlab, aqlu tafakkur, ilmu-urfon bilan kamolot sari borish, o‘z marosimiy qadriyatlarimiz va dunyo ilmini egallab, zamon bilan hamqadam olg‘a borish.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki, mustaqillik bergen hidoyat yo‘lini turli yot unsurlardan asrash, ularga berilmaslik, ularning kirib kelishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim bo‘ladi. Taraqqiyot yakdillik, fidoiylik va umummiliy g‘oyalari-mizning moddiy kuchga aylanishidir.

## **IV. MILLIY G‘OYA ASOSIDA UZLUKSIZ TA’LIMNI INSONPARVARLASHTIRISHNING AHAMIYATI**

### **4.1. Uzluksiz ta’limni milliy g‘oya asosida insonparvarlashtirish texnologiyasi**

Milliy g‘oya, milliy mafkurani aniq tasavvur etmasdan turib Prezidentimizning quyidagi da’vatlarini anglab yetish qiyin. «...bugungi kunda g‘oyani, fikrni taqiq bilan, ma’muriy choralar bilan yengib bo‘lmaydi. G‘oyaga qarshi faqat g‘oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma’rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin»<sup>17</sup>.

**G‘oya** – obyektiv borliqni, voqelikni kishi ongida aks ettiruvchi, ayni zamonda kishining obyektiv borliqqa, voqelikka munosabatini ifodalovchi, kishilarning dunyoqarashlari asosini tashkil etuvchi tushuncha, tasavvur; **mafcura** esa dunyoqarash sistemasi va uning asosiy prinsiplaridir.

«*Milliy istiqlol g‘oyasi* – O‘zbekiston jamiyatining milliy istiqlol g‘oyasi, o‘z mohiyatiga ko‘ra, xalqimizning asosiy maqsad-muddaolarini ifodalaydigan, uning o‘tmish va kelajagini bir-biri bilan bog‘laydigan, asriy orzu istaklarni amalga oshirishga xizmat qiladigan ma’naviy omildir. **Milliy g‘oya** – millatning o‘tmishi, bugungi va istiqbolini o‘zida

<sup>17</sup> I.Karimov. Hushyorlikka da’vat. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi muxbirining savollariga javoblar. T., «O‘zbekiston», 1999, 24–25-betlar.

mujassamlashtirgan, uning tub manfaatlari va maqsadlarini ifodalab, taraqqiyotga xizmat qiladigan ijtimoiy g‘oya shakli. ***Milliy istiqlol mafkurasi*** – bu millat va davlatning mustaqil rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan g‘oyaviy-nazariy qarashlar tizimidir. ***Milliy mafkura*** – millatning etnoijtimoiy birlik sifatida mavjud bo‘lishi va rivojlanishini, erkin va ozod taraqqiyotini g‘oyaviy asoslash, ta’minlashga qaratilgan qarashlar tizimi».<sup>18</sup>

Jamiyat taraqqiyotida turli maqsad va muddaolar xilma-xil g‘oya va mafkuraviy vositalar bilan amalga oshiriladi. Milliy g‘oya bo‘lmasa, shaxs, jamiyat, davlat o‘z yo‘lini yo‘qotishi muqarrar.

Har qanday mafkura quyidagi asosiy maqsadlarni ko‘zda tutadi:


- g‘oyaviy tarbiyalash; g‘oyaviy insonparvarlikni shakllantirish harakat dasturi sifatida mavjud bo‘lishi;
- muayyan tushunchaga ishontirish; uyushtirish; safarbar etish;
- ma’naviy-ruhiy rag‘batlantirish.

Mafkura o‘z oldiga qo‘yilgan shu kabi maqsadlarni bajara olsagina, amaliy samara berishi mumkin.

---


<sup>18</sup> Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar (qisqa izohli tajribaviy lug‘at). O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. T., «Yangi asr avlod», 2002.

**Milliy g'oya va mafkurani  
shakllantiruvchi tarbiyaviy  
vositalar**



8-shakl.

**Milliy g'oya va mafkuraga zid jarayonlar:**



9-shakl.

O‘zbekiston o‘ziga xos mustaqil taraqqiyot yo‘lini tanlab olgan davlat. Bu yo‘l – jahonda o‘zbek modeli, deb tan olingen rivojlanish yo‘lidir. O‘zbekiston jamiyatining milliy g‘oyasi va mafkurasi, o‘z mohiyatiga ko‘ra, xalqimizning asosiy maqsad-muddaolarini ifodalaydigan, uning o‘tmish va kelajagini bir-biri bilan bog‘laydigan, asriy orzu-istiklarini amalga oshirishga xizmat qiladigan g‘oyalar tizimidir.

Milliy g‘oya har bir vatandoshlarimizning oilasi, jamiyat, el-yurt oldidagi burch va mas’uliyatini qay darajada ado etayotganini belgilaydigan ma’naviy mezondir.

Talaba yoshlarni milliy g‘oya asosida ma’naviy shakllantirishda oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan bir qatorda pedagogik turkum fanlari ham (pedagogika nazariyasi, pedagogika tarixi, pedagogik mahorat) alohida ahamiyatga ega. Pedagogik turkum fanlarini o‘qitish jarayonida talabalar orasida milliy g‘oyani targ‘ib etish, ularda ijtimoiy-gumanitar jamiyat taraqqiyotining asosiy yo‘nalishi hamda g‘oyasi xususidagi bilimlar haqida muayyan tasavvurni hosil qilish, ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish, milliy g‘oyaga sodiqlik tuyg‘usini qaror toptiradi. Barcha ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishidagi fanlarning ham asosiy vazifasi har tomonlama rivojlangan, insonparvar, yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalashdan iborat bo‘lishi lozim.

Ta’lim-tarbiyaga uzlusiz sistema sifatida qaralishining o‘zi *insonparvarlikning* amaldá nomoyon bo‘lishidir. Ayni chog‘da insonparvarlik ta’lim-tarbiyaning uzlusiz va izchil bo‘lishini taqozo etadi.

«*Ta’limni insonparvarlashtirish texnologiyasi*» tushunchasi – ta’limning maqsadiga milliy g‘oya va mafkurani singdirishga erishish, ta’lim bilan tarbiyani uzviyligini ta’minlash, ya’ni ilgaridan loyihalashtirilgan ta’lim jarayonini

yxalit tizim asosida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etishni boshqarishni ifodalaydi.

Pedagogik texnologiyalardan ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayoni uchta o'zaro aloqador birlik sifatida ko'rib chiqiladi. Bu esa – **ta'lim, tarbiya** va **rivojlanishdir**. Milliy g'oyani talaba yoshlarga singdirishda ham mana shu uch birlikni barobar tatbiq qilish jarayoni **modullashgan texnologiyani** qo'llashni osonlashtiradi. **Modullashgan texnologiyaning** xarakterli qirralaridan biri ta'lim mazmunini tartibga solishdan, insonparvarlashtirishdan iborat bo'lib, bunda barcha axborotlardan faqatgina shundaylarini qat'iylik va qunt bilan tanlab olish kerakki, ular davlat ta'lim standarlari doirasida ta'lim oluvchilar faoliyatini zaruriy yetarli darajada muvaffaqiyatlidir.

**Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasining** yetakchi prinsiplari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- 1) **tabiiylikni his qila olishlik** – shaxsning genetik va ijtimoiy jihatlariga asoslangan holda o'quvchilarning o'ziga xosligini individual xususiyatlarini hisobga olish.
- 2) **yaratuvchanlik** – turli o'quv muassasalarini pedagoglarining pedagogik texnologiyalarni yaratish imkoniyatlari;
- 3) **moslashganlik** – turli ta'lim muassasalarida ta'lim shakli, metodi va usullarining qo'llaniluvchanligi, uyg'unilik-muayyan o'quv predmetiga oid o'quv materiali mazmunining shaxsni rivojlantirish shakli, metodi va usullari bilan uyg'un tarzda bog'lanishi;
- 4) **inkorporatsiya** – sistemali yondashuv asosida turli fanlarga oid bilimlarni birlashtirish.

Ta'limni insonparvarlashtirish texnologiyasining falsafasi nimadan iborat: «**Texnologiya**» yunoncha so'z bo'lib, «**techne**» – «**mahorat**», «**san'at**» va «**logos**» – «**tushuncha**», «**o'rghanish**» demakdir. **Texnologiya** so'zi zamirida jarayonlarni amalga oshirish usul va vositalari haqidagi bilimlar yig'indisi,

shuningdek, obyektda sodir bo‘ladigan sifat o‘zgarishlar tushuniladi. Mana shu texnologik jarayonni tartibga solishda komil inson qiyofasini nazarda tutish, bir tizimga keltirish, ketma-ketligini to‘g‘ri belgilab olish ta’limni insonparvarlashtirishning mexanizmidir.

**Ta’lim texnologiyasi** – ta’lim jarayonini loyihalashtirish, amalga oshirish, baholash, tuzatish va keyinchalik qayta tiklash, shuningdek, bu jarayonni texnikaviy jihozlashning tizimli usuli. Ta’lim texnologiyasi ilmiy pedagogik bilimlarning zamonaviy darajasini aks ettirishi ta’lim va tarbiyaning samarali usullaridan foydalanishi, shuningdek, o‘qitishning mumkin bo‘lgan texnik vositalarni qo‘llashi lozim; ta’lim va tarbiya bo‘yicha qo‘yilgan maqsadga to‘liq erishishni kafolatlashi kerak; barcha ta’lim texnologiyalari shaxs shakllanish jarayonlari sifatini nazorat qilishning obyektiv metodikasi bilan ta’minlangan bo‘lishi shart.

«**Ta’lim texnologiyasi**» tushunchasi «**Ta’lim metodikasi**» tushunchasiga nisbatan kengdir. «**Ta’lim metodi**» – o‘quv jarayonining kompleks vazifalarini yechishga yo‘naltirilgan o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikda faoliyat ko‘rsatish usuli. «**Ta’lim metodikasi**» esa muayyan o‘quv predmetini o‘qitishning ilmiy asoslangan metod, qoida va usullar tizimini ifodalaydi.

**Insonparvar pedagogika** – tarbiyaning zamonaviy nazariyasi va amaliyotdagi yo‘nalish. XX asrning 60-yillarida AQSHda insonparvar psixologiya g‘oyasining pedagogik tatbiqi sifatida yuzaga kelgan. Insonparvar pedagogikaning e’tibori markazida shaxsning noyob bir butunligi turadi. U o‘z imkoniyatlarini maksimal darajada yuzaga chiqarishga intiladi, u yangi tajribani qabul qilish uchun ochiq, murakkab hayotiy vaziyatlarda idroklangan va mas’uliyatli tanlovlarga qodir. Shunday sifatlarga ega insonning kamol topishida tarbiyachiga

an'anaviy pedagogikadagidek bilim va ijtimoiy me'yorlarni rasmiy ravishda singdirishdan farqli o'larq tarbiya bosh vazifa, deb hisoblanadi.

Pedagogik bilimlar asosida milliy g'oya va mafkurani talabalar ongida shakllantirishni amalga oshirish uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning birligi negizida tashkil etib, talabalar ma'naviyatini yuksaltirishga qaratish lozim. Bu borada samaradorlikka erishish yo'lida tashkil etilgan dastlabki harakat bu oliy ta'lim muassasalarida talabalarga pedagogik bilimlarni berish, ularda milliy g'oya xususidagi tushunchalarni hosil qilish, ma'naviy axloqiy e'tiqodni shakllantirish, vayronkor g'oyalar ta'siridan saqlanish, g'oyaviy insonparvarlik hosil qilish maqsadida olib borilayotgan tadbirlar mazmunini tahlil etish, talabalarning ma'naviy-axloqiy sifatlari darajasini o'rganishdan iborat. Bu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish kerakki, ta'limni insonparvarlashtirishning o'zi milliy g'oya xususidagi bilimlardan xabardor bo'lib borishni ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, ta'limni miliy g'oya asosida insonparvarlashtirish texnologiyasini yaratish uchun ijtimoiy-gumanitar fanlari bo'yicha tashkil etilayotgan mashg'ulotlar jarayonini kuzatib, mazkur jarayonda talabalarni milliy g'oya xususidagi bilimlardan xabardor etishga yo'naltirilgan faoliyat mazmunini o'rgandik. Kuzatish davrida shunday holatning guvohi bo'ldik. Kuzatuvchi-o'qituvchi sifatida tanlangan pedagogika fanlari o'qituvchilari tomonidan tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida talabalarning insonparvarlik dunyoqarashini boyitib borish, shuningdek, ularda kasbiy malakani hosil qilish kabi holatlarni qaror toptirish ishiga alohida e'tibor berilsa-da, milliy g'oya va mafkura, uning vazifalari masalalarining doimiy ravishda, maqsadga muvofiq yoritib borilishiga nisbatan nazariy yoki amaliy yondashuv

ko‘zga tashlanmaydi. Shuning uchun oliy ta’lim muassasalaridagi ijtimoiy-gumanitar fanlarining professor-o‘qituvchilari yosh avlod ta’limi va tarbiyasini muvaffaqiyatli tashkil eta olish layoqatiga ega bo‘lishi, bu borada yetarli malaka oshirishi kerak. Malakali pedagog kadrlarni qayta tayyorlashda quyidagi vazifalarni muhokama qilib, uni amaliyatda qo‘llash texnologiyalarini ishlab chiqish lozim:

– ta’lim jarayonida talabalar ongiga ma’naviy omillarni singdirib borish; ta’limni insonparvarlashtirish, ya’ni tarbiyaviy omillar bilan yo‘g‘irish; ta’limning bosh maqsadi milliy g‘oya va mafkura asosida belgilanishini doimo nazarda tutish;

– ulkan mas’uliyat yuklayotganligini chuqur his etish, bo‘lg‘usi o‘qituvchilar va mutaxassislarni jiddiy g‘oyaviy tayyorgarlikka ega bo‘lishlari uchun muayyan shart-sharoitlarni yaratish.

Pedagogik bilimlar hamda milliy g‘oya va mafkura o‘rtasida o‘zaro aloqadorlik mavjudmi? – degan savolga amaliyotdagi ijtimoiy-gumanitar fanlari o‘qituvchilarining 70 foizi pedagogik bilimlar va milliy g‘oya va mafkura o‘rtasida o‘zaro aloqadorlik mavjudligini e’tirof etganlari holda pedagogik bilimlar, milliy g‘oya va mafkura asosida milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi, vorislik, demokratik va insonparvarlik tuyg‘ulari kabi tamoyillarning yetakchilik qilishini e’tiborga olmaydilar.

Ijtimoiy-gumanitar fanlari o‘qituvchilarining 40 foizi esa milliy g‘oya mafkura omillari pedagogik bilimlar bilan emas, balki falsafiy bilimlar bilan o‘zaro aloqador ekanligini qayd etib o‘tmoqdalar. Zero, milliy g‘oya va mafkura insoniyat tomonidan yaratilgan falsafiy fikr, qarash, nazariya va ta’limotlar mazmunida o‘z in’ikosiga ega bo‘lgan g‘oyalar majmuidan iborat ekanligiga alohida e’tibor qaratadilar.

Bizning nazarimizda, pedagog kadrlar milliy g‘oya va mafkura asoslari ijtimoiy jamiyat rivoji va taraqqiyotini kafolatlovchi manbalar majmuidan iborat ekanligini, mutaxassislik xususiyatlaridan qat‘i nazar har bir o‘quv fanini o‘qitish, shuningdek, tarbiyaviy jarayonlarda maqsadga muvofiq, o‘rinli foydalanish davr taqozosni va da’vati ekanligini yoddan chiqarmasligi lozim. Zero, mufkuraviy jarayonlarning globallashuvi, turli agressiv, ekstremistik guruh yoki oqimlar tomonidan yoshlarni o‘z ta’siri doirasiga kirib ketishining oldini olishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Harakatlarning tobora keskinlashuvi sharoitida milliy g‘oya va mafkura, insonparvarlik xususiyatlarini yoshlar orasida targ‘ib etish ishi uzuksiz ravishda tashkil etilishi lozim.

Professor-o‘qituvchilar o‘z ish faoliyatini yuqorida ta’kidlangan texnologik jarayonga bo‘ysundirishlari uchun: ta’limni insonparvarlashtirish – milliy g‘oya va mafkurani singdirish, ta’lim tizimini tartibga solish, bir tizimga keltirish, ilgaridan loyihalashtirilgan ta’lim texnologiyasini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etib borishi zarur, deb hisoblaymiz.

Ma’lumki, pedagogik jarayon, ta’lim-tarbiyaning boshqa jihatlari bilan birga o‘qituvchi-pedagogik hamda ta’lim oluvchi talabalar o‘rtasidagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat bo‘lib, didaktik xususiyatlari jihatidan ham nazariy hamda amaliyot ko‘ri-nishida namoyon bo‘ladi. Nazariy pedagogik g‘oyalari, turli darajadagi qonuniyatlar o‘quv tarbiya jarayonining mohiyati nazariy tahlil etish va ilmiy pedagogik tadqiqot jarayonida tajriba-sinov o‘tkazish orqali ochiladi. Muayyan tadqiqot muammosi doirasida tashkil etilayotgan tajriba-sinov ishlarining metodikasi puxta ishlab chiqilmaganligi, ushbu muammoning ishonchli yechimga ega bo‘lishini, bu boradagi nazariy g‘oyalarning ilmiy jihatdagi asoslanmaganligi, shuningdek, ularning ijobiy yechimini ta’minlamaganligidan dalolat beradi.

Uzluksiz ta’lim tizimida milliy g‘oyani o‘qitish jarayonida talabalar ma’naviyatini yuksaltirish muammosini tadqiq etish doirasida tajriba-sinov ishlarini olib borishda yuqorida qayd etilgan fikrlarga tayangan holda tajriba-sinov ishlarini olib borish yuzasidan maxsus ishchi dasturini ishlab chiqish kerak bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchi-talaba yoshlarni milliy g‘oya asosida ma’naviy yuksaltirishda oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan ijtimoiy-gumanitar hamda pedagogik turkum fanlari alohida ahamiyatga ega. Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligini ta’minalash ishiga munosib hissa qo‘sishga yo‘naltirilgan faoliyatni tashkil etish borasidagi ko‘nikma va malakalarni hosil qilish pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri sanaladi. Zero, pedagogika turkumiga kiradigan fanlarning asosiy vazifasi har tomonlama rivojlangan, yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. Pedagogik bilimlar va milliy g‘oya asosida talabalar ma’naviyatini yuksaltirish ishi obyektiv shart-sharoitlar hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatning dialektik birligi negizida tashkil etiladi. Mana shu negizga yo‘naltirilgan faoliyatni tashkil etish, bu borada samaradorlikka erishish yo‘lida tashkil etilgan dastlabki harakat – bu pedagogik oliy o‘quv yurtlariда talabalarga pedagogik bilimlarni berish, ularda milliy g‘oya xususiyatlaridagi tushunchalarni hosil qilish, ma’naviy axloqiy e’tiqodni shakllantirish, vayronkor g‘oyalari ta’siridan saqlanish, g‘oyaviy insonparvarlikni hosil qilish maqsadida olib borilayotgan tadbirlar mazmunini tahlil etish, talabalarning ma’naviy-axloqiy sifatlari darajasini o‘rganishdan iborat bo‘ladi. Muammolarni o‘rganish uchun quyidagi tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish ko‘zda tutilmoqda:

a) talabalar va professor-o'qituvchilar o'rtasida anketa savollari tarqatiladi va yig'ishtirilib tasnif qilinadi;

b) bog'cha-maktab, o'rta maxsus ta'lif muassasalarida o'tkazilib kelinayotgan ochiq tarbiyaviy soatlar va tarbiyaviy tadbirlar o'rganilib, tahlil etiladi;

d) talabalar ishtirokida davra suhbatlari uyushtiriladi.

Oliy ta'lif muassasalaridagi pedagogika, ma'naviyat asoslari, milliy g'oya fanlari bo'yicha tashkil etilayotgan mashg'ulotlar jarayonini kuzatish, mazkur jarayonda talabalarni milliy g'oya xususidagi bilimlardan xabardor etishga yo'naltirilgan faoliyat mazmuni o'rganiladi.

Oliy ta'lif muassasalaridagi kasbiy ta'lif fakultetlarida yosh avlod ta'limi va tarbiyasini muvaffaqiyatli tashkil eta olish layoqatiga ega, malakali pedagog kadrlarni tarbiyalash vazifasining mazkur oliy o'quv yurtlarida faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlar o'z zimmalariga ulkan mas'uliyat yuklayotganligini chuqur his etganlari holda bo'lg'usi o'qituvchilarni jiddiy g'oyaviy tayyorgarlikka ega bo'lishlari uchun muayyan shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlarini ishlab chiqishlari kerak bo'ladi. Talabalar ma'naviyatini yuksaltirish muammosining ijobiylarini yechimini ta'minlashga nisbatan atroficha yondashuvning mavjud emasligi, mutaxassislik fanlarining o'qituvchilari fanlararo aloqadorlik va bog'liqlik xususiyatidan samarali foydalana olish, shuningdek, pedagogik bilimlar va milliy g'oya va mafkura o'rtasida o'zaro uyg'unlikni ta'minlash borasidagi tajribaga ega emasliklari hech kimga sir emas. Chunki bu tabiiy hol, har bir pedagog o'zining o'qitayotgan predmetining maqsadidan kelib chiqib, vazifalarini belgilab dars beradi.

Bizning kuzatishlarimizda, kasbiy ta'lif fakultetlarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagoglarimiz milliy g'oya va mafkura asoslari ijtimoiy jamiyat rivoji va taraqqiyotini

kafolatlovchi g‘oyalar majmuidan iboratligini yaxshi tushunishadi. Ammo mutaxassislik xususiyatlaridan qat‘i nazar har bir o‘quv fanini o‘qitish, shuningdek, tarbiyaviy jarayonlarda maqsadga muvofiq, o‘rinli foydalanish davr taqozosi va da’vati ekanligini yoddan chiqarmasligi lozim bo‘ladi. Zero, mufkuraviy jarayonlarning globallashuvi, ekstremistik guruh yoki oqimlar tomonidan yoshlarni o‘z ta’siri doirasiga olishga yo‘naltirilgan harakatlarning tobora keskinlashuvi sharoitida milliy g‘oya va mafkuranani yoshlari orasida targ‘ib etish ishi uzlusiz ravishda tashkil etilishi lozim.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish jarayonida pedagoglarimiz milliy g‘oya va mafkuraning targ‘ibotini olib borish ishiga alohida e’tibor qaratishlari lozim.

O‘tkazilgan tadqiqotlar, mavzu bo‘yicha e’lon qilingan ma’ruzalar va muhokamalar jarayonida bildirilgan fikrlar asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2006-yil 25-avgustdagagi «Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida»gi Qarorini o‘rganish, ta’lim-tarbiya jarayonida keng joriy etish;

- ijtimoiy-gumanitar fanlarini o‘qitishda ma’naviy-axloqiy tarbiyaga urg‘u berib o‘tishni nazarda tutish;

- eng avvalo, talaba-yoshlarga insonparvarlik tuyg‘ularini singdirish, insoniy qadr-qimmatni qadrlashni o‘rgatish, shuningdek, milliy g‘oyani singdirib borish texnologiyasini ishlab chiqish va keng ommaga yetkazish;

- tarbiyaviy tadbirlarni muntazam o‘tkazish, talabalarni bo‘sh vaqtini unumli o‘tkazish, yangi zamonaviy axborot texnologiyalaridan, o‘quv adabiyotlaridan foydalanib, bilimini boyitib borishini nazorat qilish.

Uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini vujudga keltirish jarayonida insonparvarlik ruhini singdirib borish natijasida yangicha dunyoqarash, dunyoni yangicha his etish asosida tafakkurning doiraviy tarzi shakllanishi uchun bu tizimning har bir qismi va vazifalari aniq bo'lishi kerak. Mana shu har bir qismni uzluksiz ta'lim bo'yicha quyidagicha sanab o'tamiz:

1. Oila ta'limi va tarbiyasi.
2. Bog'cha ta'limi va tarbiyasi.
3. Boshlang'ich ta'limda beriladigan ta'lim-tarbiya.
4. Umumo'rta ta'lim maktablaridagi ta'lim-tarbiya.
5. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya.
6. Oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya.
7. Aspirantura va doktorantura ilmiy tadqiqotlarni insonparvarlik yo'nalishida uyuştirish.
8. Kadrlarni malakasini oshirishda, malakan uzlusiz va izchil oshirib borishga xizmat qiladigan ilmiy-uslubiy muassasalarning keng tarmoqlarini vujudga keltirish va undagi mashg'ulotlar ham insonparvarlik ruhi bilan sug'orilishiga e'tiborni qaratish.

Uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimidagi mana shu qismlarning har birini milliy zaminda va insonparvarlik asosida qayta ko'rib chiqilishi va takomillashtirilishi lozim. Bugun tug'ilib voyaga yetgan bola muayyan vaqtidan keyin biror bir kasbda ishlaydi. O'qituvchi, muhandis, agronom, shifokor, harbiy xizmatchi va boshqa bir ommaviy kasb egasi bo'ladi. Davlat tuzulmalarida faoliyat ko'rsatadi. Ana shunda bu tizim insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan bo'lsa, bo'lajak avlod ongi, his-tuyg'usi shu ruhdan oziq oladi va bunday odamlarda ma'naviyat eng yuksak cho'qqiga chiqadi. **Insonparvarlik** – shunda oddiy dunyoqarashlikdan chiqib, amaliy harakat tusini oladi.

Ta’lim texnologiyalari hayot texnologiyasi bilan uyg‘unlashganda milliy g‘oya asosida ta’limni insonparvarlashtirish amalda o‘z natijalarini beradi.

Pedagogika qachon va qayerda paydo bo‘lgan ta’lim hamda tarbiya nazariyasi va ta’limni insonparvarlashtirish, gumanitarizatsiyalash amaliyoti bizga qayerdan kelgan?

Bizga, Movaronunnahrga ta’lim nazariyasi qayerdan kelgan? Yevropadanmi? Rossiyadanmi? Ko‘p sonli tadqiqotlarga, tarixiy manbalarga asoslanib shuni aytish mumkinki, ta’lim-tarbiya mazmuni, shakli va uslublarining asosiy jihatlari Sharqda ishlab chiqilib, Yevropa orqali o‘zgarib, rivojlanib, buzilib, yana yurtimizga qaytib kelgandir.

Bunday fikrni tasdiqlash uchun bir necha dalillarni keltirishning o‘zi kifoya. Dunyo tarixiy-pedagogik jarayonida umuminsoniylik va milliy masalalarni tahlil qilish hozirgi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Bu borada Sharqning ulug‘ mutafakkirlarining g‘oyalari ahamiyatga molikdir. Xususan, al-Forobi, Ibn Sino, Beruniy, al-Xorazmiy va boshqa allomalarining g‘oyalari jahon ijtimoiy-pedagogik jarayoniga ko‘p jihatdan ta’sir etib, ma’lum darajada uyg‘onish davrining asosiy shart-sharoitlarini yaratib bergen.

XIX asrda Rossiya Turkistonni o‘z mustamlakasiga aylantirganidan boshlab va ayniqsa, oktabr to‘ntarishidan keyin bizning maktablarimizda o‘ziga xoslik yo‘qoldi. Rus-tuzim maktablari ko‘klarga ko‘tarilib, uning namoyondalari o‘zbek xalqining iftixoriga aylantirildi.

Sharq mutafakkirlaridan Jaloliddin Davoniylar «Axloq – bu iordaning mahsuli», degan edi. Shunday iboralarni Beruniy, Ibn Sinoda ham uchratish mumkin. Bu iboraning tagida juda katta ma’no yotadi. Bu va shunga o‘xshash xislatlar tushunchasi umuminsoniy qadriyatlar bilan milliy o‘ziga xoslik o‘rtasidagi muvozanatni belgilaydigan mezonlardan hisoblanadi.

Uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini insonparvarlashtirish keng dunyoqarashli va ma'rifatli, aql-idroki mukammal, ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol, ruhan tetik, o'z mamlakati va uning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni va rolida o'zining fuqarolik mas'uliyatini to'g'ri va to'la anglab yetgan komil shaxsni tarbiyalash maqsadlariga bo'ysundirishdan iboratdir. Ta'limni insonparvarlashtirishning markaziy masalasi yoshlarda yuksak axloq va fuqarolik sifatlarini shakllantirish, insonning ornomusi, sha'ni va mas'uliyati kabi tuyg'ularni, vatanparvarlikni, ma'naviy-ruhiy fazilatlarni tarbiyalashdan iboratdir. Gumanizatsiyalash ta'limning ana'anaviy eski usuli bo'lgan va shaxsning ma'naviy-ruhiy hamda fuqafo sifatida takomillashuvini emas, balki uning tor ixtisoslik vazifalari va lavozim burchlarini shunchaki bajarishga mo'ljallangan mutaxassis sifatida shakllanishini asosiy maqsad qilib qo'ygan andoza va qoliplardan ham voz kechishni nazarda tutadi. Ta'limning o'quv va madaniy-tarbiyaviy vazifalari, shu jumladan, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ushbu muhim masalani hal qilishga qaratilishi lozim.

Mutaxassislarning kasbiy, ixtisoslik tayyorgarligi millatning ma'naviy merosidan oziq oladigan, ularning yuksak ma'naviy-axloqiy imkoniyatlari, keng dunyoqarashi va yuksak aql-idroki bilan o'zaro muvofiq kelishi zarur.

Sharqda ham, G'arbda ham ulug' mutafakkir, hurfikrlilikning buyuk dahosi sifatida tan olingen alloma Umar Hayyom aytgan edilarki, inson dunyoning tilagi, samari, aql ko'zining gavharidir. Demak, inson, uning kamoloti, erkinligi butun ta'lim-tarbiya tizimining markazida turmog'i lozim. Inson inson uchun oliy qadriyat, oliy maqsad bo'lib qolishi, buning uchun esa yoshlarning ularga ta'lim-tarbiya berayotgan barcha kishilarning, hazrat Navoiy aytganlaridek, o'zi, so'zu va dili pok bo'lmog'i lozim.

Hozirgi davrda bir obyektiv muammo mavjud. U ham bo'lsa, bir tomonidan o'rta umumiyligi ta'lim davlat standartlari ishlab chiqilib, tasdiqlandi va ta'lim-tarbiya jarayoniga bosqichma-bosqich joriy etilayapti. Ikkinchini tomonidan, birmuncha murakkablashtirilgan, yuqori saviyaga, jahon talablariga mos fanlar standartlarini amalga oshirishga hamma o'qituvchilarimiz ham tayyormi? Mana shu jarayonga oqilona yechim topish xalq ta'limi xodimlari oldida turgan eng muhim masala hisoblanadi.

«Islom Karimov modeli» nomini olgan «Kadrlar tayyorlash milliy modeli» tomonidan kadrlar tayyorlashga qo'yilayotgan talablar bilan ta'lim turlari orasidagi integratsiyalashuv jarayonlarini ilmiy ta'minlanmaganligi orasida nomutanosiblik mavjud.

Bizningcha, kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishning ikkinchi bosqichida mazkur muammoni amalga oshiradigan eng muhim yo'nalishlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

**Birinchidan**, ta'lim turlari va bosqichlari orasidagi gorizontal (o'rta ta'limda davlat, nodavlat muassasalar ta'lim mazmunlarini integratsiyalash, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limida akademik litsey va kasbiy kollejlari orasidagi integratsiya oliy ta'limda fan va ishlab chiqarish bilan) integratsiyalash va vertikal (maktabgacha ta'lim o'rta umumiyligi, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi, bakalavriyat va magistratura) integratsiyalash jarayonlarining ilmiy asoslarini yaratish.

**Ikkinchidan**, xususan, oliy ta'lim pedagogikasida:

a) akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, bakalavriyat va magistratura yoshlaridagi talablar individual fiziologik va psixologik o'ziga xosliklarni ilmiy tadqiq etish;

b) oliy ta'limda an'anaviy ma'ruza va guruhiy amaliy mashg'ulotlar metodlarining, ayrim hollarda, hozirgi davr

talablarini to‘laqonli qondira olmayotganligini, mos kelmay qolganligini hisobga olib, ta’lim uchun yangi noan’anaviy metodlar: ijodiy muloqot, pedagogik o‘yinlar, konferensiya va ilmiy tadqiqiy metodlarning ilmiy asoslarini ishlab chiqib, bevosita amalga oshirish;

d) oliy ta’limda ta’lim-tarbiya jarayonini psixologiya fani yutuqlari asosida amalga oshirish maqsadida barcha pedagogik tadqiqiotlar va ta’lim-tarbiya jarayoni talablar psixikasini o‘rganish, ularning natijalariga tayanish asosida tashkil etilishi lozim;

e) oliy ta’limda ijodkor mutaxassislarni tayyorlash maqsadida talabalar mustaqil fikrlashini shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy psixologik-pedagogik asoslarini yaratish lozim.

**Uchinchidan,** pedagogika an’anaviy pedagogik tushunchalar girdobidan xalos bo‘lib, pedagogik bilimlar tizimi va uning mantiqiy tuzilmasi haqida, uning boshqa fanlar bilan aloqalari to‘g‘risidagi ilmiy tushunchalarini o‘zgartirish yo‘llari haqida, nazariy pedagogik bilimlarni amaliyotga qo‘llash haqida yangicha talqinlarni yaratish kerak.

**To‘rtinchidan.** Mustaqillik sharofati tufayli pedagogika fanining tadqiq sohalari kengaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining tarixiy-milliy, umuminsoniy uyg‘unlashuvi muammolarini tadqiq etish, nihoyatda zarur yo‘nalishlardan hisoblanadi.

**Beshinchidan.** O‘zbek milliy tarbiyasining mohiyati, nazariy va amaliy masalalarini tadqiq etish.

**Oltinchidan.** Axloqiy madaniyatni shakllantirishning psixologik, falsafiy asoslarini yaratish.

**Yettinchidan.** Komil inson tarbiyasi, komil inson strukturasini yaratish, metodikasi, vositalari, shart-sharoitlarini yaratish.

**Sakkizinchidan.** Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarga xos hayot tarzi, dunyoqarashni shakllantirishning pedagogik asoslarini yaratish.

**To‘qqizinchidan.** Milliy mafkura asosini tashkil qiluvchi yangicha, mustaqil fikrlashning pedagogik asoslarini yaratish.

**O‘ninchidan.** Mamlakatimiz ijtimoiy sharoitidagi o‘zgarishlar, yangiliklar, ta’minlash jarayoni tizimiga kirib kelishini ta’minlash metodologik asoslarini yaratish.

**O‘n birinchidan.** Milliy istiqlol g‘oyasini o‘quvchilar, yoshlar, talabalar va mutaxassislar, ongida tizimli uzlusiz singdirilishining mufassal metodologiyasi va metodikalarini ishlab chiqish.

**O‘n ikkinchidan.** Hozirda pedagogika nazariyasi va amaliyoti muammolarini tadqiq etishga texnologik yondashuv amalga oshirilmoqda. Muammo eng yaxshi tuzilgan ta’lim-tarbiya texnologiyalari, agarda hayot tarzi texnologiyasi ishlab chiqarish texnologiyalari, bilan bevosita uyg‘un ravishda tuzilmasa, uning samaradorligi yuqori bo‘lmaydi.

Ma’lumki, har qanday pedagogik texnologiya ta’limning yangi loyihasini rivojlantiruvchi ta’lim tamoyillariga asoslangan bo‘lib, o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilmog‘i kerak. Ilg‘or pedagogik texnologiyaning markazida esa ta’lim jarayonining rahbari hamda shu jarayonning subyekti-yu obyekti bo‘lgan o‘qituvchi va o‘quvchi turadi. Shunday ekan, bu ikki shaxsning hamkorligi, o‘zaro muloqoti, bir-biriga ko‘rsatadigan ta’siri eng zamonaviy va milliy talablar asosida tashkil topishi lozim. Buning uchun, birinchi navbatda, o‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayoni oldiga qo‘yilgan talablar; ta’limni tashkil etish va boshqarish prinsiplari hamda yo‘llari, o‘quvchini aqliy so‘zi va jismoniy jihatdan rivojlantirish usullari, u bilan hamkorlik qilish, uni o‘qishga, o‘rganishga

yo'naltirish, o'quvchi shaxsi faoliyatini to'g'ri tashkil etish, ular bilan muloqotga kirishish, muammo va kelishmovchiliklarni bartaraf etish, sinfda ijodiy, ishchan muhitni vujudga keltirish, o'quvchi faoliyatini aniq va to'g'ri baholash metodlari bilan qurollangan bo'lishi lozim.

O'quv omillarini yaratishga asoslangan pedagogik texnologiyani tatbiq etish va undan ko'zlangan maqsadga erishish o'qituvchining pedagogik mahorati, muloqot madaniyati, nutqining ravonligi, kommunikativ mahoratining o'quvchilarga ta'siri, pedagogik texnikani egallaganlik darajasi va bu texnikadan bevosita darsda samarali foydalana olishiga bog'liqdir. Bu faoliyat o'z navbatida, yangi kommunikativ texnologiyaga asoslangan holda amalga oshirilishi kerak. Bu jarayonda o'qituvchi turli ko'rinishdagi faoliyatlarda ishtirok etadi. Xuddi shunday pedagogik faoliyat shakllaridan biri o'qituvchining o'quvchilar bilan muloqotiga asoslangan birlgiligidagi faoliyatidir. O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqoti (hikoya, suhbat, ma'ruza) ijtimoiy nuqtai nazardan o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan bo'ladi. Bu o'rinda o'qituvchi o'quvchida mustahkam o'rnashgan ishonchini shakllantirish lozim. Bu ishonch bevosita ijtimoiy munosabatlarga tatbiq etiladi. Bunday muloqot o'quvchilar guruhiga mo'ljallangan bo'lib, bevosita jamoa mehnati sifatida namoyon bo'ladi. Muloqot yakka shaxsga ham yo'naltirilgan bo'lishi mumkin, ya'ni o'qituvchining o'quvchi bilan hamda bir o'quvchining ikkinchi bir o'quvchi bilan muloqoti sifatida. Muloqot yo'li bilan o'quvchilar mavjud narsa va hodisani bilib oladilar, yangidan-yangi axborotlarni qabul qiladilar. Boshqa bir tomondan esa o'qituvchi o'quv dasturi talablaridan kelib chiqqan holda, o'quvchi shaxsini o'rganadi.

O'qituvchining o'quvchi bilan muloqoti pedagogik xarakterdagi muloqot bo'lishi, aniq pedagogik vazifani

bajarishga yo'naltirilishi kerak. Jumladan: optimal, yaxlit, qulay o'quv muhitini, ruhiy vaziyatni, o'quv faoliyatini optimallashtirish, o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi, shuningdek, o'quvchilar jamoasi orasidagi munosabatni insonparvarlik mezonlari asosida shakllantirish nazarda tutiladi.

Pedagog o'quvchilar orasidagi ta'sirlarni, ulardagi hissiy zo'riqishlarni bartaraf eta olish kerak. Agar o'qituvchi yuqorida ko'rsatilgan ta'sirlarni bartaraf eta olmasa, bu tarzdagi hissiy zo'riqish ilgarigi muvaffaqiyatsizliklar bilan qo'shilgan holda o'quvchilarda o'qituvchi va o'quv predmetiga nisbatan salbiy munosabatni vujudga keltiradi hamda qo'rquv, ishonchszilik, diqqat susayishi holatiga, esda saqlash qobiliyati, ishchanlik, nutq dinamikasi buzilishining hösil bo'lishiga olib keladi. Bu hol bir so'z bilan aytganda o'quvchining o'quv faoliyati motivatsiyasining pasayishiga, ta'lim jarayonida, o'quvchiga nisbatan hurmatsizlik bilan yondashilgan taqdirda, ko'zda tutilgan talabchanlikka, ayniqsa, ongli tarzdagi intizom o'rnatishga erishish mumkin emas.

Hammasi bo'lib ijobiy xislatlar soni mingdan ortiq. Tarbiya mafkurasingin maqsadi mana shu xislatlarni shakllantirishdan iborat. Buning uchun o'quv-tarbiya jarayoni, hadislar, oila, mahalla, an'anaviy udumlar, to'y, aza, maraka, va boshqa kam guruhli va ko'p sonli odamlar ishtirok etadigan yig'inlar, sayllar, mehmonorchilik, mehmon kutish, ommaviy axborot vositalari, afsonalar, romanlar va boshqalar vosita bo'lishi mumkin.

Yuqorida ko'rsatilgan shaxsiy xislatlarni shakllantirish o'quv-tarbiya ishlarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Hamma mamlakatlar ham ana shunday ijobiy xislatlarni o'z xalqida shakllantirishga harakat qiladi. Ana shu ma'noda tarbiyaning umumiyligi maqsadi dunyo pedagogik jarayonida yagona

maqsadga, ya'ni umuminsoniy xislatlarini shakllantirishga qaratiladi. Falsafa fani, uning turlicha qarama-qarshiliklari, turli oqimlari, nazariyalari bilan birga yagona bo'lganidek, pedagogika ham umumiy maqsadi bo'yicha dunyoviy pedagogik jarayonda yagona, bir jinsli deb qaraladi. Gap ana shu maqsadlarga qanday vositalar bilan, qanday ketma-ketlikda va qaysi ma'noda erishishiga bog'liq. Bir mamlakat ta'lim va tarbiyaning bir shaklini tanlasa ikkinchisi o'zgacharoq, uchinchisi yana bir boshqacha yo'lni tutadi. Shu jumladan, xalqning, elatning o'z udumi, odati, turmush tarzi bor. Mana shu kabi o'ziga xoslik ta'lim va tarbiyaning o'ziga xos shakl, vosita va uslublarini, xalqning umumiy madaniyatini belgilaydi.

Yuqorida belgilangan xisatlarning ba'zilari, masalan, oqibatlilik, bolajonlik, andishalik, imonlilik kabilar o'zbeklarga xos xislatlar.

Al-Forobiy, Ibn Sino kabi mutafakkirlarning boy merosini o'rganar ekanmiz, ta'lim va tarbiya masalasida birorta joyida, birorta so'zida o'zbek, eron, tojik yoki boshqa millatgagina xos yoki mos birorta fikrni topa olmaymiz. Umuminsoniy va umummilliy durdonalar aks etgan. Shuning uchun ham butun dunyo xalqlari o'zlarining merosidan suyunib foydalanishadi, avlodlar xotirasida barhayotdirlar.

O'quvchi yoshlarda zukkolik, aqllilik, xislatlarini shakllantirish uning mezonlariga e'tibor qaratish darkor. Hozirgi dunyo ta'lim bozorida aqli bo'lish uchun faqat bilim, iqtidor va ko'nikmalarning hajmi yetarli emas. Aqli shaxs deganda ma'lum malakaga ega bo'lgan, analistik va sintetik fikrlay oladigan, voqeylekni induktiv va deduktiv analiz qila oladigan algoritmik fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan tadbirkor, intizomli shaxs tushuniladi. Shu xisatlarning birortasi yetarli bo'lmasa, shaxsni mukammal deb bo'lmaydi.

O‘quvchi shaxsi ham, buyurtmachi ham iste’molchi sifatidagi hamda o‘zini-o‘zi boshqaruvchi va o‘zini-o‘zi to‘g‘ri yo‘lga soluvchi sifatida juda ham rivojlangan tizim hisoblanadi. Shaxs «ichki psixolog» faoliyatini boshqarishda ichki tanlov mezonlariga: tez-tez o‘zgaruvchan xarakterga ega. Shuning uchun ham, ayniqsa, avvalom bor, yosh bo‘g‘inlarni dastlabki ichki xislatlarida biron bir xulosa qilishda shoshilmaslikka umuminsoniy, milliy, vatanparvarlik qadriyatlarga amal qilishni ta’minalash alohida ahamiyat kasb etadi. Yoshlarni bizning mafkuramizga zid oqimlarga qo‘silib ketishini oldini olishning birdan-bir yo‘li yoshlarimizni milliy g‘oya va mafkura bilan quollantirishdan ta’lim-tarbiyada innovatsion jarayonlarni amalga oshirish ta’limning prinsipial yangi shakllari va mexanizmlarini kashf etilishini taqozo etadi. Bunday shakl va mexanizmlardan innovatsion banklar, innovatsion dasturlarni amalga oshirish markazlari, ilmiy-amaliy markazlari tashkil etilmoqda.

#### **4.2. Milliy g‘oya va mafkurani yoshlar qalbi va ongiga singdirishning pedagogik muammolari**

Mustaqillikka erishilgandan keyin, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ravnaqiga erishish, uning kelajagini ta’minalash uchun, avvalo yosh avlodning ongini, tafakkurini, dunyoqarashini davlat manfaatlariga yo‘naltirish kerak. Bu esa Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash hamda O‘zbekistonni rivojlantirishning asosiy shartlaridan biridir. Hozirgi paytda mamlakatimizning ishlab chiqarish sohalariga muttasil ravishda yuqori samaradorlikka asoslangan, turli murakkab texnologiyalar olib kirilmoqda. Bularning barchasi iqtisodiy mustaqilligimizni ta’minalashga qaratilgandir.

Dunyo, insoniyat sivilizatsiyasiga betakror hissalarini qo'shgan Beruniy, Xorazmiy, Ibn Sino, Forobiy, Termiziylar kabi ko'plab betakror allomalarini tarbiyalab, yetkazib bergen xalqimiz o'zining betakror milliy ma'naviy-axloqiga egadir. Ammo hammaga ma'lumki, qariyb bir yarim asr mobaynida mustamlakachilik davrida, o'zbek xalqining unutilmas, betakror ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlari oyoqosti qilingan, milliy g'urur va iftixor butunlay toptaldi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlangan davlatlar safidan o'rin olishga harakat qilayotgan O'zbekiston uchun bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonlarida asosiy diqqat-e'tibor yoshlarning ijtimoiy-siyosiy dunyo qarashlarini, fikrlashlarini Vatan manfaatlariga yo'naltirish dolzarb vazifalardan biritidir. Chunki aynan yoshlar ertangi kunda ishlab chiqarishga, davlat boshqaruviga kelishadi.

Ularning kelajakda olib boradigan barcha harakatlari Vatanimiz taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqidir. Shuning uchun ham yoshlarimizni turli yovuz va buzg'unchi g'oyaviy tahdidlardan asrab, ularda mafkuraviy immunitetni hosil qilish maqsadida ularni sog'lom va insonparvar mafkura bilan qurollantirish bugungi kun talabidir.

Bu haqda Prezidentimiz I.A.Karimov ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida: «..*Eng asosiy vazifamiz – milliy qadriyatlarimizni tiklash, o'zligimizni anglash, milliy g'oya va mafkurani shakllantirish, muqaddas dinimizning ma'naviy hayotimizdagи о'rnini va hurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarida boshlagan ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko'tarish va ta'sirchanligini kuchaytirishdir*», – degan edilar<sup>19</sup>.

---

<sup>19</sup> I.A.Karimov. Qarang: «O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish». «Sharq» nashriyoti, 2000-yil. 5-bet.

Darhaqiqat, ma'naviyat insonga doimo havodek zarurdir, u ona suti, ajdodlar namunasi, otalar o'giti bilan insonning qalbiga, ongiga singadi.

Bugungi kunda o'zbek xalqining ma'naviy-axloqiy negizini, uning milliy ruhini umumbashariy qadriyatlar asosida mustahkamlash va rivojlantirish – jamiyatning oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Chunki mamlakatning taraqqiyoti o'z navbatida xalqning ma'naviy-axloqiy negizi bilan doimiy ravishda o'zaro bog'liq holatda rivojlanib boradi. Aynan ma'naviy-axloqiy negiz mahsuloti bo'lgan milliy ong, milliy g'urur, milliy g'oya kabi mahsulotlar oldinga, rivojlanishga qarab turtki beradi.

Insonning qalbi va ongida singigan ma'naviy-axloqiy negizlar uni butun umri davomida xalq xizmatida bo'lishga, Vatan ravnaqi hamda taraqqiyotiga hissa qo'shishga, o'zining ongli va erkin mushohada qiluvechi shaxs sifatida kamol topishiga muttasil ravishda undaydi. Milliy g'oya va mafkura inson ongiga o'z xalqining tarixi, uning ma'naviy-axloqiy qadriyatlari bilan singarkan, shaxsni Vatan yo'lida xizmat qiluvchi fidoyi va qudratli insonga aylantiradi. Mamlakatimiz tarixidan bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. Jumladan, Muqanna, Spitamen, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va boshqalar.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda milliy g'oya va mafkura o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, xalqimizning asosiy maqsad-muddaolarini ifodalaydigan, uning o'tmishi, tarixi va kelajagini bir-biri bilan chambarchas bog'laydigan, millatning asriy orzu-istikclarini amalga oshirishga xizmat qiladigan g'oyalar tizimidir.

Mana shu nuqtai nazardan mustaqil fikrga qodir shaxs ma'naviyatini shakllantirish hamda uni xalqimizning ma'naviy-axloqiy qadriyatlari asosida – Vatanga fidoyi qilib

tarbiyalash bugungi kunda respublikamiz uzluksiz ta'lim tizimi oldida turgan ulkan vazifalardan biridir.

Milliy g'oya va mafkura O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga, millatlararo totuvligiga, mustaqillikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Chunki ongli ravishda mamlakatimizning ko'p millatli xalqi ongi va qalbidə «O'zbekiston bugungi kunda – yagona Vatan» – degan fikri joy qilib, umumbashariy qadriyatlarga tayangan holda jahon hamjamiyati orasida o'z o'rmini egallahsha harakat qilmoqda. Mamlakatimizning rivojiga ijobiy ta'sir qiladigan ma'naviy-axloqiy negizi – xalqimizning asrlar davomida shakllanib, rivojlanib, har tomonlama sayqallanib, ajdodlarimiz tomonidan asrab-avaylanib bizgacha yetib kelgan ma'naviy-axloqiy qadriyatları, boy ma'naviy-ma'rifiy meroslari hamda tariximizdir. Chunki yuqorida qayt etilganlar insonga ijobiy fikrlar, ibratli xulosalar beribgina qolmasdan, tariximizda mavjud achchiq saboqlardan ham kerakli tushuncha olishga hamda hayot davomida to'g'ri yo'lidan adashmaslikka undaydi. Hozirgi paytda barchamiz Vatan ravnaqi yo'lida tinmay faoliyat ko'rsatishimiz kerak. Chunki Vatan biznikidir.

Yurtboshimiz I.A.Karimov o'z chiqishlaridan birida shunday degan edilar: «...*Farzandlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlarimiz asosida, o'z fikru tafakkuri va zamonaviy bilimga ega bo'lgan vatanparvar etib voyaga yetkazish barchamizning otalik va onalik burchimizdir*<sup>20</sup>».

Bu dunyoda har bir inson o'z qalbida Vatan, Vatanni sevish kabi his tuyg'ularga ega. Vatan – insonning kindik qoni to'kilgan tuproq, uni kamolga, voyaga yetkazgan, hayotiga ma'no va mazmun baxsh etadigan tabarruk maskandir. U ajdodlarimiz tomonidan asrab-avaylanib, avlodlarga qoladigan buyuk meros, eng aziz ne'mat, unutilmas xotiradir. Vatan –

---

<sup>20</sup> I.A.Karimov. Qarang: «Umidim – yoshlar». T.: 1999-yil. 25-bet.

ota-boblarimizning tabarruk hoklari jo bo‘lgan, vaqtি-soati yetib, har birimiz bosh qo‘yadigan muqaddas zamindir. Vatani bor insonning g‘urur-iftixori, yuksak maqsadlari, o‘z xalqiga xizmat qilishdek tuyg‘usi qalbida jo bo‘ladi. Bunday inson butun hayoti davomida faqat ezgu maqsadlar, o‘z xalqi va Vataniga doimo sodiq, uning raynaqiga jon fido aylaydi hamda hayotning barcha sinovlarini iroda bilan yengib o‘tadigan shaxslardir.

Bu haqda Prezidentimiz I.A.Karimov «*...Aql-zakovatli, yuksak ma’naviyatli kishilarни tarbiyalay olsakgina, oldimizga qo‘yan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot kamol topadi*<sup>21</sup>» – degan edi.

Vatanimiz kelajagi bo‘lgan yoshlarning tafakkuri, ma’naviy-axloqi, mustaqil fikrashi, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga munosabatiga bevosita bog‘liqdir. Mana shunday ijobiy xislatlarga boy insonni tarbiyalash, ularga zamon talabi darajasida bilim berish hamda keljakda yuksak ma’naviyatli, raqobatbardosh kadrlar qilib voyaga yetkazish – bugungi kunda ta’lim muassasalarining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Tarbiya ishlari – jamiyatdagi ijtimoiy hayotning har kuni, har soatida olib boriladi. U faqat ishlab chiqarish munosabatlari ta’sirida emas, balki turli tarixiy davrlarda ijtimoiy-siyosiy tizim tomonidan ilgari suriladigan u yoki bu tarbiya nazariyasining g‘oyalari ta’sirida aniq mazmunga ega bo‘ladi. Tarbiya ishlarining samaradorligida – ko‘p jihatdan fidoyi, ma’rifatparvar, o‘z sohasining professionali bo‘lgan mutaxassislar va pedagoglar faoliyati natijasi muhim ahamiyatga ega. Bu sohadagi muammolarni yechish, vazifalarni amalga oshirishda – soha mutaxassislarining olib borayotgan ilmiy-amaliy hamda uslubiy faoliyatlarining o‘rni katta.

<sup>21</sup> I.A.Karimov. Qarang: «Umidim – yoshlар». T.: 1999-yil. 8-bet.

Chunki tarbiya alohida mustaqil vazifa sifatida insoniy jamiyat paydo bo'lishi bilan birga tarkib topib, jamiyat hayotining kelajagini o'zida qamrab olgan.

Ijtimoiy-siyosiy talablardan kelib chiqib, asta-sekin tarbiya jamiyat hayotida muhimroq ahamiyatga ega bo'la boshladi. Natijada, jamiyatda tarbiya jarayonida to'plangan tajribani umumlashtirib, voyaga yetayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalab, ijtimoiy-siyosiy hayotga maqsadli yo'naltirish zaruriyati paydo bo'ldi. Bu esa tarbiya jarayonida psixologik-pedagogik tizimli yondashuvning rivojlanishini boshlab berdi.

Ibtidoiy jamoa davrida ham samarali tarbiyaviy uslublar va tajribalarni ommalashtirishga urinish harakatlari bo'lган. Bularning natijasida, kattalar va yoshlar o'rtasidagi munosabatlarda, keyinroq boshqa ijtimoiy munosabatlarda tarbiyaning ba'zi bir shakllari paydo bo'la boshlagan.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyani yo'naltirishda: «davr, hayot mazmuni, insonning jamiyatdagi o'rni va roli, odamlarning hayotda belgilangan vazifasi»ni amalga tatbiq etish jarayonlari muhim ahamiyatga ega.

Tarixdan ma'lumki, har bir mamlakat o'z mustaqilligini mustahkamlashi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, barqarorlikka erishuvi uchun, avvalo yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, ularning dunyo qarashini davlat manfaatiga yo'naltirish o'z dolzarbligiga egadir.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish kerakki, Vatanning ravnaqi, avvalo uning farzandlari kamoliga, ularning tarbiyasiga bog'liqdir. Bu esa har birimizning farzandlarimiz, yosh avlodning ma'naviy-axloqiy kamoloti, g'oyaviy chiniqishiga, har xil buzg'unchi g'oya va mafkuralarga qarshi murosasiz kurashchi ruhida tarbiyalashga mas'uliyat bilan yondashishga undaydi. Aynan farzandlarning kamoloti – ertangi kunda

barchamizning tinch hayotimizni ta'minlaydi. Buning uchun ularni milliy g'oya va masakra ruhida tarbiyalash – bugungi kunda ta'lim muassasalarining oldidagi dolzarb vazifadir.

#### **4.3. «Milliy g'oya» o‘quv kursini modullashgan dastur asosida o‘qitishda insonparvarlashtirish usullari**

Ma'lumki, inson o‘zining aql-zakovati, imon-e’tiqodi va ijodiy mehnati bilan boshqa barcha tirik jonzotlardan farq qiladi. Inson ongli mavjudot sanaladi. Ongni shartli ravishda ikki qismga bo‘lish mumkin: birinchisi – insonning ruhiy olami, ikkinchisi – fikriy olam, ya’ni tafakkur olamidir. Umuman, g‘oya inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy xarakterga ega bo‘lgan, ruhiyatga kuchli ta’sir o‘tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga chorlaydigan, maqsad, muddao sari yetaklaydigan kuchli, teran fikr demakdir.

Milliy g‘oya – davlat rivoji strategiyasining ma’naviy-mafkuraviy asosi bo‘lib xizmat qiladi. Milliy g‘oya har qanday demokratik jamiyatni jiddiy o‘ylantiruvchi muammo hisoblanadi. Chunki o‘zida eng mo‘tabar g‘oyalaru maqsadlarni jamuljam etuvchi milliy g‘oya millat uyg‘un kamolotining, komillik va ma’rifiy istiqbol sari intilishning ma’naviy-axloqiy, ruhiy strategiyasidir. U qismat in’ikosi sifatida tarixning obyektiv rivoji qonuniyatları yig‘indisining, harakatlantiruvchi, ilhomlantiruvchi, chorlovchi ruhiy rag‘bati, tashviqot-targ‘ibot «tizimi», yaqin va uzoq istiqbolning yaqin obrazi. U yo‘l-yo‘riq, millat va xalq kelajagining ma’naviy-ruhiy ozuqasi. Yangi jamiyat mohiyatan mutlaqo yangi milliy g‘oya poydevori asosida qurilgan. Mamlakatimiz barpo etayotgan ulkan imkoniyatlarga ega davlat, jamiyat mohiyati, orzuimiz bo‘lmish farovon, barqaror turmush tarzi alomatlari aynan milliy g‘oyaning maqom-mundarijasiga bevosita

bog‘liq. Shu nuqtai nazardan milliy g‘oya millat qismatida mumtoz falsafasi, siyosiy-ijtimoiy ahamiyati bilan, avvalo, sof hodisadir. Chunki milliy g‘oyaning mohiyatida ma’naviyatning tub asosi yotadi. Milliy g‘oyani, eng avvalo, aniqlab olish, ya’ni unda nimalar mujassam bo‘lib, nimalar bo‘lmasligini oldindan bilib olish kerak. Bo‘lmasa, jamiyatni katta maqsadlar sari jipslashtiruvchi milliy g‘oya o‘z maqsad va vazifasini bajara olmasligi mumkin.

«Zotan, o‘zbek milliy g‘oyasi – asrlar qa’ridan, mo‘l va ulug‘ ma’rifiy tariximiz qa’ridan yangicha mazmunu mohiyat kasb etib, yangi istiqlol sharoitida unib chiqqan ma’naviy-siyosiy ne’mat».<sup>22</sup>

«Milliy g‘oya» o‘quv kursini mavzularni guruhlashdirib, o‘nta modulga ajratib o‘qitish mumkin.

**Modul** – bu aniq fanlarda keng qo‘llanadigan termin bo‘lib ba’zi muhim koeffitsiyentlarning nomi. **Modulli o‘qitish** – esa ma’lum bir o‘qitilishi kerak bo‘lgan yaxlit mavzuni qismlarga ajratish, ketma-ketligini to‘g‘ri taqsimlash, taqsimlashda ham oddiydan murakkabga qarab borish prinsipiiga amal qilish demakdir.

**Birinchi modul** – asosan ushbu o‘quv predmetining nazariy asoslarini g‘oya va mafkura tushunchalarining mohiyat mazmunini ochib berishga mo‘ljallangan bo‘lib, birgina g‘oyani o‘z ichiga oladi. Bu qismda g‘oya tushunchasi bo‘yicha, ma’lumki, inson o‘zining aql-zakovati, imon-e’tiqodi va ijodiy mehnati bilan boshqa barcha tirik jonzotlardan farq qiladi. G‘oyalar inson tafakkurining mahsulidir.

Mazmuni va namoyon bo‘lish shakliga qarab g‘oyalarni bir qancha turlarga ajratish mumkin: ilmiy, falsafiy, diniy, badiiy, ijtimoiy-siyosiy, milliy, umuminsoniy g‘oyalar. Shuningdek,

<sup>22</sup> 1. M.Sharifxo‘jayev. O‘zbekiston yangi g‘oyalar, yangi yutuqlar. «Sharq» nashriyoti. T.: 2004, 259-bet.

jamiyatning ijtimoiy tuzilishi bilan bog'liq partiyaviy, sinfiy, etnik g'oyalar hamda ko'lamiga ko'ra farqlanadigan umumbashariy, mintaqaviy va mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan g'oya shakllari ham mavjud. G'oya, komil insonlarning imon-e'tiqodi, dunyoqarashi o'zagini, hayot mazmunini tashkil etadi. Ular ezgu g'oya deb yashaydilar, bu yo'lda hatto jon fido qiladilar. Tarixda o'z jasorati, mardligi va qahramonligi bilan nom qoldirgan buyuk insonlar haqida ko'plab misollar keltirish mumkin. G'oya – inson tafakkuri mahsuli ekan, ular ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Birinchisi – bunyodkor g'oyalar. Bular: xalqparvarlik, tinchlik ozodlik, hur fikrlilik, do'stlik, birodarlik, tenglik, bag'rikenglik, taraqqiyot va hokazo.

Ikkinchisi – vayronkor g'oyalar. Bular: bunyodkor g'oyaga zid bo'lgan, yovuzlik va jaholatga xizmat qiladigan g'oyalar majmuini ifodalaydigan tushuncha, ya'ni aqidaparstlik, diniy fanatizm, terrorizm, bosqinchilik, fashizm, shovinizm, jaholatparaslik va hokazolar. Insoniyat tarixida o'z talab-ehtiyojlarini boshqa xalqlar hisobiga qondirish istagi talonchilik va bosqinchilik, buyuk davlatchilik va tajovuzkor millatchilik, fashizm va ekstremizm kabi mafkuralarni yuzaga keltirgan. Bunday g'oyalar xalqlar boshiga ko'p kulfat va musibatlar solgan.

**Ikkinci modul** – milliy mafkura nima? Milliy mafkura bu Prezidentimiz tabiri bilan aytganda, «Xalqning millatning o'tda yonmaydigan, suvda cho'kmaydigan o'lmas e'tiqodidir». Bu da'vatlar nimalar asosida amalga oshiriladi, albatta, milliy g'oya ta'limoti asosida. Bunda mafkuraviy qarashlar bo'lajak mafkura nimalarga tayanishi haqida bahs yuritiladi. O'zbekiston jamiyatining milliy g'oyasi, o'z mohiyatiga ko'ra, xalqimizning maqsad muddaolarini ifodalaydigan, uning o'tmishi va kelajagini bir-biri bilan bog'laydigan, asriy orzu-

istaklarini ma'naviy omilidir.

**Uchinchi modulda** – milliy g'oya ta'limotini tarbiya tamoyillari orqali singdirishda quyidagilarni uqtirish nazarda tutiladi:

Milliy g'oya:

– O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanadi;

– xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati, an'ana va udumlari, ulug' bobokalonlarimizning o'lmas merosidan oziqlanadi;

– adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik g'oyalari hamda xalqimizning imon-e'tiqodini aks ettiradi;

– yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi;

– jamiyat a'zolarini, aholining barcha qatlamlarini O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etadi;

– millati, tili, dinidan qat'i nazar, mamlakatimizning har bir fuqarosi qalbida ona-Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalariga sadoqat va o'zaro hurmat tuyg'usini qaror toptiradi;

– jamoatchilik qalbi va ongiga fikrlar xilma-xilligi, vijdon erkinligi tamoyillariga rioya qilgan holda ma'rifiy yo'l bilan singdiriladi.

**To'rtinchi modul** – milliy g'oya o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy partiyalar, guruh va qatlamlarning umumiyl manfaatlarini ifodalaydi. Milliy g'oyaning asosiy xususiyatlari Prezident I.A.Karimov tomonidan ko'rsatib berilgan bo'lib, «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasida muxtasar bayon etilgan. Milliy g'oya va mafkura xalqimizning o'ziga xos tabiat, irodasi, orzu intilishlarini ifodalaydigan quyidagi milliy

xususiyatlarini zamon talablari asosida yanada boyitishni nazarda tutadi:

- xalqimiz hayotida qadim-qadimdan jamoa bo‘lib yashash ruhining ustunligi; bu mahalliychilik, hashar, marosimlar o‘tkazish, to‘y-tomoshalarda yaqqol ko‘rinadi;
- jamoa timsoli bo‘lgan oila, mahalla el-yurt tushunchalarining muqaddasligi;
- ota-on, qavmu-qarindosh, mahalla-ko‘y, umuman, jamoatchilikka yuksak hurmat va e’tibor;
- millatning o‘lmas ruhi bilan ona tiliga muhabbat;
- kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, mehru-muhabbat, go‘zallik va nafosat, hayot abadiyligining ramzi – ayollarga ehtirom;
- sabr-bardosh irodalilik, mehr-oqibat va mehnatsevarlilik, halollik pokizalik va hokazo.

**Beshinch modul** – dunyoviy bilimlar majmuasi yoki tafakkur yaratgan har qanday fikr, dunyoqarash, mulohaza yoki nuqtai nazar g‘oya bo‘la olmaydi. Faqat eng kuchli, ta’chirchan salmoqli fikrlargina g‘oya bo‘la olishi mumkin.

Milliy g‘oya va mafkuramizning falsafiy asosini, avvalo, milliy-ijtimoiy tafakkurning mumtoz namunalari bo‘lgan dunyoviy bilimlar, jahon falsafasi durdonalari belgilaydi. Olam va odamning yaralishi va takomillashib borishi haqidagi diniy va ilmiy qarashlar, poklik halollik, mardlik komillik g‘oyalari ham bugungi mafkuramiz shakllanishiga ta’sir o‘tkazadi.

Buyuk donishmand ajdodlarimizning ozodlik to‘g‘risidagi g‘oyalari, Muso Xorazmiyning dunyoviy kashfiyotlari va al-Beruniyning ijtimoiy-axloqiy qarashlari, al-Forobiyning adolatli jamiyati, Alisher Navoiyning «Komil inson» haqidagi falsafiy mushohadalari, asrimiz boshlarida ma’rifatparvar ziyyolilar faoliyati kabi milliy g‘oya va mafkurani yaratish va

unga amal qilish kelajak avlodimizga foydalidir.

Milliy g‘oyaning tarixiy tamoyili xalqimiz ruhini dahosini aks ettiruvchi o‘lmas qadriyatlar bilan uzviy bog‘liqdir.

Milliy g‘oyaning tarixiy ildizlari:

- haqqoniy yozilgan tarix; xalq og‘zaki ijodi, yozma manbalar;
- qadimiy obidalar, xalqning tarixiy xotirasi;
- – san’at va adabiyot durdonalari;
- milliy qahramonlar hayoti, faoliyati va merosi;
- milliy davlatchilik an’analari va buyuk mutafakkirlar merosi.

Umuman, milliy mafkuramizning tarixiy ildizlari deganda ajdodlarimizning ibratli hayot yo‘li, tafakkur tarzi, amaliy faoliyati, bunyodkorlik ishlari, eng yaxshi urf-odatlari, an’analari, qadriyatlar va hokazolar.

Xususan, Suqrot, Aflatun, Arastu singari mutafakkirlarning asrlar davomida o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmay kelayotgan fikrlari, jahon falsafasining o‘rta asrlar va yangi zamondagi namoyondalarining qarashlari ham milliy mafkuramiz tamoyillarini asoslash va boyitish, ularga hayotiy ruh bag‘ishlashda ahamiyat kasb etadi.

Milliy g‘oyaning falsafiy asoslariga:

- jahon falsafasi durdonalari, dunyoviy kashfiyotlar;
- milliy ma’naviy-axloqiy qarashlar, diniy-axloqiy qadriyatlar;
- komil inson haqidagi ta’limotlar;
- ma’rifatparvarlik g‘oyalari, istiqlol g‘oyasi va milliy falsafiy meros kiradi.

**Oltinchi modul.** – Hozirgi zamonda inson ongi va qalbi uchun kurash, geosiyosat va Markaziy Osiyodagi mafkuraviy jarayonlar kiradi.

Hozirgi davrda geosiyosiy maqsadlar ko‘proq mafkuraviy siyosat bilan hamohangligini alohida ta’kidlash zarur. Bunda mafkuraviy ta’sir ko‘rsatish geosiyosatning ta’sirchan vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ya’ni turli davlatlarning maqsadlari xalqning turli qatlamlari, xususan, yoshlar ongi va qalbiga mafkuraviy ta’sir ko‘rsatish orqali, ularning faoliyatini o‘z ta’siriga, ya’ni manfaatlariga yo‘naltirilgan mafkuraviy muhitni yaratishni ko‘zlagan holda amalga oshirmoqda. Ushbu jarayonni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rish, uning qanday amalga oshishini aniq bilish qiyin va murakkabdir.

**Yettinchи modul** – 2ta mavzudan iborat bo‘lib, O‘zbekistonning o‘z taraqqiyot yo‘li eslatib o‘tiladi. Biz qanday jamiyat barpo etmoqdamiz?

Bizning bosh strategik maqsadimiz – ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat barpo etishdir.

Shu bois xalqimiz irodasi bilan tanlab olingan va o‘zimizga mos rivojlanish bu – ijtimoiy bo‘hronlarsiz, inqilobiy sakrashlarsiz, tadrijiy tarzda olg‘a borishni taqozo etadigan yo‘ldir.

Ijtimoiy sohada: Jamiyat hayotining barcha jabhalarida tub o‘zgarishlar amalga oshirilayotgan, bozor munosabatlari ustuvor bo‘lib borayotgan hozirgi sharoitda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish taraqqiyotimizning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib qolaveradi. Bu esa milliy g‘oyaning ijtimoiy sohadagi tamoyillarini belgilaydi, ularning amalga oshishiga xizmat qiladi.

**Sakkizinchи modul.** Mustaqillik va mafkuraviy muammolar: g‘oyaviy bo‘shliq va zararli g‘oyalarning jamiyatimizga ta’siri.

G‘oyaviy bo‘shliqni to‘ldirish zarurati, g‘oyaviy bo‘shliq tushunchasi, uning mohiyati va namoyon bo‘lish xususiyatlari.

Mamlakatimizga begona va zararli g‘oyalarning ta’siri va uning namoyon bo‘lish xususiyatlari. G‘oyaviy bo‘shliqni to‘ldirish, zararli g‘oya va yot mafkuralarning jamiyatimizga ta’sirini bartaraf etish muammolari.

Milliy g‘oya va mafkura har bir kishining jamiyat hayotidagi faoliyati, yurti, millati, o‘zi va oilasi oldidagi burch va mas’uliyatini qay darajada his etayotgani va bajarayotganini belgilaydigan ma’naviy mezon hamdir.

Komil inson g‘oyasi – ham milliy, ham umumbashariy mohiyatga ega bo‘lgan, odamzotga xos eng yuksak ma’naviy va jismoniy mukammallikni o‘zida mujassam etgan, uni hamisha ezungulikka undaydigan olijanob g‘oyadir.

### **To‘qqizinchi modul** 2 ta g‘oyaviy mavzudan iborat.

1. Ezgu fikrning ta’sirchanligi. «Yaxshi so‘z – qilichdan ham kuchli» degan gap bor. Darhaqiqat, o‘rnida ishlatilgan so‘zlar, yorqin va dildan bayon etilgan nutq, bama’ni fikr har doim odamlarning xulq-atvoriga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.

2. So‘z g‘oyaviy ta’sir vositasi. Milliy g‘oyalarni xalq ongiga yetkazishda so‘z asosiy ta’sir vositasi bo‘lgan va bo‘lib qoladi.

**O‘ninchi modul.** Oliy ta’lim muassasalarida «Milliy g‘oya» bo‘yicha darsdan tashqari mashg‘ulot va davra suhbatlarining mavzulari belgilab olinadi, masalan:

- «I.A.Karimov milliy istiqlol g‘oyasining asosiy tamoyillari to‘g‘risida».
- «Milliy g‘oyaning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni».
- «G‘oyalalar va mafkuralar kurashi tarixidan».
- «Bunyodkor va vayronkor g‘oyalalar, ularning tarixdagi o‘rni».
- «Milliy g‘oya va o‘zlikni anglash».

Biz yuqorida ko‘rsatilgan modular asosida ish olib boradigan bo‘lsak, bu usul, eng avvalo, talaba-yoshlarning

jamiyat taraqqiyotiga bo‘lgan qiziqishi va ishonchini oshiradi, ularning siyosiy bilim ko‘nikma va malakasini oshirishga yordam beradi. Eng asosiysi, bu usul talaba-yoshlarni o‘z-o‘zini tarbiyalab borishini ta’minlaydi. Biz pedagoglardan faqatgina o‘z vaqtida berilgan vazifalarni yozma va og‘zaki yoki elektron ko‘rinishda talab qilish orqali tarbiyalanuvchilarning o‘z-o‘zini qay darajada boshqarayotganligini nazorat qilib borish talab etiladi. Ta’lim berish jarayonida tarbiya ham berib o‘tish ko‘zda tutilganda ko‘pincha talaba-yoshlarning o‘z-o‘zini tarbiyalashi namoyon bo‘ladi. Pedagogning bugungi kun talabi va mas’uliyatni his qila oldirish san’ati ham talabalarni o‘z-o‘zini tarbiyalashini mustahkamlab boradi. Majburiy tarbiya esa o‘siprin yoshidagi yoshlarning izzat nafsiga tegishi muqarrar. Talaba-yoshlarni modulli o‘qitish ham, ularni o‘z ustida izlanishlariga, kompyuter orqali internet tarmog‘iga ulanish va kerakli materiallarni qidirib topish orqali, yangi ta’lim texnologiyalari usullaridan unumli foydalanishga chorlaydi. Bugungi kunda talabalarning o‘z-o‘zini boshqarishi va o‘z-o‘zini tarbiyalashi muhim ahamiyatga ega. Chunki talabalarning o‘z-o‘zini boshqara olmasligi va o‘z-o‘zini tarbiyalay olmasligi ularni har xil oqibatlarga, yomon ko‘chalarga, ya’ni turli xil oqimlarga kirib qolishiga sabab bo‘lishi mumkin:

Milliy g‘oya va mafkura taraqqiyotning eng og‘ir, murakkab davrida, ayniqsa, bir ijtimoiy siyosiy tuzumdan yangisiga o‘tish jarayonida keng xalq ommasini ma’naviy ruhiy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi, ularda kelajakka ishonch tuyg‘ularini uyg‘otishga xizmat qiladi. Shu sababdan ham chinakam milliy g‘oya va mafkura o‘zining teran mazmun mohiyati bilan kishilarni o‘z kuchiga ishonishga, istiqlolga umid bilan qarashga da’vat etadi. Chunki to‘q, farovon va baxtli hayot bunyod etish, ijtimoiy holatni qaror toptirish

millatlararo totuvlik, tinchlik, do'stlik va yer yuzidagi barcha xalqlarning azaliy orzusidir. Zero, jamiyat a'zolari milliy g'oya mafkurasida o'z hayotiy manfaatlari, orzu umidlari ifodasini ko'rsatsagina odamlar ruhan bardam, uyg'oq va faol kuchga aylanadi.

Jamiyatdagi mavjud g'oyalarga faol munosabat, faol hayotiy pozitsiyani tarbiyalash mafkuraning yana bir muhim maqsadidir. G'oyaviy tarbiya axloqiy, siyosiy, huquqiy tarbiyaning asosini tashkil etadi.

G'oyalar oshkora, yashirin, bevosita yoki bilvosita, to'g'ridan-to'g'ri ramziy shakllarda targ'ib etilishi mumkin. Inson faoliyati aniq bir g'oyaviy maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, bu niyat ko'pincha ko'zga tashlanmaydi, g'oyaviy tarbiyaning asosiy maqsadi kishilarda hushyorlik, sezgirlik hissini, yot va zararli g'oyalarga qarshilik ko'rsatish qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir. G'oyaviy tarbiya jarayonida kishilarda mafkuraviy immunitet shakllanishiga alohida e'tibor beriladi. Mafkuraviy immunitetni shakllantirish kishilar ongiga bir xil g'oyani zo'r berib tiqishtirish emas, balki odamlarda oq-qorani ajratish zararli g'oyalarga qarshi hushyor va ogoh bo'lish xususiyatlarini ham tarbiyalash, demakdir.

## V. XULOSA

### 5.1. Uzluksiz ta’lim tizimida barkamol ijodkor shaxsni tarbiyalash

Kadrlar tayyorlash milliy modeliga singdirilgan bosh maqsad – ravnaq topayotgan kuchli demokratik davlat, fuqarolik jamiyatining shakllanishiga xizmat qilishi lozim bo‘lgan g‘oyaning qudratli salohiyatini qanday, qaysi yo‘l bilan ro‘yobga chiqarish va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid amaliy tadbirdarni hayotga joriy etish bilan bog‘liq ko‘plab savollarga javob topish imkonini beradi. Respublikamizning «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» aslida Kadrlar tayyorlash milliy modelini hayotga tatbiq etishning me’yoriy asosi, vosita va mexanizmidir. Model va dastur shak-shubhasiz o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, bir-birini to‘ldiruvchi o‘zaro birgalikda amalga oshiriladigan jarayondir. Ammo tatbiq qilishda ularni mustaqil holda alohida-alohida tahlil qilish zarur. Kadrlar tayyorlash milliy modeli va dasturi milliy g‘oyaning ajralmas tarkibiy qismidir. O‘zbekiston fuqarolarining yangi avlodini shakllantirishning asosiy poydevori hisoblanadi. Milliy modelning qimmatli xususiyatlaridan biri, unda bosh maqsadga erishish yo‘lidagi davlat, jamiyat va shaxsning manfaatlari uzviy ravishda bir-biriga chambarchas bog‘liq ravishda qaralganligidir.

**Barkamol inson** – o‘zida ma’naviy-axloqiy xislatlar majmuini mujassamlashtirgan, jamiyatda o‘zligini va o‘z

qobiliyatini har tomonlama namoyon eta oladigan, ma'rifatli, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, aqlan yetuk, yuksak iste'dodli va salohiyatga ega bo'lgan ma'naviy jihatdan yetuk, axloqan pok, jismonan sog'lom, hayot go'zalliklarini his eta oladigan ijodkor shaxsdir.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini isloh qilishdan maqsad shaxs barkamolligiga erishish, uni bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatda o'z o'rniga ega inson sifatida tarbiyalashdan iborat. Shaxsni ushbu talablar asosida shakllantirishning eng maqbul yo'liga undagi ijodkorlik va intellektual sifatlarni rivojlanterish orqali erishish mumkin. Tadqiqot ishida bu muammo yechimi keng miqyosdagi tahliliy ma'lumotlar asosida o'rganilib, pedagogik va axborot texnologiyalari, ilg'or yo'nalishlar asosida hal etib berilishi rejalashtirilgan.

Kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarishning uchinchi – sifat bosqichida unga mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda aniqliklar kiritish zarurati yuzaga keldi. Bular qatorida quyidagi dolzarb muammolarni alohida qayd etish mumkin:

- umumiyo'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilarini kasbga yo'naltirish pedagogik-psixologik tashxis ishlarini yetarli ilmiy-metodik asoslari ishlab chiqilmaganligi va tatbiq etilmaganligi;

- pedagogik va axborot texnologiyalarini ta'lim tizimiga joriy etishning umumiyo nazariy asoslari yaratilgani holda, ularni tatbiq etish mexanizmining ilmiy metodik jihatdan asoslanmaganligi;

- yetarlicha kasbiy yo'naltirilganlikka, yuqori mukammallikka ega bo'limgan pedagogik jarayon mahsuli sifatida etishib chiqayotgan ta'lim muassasalari bitiruvchilarining mutaxassis sifatida mustaqil va ijodiy darajaga erisha olmayotganligi.

Ushbu kamchiliklarning bartaraf etilishi «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning keyingi bosqichlarida muvvafaqiyatli amalga oshirilishi uchun zamin yaratadi va tadqiqot muammosini tashkil etadi hamda uning dolzarbligini ta’kidlaydi.

Shaxs sifatlarini shakllantirish muammosining turli omillari respublikamiz (Q.Nazarov, M.Quronov, U.Nishonaliyev, Sh.Qurbonov, S.Nishonova, N.Shodiyev, M.Davletshin, S.Bulatov va b.) hamda xorij olimlari (V.P.Bespalko, S.Ya.Batishev, V.A.Slastenin va b.) tomonidan tadqiq etilgan. Biroq respublikamizda amalga oshirilayotgan keng miqyosli islohotlar natijasida shakllantirilishi lozim bo’lgan barkamol ijodkor shaxs sifatlari darjasи, tarkibi va mazmunini tadqiq qilishga qaratilgan majmuaviy izlanishlar amalga oshirilmagan.

Shu o’rinda xalqimiz qadimdan barkamol avlod tarbiyasiga jamiyat ravnaqining muhim omili sifatida alohida e’tibor bilan qarab kelganliklarini ta’kidlash o’rinlidir. Vatanimiz dong‘ini dunyoga taratgan qomusiy olimlarimiz o’z asarlarida shaxs aqliy, ma’naviy-axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyasining ahamiyati va uni amalga oshirish yo’llari to‘g’risidagi o’z tavsiyalarini bayon qilganlar.

Komil inson g’oyasi azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, millat ma’naviyatining uzviy bir qismi bo’lib qolgan. Komil inson g’oyasi zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto»da, Qur’oni Karim va hadislarda, tasavvuf falsafasida, Sharq mutafakkirlari asarlarida o’zining teran ifodasini topgan. Tariximizda komillik timsollari ko’p: Alpomish xalqimizning ideal qahramoni, u aql, fahm-farosat, jismoniy kamolot, mardlik va vatanparvarlikning badiiy timsoli hazrat Navoiy uchun ideal Farxod obrazidir. Ulardan axloqan va jismonan kamollikka erishgan shaxslar Oybekning «Navoiy» romanida

esa Navoiy ideal obraz. Ayni paytda u real tarixiy shaxs, komil insondir.

Xalq og‘zaki va yozma ijodiyoti, xalq yodgorlik obidalari, nasihatnoma, pandnoma va vasiyatnomalarda komil inson tarbiyasi haqidagi qonun, qoida va usullari o‘z aksini topgan.

Uyg‘onish davri Sharq mutafakkirlari o‘zlarining ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi asarlarida barkamol shaxsni shakllantirish muammosini yer yuzida insonning baxtga erishuvi uchun shart-sharoitlar yaratish to‘g‘risidagi g‘oyalar bilan bog‘liqlikliga qaraganlar. Pedagogika tarixida al-Forobiyning fozil inson sifatlari, bilimlarni olish yo‘llari va uslublari haqidagi konsepsiysi; al-Beruniyning kasbiy bilimlarni egallash uslublari haqidagi qarashlari; Ibn Sinoning aqliy, ma’naviy hamda jismoniy komillikk erishish haqidagi ta’limoti; al-Xorazmiyning ilmiy bilimlar, hayotiy muammolarni hal qilish yo‘llari to‘g‘risidagi asarları o‘zining alohida o‘rniga ega.

Jumladan, al-Xorazmiy shaxs sifatlarini shakllantirish va shaxslararo munosabatlarni rivojlantirishda fanning yuksak o‘rnini qayd etadi. U shaxsni kuzatish, tajriba-sinovlar o‘tkazish, ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirishga, aqliy sifatlarni rivojlantirishning boshqa vositalariga katta ahamiyat bergen. Bu to‘g‘ridagi fikrlarini u «Al jabr v-al muqobala» (Algebra), «Hisob al-hind» va boshqa asarlarida bayon qilgan.

Abu Nasr al-Forobiyning ijodiy merosida uning tomonidan birinchi bo‘lib yaratilgan fanlar tasnifi alohida o‘ringa ega. Allomaning qayd etishicha, inson o‘zida komillik sifatlarini tarkib toptirish uchun, birinchi navbatda, ilmiy bilimlarni egallamog‘i lozim, shuningdek, u shaxs aqliy rivojlanishining asosi sifatida idrok qilish va fikrlash qobiliyatlarining ahamiyatini alohida qayd etadi.

O‘zining «Ixso al-ulum», «Fozil odamlar shahri», «Baxtga erishish haqida» kabi asarlarida al-Forobiy barkamol shaxsni

tarbiyalash ishlari mazmuni, maqsadi, vazifalari, yo'llari hamda vositalari to'g'risida so'z yuritadi. Al-Forobiy «o'qitish» va «tarbiyalash» tushunchalariga bиринчи bo'lib ta'rif bergen olim sanaladi.

Beruniyning qayd etishicha, «insonning barkamolligi uning amaliy kuzatishlari natijasi asosida shakllangan aqliy faoliyati negizida yuzaga keladi. Demak, inson shu asosda tashqi olamni, borliqni o'rganadi, bilimlarni egallaydi, haqiqatga yaqinlashadi, haqiqat esa borliq to'g'risidagi tasavvurlarning haqqoniyligini talab qiladi. Shu taxlitda inson shaxsi rivojlanib boradi.

Abu Ali ibn Sino ham aqliy tarbiyaga fanlar asoslarini egallahash orqali erishilishini ta'kidlaydi. U bilim olish uslublarini egallahsha mantiqiy fikrlashga, shaxsiy kuzatish natijalari va tajribaga asoslanish lozimligi to'g'risidagi fikrlarni ilgari suradi. Uning maktabda bolalarga ta'lim-tarbiya berish borasidagi g'oyalari bugungi kunda o'zining yuksak ahamiyatini yo'qotmagan.

Yurtimiz allomalarining ma'naviy-axloqiy borasidagi qarashlari ham alohida e'tiborga molik. Hozirgi davrga qadar al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning pedagogik qarashlari ular yaratgan ijtimoiy-falsafiy ta'limotning tarkibiy qismi sifatida qarab kelinadi. Biroq ular ilmiy merosning tahlili qomusiy allomalarimizning pedagogika tarixida alohida o'ringa ega ekanligini ko'rsatmoqda.

Masalan, al-Forobiy axloq tushunchasini tafakkur bilan uzbek aloqadorlikda qarab kelgan, bundan kelib chiqqan holda u axloqiy tarbiyani aqliy tarbiya bilan birgalikda amalga oshirish to'g'risidagi tavsiyalarini bayon qilgan. Bundan kelib chiqib ta'kidlash mumkinki, al-Forobiy axloqni inson xulqining aks etish mezoni sifatida emas, balki aqliy faoliyati

natijasi sifatida qarab kelgan. Al-Forobiyning ta'kidlashicha, hukmdor sog'lom, xushmuomala, zehnli, idrokli, o'z fikrini to'g'ri bayon qila oladigan, so'zga chechan, bilim egallahsga e'tiborli, axloqan sof, adolatli, o'z qadr-qimmatini biladigan, vijdonli, boylikka xirs qo'yagan, jur'atli, botir, jasurlik ko'rsata oladigan sifatlarga ega bo'lishi lozim deb hisoblaydi. Albatta, al-Forobiyning «Komil hukmdor» shaxsiga nisbatan bayon qilgan sifatlar har bir insonga xos bo'lishi kerak.

Ma'lumki, inson borliqning ajralmas bir bo'lagidir. Shuning uchun ta'lim jarayoni insonning tabiiy va ruhiy ehtiyojlarini muvofiqlashtiruvchi tabiat qonunlariga uyg'un bo'lishi kerak. Yosh bolada narsa va hodisalarни mavhum mushohada qilish orqali tushunish qobiliyati yaxshi shakllanmaganligi bois mavhum tushunchalar uning hissiy kechinmalariga shikast yetkazishi mumkin. Bola avval his etib, keyin fikrlashi kerak. Zero, ulug' mutafakkir Abu Ali ibn Sino ham ruhiy hissiy tarbiya birlamchi ekanligini e'tirof etgan va «Ruh tanga nisbatan sozlovchi vazifasini o'taydi» – degan xulosaga kelgan.

Abu Ali ibn Sino musiqa to'g'risida yaratgan risolasida inson sezgilariga turli ohanglar vositasida ta'siri etib, tarbiyalash haqida so'z yuritadi. Ibn Sinoga qadar hech bir alloma barkamol shaxs tarbiyasida jismoniy ijodkorlik sifatlarining tutgan o'rni to'g'risida yaxlit ta'limotni yaratgan emas. «Tib qonunlari» asarida Ibn Sino gigienik tarbiyaning inson xulqiga, uning jismoniy hamda ruhiy salomatligiga ta'sirini ilmiy-amaliy yo'l bilan asoslab bergen.

Amir Temur esa ijodiy faoliyatga alohida e'tibor qaratib, uning shaxsni ma'naviy jihatdan kamolotga yetkazuvchi ruhiy hodisa deya baholaydi. Xususan, «Bilki g'olib bo'lmoqlik (Tangrining) madadi va bandasining tabiri bilandur» deya insonning muayyan faoliyatni tashkil etishdan oldin uni

qo'llab-quvvatlovchi ruhiy omillarga tayanishi, aniq maqsad asosida ish ko'riliши lozimligiga urg'u beradi. Amir Temurning quyidagi fikrlaridan anglash mumkinki, garchi natijasi aniq bo'lsa-da, har bir ishni puxta reja va oqilona tadbir bilan amalga oshirish lozim, ya'ni «Garchi ishning qanday yakunlanishi taqdir pardasi ortida yashirin bo'lsa ham, aqli raso va hushyor kishilardan kengashu tadbir istab, fikrlarini bilmox lozimdir». Ushbu fikrlardan kelib chiqib, Amir Temur eng oddiy faoliyatga ham o'ta jiddiy yondashganligining guvohi bo'lamiz.

Alisher Navoiy esa shaxs kishilar bilan munosabatda, ayniqsa, kishilarning bir-birlariga bo'lgan ruhiy, ma'naviy ta'sirlari natijasida tarkib topadi deb hisoblaydi. U odamlar o'rtasidagi munosabatlarni, umuman, bitta jamiyat bo'lib yashash, bir fikrda bo'lish, odamiylik ideallariga tayanish kabi ma'nolarda tushunadi.

Navoiy o'zining «Hayratul-Abror» dostonida insonning kasbiy faoliyatidan kelib chiqadigan munosabat tarbiyasiga xos faollikni milliy ruhda asoslab bergan. Undagi yuksak g'oyalar shaxsni mehnatga, o'z kasb-koriga, oilasiga, ota-onasiga, farzandiga, ona-yurtga, tili va diniga bo'lgan axloqiy munosabatini, komillik sari intilishini o'zida aks ettiradi. Asarda xalq va mamlakat uchun fidoiylik qilgan insonlarni o'z ideali deb biladi. Shu bilan birga odamlardagi yalqovlik, beparvolik, mayparastlik, maishatbozlik va jaholat kabi illatlarga bo'lgan salbiy munosabati ham asarda ochiq-oydin o'z ifodasini topadi.

Shunday qilib, allomalarimiz o'zlarining pedagogik qarashlarida insonning aqliy, axloqiy, estetik hamda jismoniy rivojlanishi majmuasini barkamollik mezoni sifatida unga erishish yo'llari hamda vositalarini ko'rsatib berganlar. Demak, ta'kidlash mumkinki allomalarimizning pedagogik qarashlari

ular ijtimoiy-falsafiy qarashlarining tarkibiy qismi bo'lib qolmasdan, balki maxsus pedagogik asarlar orqali chuqur va mukammal yoritilgan g'oyalar majmuasidan iboratdir.

Yevropada barkamol shaxs sifatlarini shakllantirishga ilmiy yondashuv namunasi sifatida Shvetsiyada yuzaga kelgan Valdorf pedagogikasini keltirish mumkin. U butun bir falsafiy tizim asosida dunyoga kelgan. Uning asl maqsadi bolani histuyg'ulari orqali uyg'un rivojlantirib borish. Bunda bolaning botiniy imkoniyat va qobiliyatini yuzaga chiqarish osonlashadi. Valdorf pedagogikasiga muvofiq boshlang'ich sinflardanoq bolalarga to'qish, tikish, temirchilik, etikdo'zlik, duradgorlik, tasviriy san'at, musiqa o'rgatishga kirishiladi. Bu tizimda bolalar o'quv materialiga emas, balki o'quv materiali bolalarga xizmat qiladi. Bolaga tayyor narsa «Mana ko'r, ol!» deb berilmaydi, aksincha, shunday vositalar o'ylab topiladiki, u fikrlaydi, tajriba o'tkazadi, kerakli narsani o'zi izlab topadi. Valdorf pedagogikasi insonning shaxs sifatida kamolga yetishini ko'zlaydi. Unda ruhiy tarbiyaga alohida e'tibor beriladi, jumladan, ruh orqali aql rivojiga erishish mumkin deb hisoblaydi.

Bu g'oyaning Valdorf pedagogikasida yetakchi o'rinni egallashi uning bir qarashda tasavvuf ta'limotidan oziqlanganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan undagi g'oyalar zardushtiylar jamiyatining o'ziga xos axloq odob majmui bo'lgan «Avesto»da ilgari surilgan: ezgu fikr; ezgu so'z; ezgu amal g'oyalariga ham bir qadar mos keladi. Zero, «Avesto»ning ham, tasavvuf falsafasining ham, Valdorf pedagogikasining ham asosiy maqsadi har tomonlama yetuk, barkamol insonni tarbiyalashdir.

XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlarida yetishib chiqqan milliy pedagogikamiz darg'alari, o'zbek milliy ilm va ma'rifatining atoqli vakillari Ishoqxon To'ra Ibrat, Abduqodir

Shakuriy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li, Abdulla Avloniy, Shokirjon Rahimiylar ham shaxs tarbiyasi borasida o'zlarining qimmatli merosini qoldirganlar.

Biz ushbu o'rinda Abdurauf Fitratning barkamol shaxs tarbiyasi haqidagi fikrlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Fitrat o'z asarlarida ta'lif-tarbiya va uning maqsadlari, maktab-maorif ishlari, bilim berish usullari va vositalari haqida, ma'rifikatli, komil insonni tarbiyalash yo'llari to'g'risida fikr bildiradi. «Rahbari najot» mutaffakkirning ana shunday asarlari sirasiga kiradi.

Fitrat bu asarida ham milliy ham ma'naviy taraqqiyotga erishish, dunyoviy fanlarni o'rganishga da'vat etadi.

Fitrat o'z pedagogik qarashlarida, bolalarni barkamol qilib yetkazish uchun uning tarbiyasiga faqat oilagina javobgar bo'lmasdan, butun qavm a'zolari javobgar ekanligini uqtiradi. U yoshlarning har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalashni qavmning kelgusi taraqqiyotida muhim ahamiyatga kasb etishini ta'kidlaydi.

Fitrat insonning kamolotga yetishi uchun badan tarbiya muhim ahamiyatga ega ekanligini aytib, insonning butun a'zosi salomat va kuch-quvvatga ega bo'lmasa, unday inson uzoq yashamasligini qayd qiladi.

Fitratning fikricha, inson hayotining mazmuni dunyo saodati va saodat rahbari aqlning komilligiga erishishdir. Komil aqlning hosil bo'lish vositasi esa ilmdir. Inson komillikka, ilmga erishish uchun ma'lum axloqiy majburiyatlarni ado etmog'i lozim.

Ma'naviy majburiyat inson qalbining taraqqiy etishi uchun bajarilishi lozim bo'lgan vazifalardan iborat. Inson o'ziga va barcha odamlarga foyda keltirsa, uning qalbi kamolga yetgan hisoblanadi. Kimning qalbi yaxshi sifat va fazilatlarga to'liq

bo'lsa, u odam xushaxloq, unda uch xil quvvat: aql, xirs va g'azab quvvati mavjuddir.

Fitrat o'z asarida bu uch quvvatni tahlil qilar ekan, insonlarga quyidagi ishlar bilan shug'ullanishni maslahat beradi: har bir kishi ezgu ishlar bilan shug'ullanmog'i, yaxshi sifatlarni egallab xushaxloq bo'lishi lozim.

Fitrat axloqiy fazilatlarni to'rt qismga: hikmat (donishmahdlik), iffat, shijoat va adolatga bo'ladi. Uning ta'kidlashicha, hikmat aqliy quvvat islohining natijasidir. Aql islam dinida ham eng sharaflidir. Inson aqlning rahbarligisiz saodatga musharraf bo'laolmaydi.

Fitrat aqlni ikki qismga: fitriy (tabiat in'om etgan) aql va kasbiy aqlga bo'ladi va kasbiy aql ilm tahsili orqali hosil qilinishini aytadi.

Milliy g'oya va mafkura, jamiyat rivojlanishidagi yetakchi g'oyalarni o'zida mujassam etib, xalqimizning azaliy udumlariga ruhiyatiga, qadriyatlariga asoslanib, kelajakka bo'lgan ishonch tuyg'ularini tarbiyalaydi. Bu g'oyalar bilan qurollangan insonlar o'z orzu-intilishlari yo'lida birlashadilar, komillikka intiladilar. Zero, milliy g'oya zamirida ham komil inson tarbiyasi mujassamlashgan.

Xalqimizning tarixiy-madaniy qadriyatlarini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini tiklash, milliy g'oya va mafkurani shakllantirish, jamiyatimizni ma'naviy-axloqiy yuksaltirish, shaxs ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish borasidagi tadbirlarni amalga oshirishning bugungi davrda barkamol shaxsnинг quyidagi ta'rifi taklif qilmoqchimiz: barkamol inson deyilganda yuksak intellektual, ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy-siyosiy sifatlarga ega, axloqiy turg'un, ilmiy bilimlarni chuqr o'zlashtirgan, jismoniy sog'lom, mustaqil fikrga va yuqori ijodiy imkoniyatlarga ega, jamiyat hayotida o'z qarashlarini faol ro'yobga chiqaruvchi shaxs tushuniladi.

Yuqorida qayd etilgan ma'lumotlarni umumlashtirib, qayd etish mumkinki, Sharqda qadimgi davrlardan quyidagilar barkamol shaxs sifatlari bo'lib hisoblangan: a) aqliy komillik, sog'lom fikr, iqtidorlilik, intellektuallik; b) yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar; d) jismoniy komillik, tan va ruh sog'ligi; e) estetik komillik.

Bundan tashqari, barkamol shaxs mezonlarini, unga taalluqli ijobiy sifatlarni belgilashda Sharq mutafakkirlari insonni savobli, yaxshi amallar qilishga da'vat etuvchi, salbiy harakat va xayollardan saqllovchi omil sifatida komillikka intilishning mavjudligini yuqori baholaganlar.

Ushbu fikrlar asosida bugungi kunda mustaqil O'zbekiston taraqqiyotining bugungi davrida quyidagilarga e'tibor berish lozim deb hisoblaymiz:

- yosh avlodni har tomonlama mukammal, mustaqil va ijodiy fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirish;
- shaxsning moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yaratish borasidagi faoliyatini jadallashtirish;
- insonning jamiyat va tabiatga bo'lgan munosabatini o'zgartirish, ular oldida o'z mas'uliyatini anglashiga erishish.

Bu vazifalarni izchil amalga oshirishga qaratilgan «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ni muvaffaqiyat bilan amalga oshirish uchun inson tabiatini va salohiyatiga oqilona yondasha oladigan, o'zida komil inson fazilatlarini mujassamlashtirgan o'quvchi shaxsini shakllantirishimiz lozim. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksaltirish milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan bo'lib qoladi». Bu vazifalarni hal qilishimizda chinakam milliy pedagogikani shakllantirish va takomillashtirish uchun, avvalo, ma'naviyatimiz ildizlariga

murojaat qilishimiz, ajdodlar o‘gitlarini o‘zlashtirishimiz, shu bilan birga, umumbashariy yutuqlarga tayanishimiz, to‘plangan ijobjiy tajribalardan oqilona foydalanishimiz lozim.

Shaxs modelining izchilligini va yaxlitligini ta’minlaydigan asosiy element bo‘lib, milliy dasturda aytilgandek, «Respublikada amalga oshirilayotgan ta’lim sohasidagi o‘zgarishlarning bosh maqsadi va harakatlantiruvchi kuchi, bu inson omili, uning har tomonlama rivojlanishi va farovonligidadir», degan qoidaning asosiy mohiyatini tashkil etadi. Milliy modelda va dasturda tub o‘zgarishlarning asl maqsadi, ta’lim tizimini isloh qilish tufayli ro‘y beradigan barcha o‘zgarishlarning asosiy va bosh yo‘nalishi, ayni vaqtida bu jarayonlardagi davlat va jamiyatning o‘rni va vazifalari aniq, ravshan ko‘rsatib berilgan. Ya’ni: «Shaxsning har tomonlama rivojlanishini, uning zamonaviy o‘zgarib borayotgan jamiyat hayoti bilan muvofiqlashtirish, ta’limiy va kasbiy dasturlarni ongli ravishda tanlash va ularni bosqichma-bosqich o‘zgartirish, jamiyat, davlat va oila oldida o‘zining mas’uliyatini his qiladigan fuqarolarni tarbiyalashdan iborat».

Maqsad shuki, ta’limni tashkil qilish, boshqarish borasida o‘tkazilayotgan islohotlar, ta’limiy va kasbiy dasturlar va tarbiyaviy-ma’rifiy loyihalarning mohiyatini belgilash, axborot va pedagogik texnologiyalarni tanlash kabi bu tizimning asosiy vazifasi, ya’ni ta’limning davlat, jamiyat va shaxsni qadriyatlarni uyg‘unlashtirish orqali barkamol shaxsning shakllanishiga yo‘naltirilgan milliy modelning bosh maqsadini anglab borish, modelning strategik g‘oyalari va talablariga qabul qilinajak qarorlarning mos bo‘lishiga erishishdir. Shu o‘rinda milliy modelning asl mohiyati va bosh maqsadi, yoshlarga shunchaki bilim berish emas, balki ularni barkamol shaxs sifatida shakllantirish ekanligini unutmaslik kerak.

Milliy model asosida shakllangan barkamol shaxs qanday sifatlarga ega bo‘ladi? -degan savol tug‘iladi. Shaxsning ma’lumot darajasiga qaramay, yuksak ko‘rsatkichlarga erishuvi uning kamolatidan darak beradi. O‘z sohasida kasbiy mahoratini namoyish etish yetuklikning yuksak darajasini bildiradi va jamoatchilik fikrida ilk iz qoldiradi. Ijodkorligi, novatorlik takliflari, ixtirolari sohasidagi muvaffaqiyatini ifodalab, betakror shaxs ekanligini isbotlashga xizmat qiladi. Noyob kasb sohibi, o‘tkir qobiliyatli, iste’dodli yetuk shaxs shakllanganligi ijtimoiy-tarixiy voqealik sifatida yuksak baholanadi. Shaxs kamolatinning muhim ko‘rsatkichi – subyektdir. Bu kamolatga erishuv va ijtimoiy-siyosiy yetuklikni namoyish qilishdir. Yetuk mutaxassislar, fan va texnika, jamoat arboblari, ijodiy-tarixiy fikrlovchi, siyosatchilar, davlat rahbarlari subyekt bosqichida faoliyat ko‘rsatadilar. Shuning uchun ushbu vaziyat ommaviyligiga erishish jamiyat taraqqiyotini tezlashtirib, fidoiy, toliqmas kishilar safini kengaytirishga xizmat qiladi.

Har tomonlama yetuk shakllangan, komil inson g‘oyasi insoniyatning azaliy orzusi bo‘lib hisoblanadi va ushbu darajaga erishish borliqni, jamiyatni bilishning muhim manbai sanaladi. Har tomonlama shakllangan shaxs to‘g‘risida tasavvuf, sufizm ilmiy maktablari bir qancha ma’lumotlar to‘plashga muvaffaq bo‘lganlar, shuningdek, bu borada jahoning insonparvarlik g‘oyalari bilan qurollangan allomalarining izlanishlari alohida o‘rin egallagan.

Milliy model nuqtai nazaridan olib qaraydigan bo‘lsak, har tomonlama kamol topgan shaxs, o‘z sohasi bo‘yicha malakali mutaxassis darajasiga erishadi. Buning natijasida yetuk inson hayot va faoliyatida ijtimoiy-tarixiy psixologik namuna bosqichiga o‘sib o‘tadi, o‘zining salohiyati bilan sohani taraqqiy ettirish manbaiga aylanadi. Individuallik namunasi

milliy va insoniy ahamiyat kasb etadi, taraqqiyotni harakatlantiruvchi mexanizm vazifasini bajaradi. Bu darajadagi shaxsning xususiyatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- yuksak aql-zakovatga egalik, intellektual faoliyatda mahsuldarlik;
- xulq, faoliyat, muomala jarayonlarida o‘z imkoniyatlarini oqilona baholash;
- o‘z iqtidori va ijodiy salohiyatini amaliy ifodalanishini ta’minlash;
- har bir ixtisos predmetiga oid qarashlarda mukammallikka, sermahsullikka erishish;
- ixtisoslارaro bilimdonlik komil inson kamolatining yuksak bosqichi bo‘lib, hozirgi davrda bir necha sohalar bo‘yicha mukammal bilimlarga, qarashlarga egalik bilan xarakterlanadi;
- uzluksiz ravishda yangiliklarga intiluvchanlik, ijodiy yechimlarni amalga oshirishga qobillik;
- har tomonlama rivojlangan shaxsning navbatdagi kamolat bosqichi aqliy donishmandlik deb ataladi. Aqliy donishmandlik axloqiy madaniyat, yuksak his-tuyg‘ular, muomala maromi, tabiat va jamiyat qoidalariga rioya qilish, axloqiy yetuklik, siyosiy-huquqiy, iqtisodiy ong ko‘rinishlariga oqilona yondashish.

Komil inson shaxsining umuminsoniy qadriyatları yoxud ijobjiy xislatları o‘zi nechta? O‘zbek xarakteridagi ijobjiy xislatlarni shakllantirish va rivojlantirish texnologiyasi qanday tuziladi?

Professor B.Ziyomuhammadovning fikriga ko‘ra, to‘g‘ri tarbiyaga molik umuminsoniy ijobjiy xislatlarni to‘rt qirrali deb tasavvur etish mumkin. Bular:

**Birinchidan, shaxsning umumiyligi xislatlari:** yoqimlik, ko‘rkamlik, jozibadorlik, fusunkorlik, basavlatlik, salobatlik,

rivojlanganlik, hurmatga sazovorlik, shoironalik, ruhlanganlik, ulug'sifatlik, o'ziga xoslik, yetuklik, jiddiylik, madaniyatllilik, tarbiyalanganlik va boshqalar.

*Ikkinchidan, shaxsning axloqiy xislatlari:* insonparvarlik, do'stlik, g'amxo'rlik, jonkuyarlik, samimiylilik, kuyunchaklik, odamiylik, bolajonlik, imonlilik, fidokorlik, xushmuomalalik, birodarlik, iltifotlik, ochiq yuzlik, kechirimlilik, mehmono'stlik, xushaxloqlik, hamjihatlik va boshqalar.

*Uchinchidan ishbilarmonlik xislatlari:* ishchanlik, tirishqoqlik, serhafsalalik, serharakatlilik, mas'uliyatlilik, halollik, insoflilik, malakalilik, bekamu ko'stlik, sifatlilik, epchillik, uddaburonlik, saranjom-sarishtalik, botartiblilik, tadbirkorlilik, aniqlik, tejamkorlik, barkamollik, ta'masizlik va boshqalar.

*To'rtinchidan, zukkolik, idroklilik xislatlari:* zehnlilik, bama'nilik, xotirjamlik, sog'lom fikrlilik, donishmandlik, asoslilik, farosatlilik, sezgirlik, zakovat, topqirlik, lo'ndalik, dalillik, omilkorlik, savodxonlik, qiziquvchanlik, ishqibozlik va boshqalar.

Professor Bo'ri Ziyomuhhammadovning<sup>23</sup> fikriga ko'ra hammasi bo'lib ijobiy xislatlar soni mingdan ortiq. Tarbiya mafkurasining maqsadi mana shu xislatlarni shakllantirishdan iborat. Buning uchun o'quv-tarbiya jarayoni, hadislar, oila, mahalla, an'anaviy udumlar, to'y, aza, ma'raka ulfat va boshqa kam guruhli va ko'p sonli odamlar ishtirot etadigan yig'inlar, sayllar, mehmondorchilik, mehmon kutish, ommaviy axborot vositalari, -afsonalar, romanlar va boshqalar vosita bo'lishi mumkin.

Yuqorida ko'rsatilgan shaxsiy xislatlarni shakllantirish o'quv-tarbiya ishlarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Hamma

<sup>23</sup> Bo'ri Ziyomuhhammadov. Ilm hikmati. «Tibbiyot» nashriyoti, T.: 1999.

mamlakatlar ham ana shunday ijobiy xislatlarni o‘z xalqida shakllantirishga harakat qiladi. Ana shu ma’noda tarbiyaning umumiyligi maqsadi dunyo pedagogik jarayonida yagona maqsadga - umuminsoniy xislatlarni shakllantirishga qaratiladi. Falsafa fani, uning turlicha qarama-qarshiliklari, turli oqimlari, nazariyalari bilan birga yagona bo‘lganidek, pedagogika ham umumiyligi maqsadi bo‘yicha dunyoviy pedagogik jarayonda yagona, bir jinsli deb qaraladi. Gap ana shu maqsadlarga qanday vositalar bilan qanday ketma-ketlikda va qaysi ma’noda erishishga bog‘liq. Bir mamlakat ta’lim va tarbiyaning bir shaklini tanlasa, ikkinchisi o‘zgacharoq, uchinchisi yana bir boshqacha yo‘l tutadi. Shu jumladan, xalqning, elatning o‘z udumi, odati, turmush tarzi bor. Mana shu kabi o‘ziga xoslik ta’lim va tarbiyaning o‘ziga xos shakl, vosita va uslublarini, xalqning umumiyligi madaniyatini belgilaydi.

Yuqorida belgilangan xislatlarning ba’zilari, masalan, oqibatlilik, bolajonlik, andishalilik, imonlilik kabilalar o‘zbeklarga ko‘proq xos xislat. Lekin bu xislatlar faqat o‘zbeklarda bor, deyish noto‘g‘ri bo‘ladi. Shuning uchun yuqoridagi mingdan ortiq xislatlarni alohida maxsus ajratib ko‘rish (ayrim mutaxassislar 5–6 xislatni olishadi) yoki faqat 20 ga yaqinini, yoki faqat milliy pedagogika deb qarash («O‘zbek milliy maktabi», «Movarounnahr pedagogikasi» kabi yondashuvlar) dunyo pedagogik jarayonidan chetga surilib, chiqib ketishga olib keladi.

Insonni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalash insoniyatning azaliy va doimiy orzusi bo‘lib, ajdodlarimiz ma’rifat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o‘rgatish ularni komillikka yetaklash yo‘llari, qonun-qoidalalarini izlaganlar. Insonning ma’rifatli va ma’naviy komillikka erishishi borasidagi ko‘plab avlodlar to‘plagan bilim va

tajribalari tarbiya haqidagi fan – pedagogikaning shakllanishiga olib kelgan.

Insonlarni ma'rifiy va ma'naviy barkamollikka munosabatlarining o'zgarib borishi natijasida pedagogika fani o'z mavqeiga ega bo'ldi. Shu tariqa insonni tarbiyalovchi – fan sifatida pedagogika dunyo fanlari tizimi qatorida alohida o'rin egalladi.

Pedagogikaning bosh masalasi tarbiyadir. Tarbiyadagi keng ma'no ta'lim, rivojlanish, ma'lumot bilan bog'langan holda barkamol insonni voyaga yetkazishdir.

Pedagogikaning barkamol shaxsni tarbiyalovchi fan sifatida shakllanib, boyib borishida Sharq va G'arb qomusiy olimining o'rni kattadir. Faylasuf Forobiy o'zining «Fozil shahar kishilarining qarashlari» asarida tarbiya orqali insonga beriladigan fazilatlarni sharhlab beradi. Ibn Sinoning «Tadbir al'monzil», Umar Hayyomning ruboilyarida, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u biling», Kaykovusning «Qobusnomasi», Alisher Navoiyning «Mahbubul-qulub» asarida inson ko'ngilini turli bilimlar xazinasi qildi va bu tilsim ichida tangri o'zini yashirdi. Insonning ajoyib jismi bir maxfiy sir xazinasi o'laroq o'zida ana shu ganj tilsimini saqlaydi, ya'ni tangri Allohning butun olamni yaratishdan ko'zlagan maqsadi Inson bo'lib, u hamma mavjudot ichida tengi yo'qdir», – deb yozgan edilar.

G'arbda esa Suqrot, Arastu, Aflatun o'z ijodiyotlarida, ayniqsa, Aflatunning «Davlat», Arastuning «Siyosat» asarida, Yan Amos Komenskiy, I.G.Pestalotstsi, K.D.Ushinskiylar o'z ijodiy-pedagogik faoliyatlarida pedagogikaning bosh masalasi shaxs tarbiyasi muammosiga turlicha munosabat bildirib, pedagogika tarbiya haqidagi fan ekanligini asoslab berdilar.

Ma'rifat darg'asi Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida pedagogika faniga quyidagicha ta'rif bergen edi:

«Tarbiya», «Pedagogika» – ya’ni bola tarbiyasining fani demakdir. Ilmi axloqning asosi tarbiya... Bolaning salomati, saodati uchun yaxshi tarbiya qilmoq tanini pok tutmak, yoshligidanoq vaqtidan maslakini tuzatmoq, yaxshi xulqlarni o’rgatmoq, yomon xulqlardan saqlab o’stirmoqdir».

Pedagogika komil insonni tarbiyalashda hayotiy tajribalarga suyangan holda yuksak ma’naviy, milliy mafkurani shakllantiruvchi, qonun-qoida, tamoyil va metod usullarini o’rganuvchi hodisalar doirasidagi fandir.

**Bugungi kunda barkamol avlodni tarbiyalash borasida respublikamiz pedagogika fanining maqsadlari quyidagilar bilan belgilanadi:**

- barkamol insonni voyaga yetkazish muammolarini majmuaviy tadqiq etish;

- respublikamizda ta’lim-tarbiya samaradorligini uzluksiz oshirib borish va jahon talablari darajasida taraqqiy etishiga erishish;

- umuminsoniy qadriyat va milliy madaniyatning asoslarini e’tiborga olib, ta’lim-tarbiya mazmunini, milliy mafkurani shakllantirib borish imkonini yaratish;

- tarbiyashunoslik asoslarini ilg’or tajribalar asosida boyitib borish va uning yangi shakllarini joriy qilish borasida izlanishlar olib borish;

- bo’lajak o’qituvchi va tarbiyachilarni barkamol avlodni shakllantirish uchun talab etiladigan bilim va ko’nikmalar bilan qurollantirish;

- uzluksiz ta’lim tizimini yanada rivojlantirish muammolarini hal qilish.

**Ushbu maqsadlarga erishish borasida quyidagi vazifalarni amalga oshirilishi taqozo etiladi:**

- Sharq va G’arbda xalq yaratgan xalq og‘zaki ijodiyoti, pedagogikasi, mutafakkir, ma’rifatparvar, pedagog va

olimlarning tarbiyashunoslikka doir ilg‘or g‘oyalarini o‘rganib, tahlil qilib, komil inson tarbiyalash jarayonini o‘rganish;

– komil inson tarkib toptirishning qonuniyat, qoida va zaruriy sifatlarini aniqlash;

– pedagogika – tarbiyashunoslikdagi ta’lim-tarbiya nazariyasini hozirgi davr xususiy metodikasi bilan uzviylik muammolarini ishlab chiqish va pedagogik texnologiya qonunlariga amal qilish;

– ta’lim-tarbiya nazariyasidagi qoida, qonun, tamoyil, metod va usullarini ta’lim muassasalari amaliy faoliyati bilan bog‘lab, bo‘lajak o‘qituvchilarga o‘rgatish.

Pedagogikaning fan sifatida shakllanib borishi ijtimoiy iqtisodiy zaruriyat mahsuli sifatida turli fanlar bilan qadim-qadim zamonlardan bog‘liqligidir.

Fransuz faylasufi Jak Kondorse «Inson tafakkuri taraqqiyotining tarixiy manzarasi chizgiları» nomli asarida: «o‘rta asrlar musulmon olamida to‘plangan ilmiy bilimlar g‘arbda uyg‘onish davrini tayyorlashga xizmat qilmaganida insoniyat besamar yo‘qolib ketar edi», – deb yozadi.

Pedagogika fani metodologiyasining yaratilishida qomusiy mutafakkir va pedagoglarning o‘rni diqqatga sazovordir. Muso Xorazmiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Rudakiy, Firdavsiy, Alisher Navoiy, Voiz Koshfiy, chek olimi Yan Amos Komenskiy, shveysariyalik pedagog Iogann Genrix Pestolotstsi, nemis pedagogi Adolf Disterverg, rus pedagogi K.D.Ushinskiy kabilar o‘z ijodiyotlarida pedagogikaning metodologik asosini yaratib, komil inson tarbiyalashdagi qonun-qoidalarni asoslardilar. Yangicha Sharqona pedagogikaning metodologiyasi o‘tmish ajdodlarimizning barkamol inson tarbiyasiidagi g‘oya va ta’limotlarini o‘rganib, unga suyangan holda milliy g‘oya va mafkurani mustahkamlash va unga amal qilishdir. Pedagogika fanining mazmuni, maqsadi,

vazifalari, tamoyil, usul va vositalari, umuman, har bir inson uchun zarur bo‘lgan tarbiyaviy ta’sirlar yangicha asosga ega bo‘lishi kerak.

Xalq iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy zaruriyatidan kelib chiqib, yosh avlodni tarbiyalash muammolari dastlab xalq og‘zaki ijodiyoti, pedagogikasi, yozma yodgorlik, pandnomalarda, mutafakkir va ma’rifatparvarlarning asarlarida bosh mavzu bo‘lib komil inson uchun zaruriy hodisa sifatida talqin etilgan. Xalq og‘zaki ijodiyotida tarbiya bosh masala sifatida ta’riflangan. Tarbiya va odob, vatanga cheksiz muhabbat, adolat, insof, adolatsizlik, botirlik, qo‘rroqlik, mehnatsevarlik, ilm, bilimdonlik kabi g‘oyalar tarbiya vositasi hamdir.

Xalq og‘zaki ijodiyoti va pedagogikasida tarbiya muammosi inson uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy, ijtimoiy, jismoniy, ma’naviy-axloqiy sifatlarni qamrab olgan bo‘lib, tarbiya orqali amalga oshirish nazarda tutiladi.

Tarbiya jarayonning qonun, qoida, tamoyil, metod, usullarini pedagogikaning tarbiya nazariyasi qismi chuqur, atroflicha o‘rganadi.

Ta’lim o‘quvchilarga bilimni tartibli bayon qilish jarayonidir. Ta’lim-tarbiya uzviy bog‘langan jarayon bo‘lganligi sababli tarbiyalangan komil insonning aqliy kamolotiga tartibli ta’sir ko‘rsatish orqali ilmli, barkamol inson bo‘lib yetadi.

Ta’lim inson aqliy kamolotini yuzaga chiqaruvchi pedagogika-tarbiyashunoslikning bir qismidir. Pedagogikaning didaktika qismi uni atroflicha o‘rganadi.

Pedagogika fani komil insonda milliy meros, an'analar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning boy manbalari bo‘lgan ma’naviy-ma’rifiy tushunchalar haqidagi bilimlarni hosil qilishda ko‘p fanlar bilan aloqadorligi alohida ahamiyat kasb

etadi. Pedagogika fani inson tarbiyasi shug‘ullanganligi sababli unga hamma fanlar ko‘maklashishi tabiiydir.

Pedagogika adabiyotlarni o‘rganish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiruvchi, mutafakkir va ma’rifatparvar pedagogik olimlarning asarlari, Mustaqil O‘zbekistonning iqtisodiy, siyosiy va ma’naviyatiga doir adabiyotlar, O‘zbekiston Prezidenti I.A. Karimov asarlari, tadqiqot mavzusiga doir darslik, monografiya, risola va maqolalar, tadqiqot mavzusiga doir pedagogik, psixologik tadqiqotlar, dissertatsiyalar o‘rganiladi.

Kuzatish adabiyotlarni o‘rganishdan keyin boshlanadi. Kuzatishda tadqiqotchi biror maqsadni ko‘zda tutib tashkil etadi. Kuzatish rejalashtiriladi, uning dasturi tuziladi. Bunda kuzatish tezligi, soni, manzili, vaqt, vaziyatni kuzatish, materiallarni qayd qilish muddati belgilanadi. Kuzatish muddatiga ko‘ra ikki turga ajaraladi: qisqa va uzoq muddatli kuzatish. Qisqa kuzatish obyektning kundalik faoliyatidagi o‘zgarishlardan ma’lum xulosaga kelish. Uzoq muddatli kuzatish-qo‘yilgan maqsad, reja va dastur asosida olib borilib, ma’lum ilmiy, yakuniy xulosaga kelinadi. Kuzatishning yakunini qayd qilishda kinos’yomka, video yozuvi, televideniya va boshqa texnik vositalardan foydalanish mumkin. Kuzatish metodidan to‘g‘ri foydalanish o‘quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi. Yangi ijodiy faoliyatga boshlaydi.

Tadqiqot mavzusining biror tomoni yoki hodisalari haqida bilib olish maqsadida ma’lum mas’ul shaxslar bilan og‘zaki savollar berilib, ulardan axborot olish jarayonidir. So‘roqlar mavzu doirasida mantiqan, mazmunli, tartibli, aniq ifodasiga ega bo‘lishi lozim va uni to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligiga qarab jadval tuzib natijasi aniqlanadi. Suhbat metodi jarayonida intervyyu olish ham mumkin.

Pedagogik eksperiment har qanday ilmiy-pedagogik tadqiqotning asosidir. Pedagogik eksperiment yordamida ilmiy gipotezalarning ishonchliligi tekshiriladi, pedagogika tizimlarining ayrim elementlari o'rtasidagi bog'liqlik va munosabatlar aniqlanadi. Tabiiy eksperiment va laboratoriya eksperimenti pedagogik eksperimentning asosiy turlari hisoblanib, ular ko'pgina turlarga bo'linadi. Tabiiy eksperiment sharoitida yangi o'quv rejalar, dasturlar, darsliklar va hokazolar odatdagи o'quv rejimini buzmay turib tekshiriladi. Pedagogik eksperiment – bu ham kuzatish, lekin u pedagogik jarayonning o'tish sharoitlarini muntazam o'zgartirish munosabati bilan maxsus tashkil etilgan bo'ladi. Pedagogik jarayon aniqroq o'rganish uchun eksperimentator o'zi tashkil etgan jarayonni kuzatadi. U pedagogik jarayoniga aralashadi, tarbiyalanuvchilar bilan tarbiyachi faoliyatining muayyan sharoitlarini yaratadi. Pedagogik eksperiment dastlabki ma'lumotlarni, aniq sharoitlarni va o'qitish usullarini yoki tadqiq qilinadigan materiallarni aniq belgilashni, shuningdek, eksperiment natijalarini har tomonlama hisobga olishni talab etadi. Laboratoriya pedagogik eksperiment ilmiy tadqiqotning ancha qat'iy shaklidir. Juda keng pedagogik kontekstdan uning muayyan tomoni ajratib olinadi, natijalarini aniq tekshirib borishga va o'zgaruvchan kattaliklar o'rnini almashtirishga imkon beradigan sun'iy sharoit yaratiladi. Quyidagilar pedagogik eksperimentning bosqichlari hisoblanadi: eksperimentni rejorashtirish, eksperiment o'tkazish va natijalarini sharlash. Rejorashtirish eksperiment maqsadi va vazifasini belgilash, eksperiment natijasi ta'sir etuvchi omillar va ular darajasining miqdorini aniqlashni, kerakli kuzatishlar soni, eksperiment o'tkazish tartibi, olingan natijalarini tekshirish metodlarini o'z ichiga oladi. Eksperimentni tashkil etish va o'tkazish belgilangan rejaga qat'iy amal qilgan holda

olib borilishi kerak. Sharhlash bosqichida ma'lumotlar yig'iladi va qayta ishlanadi. Eksperiment o'tkazish ishonchlilik tamoyiliga javob berish uchun quyidagi shartlarga rioya qilish kerak, ya'ni:

- 1) Tekshiruvchilar soni va tajribalar miqdorining optimal bo'lishi.
- 2) Tadqiqot metodlarini ishonchliligi.
- 3) Farqlarning statistik jihatdan ahamiyatliligini hisobga olish.

Turli metodlarning o'zaro qo'shib olib borilishi pedagogika tadqiqotlarning samaradorligini va sifatini oshirishga imkon beradi. Bunga matematika metodlarining hamda hisoblash-yechish qurilmalari yordamidagi eksperiment natijalarining pedagogikaga kirib kelishi ham yordamlashadi. Odatda, o'rtacha arifmetik miqdor, modda, merdiana, dispersiya, tanlab olinadigan to'plam majmuuning o'rtacha kvadratik chetga chiqishi, o'rtacha olingan qiymat xatosi, belgilarni tuzatish koeffitsiyentlari hisoblab chiqiladi. Ilmiy tadqiqot natijalarini amalda qo'llanishi. Tugallangan tadqiqotda eng muhim narsa uning natijalarini amalda qo'llashdir. Mustaqil O'zbekiston sharoitida yangi ilmiy bilimlar juda tez to'planib bormoqda. Biroq ularni amaliy ishga joriy etish yo'lida qiyinchiliklar ham borligi ko'zga tashlanmoqda.

### **Tarbiya jarayonida quyidagi holatlar yuzaga keladi.**

1. Insonning ma'naviy o'sishi sodir bo'ladi, muhitda stixiyali ta'siri bera olmaydigan sifatlar shakllanadi. Masalan, bola o'z ona tilini atrofni o'rab turgan muhitning ta'sirida o'rganib olishi mumkin. Lekin o'qish va yozishni maxsus ta'lim yo'li bilangina o'rganadi. Ma'lum bilim, ko'nikma va malakalar faqat tarbiya jarayonida egallanadi.

2. Tarbiya yordamida hatto kishining ba'zi tug'ma kamchiliklarini ham ijobjiy tomonga o'zgartirish mumkin. Chunonchi

ba'zi bir bolalar ayrim kamchiliklar bilan tug'iladi (kar, ko'r, soqov va hokazo). Lekin maxsus tashkil etilgan tarbiya yordamida ularning aqli to'la taraqqiy qiladi, tug'ma kamchiligi bo'limgan kishilar bilan barobar faoliyatda bo'lishi mumkin.

3. Tarbiya inson faoliyatining istiqbol maqsadini belgilaydi. Shu bois, u shaxs kamolotini ta'minlashda yetakchi rol o'ynaydi.

Tarbiyaning muvaffaqiyati ko'p jihatdan bola shaxsining o'ziga xos xususiyatlari, u istiqomat qilayotgan muhitning ta'sirini hisobga olishga bog'liqdir. Shuni yodda tutish kerakki, bola majbur bo'lgan mikro muhit mazmunini uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi kishilar va ular bilan o'rnatilgan aloqa mohiyatini belgilaydi. Bola oila a'zolari, tarbiyachi, o'qituvchi, o'rtoqlari, oilaga yaqin kishilar bilan munosabatda bo'ladi. Ushbu aloqalar bolaning rivojlanishida g'oyat muhim rol o'ynaydi. Bolaga ularning ta'siri orqali muomalada bo'ladi. Ana shu muomala asosida bola ajdodlar tajribasini o'zlashtiradi, o'zi uchun andoza tanlaydi.

Bola shaxsining rivojlanishi uchun faol kundalik faoliyat zarur. Faoliyat yordamidagina bola atrof-muhit bilan munosabatni tashkil etadi, shu orqali uning bilish qobiliyati rivojlanadi, xarakter sifatlari takomillashib, kamol topadi.

Insonning kamol topish jarayonini faqat irlisyat, ijtimoiy muhit va ta'lim-tarbiyaga bog'lab o'rganish, talqin qilish ham haqiqatga unchalik to'g'ri kelmaydi. Chunki ijtimoiy taraqqiyotda shaxsning o'zi ham faol ishtirok etadi. Aytish mumkinki, ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiya – shaxsning o'zi faol ishtirok etgandagina uning tug'ma layoqatini uyg'otadi, iste'dod, qobiliyatlarini o'stira oladi. Agar kishi o'z ishini sevsa, uning shu sohadagi iste'dodi tezroq va kuchliroq ro'yobga chиqa boshlaydi.

Yetuk siymolar hayotini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ularning ijodiy faoliyatlaridagi asosiy narsa uzluksiz izlana bilish, oylab, yillab o'z oldilariga qo'yilgan maqsad uchun intilish, kurashish, unga yetish yo'llarini izlashdan charchamaslik maqsadga erishish yo'lidagi muhim omildir. Shuning uchun har bir o'qituvchi o'zining pedagogik faoliyati davrida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga ularning o'z oldiga maqsad qo'yish va uni ro'yobga chiqarish, tinmay izlanish va mehnat qila olish qobiliyatlarini, kuchli iroda va qat'iy xarakterni tarbiyalab borishlari lozim.

Tabiiyki, o'quvchilarning o'z maqsadlariga erishishlari uchun maktabda olgan bilim, ko'nikma va malakalari kamlik qiladi. Ular yuksak maqsad yo'lida o'z ustilarida tinmay izlanishlari, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishlari lozim.

Shaxsning shakllanishida unga berilayotgan ta'lim-tarbiyaning mazmuni, metodlari va vositalari bolaning yosh xususiyatlariga muvofiq bo'lishi muhim sanaladi. O'qituvchi o'quvchilarning ruhiy xususiyatlari bilan birga yosh xususiyatlarini ham bilishi, ma'lum yoshdagi o'quvchilarning diqqat, xotira, tafakkur layoqatlarini inobatga olish asosida faoliyat tashkil etish lozim. Shaxsning aqliy va jismoniy kamolotida doimo ilgariga qarab rivojlanish ro'y beradi. Bolaning jismoniy va ruhiy kamoloti qaror topib borar ekan, bir qancha bosqichlarni bosib o'tadi.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» o'zining ilmiy asoslanganligi, noyobligi va ertangi kunga – XXI asrga mo'ljallanganligi bilan hayotimizda o'z o'rmini topdi, dunyo hamjamiyati tomonidan tan olinib o'rganilmoqda, targ'ib etilmoqda.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining g'oyasi, maqsadi, fikrlar qamrovi teranligi bilan katta ijtimoiy ahamiyatga egadir.

Mazkur dastur, uni ro‘yobga chiqarish omillari jamiyatda zamonaviy ta’limning yuksak qadriyatlarini anglab yetish hissini yuzaga keltiradi. Bu qadriyatlar barkamol shaxsni shakllantirishga, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga o‘z ijobjiy ta’sirini o‘tkazmoqda va bu jarayon takomillashib boraveradi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat» g‘oyasiga asoslanadi va unga xizmat qiladi. Mustaqil shaxsni shakllantirish jarayoni uzoq va murakkab bo‘lib, bir tomondan, barcha davlat tuzilmalari hamda ijtimoiy tashkilotlarning va ayniqsa, ta’lim tizimi mazmunining takomillashtirilishini, ikkinchi tomondan esa bevosita ushbu masalani amalga oshirishni ta’minlovchi yagona tarbiya tizimini barpo etish lozimligini taqozo etadi.

Fikrimizcha, bu jarayonda kadrlar tayyorlashning yaqin istiqboldagi vazifalari quyidagilardan iborat:

**birinchidan**, erkin tafakkur qila oladigan shaxsni mustaqillik va demokratiya g‘oyalariga sodiq bo‘lgan ongli fuqaroni, o‘z vatanining jonkuyari sifatida ijtimoiy-siyosiy hayotga ongli ishtirok etishga, ijtimoiy jarayonlarga faol ta’sir ko‘rsatishga, mamlakat taqdiri uchun zimmasiga mas’uliyat ola olishga qodir shaxsni kamol toptirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

**ikkinchidan**, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga, tub ma’nodagi fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish ishiga demokratiya asoslarini joriy etish jarayonlarini jadallashtirish, tafakkur va bahslashish madaniyatini rivojlantirish, shaxsning ichki dunyosini boyitish, binobarin, yangicha ijtimoiy qadriyatlar va munosabatlarni shakllantirishdir. Shuningdek, yosh avlodga yangicha ong shakllanishi uchun barcha shart-sharoit yaratilmog‘i kerak.

Bolalar va o'quvchi yoshlarning ongida milliy g'oyani shakllantirish hozirgi pedagoglarning muhim vazifasidir.

Shu bois, haqiqiy pedagog bugun nafaqat bilim doirasi keng mutaxassis, balki yuksak madaniyatli, bolalar va o'smirlar bilan hamkorlikda ishlashda ijodkor inson bo'lishiga erishish lozim.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar: o'zbek xalqi va davlatchiligi tarixi; badiiy, falsafiy, pedagogik tafakkurning shakllanishi, etnografiya, etnogenez, adabiyotshunoslik, san'atshunoslik va boshqa fanlar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar saviyasini tubdan o'zgartirish, yangi pog'onaga ko'tarish, pedagogika yo'naliشining yangi ta'limoti, mazmuni, mohiyatini yaratish, yangi ilmiy maktabni barpo etish taqozo etiladi. Tarixiy merosni yangi zamonaviy metodologik asosda o'ргanuvchi yosh olimlarni tayyorlashning prinsipial yangi ilmiy maktabini yaratish; bolalar va yoshlar uchun ilmiy ommabop va axborotma'lumot adabiyotlarni nashr etish bo'yicha muhim ishlar amalga oshirilishi zarur.

Ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirishni ta'minlash:

Ta'lim tizimini insonparvarlashtirishning asosiy yo'naliшlari – yosh avlodning bilim va qobiliyatlarini har tomonlama o'stirish, ularni umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, shaxs, jamiyat va borliq munosabatlarini uyg'unlashtirish, o'quvchi va murabbiy orasidagi masofani «Ustoz va shogird» munosabatlari asosida shakllantirish.

Ta'limni insonparvarlashtirish – yosh avlodga boy estetik hissiyat, yuksak ma'naviyat, madaniy va ijodiy tafakkurni shakllantirish va har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashning ustuvor yo'naliшlarini o'z ichiga olgan ta'limtarbiya dasturlarini takomillashtirish nazarda tutiladi. Bunda, o'quvchida mustaqil shaxsni tarbiyalash, unda bilim olish

madaniyatini shakllantirish, shaxsiy va ijtimoiy faolligini oshirish, mustaqil fikrlash hamda shaxsiy g'urur, ishonch kabi xislatlarni hosil qilishga alohida e'tibor berilishi kerak.

Barkamol shaxs kamol topishi ko‘p jihatdan uning kasbiy madaniy munosabatlari tarkib topishi bilan bog‘liq. Kasbiy madaniy munosabatlarning iqtisodiy, siyosiy, diplomatik va boshqa munosabatlardan o‘ziga xos bo‘lgan jihatni shundaki, bu munosabat asosan axloqiy, aqliy, mehnat, kasbiy, nafosat, ekologik va boshqa tarbiya turlaridan sintezlanadi.

Barkamol shaxs kasbiy-madaniy munosabatlarining shakllanishida samimiylilik muhim o‘rin tutadi. Samimiyl insonlargina o‘z kasbini chin dildan seva oladi. Bunday insonlar shaxsiy burchini yaxshi anglaydi. O‘z lavozimini suiiste‘mol qilmaydi. Kasbini sevadi va ardoqlaydi. O‘qituvchilik kasbida uchrashi mumkin bo‘lgan har qanday qiyinchiliklarni yengib o‘tishga o‘zini bag‘ishlaydi. Bunday kasb egalari fidoiy, imon-e’tiqodli bo‘ladi. O‘z yurtini, ona-diyorini dildan yaxshi ko‘radi. Kasbini ardoqlagan, bilimdon insonlar, albatta, madaniyatli bo‘ladi.

Kasbiy-madaniy munosabatlar umuminsoniy munosabatlarining tarkibiy qismi hisoblanadi va ular izchillikda shakllanadi hamda rivojlanadi. Kasbiy-madaniy munosabatlar o‘qituvchi faoliyatining asosiy quroli hisoblanadi. Kamolotga yetishuv o‘quvchining o‘z-o‘ziga, tengdoshlariga, yoshi kattalarga va mahalla ahliga bo‘lgan munosabatlari jarayoni, uning yoshi va individual xususiyatlari hamda oila, mакtab va jamoatchilik hamkorligida olayotgan tarbiyasi va ta’limi bilan bevosita bog‘liq. O‘quvchi yoshlarning kelajak orzusi biror g‘oyaga asoslansagina hayotiy va umrboqiy bo‘lishi mumkin. Shuning uchun bosh g‘oyamiz – «O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat» bo‘lishi orzusi, har bir shaxs manfaatiga, kasbiy-madaniy faoliyat mezoniga aylanib bormog‘i lozim. Kasbiy-

madaniy munosabatlar zamirida axloqiy poklik, mehnat va mehnatkash insonlarga to‘g‘ri munosabat, madaniy saviya va kasbiy iftixor turadi. Kasbiy-madaniy yetuk shaxsning tuzilmasini: mehnatsevarlik, halollik, samimiylilik, milliy g‘urur, sodiqlik, kamtarlik, mehribonlik, kasbiy ma’sullik. Bilimdonlik, ijodkorlik, tashabbuskorlik va tashkilotchilik kabi xislatlar tashkil etadi.

Milliy g‘oyani shakllantirishdagi muhim yo‘nalishlardan biri bolalar va yoshlar uchun o‘quv-metodik, ilmiy ommabop va badiiy adabiyotlarning yangi avlodini yaratishdir. Mavjud adabiyotlarga har taraflama ilmiy baho berish orqali xalqimizning boy ijtimoiy-madaniy, tarixiy an’analari, urfodatlari va umuminsoniy qadriyatlarni o‘zida aks ettiradigan kitoblar, o‘quv qo‘llanmalar, badiiy adabiyotlarni yaratish zarur. Bu ishga ilm-fan, madaniyat va san’at sohasida eng ko‘zga ko‘ringan namoyondalarni jalb etish zarur.

Milliy tariximiz va umumbashariy taraqqiyot rivojiga unutilmas hissa qo‘shtan olim ulamolarning mafkura va uning jamiyat hayotidagi ahamiyati haqida qoldirilgan ilmiy merosi, falsafiy qarashlarni har tomonlama o‘rganish va targ‘ib etish darkor.

Yosh avlodni milliy g‘oya, milliy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, shubhasiz, jismoniy va ruhiy salomatlikni mustahkamlash, sog‘lom turmush kechirish asoslarini shakllantirishni nazarda tutadi. Yosh avlodga hayotiy faollik, axloq, insonparvarlikning yuksak g‘oyalarini tarbiyalash – jismoniy tarbiya va sportning shakllari, uslub va vositalarini qo‘llashning ustuvor vazifalari bo‘lishi kerak.

To‘liq ishonch bilan aytish mumkinki, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining amalga oshirilishi, jamiyatda yangi ong, yangi tafakkurga ega bo‘lgan, milliy istiqlol g‘oyasi negizida shakllangan shaxsning tarbiyalanishi mustaqilligimizni mustahkamlashda asosiy poydevor bo‘ladi.

Buyuk allomalarimiz barkamol shaxsni tarbiyalashning turli omillarini jahon pedagogikasi tarixida birinchi bo‘lib turli yo‘llar bilan amalga oshirish uslublarini ko‘rsatib berishgan, jumladan, Ibn Sino jismoniy tarbiya va tan sihatligiga erishish orqali, al-Forobiy aqliy tarbiya orqali komil insonni tarbiyalash mumkinligini asoslagan. Bizning tadqiqot yuzasidan amalga oshirayotgan izlanishlarimizni ta’bir joiz bo‘lsa, al-Forobiy ta’limotini yanada rivojlantirishga qaratilgan tadbir sifatida qabul qilish mumkin.

Muammoning yechimi sifatida olinadigan natijalarning ilmiy yangiligini ta’minalash maqsadida pedagogika tarixi va nazariyasida shaxs sifatlarini tarbiyalash muammoosining tadqiq etilganlik darajasi belgilab olindi.

Kadrlar tayyorlash Milliy modeli asosiy tushuncha va tamoyillarini talqin qilish, ularni amaliyatga tatbiq qilish jarayonlarini ilmiy o‘rganish, o‘zgartirish uslublari majmuasi sifatida barkamol-ijodkor shaxsni shakllantirishning metodologiyasi asoslab berildi, metodologiya tushunchasiga xos bo‘lib kelgan nazariylik amaliylik bilan bog‘lanadi.

Tadqiqotimizning metodologik asosi sifatida qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» hamda milliy g‘oya va mafkura asosida barkamol shaxsni uning ijodkorlik sifatlarini rivojlantirish asosida tarbiyalashning pedagogik texnologiyasi tushunchalari shakllantirildi.

Erishilgan natijalar tadqiqotni keyingi bosqichda muvaffaqiyatli davom ettirish uchun muhim asoslarni yaratib berdi.

## **5.2. Uzluksiz ta’limni insonparvarlashtirish jarayonida barkamol avlod tarbiyasiga ahamiyat berish**

O‘zbekistonda milliy mustaqillikni mustahkamlash va qat’iy qaror toptirish nihoyatda murakkab tarixiy va ijtimoiy-

siyosiy vaziyatlarga to‘g‘ri kelmoqda. Fuqarolar ongi va dunyoqarashini, ruhiyatini eskicha qarashlardan, boqimandalik, tashabbussizlik, mute’lik, qaramlik kabi illatlardan soqit etish, tozalash yana ham murakkab ijtimoiy muammodir. Bu darajada ulkan va keng miqyosli tadbirdarni jamiyat hayotining barcha jabhalarida bosqichma-bosqich, bir tekisda uyg‘un va izchil amalga oshira borish uchun yangi zamon talablariga javob bera oladigan, yangicha ong va dunyoqarashga ega bo‘lgan, erkin, ijodiy va mustaqil fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalab yetishtirish eng muhim vazifalarimizdan biridir.

Prezidentimiz Islom Karimovning «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida...» kitobida mamlakatimiz va davlatimiz oldida turgan bunday ulkan vazifani hal qilishning yo‘l-yo‘riqlarini quyidagicha ko‘rsatib bergan edi: «O‘tish davrining keskin ijtimoiy muammozi ko‘p kishilar uchun qaror topgan turmush tarzining buzilishidan, hayotiy mo‘ljallarning, fikrlash tarzi, ijtimoiy fe'l-atvor, boqimandalik kayfiyatining o‘zgarishidan iborat. O‘tish davrida odamlarning tafakkur yuritish psixologiyasi o‘zgaradi, bu esa ayonki, hamma vaqt ham oson kechavermaydi.

Xalqimizning ma’naviy boyliklarini, jahon sivilizatsiyasi eng yaxshi yutuqlarini o‘zida mujassamlashtirish bugunning eng muhim vazifasidir. Faqat ana shu asosdagina, oldimizga qo‘ygan yuksak maqsadlar barchamiz uchun hayotimizning mazmuniga aylanib qolgandagina millatning ongli vatanparvarlik ruhini yuksaltirib, rivojlangan ilg‘or mamlakatlar kabi taraqqiyot yo‘lidan ildam qadam tashlash imkonи tug‘iladi»<sup>24</sup>.

Bu vazifalar, o‘z navbatida, nafaqat iqtisodiy, siyosiy sohalarda, balki shu bilan birgalikda, ma’naviy-ma’rifiy sohalarda ham, xususan, uning tarkibiy qismi bo‘lgan ta’lim-tarbiya tizimida

---

<sup>24</sup> I.A.Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida. T.: 2000, 215-bet.

ham chuqur islohotlar o'tkazilishini taqozo etmoqda.

Davlat va jamiyatni boshqarishning sobiq sho'rolar davriga xos bo'lgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimida ta'lim-tarbiya sohasi o'zining insonparvarlik tabiatidan ancha uzoqlashgan, milliy-madaniy qiyofasidan mahrum etilgan, tarixiy ildizlardan ajratilgan, «yo'qsillar baynalmilalchiligi» shiori ostida sinfiylashtirilgan va mafkuralashtirilgan edi. Ana shunday muhitda tarbiya topgan «soviet kishisi» – ma'naviy olami qashshoq, mutelik va qaramlikka mahkum, erkin va ijodiy fikrplashdan, mustaqil harakat qilish va faoliyatidan mahrum, boqimanda, tutqun bir kimsa edi. Shu bilan birga, bunday hukmni sovet jamiyatining yuz foiz aholisi uchun birday taalluqli edi, demoqchi emasmiz. Har holda, oz bo'lsa-da, kommunistik mafkuraga, hammani bir qolipda va birday fikrplashga majburlash siyosatiga chap berib, mustaqil fikrlaydigan, milliy urf-odatlar va an'analarni, milliy qadriyatlarni ardoqlaydigan, jamiyatda kechayotgan salbiy hodisalar haqida tanqidiy fikrlar ayta oladigan odamlar ham bor edi. Ular orasidagi dadil kurashchilar ham chiqib turardi. Biroq sovet mafkurasi, kommunistik partiya bundaylarni «boshqacha fikrlovchi», «maslagi boshqa» degan ayblar bilan qoralab, tezda tanobini tortib, ovozini o'chirib qo'yari edi: ta'qib ostiga olar, badarg'a qilar, ishsiz qoldirar... xullas ko'zini ochirmas, o'z holiga qo'ymas edi.

Prezidentimiz tomonidan O'zbekistonga yangi tipdag'i jamiyatni demokratiyaga asoslangan, adolatli, huquqiy, fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsadida ishlab chiqilgan islohotlarning besh tamoyili mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirish tadbirlarini ham o'z ichiga oladi. Mustaqil, erkin va ijodiy fikrlovchi barkamol shaxsni tarbiyalash, uning zamon talablariga to'la javob beradigan yuqori malakali mutaxassis kadr va ma'naviy-axloqiy jihatdan

uyg'un rivojlangan komil inson bo'lib shakllanishi davlatimiz siyosatining ustuvor yo'naliishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Barkomol avlod shaxsni voyaga yetkazish ma'naviy-mafkuraviy jarayonlarning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini ishlab chiqish, unda jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirish, milliy ma'naviyat va umuminsoniy qadriyatlarini milliy g'oyada uyg'unlashtiruvchi maxsus idoralar faoliyatiga zaruriyatini kuchaytirishga, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining ma'naviyat va ma'rifat sohasidagi ishlarini «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazlari, uning qoshidagi bo'limlari bilan uzviy aloqalarini tiklagan holda ma'rifiy targ'ibot kengashlarini tuzish tashabbuslarini o'rtaga tashlamoqdamiz.

O'zbekistonda yoshlarni, milliy – mafkuraviy tarbiyalashning nazariy, uslubiy, amaliy asoslарини ishlab chiqish va joriy qilish barkamol avlodni voyaga yetkazishning omillaridan ekanligini ta'kidlash mumkin. Yoshlarni jamiyat hayotidagi va milliy taraqqiyotimizdagi o'rni va mavqeini yanada yuksaltirish – mustaqil siyosatimizning uzviy qismidir. Shu sababli, I.A.Karimov farzandlarimizning barkamol ruhiy dunyosi uchun, ularning ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, jismoniy sog'lom bo'lishi uchun doimiy qayg'urish, kurashish zarurligini ta'kidlab kelmoqdalar.

Shu bilan birlgilikda 1999-yil 16-fevral voqealari ishtirokchilari yoshlar ekanligidan va milliy istiqboli manfaatlaridan kelib chiqqan holda Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dasturni amalga oshirish yangi avlodni kamol toptirishga qaratilgan zarur tuzatishlar darkorligi, bu yoshlarimizni bizga yov mafkuralar hujumlaridan himoya qilish lozimligi ko'rinib turibdi.

Talaba-yoshlarda insonparvarlik fazatlari, eng avvalo, ularning o'zidan katta yoshdagilar – ota-onasi, yaqinlari,

o‘qituvchilar va boshqalar bilan bo‘lgan munosabatlari orqali shakllaňib, so‘ng tengqurlari bilan munosabatlarda takomillashadi. Shu ma’noda insonparvarlik shaxs ta’rifi va tavsifining bosh mezoni sifatida, uning shaxs ruhiyatida vujudga kelish, shakllanish va taraqqiy etish jarayonlari va qonuniyatlarini o‘rganish yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda, ularning har tomonlama uyg‘un taraqqiy etishlarini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bu o‘rinda uzluksiz ta’limni ham insonparvarlashtirish muhim vazifadir. Ta’limni insonparvarlashtirish yo‘nalishlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- avtoritar pedagogikadan hamkorlik pedagogikasiga o‘tish, o‘zaro muloqot madaniyatini yuksaltirish, o‘qituvchi va talabalarning ruhiy-psixologik moslashuvini takomillashtirish, ta’lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish;
- ta’lim-tarbiya jarayonlarining qo‘shib olib borilishiga e’tiborni kuchaytirish, insonga shaxs sifatida va jamiyatning eng yuksak qadriyati sifatida yondashib, uning manfaatlari va huquqlarining ustuvorligiga diqqat-e’tiborni qaratish;
- ijtimoiy ishlab chiqarish tizimida inson faoliyatining ahamiyatini, o‘tmishdagi va hozirgi zamondagi milliy madaniyatning insonparvarlik qiymatini ochib ko‘rsatish;
- bo‘lajak mutaxassislarda gumanitar tafakkurning ma’naviy-ruhiy qadriyatlarini shakllantirish, asl ziyolilikni qayta tiklash;
- imon-e’tiqodning sustligiga, ma’naviy tubanlikka nisbatan befarq qaramaslikni keng yoyish va tarbiyalash;
- ma’naviyat inson dunyoqarashining asosini tashkil etishini uqtirish, axloqning kishi ongini shakllanishidagi muhim o‘rnini e’tiborga olish.

– ma’naviyati va axloqi mukammal bo‘lmagan kishi – yaxshi mutaxassis va vatanparvar bo‘la olmasligini anglab yetishini ta’minalash;

– berilayotgan bilimlarning o‘zi orqali, fanlarni o‘qitish vositasida tarbiyalashni yo‘lga qo‘yish, bilimlarning tarbiyaviy kuchi, ta’siri va ahamiyatini oshirish;

– estetik tarbiya va badiiy ta’limning turli-tuman vositalaridan foydalanish orqali ularning sifati va samaradorligini, salmog‘ini yuksaltirish;

– gumanitar ta’limning uslub va shakllarini, mazmuni va mohiyatini tubdan o‘zgartirish;

– siyosiy madaniyatni, jamiyat oldidagi hamda o‘z faoliyati uchun mas’uliyatni, javobgarlik hissiyotlarini tarbiyalash;

– huquqiy munosabatlар tizimiga va kasb faoliyatning huquqiy me’yorlariga oid bilimlarni o‘zlashtirish, huquqiy madaniyatni shakllantirish;

– ona tili va chet tillarini mukammal bilish;

– bilimlarni mustaqil va muntazam egallab borish ko‘nikmalarini hamda mehnat tarbiyasini takomillashtirish;

– yoshlarni tarbiyalash yo‘l-yo‘riqlari, usullari, shakllari va vositalarini tubdan o‘zgartirish, bu tizimni tegishli nazariy, ilmiy va amaliy qo‘llanmalar bilan ta’minalash;

– ta’limni (gumanitarlashtirish) insonparvarlashtirish;

– o‘quv yurtlarida pedagoglarning, professor-o‘qituvchilarning o‘z kasbiga munosabati, layoqati masala-larini jiddiy o‘rganib chiqish va tegishli tadbirlarni amalga oshirish;

– o‘quv yurtlarida, keyingi yillarda erkak o‘qituvchi-pedagoglar sonining kamayib ketayotganligi, buning natijasida intizom va tarbiya ishlari susayganligini e’tiborga olib ish tutish;

– o‘qituvchi-pedagoglarning moddiy ta’minoti masalasini qayta ko‘rib chiqish va jiddiy ravishda yaxshilash;

– o‘quvchi-yoshlarning xulq-atvori va umumta’lim majmui tarkibiga kiruvchi bilimlari shakllanadigan asosiy muhitni – oila, maktab va boshqa ta’lim-tarbiya muassasalarini, joylarni bugungi kunda talaba shaxsiga, bilimlari va qobiliyatiga qo‘yilayotgan talablarga muvofiq darajada takomillashtirish; nomukammal asoslarga va amaliy tarkiblarga qurilgan har qanday mustahkam ustqurmaning ham umri qisqaligi va samarasizligini e’tiborga olib, oila, bog‘cha, maktab, o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy maktab o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash va bular vositasida ta’lim-tarbiyaning uzluksiz tizimini vujudga keltirish;

– respublikaning barcha hududlarida – shahar, tuman va qishloq joylaridagi turli bosqichdagi (boshlang‘ich, umumta’lim, o‘rta maxsus va oliy) o‘quv yurtlarida ta’lim-tarbiya sifatini yaxshilash, joylardagi xo‘jalik rahbarlarining o‘quv yurti jamoasini qishloq xo‘jaligi va boshqa ishlarga o‘zboshimcha jalb etishiga, ularga past nazar bilan qarash hollariga barham berish;

– o‘quv yurtining obro‘sni va nufuzini har jihatdan oshirish, yoshlarning zarur bilimlarni yetarli darajada egallashlari uchun qulay sharoit yaratish;

– o‘quvchilarda kasb-hunarga, ilm-fanga yoshlikdan qiziqish, intilish va zo‘r ishtiyoq uyg‘otish, ularning o‘z iqtidori va imkoniyatlariga, qobiliyatiga yarasha kasb tanlashlariga o‘z vaqtida yordam berish;

– ta’lim tizimi boshqaruvini iste’dodli yosh mutaxassislar hisobiga boyitish, kadrlarni tanlash va joylashtirishda test-reyting tizimlaridan unumli foydalanishni keng yo‘lga qo‘yish;

– ma’naviy-axloqiy jihatdan kamol topgan va davr talablariga to‘la javob beradigan yuqori malakali mutaxassis qiyofasining ilmiy tadqiq etilgan modeli va oliy o‘quv yurtida

uni tayyorlashning aniq uslubiyoti, andozasini ishlab chiqish va joriy etish;

– oliv o‘quv yurtlariga qabulni test-reyting tizimida o‘tkazishni yanada takomillashtirish; abiturientning ma’naviy-axloqiy sifatlari va psixofiziologik imkoniyatlarini aniqlovchi testlardan ham foydalanish;

– xorijiy sarmoyalar ishtirokida qurilayotgan korxonalarda ishlay oladigan mutaxassislarni o‘zimizda yoki chet ellarda yetarli darajada tayyorlashga erishish; chet eldan ishchi kuchi kirib kelishiga zarurat tug‘dirmaslik tadbirlarini ko‘rish.

Talabalarda gumanistik tafakkur shakllanishining asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Boshlang‘ich (tafsiliy-bayoniy) bosqich – talabalarni bilimlarning, jumladan, gumanitar bilimlarning asosiy negizlari bilan tanishtirish, ularning ijtimoiy ahamiyatini bayon etish, bilimlarni toifalashtirish yo‘llarini o‘zlashtirishga erishish, asosiy maxsus fanlarni o‘rganish jarayonida ong va dunyoqarash belgilari hamda yo‘nalishlarining shakllanishini ta’minalash.

2. Yuqori (mantiqiy-umumlashgan, ilmiy anglangan) bosqich – talabalarda bir butun dunyoqarashning shakllanishi, o‘zini qurshagan olam (tabiat va jamiyat) ning mohiyati va qonuniyatlarini hamda tabiiy-ilmiy, texnik va ijtimoiy fanlarning o‘zaro aloqalari va o‘zaro ta’sirini ta’lim jarayonida tushunishini o‘z ichiga oladi.

Uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimining yuqoridagi har bir qismi, unga uyushgan jamoalarning faoliyati insonparvarlik yo‘nalishida borishi uchun, avvalo har bir murabbiy malakali mutaxassis va imon-e’tiqodli komil inson bo‘lishi shart. Uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimi insonparvarlik yo‘nalishida shakllannishi uchun unda ishlayotgan kadrlar yuqori malakali, ma’naviy olami boy, axloqiy pok bo‘lishi uchun davlat

tomonidan zárur tadbirlar belgilanib amalga oshirilmoqda. Jumladan, avvalo ularning moddiy tur mush sharoitini yax-shilash ilmiy-madaniy saviyasi izchil oshib borishi uchun g‘amxo‘rlik qilish tadbirlari ko‘rilmogda. Toki ular yoshlar uchun eng yuksak namuna-ideal kishilar bo‘lib qolmog‘i lozim.

Ta’lim-tarbiyaga eski mafkuraviy yondashish qoliplariga barham berish, bu tizimning o‘z-o‘zidan samarali ishlashi uchun boshqarishning eski ma’muriy-buyruqbozlik usuli va an’analaridan ongli ravishda uzil-kesil voz kechish zarur. Ta’limni boshqarishning ma’muriy-buyruqbozlik usuli bu tizimni o‘z-o‘zidan boshqarilishiga yo‘l qo‘ymaslikka asoslangandir. Bunga ko‘ra, biroz yuqoriroq mahkama xodimining aytgan gapi, farmoyishi, o‘zidan quyida turgan mahkama xodimi uchun qonundek qabul qilishi lozim edi. Ya’ni qonunni bajarishdan ko‘ra topshiriqni, farmoyishni bekamu ko‘st bajarashiga qarab kadrlar işhiga baho berilgan. Bunday munosabatlarda, albatta, volyuntarizm(irodalilik) qaror topib, majburiy itoatkorlik ruhi ta’lim tizimining g‘ayriinsoniy yo‘nalish olishiga sharoit tug‘diradi. O‘z-o‘zidan boshqarilish tizimida esa har bir pog‘ona o‘z funksiyasini anglashi va uni qay daraja bajarishiga erishish muhimdir. Yangi tizimda ma’muriy-buyruqbozlik o‘rnini o‘z funksiyasini a’lo darajada bajarishdan moddiy manfaatdorlik va qoniqish hissi egallashi lozimdir.

Bozor munosabatlarining qaror topishi uchun har bir sohada, jumladan, ta’lim-tarbiya tizimida ham o‘zaro sog‘lom raqobat bo‘lishi insonparvarlikni ro‘yobga chiqarish omillaridan biridir. Buning uchun bog‘cha bolasining ijodiy faoliyatidan tortib maktab, litsey, kollej o‘quvchilari, OTM talabalarining bilimini baholashning reyting tizimiga uzil-kesil o‘tish va uning o‘quv-moddiy bazasini mustahkamlash darkor. Bilimni baholashning to‘rt ball (a’lo, yaxshi, qoniqarli, yomon)

tizimi o‘zini oqlamadi, o‘quvchi va talabalar erkini bo‘g‘ib, ularning ijodiy fikr yuritishlariga monelik qildi. Baholashning reyting tizimida o‘quvchi-talabalar faolligini oshirish, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va insonparvarlikni amalda ro‘yobga chiqarish vositasi sifatida qarash shunday baholovchi markazga ehtiyoj tug‘diradi. Baholashning reyting tizimi talablarini bilmaslik, uning tamoyillariga izchil amal qilmaslik joylarda o‘zboshimchalikni yuzaga keltirib qo‘yishi mumkin. Shuning uchun bog‘cha bolalari, o‘quvchilar va talabalar bilimini baholashning reyting tizimiga uzil-kesil o‘tish va Respublika markazini tashkil etish zaruriyati paydo bo‘lmoqda. Ayni chog‘da bog‘cha tarbiyachilari, maktab o‘qituvchilarining bog‘cha va maktabdan tashqari ishlari, OTM professor-o‘qituvchilarining auditoriyadan tashqari ishlarni ham reyting tizimi bo‘yicha baholash va rag‘batlantirishga o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Bilimlarning va faoliyatni baholashning hozirgi mavjud tizimi ularning ishiga baho berish va munosabat belgilashda subyektizmga va volyuntarizmga yo‘l ochadi. Tarbiyachi va o‘qituvchining o‘z vazifasiga nechog‘lik munosabatda bo‘layotganini aniqlaydigan mezon yo‘q. Shuning uchun ko‘pgina joylarda o‘qituvchining har kuni 8 soat ish joyida bo‘lishi ularning ishini baholash mezoni bo‘lib qolayaptiki, bu ilmiy-pedagogik ishlar rivoji va takomili uchun katta bir g‘ovdir. Chunki o‘qituvchilik, tarbiyachilik ijodiy ish ekani bu uslubga ko‘ra hisobga olinmaydi. Ta’lim va tarbiya bilan shug‘ullanuvchilarning darsdan va auditoriyadan tashqari ishlarini baholashning reyting tizimiga o‘tilsa, ular o‘rtasida sog‘lom raqobat, musobaqadoshlik muhiti yuzaga keladi. Ta’lim-tarbiyada sog‘lom raqobatni yuzaga keltirish uchun xususiy bog‘chalar sonini ko‘paytirish, xususiy maktab va oliyohlar tizimini yaratashni jiddiy o‘ylab ko‘rish maqsadga

muvofiqdir. Talim-tarbiyaning qaror topgan mavjud an'anaviy, ijobiy jihatlarni saqlab qolgan holda Sharq pedagogikasi va ta'lim metodikasini o'rganish va uning eng yaxshi jihatlarini hayotga tatbiq etish choralarini ko'rish muhimdir. Chunki Sharq pedagogikasi va metodikasi inson ma'naviy olamini munavvar etishga, unda jamiyat oldidagi mas'uliyatni chuqur his etgan holda fe'l-atvor va faoliyat mazmunini belgilashga asoslangan. O'qituvchi-o'quvchi munosabatlarida ustoz-shogirdlik munosabatlarini qaror toptirishda tasavvuf falsafasi va amaliyotidan ijodiy foydalanish ham zarur.

Shuni ta'kidlash o'rinniki, ko'pgina o'quv rejalar, dasturlari va ularga asoslanib yozilgan qo'llanmalar, darsliklar, o'quv-uslubiy ishlanmalarda Yevropaparvarlik ruhi sezilarlidir. Bunday ruhiyat, eng avvalo, bilimlarni, malakalarni ma'naviy-axloqiy mazmundan holi, qilib taqdim etishda ko'rindi va har qalay bilimlarni har kimga beraverishni qoida darajasiga ko'taradi. Bilim va malakaning tarbiyaviy ahamiyatini deyarli yo'qqa chiqaradi. Yangi yozilayotgan o'quv dasturlari, qo'llanmalar va darsliklarida ham bu kabi kamchiliklar uchraydi. Binobarin, ta'lim-tarbiyani milliy zaminda rivojlantirish ana shu qusurni tezroq bartaraf etishga yordam beradi.

Shuningdek, ijtimoiy-gumanitar fanlarni, ularning mazmuni va vazifalaridagi o'zaro yaqinlikka muvofiq ravishda birlashtirib, yiriklashtirish insonshunoslikdir. Masalaga bunday yondashuv ijtimoiy-gumanitar fanlarning son jihatdan tobora ko'payib borishiga va buning oqibatida yuzaga kelgan o'rinsiz takrorlanishlarga barham berish bilan birga, ta'lim-tarbiya jarayonlarning sifat jihatdan ham yaxshilanishiga ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'zaro umumlashtiruvchi nazariy-metodologik tamoyillari, ularning boshqa fanlar xususan aniq va tabiiy fanlar bilan chegaradosh va chatishgan jihatlari

to‘g‘risida ko‘proq yangi ma’lumotlar ustida ishlash imkoniyatlari tug‘ilgan bo‘lar edi va bunga keng yo‘l ochilardi.

Uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimining insonparvarlik yo‘nalishda shakllanishida ijtimoiy-gumanitar fanlarning alohida o‘rni va roli bor. Shuning uchun barcha ta’lim muassasalarida ularni o‘qitadigan kadrlar har jihatdan o‘z sohasining bilimdoni va mohir pedagog, shuningdek, hamkorlik pedagogikasini, ta’limning yangicha, zamonaviy texnologiyalarini mukammal egallagan bo‘lishga erishish kerak.

Ta’lim-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirishda bu sohadagi xalqaro aloqalar, ilg‘or jahon tajribalarini, xorijiy gumanitar ta’lim yutuqlarini, ilg‘or texnologiya va madaniyatni keng qo‘llash, oliy ta’lim xodimlarining xalqaro madaniyma’rifiy va ilmiy aloqalarini kengaytirish, YUNESKO va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish va mustahkamlashni taqozo etadi.

Ta’limni insonparvarlashtirishda ta’lim va tarbiya yo‘nalishi inson ma’naviy olamini go‘zallashtirish va ruhini poklashning muhim vositalaridan biri sifatida qaralishi va munosabat belgilanishi lozim. U tashkiliy, uslubiy, huquqiy-me’yoriy, pedagogik, psixologik tadbirlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Bunday tadbirlar majmui tabiiy-ilmiy va texnik bilimlar doirasiga kirib borishini ta’minalashga, tafakkurning sohaviy texnokratik tarzi bilan cheklanmasdan, bo‘lajak kasb egalari, mutaxassislarning keng miqyosli (falsafiy) tafakkur tarzi ham qaror toptirilishida asosiy e’tibor qaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, har bir gumanitar ijtimoiy-iqtisodiy fan fidoiylari o‘z oldilariga quyidagi maqsad va vazifalarni qo‘yishlari kerak bo‘ladi:

### ***Asosiy maqsad:***

1. Umumiy o'rtalim mакtabalarida ona tili va ma'naviyat asoslari darslarida ta'limgi insonparvarlashtirish usullarini yaratish, yoshlarga insonparvarlikni singdirish.
2. O'rtalim maxsus, kasb-hunar kollejlarida o'qitilayotgan gumanitar ijtimoiy-iqtisodiy fanlarni o'qitish jarayonida ta'limgi insonparvarlashtirish usullarini ishlab chiqish.
3. Oliy ta'limgi muassasalarida o'qitilayotgan gumanitar ijtimoiy-iqtisodiy fanlarni o'qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishda ta'limgi insonparvarlashtirish usullarini vujudga keltirish.
4. O'sib kelayotgan barkamol avlodni mustaqil fikr yuritishi uchun insonparvarlik malakalarini rivojlantirish.

### ***Dolzarb vazifalar:***

1. Barkamol avlodni tarbiyalashda uzlucksiz ta'limgi insonparvarlashtirish usullarini ilmiy-metodik jihatdan asoslash bilan birga uzlucksiz ta'limgi tizimidagi ona tili, o'zbek tili, ma'naviyat asoslari, pedagogika fani o'qituvchilariga nazariy hamda amaliy yordam berish maqsadida qator tavsiyalar yaratish.
2. O'quvchi-talabalarning milliy g'oya bo'yicha dunyoqarashlarini, insonparvarlik his-tuyg'ularini ta'limgi jarayonida qo'llay olishga bo'lgan qiziqishlarini amalga oshirish, ta'limgi insonparvarlashtirishga o'rgatish uchun amaliy ishlarni bajartirish dasturini tatbiq qilish.
3. Barkamol avlodni tarbiyalashda uzlucksiz ta'limgi insonparvarlashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan usullarning samaradorligini tajribada tekshirish.
4. O'quvchi-talabalarning insoniy fazilatlarini dunyoqarashini, milliy g'oyalari asosida insonparvarlashtirishga erishilsa;

- uzluksiz ta’lim insonparvarlashtirish usullari maqsadga muvofiq tarzda ishlab chiqilsa;
- barkamol avlodni tarbiyalashda ta’limni insonparvarlashtirishni to‘g‘ri yo‘naltirishga to‘sinq bo‘ladigan asosiy sabablar o‘z vaqtida aniqlansa;
- taqdim etilayotgan, dastur, darslik, o‘quv qo‘llanmlarining davlat ta’lim standartlariga mos metodik tomondan talab darajasida bo‘lishligiga erishilsa;
- ko‘zda tutilganidek, uzluksiz ta’lim tizimidagi o‘quvchitalaba yoshlarning dunyoqarashi, insonparvarlik his tuyg‘ulari to‘g‘ri rivojlanib boradi, degan ilmiy xulosaga kelindi.

## **Foydalanaligan adabiyotlar**

1. I.A.Karimov Hushyorlikka da'vat. O'zbekiston Milliy axborot agentligi muxbirining savollariga javoblar. – T.: «O'zbekiston», 1999, 24–25-betlar.
2. I.A.Karimov O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. – T.: 1997, 215-bet.
3. I.A.Karimov Yuksak malakali mutaxassislar taraqqiyot omili. T.: «O'zbekiston», 1995, 23-b.
4. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. – T.: «Sharq» nashriyoti, 1997, 44-bet.
5. I.A. Karimov O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. – T.: «O'zbekiston», 1999, 12–13-bet.
6. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar (qisqa izohli tajribaviy lug'at). O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat. T.: «Yangi asr avlod», 2002.
7. M.Sharifxo'jayev. O'zbekiston: yangi g'oyalar, yangi yutuqlar. – T.: «Sharq» nashriyoti, 2004, 259-bet.
8. E.Vohidov «Hikmatnoma». – T.: 1990. 3-bet.
9. Sh.Qurbanov Mustaqillik poydevori. «Xalq ta'limi» jurnali. 2003, №5. 4–13-betlar.
10. Barkamol avlod orzusi. – T.: «Sharq», 1998, 144-b.
11. O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish (Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlар konsepsiysi). – T.: «Sharq», 2000. 327-b.

12. M.Quronov O‘zbekiston umumiy o‘rta ta’lim mакtabларida milliy tarbiyaning ilmiy-pedagogik asoslari: Ped. fan. dok. dis. – T.: 1998. 316-b.
13. O.Hasanboyeva Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi. – T.: 1996. 91-b.
14. K.Hoshimov, S.Nishonova, M.Inomova, R.Hasanov Pedagogika tarixi. – T.: «O‘qituvchi», 1996. 448-b.
15. M.Quronov Yoshlarni milliy mafkuraviy tarbiyalash – texnologik masala // «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ni amalga oshirish sharoitida yosh avlodni ma’naviy tarbiyalash shakl va usullari» mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – T.: 2001.
16. «Pedagogika» darsligi, prof. A.Munavvarovning tahriri ostida, o‘quv qo‘llanma. – T.: «O‘qituvchi», 1996.
17. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. 2 jildli. Tuzuvchi-mualliflar Komiljon Hoshimov, Safo Ochil. – T.: «O‘qituvchi», 1999. 480-b.
18. M.G.Davletshin va boshqalar. Qobiliyat va uning diagnostikasi. – T.: «O‘qituvchi», 1997. 134-b.
19. А.Э.Измайлова Народная педагогика: педагогические воззрения народов Средней Азии и Казахстана. – М.: Педагогика, 1991. 256-с.
20. U.I.Mahkamov O‘quvchilarining axloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari. – T.: FAN, 1995. 200-b.
21. E.Yusupov Inson kamolotining ma’naviy asoslari. – T.: Universitet, 1998. 184-b.
22. Bo‘ri Ziyomuhhammadov. Ilm hikmati. T.: «Tibbiyat» nashriyoti, 1999.
23. M.Abdullayeva O‘smirlarni oilaviy hayotga ma’naviy tayyorlashning ijtimoiy pedagogik shart-sharoitlari (milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarini o‘qitish misolida) 13.00.01. ped.f.n. il.dar.olish uchun yoz.diss. T.: 2004. 132-b.

24. O.N.Ibodullayeva Kichik yoshdagи o'quvchilarda insonparvarlik g'oyasini shakllantirishning pedagogik asoslari. 13.00.01. ped. f.n.il.dar.olish uchun yoz.diss. NavoiyDPI, 2004. 141-b.
25. X.Ibragimov va boshqalar. «Pedagogika» pedagogika institutlari uchun uslubiy qo'llanma, NavDPI, 2004. 230-b.
26. N.E.Jumayeva Umumiy o'rtalimni insonparvarlash-tirishda o'qitish tamoyillari va metodlarining o'zaro aloqadorligi. 13.00.01.ped.f.n.il.dar.olish uchun yoz.diss. Qarshi, 2005. 162-b.
27. G.X.Ibragimova Kasb ta'limida talaba yoshlar ma'naviyatini milliy istiqlol g'oyasi asosida shakllantirish. 13.00.01. ped.f.d. il.dar.olish uchun yoz.diss. ToshDPU, 2005. 231-b.
28. B.Sh.Mirzalimov Milliy istiqlol g'oyasini shakllantirishning pedagogik asoslari (Kamolot yoshlarning ijtimoiy harakati faoliyati misolida) 13.00.01. ped.f.n.il.dar.olish uchun yoz.diss. – T.: O'zPFITI, 2005. 159-bet.
29. Z.Q.Ismoilova Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy va eksperimental metodik asoslari (milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar asosida) 13.00.06. ped.f.d.il.dar.olish uchun yoz.diss. – T.: 2006.
30. Гуманитаризация (5 стр. на [www.oim.ru](http://www.oim.ru)). Гуманизация и гуманитаризация образования. И.В.Бестужев-Лада, Российская академия образования. 2000.
31. Гуманитаризация (6 стр. на [www.oim.ru](http://www.oim.ru)). Педагогика как наука и как учебный предмет: Тезисы докладов международной научно-практической конференции (26-28 сентября, 2000 г.).
32. Гуманитаризация образования в изучении иностранных языков в техническом вузе // инновационные методы преподавания иностранных языков: межвузовский

сборник научно-методических трудов. – Тюмень: Вектор Бук, 1998. - Вып. 1. – С. 8–9.

33. Ценностный потенциал базового образования в духовно-нравственном воспитании учащихся: Монография // Т.И.Петракова. Институт общего образования МО России. – М. ОИМ.РУ. -40 ел.с. - 11,5 авт.л. 2000.

34. Российская педагогическая енциклопедия. В 2 т. Москва, 1993. Т. 1. С. 239.

35. Иванова Т.А. Гуманитаризация общего математического образования. Н.Новгород, 1998, С.206.

36. Гуманизация и гуманитаризация содержания образования направлены именно на «Распредмечивание» знаний. МО России. - А.Н.Леонтьева, 1997, С.6.

37. Гуманистические идеи отражены в психологической теории личности. МО России. – А.Н.Леонтьева и С.Л. Рубинштейна, 1981.

38. О концептуальных идеях «Человекознания». МО России. – Б.Г.Ананьева, 1977.

# M U N D A R I J A

## I. KIRISH

1.1. Uzluksiz ta'lim tizimini insonparvarlik yo'nalishida shakllantirishning asosiy maqsadi va vazifalari.....	3
1.2. Uzluksiz ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning borishi.....	15

## II. UZLUKSIZ TA'LIM-TARBIYA TIZIMINI INSONPARVARLASHTIRISHNING TAMOYILLARI

2.1. Ta'lim va tarbiya nazariyasining ta'limni insonparvarlashtirish bilan bog'liqligi.....	24
2.2. Uzluksiz ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash usullari.....	30
2.3. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda ta'limni insonparvarlashtirish usullari.....	39
2.4. Uzluksiz ta'limni insonparvarlashtirishning tarbiya turlari bilan uzviy bog'lash va funksiyalarini ifodalash.....	53

## III. «MA'NAVIYAT ASOSLARI» O'QUV KURSILING TA'LIMNI INSONPARVARLASHTIRISHGA QARATILGANLIGI

3.1. «Ma'naviyat asoslari» o'quv kursining ta'limni insonparvarlashtirishga ajaratilgan namunaviy dasturi (bakalavriat bosqichi uchun) .....	96
3.2. Amaliy mashg'ulotni tashkil etish namunalari.....	97

## **IV. MILLIY G‘OYA ASOSIDA UZLUKSIZ TA’LIMNI INSONPARVARLASHTIRISHNING AHAMIYATI**

4.1. Uzluksiz ta’limni milliy g‘oya asosida insonparvarlashtirish texnologiyasi.....	133
4.2. Milliy g‘oya va mafkurani yoshlar qalbi va ongiga singdirishning pedagogik muammolari...	154
4.3. «Milliy g‘oya» o‘quv kursini modullashgan dastur asosida o‘qitishda insonparvarlashtirish usullari	160

## **V. XULOSA**

5.1. Uzluksiz ta’lim tizimida barkamol ijodkor shaxsni tarbiyalash.....	170
5.2. Uzluksiz ta’limni insonparvarlashtirish jarayonida barkamol avlod tarbiyasiga ahamiyat berish..... <b>Foydalilanilgan adabiyotlar .....</b>	199 213

# **СОДЕРЖАНИЕ**

## **I. ВВЕДЕНИЕ**

1.1. Основные цели и задачи гуманизации непрерывного образования .....	3
1.2. Роль и место духовно-просветительских работ в системе непрерывного образования..	15

## **II. ПРИНЦИПЫ ГУМАНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ**

2.1. Связь гуманизации образования с теорией образования и воспитания.....	24
2.2. Методы воспитания гуманизма в процессе непрерывного обозования.....	30
2.3. Методы гуманизации образования в преподавании социально гуманитарных наук.....	39
2.4. Обеспечение связи гуманизации непрерывного образования с различными видами восприятия и функционального определения.....	53

## **III. НАПРАВЛЕНИЕ УЧЕБНОГО КУРСА «ОСНОВЫ ДУХОВНОСТИ» В ГУМАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ**

3.1. Типовая программа по использованию учебного курса «Основы духовности» в гуманизации образования (для бакалавриата).....	96
------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	----

3.2. Методы проведения практических занятий по курсу .....	97
------------------------------------------------------------	----

#### **IV. РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ИДЕИ НАЦИОНАЛЬНОЙ НЕЗАВИСИМОСТИ В ГУМАНИЗАЦИИ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

4.1. Технология гуманизации непрерывного образования на основе национальных идей.....	133
4.2. Педагогические проблемы внедрения национальной идеи и идеологии в сознания молодежи.....	157
4.3. Метод гуманизации обучения в преподавании курса «Идея национальной независимости» на основе модульной системы.....	160

#### **V. ЗАКЛЮЧЕНИЕ**

5.1. Воспитание гармонично развитой творческой личности в системе непрерывного образования.....	170
5.2. Необходимость акцентирования внимания на воспитании гармонично развитого поколения в процессе гуманизации непрерывного образования.....	199
<b>Список литературы.....</b>	<b>213</b>

## **C O N T E N T**

### **I. INTRODUCTION**

1.1. The basis purposes and tasks of the humanize of the continuous education.....	3
1.2. Role and place of spiritually-educational works in the system of the continuous education.....	15

### **II. PRINCIPLES OF HUMANIZATION OF THE SYSTEM OF CONTINUOUS EDUCATION AND UPBRINGIND**

2.1. Connection of humanizing of the education with the theory of upbringing and education.....	24
2.2. Methods of upbringing of the humanism in the process of continuous education.....	30
2.3. Methods of the humanize of the education in teaching humane studies.....	39
2.4. Maintenance of connection of humanization of the continuous education and various kinds of upbringing.....	53

### **III. VALUE OF A TRAINING COURSE «THE BASIS OF SPIRITUALLY» IN HUMANIZATION EDUCATION**

3.1. The typical program on usage of atraining course of «The Basic of spirituality»in humanize upbringing (for bachelors). .....	96
3.2. Technique of carrying out of practical employment in teaching of the course.....	97

#### **IV. ROLE AND VALUE OF VOLEA OF NAYIONAL INDEPENDENCE OF HUMANIZATION OF THE CONTINUOUS EDUCATION**

4.1 Technology of humanize of the continuous education on basis of idea of national independence.....	133
4.2. The pedagogical problems of introductin of national idea and ideology In conseiousness of youth.....	157
4.3. Methods of humanization of education in teachind of the course «Idea of national idependence» on the basis of a modular educational system.....	160

#### **V. CONCLUSION**

5.1. Upbringing of harmoniously developed creative person in system of the continuous education.....	170
5.2. Necessity of accentuation of attention on education of harmoniously developed generation during of huma-nization of the continuous education.....	199
<b>References.....</b>	213

**MANZURA HAMDAMOVA**

**MA'NAVIYAT ASOSLARI**

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2008

Muharrir:	M. Mirkomilov
Tex. muharrir:	A. Moydinov
Musahhih:	M. Hayitova
Sahifalovchi:	G. Arifxo'jayeva

Bosishga ruxsat etildi: 10.08.08. Qog'oz bichimi 60x80<sup>1</sup>/<sub>16</sub>.  
«Times New Roman» garniturasi. Ofest usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog'i 14,5. Nashr bosma tabog'i 14,0.  
Tiraji 1000. Buyurtma № 114.

«Fan texnologiyalar Markazining bosmaxonasi»da chop etildi.  
700003, Toshkent sh., Olmazor ko‘chasi, 171-uy.

ISBN 978-9943-10-126-5



9789943 101265